

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ ВА ЎРТА
МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ**

**ЎЗБЕКИСТОН ДАВЛАТ ЖАҲОН ТИЛЛАРИ
УНИВЕРСИТЕТИ**

“ТАСДИҚЛАЙМАН”

Инглиз тили 1-факультети декани

Мадраҳимов Т.А. _____

ТИЛШУНОСЛИККА КИРИШ

фанидан

МАЪРУЗАЛАР МАТНИ

(5120100 - Филология ва тилларни ўқитиш (тиллар бўйича)

5120200 - Таржима назарияси ва амалиёти (тиллар бўйича)

йўналишларининг I босқич талабалари учун

ТОШКЕНТ-2015

“Тилшуносликка кириш” фани бўйича маърузалар матни филология ва тилларни ўқитиш йўналишлари бўйича ўқув дастури ва ўқув режасига мувофиқ ишлаб чиқилди.

Тузувчилар:

Маджидова Р.У. – Умумий тилшунослик кафедраси мудири,
филология фанлари номзоди, доцент

Мухитдинова Х.С. – Умумий тилшунослик кафедраси
профессори, педагогика фанлари доктори

Султонова Ш.М. – Умумий тилшунослик кафедраси
катта ўқитувчиси

“Тилшуносликка кириш” фани бўйича маърузалар матни инглиз тили 1-факультетининг 2015 йил ____ августда факультет Кенгашида муҳокама қилинган ва тасдиқланган.

МУНДАРИЖА

- 1-маъруза.** Кириш. Фаннинг мақсад ва вазифалари. Тил – энг муҳим алоқа воситаси ва ижтимоий ҳодиса. Тилнинг келиб чиқиши. Тилларнинг ўзаро муносабатлари**4-21**
- 2-маъруза.** Фонетика ва фонология. Нутқнинг фонетик жиҳатдан бўлиниши. Фонетик товуш ўзгаришлари. Фонема ва унинг вариантлари. Нутқ товушлари таснифи.....**22-43**
- 3-маъруза.** Лексикология ва унинг бўлимлари. Сўз - асосий тил бирлиги сифатида. Сўзларда маъно тараққиёти. Сўзларнинг шакл ва маъно муносабатига кўра турлари. Тилнинг лексик қатламлари ва бойиш манбалари**44-66**
- 4-маъруза.** Грамматика – тилларнинг тузилишини ўргатувчи фан сифатида. Грамматик маъно, грамматик категориялар ва грамматик воситалар. Сўз туркумлари таснифи.....**67–86**
- 5-маъруза.** Синтаксис сатҳи ва синтактик бирликлар. Сўз бирикмаси ва унинг боғланиш турлари. Гап. Гапнинг актуал бўлиниши..... **87 -105**
- 6-маъруза.** Ёзув ва унинг ривожланиш босқичлари. Ёзувнинг махсус турлари.....**106 –125**
- 7-маъруза.** Тиллар таснифи. Тилшуносликда қиёсий-тарихий метод. Тилларнинг генеологик ва типологик таснифи.....**126 - 141**
- 8-маъруза.** Тилшунослик фани тарихи. Қадимги ҳинд, грек, араб ва ўрта асрлар тилшунослиги**141-163**
- 9-маъруза.** Тилнинг ривожланиш қонуниятлари. Тилшуносликнинг бошқа фанлар билан алоқаси. Тилшуносликда замонавий йўналишлар.....**164-182**

**1-МАЪРУЗА: Кириш. Фаннинг мақсад ва вазифалари.
Тил – энг муҳим алоқа воситаси ва ижтимоий ҳодиса.
Тилларнинг келиб чиқиши ва ўзаро муносабатлари.**

Режа:

1. Тилшунослик фанининг ўрганиш объекти.
2. Тилшуносликнинг асосий тармоқлари.
3. Тил – ижтимоий ҳодиса.
4. Тилнинг пайдо бўлиши
5. Тилларнинг ўзаро муносабатлари.

Мақсад: Тилшунослик фанининг предмети ва ўрганиш объекти, унинг асосий тармоқлари тўғрисида тасаввурни шакллантириш, тилнинг пайдо бўлиши ҳақидаги билимларини мустаҳкамлаш, тил бирликларининг ўзаро муносабати ҳақида тушунча ҳосил қилиш.

Тилшунослик фанининг ўрганиш объекти. Тилшунослик хусусий ва умумий тилшунослик соҳаларидан иборат. Хусусий тилшунослик маълум бир тилнинг луғат таркиби, фонетик системаси ва грамматик қурилиши, шунингдек, тарихий тараққиёт йўлларини ўрганарини ўрганади ва бир тилни ўрганиш билан шуғулланади. Умумий тилшунослик эса ундан фарқланган ҳолда, тилнинг келиб чиқиши, ижтимоий моҳиятини, жамиятдаги ўрни, вазифасини, тараққиёт йўлларини, тил билан тафаккурнинг бир-бирига узвийлигини, барча тилларнинг ўзаро муносабатини ўрганади ҳамда тилларни текшириш усулларини яратади. Умумий тилшунослик айрим тилларни ёки бир гуруҳ тилларни ўрганиш, текшириш натижасида аниқланган тил ҳодисаларини, тил далилларини умумлаштириб, умумий хулосалар чиқаради ва худди шу асосда тил қонуниятларини аниқлаб беради.

Демак, “Тилшуносликка кириш” фани тилнинг бошқа ҳодисалар ичида тутган ўрни, тузилиши, унинг тараққий этиш қонуниятларини, тил ҳақидаги фаннинг асосий тушунчаларини ўрганади, талабаларни тилшунослик фанида қўлланиладиган терминлар, тушунчалар тизими билан таништиради. Бу “Умумий тилшунослик” фанининг дастлабки босқичи бўлиб, мураккаб тил ҳодисалари ва уларнинг қонуниятларини тўғри англаб етиш, айрим бир тил, қариндош ва қариндош бўлмаган тиллар гуруҳларини бир-бирига солиштириб, тилнинг луғат таркиби, фонетик тизими ва

грамматик қурилишини илмий асосда чуқур ўрганиш учун назарий ва амалий жиҳатдан замин яратишга хизмат қилади.

“Тилшуносликка кириш” фани тилнинг пайдо бўлиши ва ривожланиши, тил ва тафаккур, тил ва жамият ўртасидаги муносабатлар, тилнинг жамиятдаги ўрни, ички тузилиши, тилларни таснифлаш, уни таҳлил этиш усуллари каби умумий масалаларни ҳам ўрганадиган фандир. Шунга кўра тилшунослик умумий тилшунослик ва хусусий тилшуносликка бўлинади. **Умумий тилшунослик** тил билан тафаккур, тилнинг келиб чиқиши, жамиятдаги ўрни, тараққиёт йўлларини, **хусусий тилшунослик** эса маълум бир тилнинг луғат таркиби, фонетик системаси ва грамматик қурилишини ўрганади.

Тилнинг пайдо бўлиши ва ривожланиши бевосита жамият ва унинг тараққиёти билан боғлиқ, чунки жамият тарихий тараққиёти жараёнида содир бўлган воқеа ва ҳодисалар тилда акс этмай қолмайди. Тилнинг пайдо бўлиши ҳам бевосита жамият билан боғлиқ. Айти пайтда жамият, ундаги воқеа-ҳодисалар, унинг ривожланиши тилда акс этади. Шу туфайли жамият тарихини ўрганишда жамиятшунослар, тарихчилар лисоний далилларга мурожаат қилсалар, тилшунослар эса, ўз навбатида, тилларнинг келиб чиқиши ва ривожланиш босқичларини ўрганишда тарих фанига мурожаат қиладилар.

Шунингдек, тил тилшуносликдан ташқари фалсафа, мантиқ, жамиятшунослик ва бошқа фанлар томонидан ҳам ўрганилади. Маълумки, тафаккурда дахлдор масалалар мантиқ илмида ўрганилади. Тил ва тафаккур бир-бири билан узвий боғланган, бири иккинчисисиз яшай олмайдиган ҳодисалардир, чунки тафаккур тилда яшайди, ҳар қандай нутқ асосида эса тафаккур ётади. Шу туфайли мантиқ илмида тафаккур қонуниятлари билан бирга, фикрнинг тилда акс этиши ўрганилиши табиий.

Булардан ташқари тилшунослар тилга оид масалаларни ҳал қилишда этнография, антропология, география, физика, физиология, психология, математика ва бошқа фанларга оид материаллар ва хулосалардан ҳам фойдаланадилар. Кўринадикки, тил фақат тилшунослик эмас, балки бошқа фанларнинг ҳам ўрганиш соҳаси сифатида намоён бўлади ва бунда ҳар бир фан ўзига тааллуқли объектларни, мавзуларни ажратиб олади.

Ўрганиш соҳаси нуқтаи назаридан тилшунослик икки катта гуруҳга ажратилади:

1. Макролингвистика (катта тилшунослик)

2. Микролингвистика (кичик тилшунослик)

Макролингвистика тил ҳодисаларини кенг миқёсда бошқа фанлар билан биргаликда ўрганади. Макролингвистика тилнинг пайдо бўлиши ва ривожланиш босқичлари, тилнинг тараққий этиш қонуниятлари, тилнинг

ижтимоий моҳияти, тил ва тафаккур муносабатлари, тил ва бошқа сигнал системалари ўртасидаги муштараклик ва фарқли жиҳатлар, тилнинг тарқалиши каби масалаларни ўз ичига олади. Микролингвистика эса тилнинг ички тузилишини, фонетик, лексик ва грамматик ҳодисаларни ўрганиш билан шуғулланади.

Ушбу йўналишлар асосида тилшуносликнинг қуйидаги **тармоқлари** юзага келган:

1. Экстралингвистика социоллингвистика ва менталингвистикани ўзида бирлаштирадиган, тилни ижтимоий ҳодиса сифатида ўрганувчи фандир. Бунда социоллингвистика тилнинг табиати ва ижтимоий вазифасини, менталингвистика эса тил ва тафаккур, тилнинг мазмун томонини ўрганади.

2. Интралингвистика тилнинг ички тизимини, унинг бирликлари ва категориялари, тилнинг яруслари ҳамда уларнинг тузилишини ўрганади. Фонология, лексикология ва грамматика интралингвистиканинг асосий бўлимлари ҳисобланади.

3. Компаративистика қиёсий-тарихий тилшунослик сифатида ҳинд - европа тилларининг фонетикаси ва морфологиясини қиёсий ўрганиш асосида пайдо бўлди. Қиёсий тилшуносликда ареал лингвистика, тилларни генеологик ва типологик таснифлаш масалалари ҳам ўрганилади.

4. Коммуникатив лингвистика тилни алоқа-аралашув воситаси сифатида ўрганадиган, тил ва нутқ, уларнинг муносабати, унинг жамиятдаги асосий вазифаси ва ўрни масалалари билан шуғулланадиган соҳадир. Til kishilik jamiyatidagi asosiy ijtimoiy hodisa sifatida kommunikativ, ekspressiv va akkumulyativ vazifalarni bajaradi.

“Kommunikativ” soʻzi rus tilidan olingan lingvistik atama boʻlib, “fikr almashuvga oid” degan maʼnoni ifodalaydi. Kishilarning oʻzaro aloqa-aralashuvda oʻz fikr-mulohazalarini, istak-xohishlarini, ichki kechinmalarini ifoda etib, bir-birlariga axborot yetkazishlari, yaʼni tilning jamiyatda aloqa vositasi funksiyasini bajarishi uning **kommunikativ vazifasi** hisoblanadi.

“Ekspressiv” soʻzi latincha soʻz boʻlib, asl maʼnosiga koʻra “kuchaytirilgan” demakdir. Bu atama tilshunoslikka koʻchma maʼnosi bilan kirgan boʻlib, “kuchli hissiy obrazlilik xususiyati” degan maʼnoni ifodalaydi. Tilning asosiy vazifasi kommunikativ funktsiya boʻlsa-da, biroq kishilar aloqa-aralashuv jarayonida bildirilayotgan fikrga yoki tinglovchiga yetkazilayotgan axborotga oʻzlarining turli tipdagi hissiy-taʼsiri, yaʼni emotsional munosabatlarni ham qoʻshib ifodalaydilar. Bu hodisa, yaʼni tilning suhbatdoshga taʼsir koʻrsatish xususiyati uning **ekspressiv vazifasi** deyiladi. Emotsional munosabatlar suyish, erkalash, nafrat kabi insonga xos boʻlgan qator jihatlarni qamrab oladi.

Til faqat kishilar o`rtasidagi aloqa vositasi bo`lmay, millatlararo, davlatlararo aloqa quroli hamdir. Bundan tashqari til kishilik jamiyatida asrlar davomida to`plangan tajriba va bilimlarni kelajak avlodga yetkazish uchun ham xizmat qiladi. Tilning bu xususiyati uning **akkumulyativ** vazifasidir ("akkumulyativ" lotincha "to`plash" demakdir). Tilga xos bo`lgan akkumulyativ vazifa ba`zi lingvistik adabiyotlarda tilning gnoseologik funksiyasi deb ham yuritiladi.

Тил энг муҳим алоқа воситаси. Тил кўп қиррали мураккаб ходиса. Тилнинг бу хусусияти олимлар томонидан унга берилган турлича таърифларда ҳам кўзга ташланади:

"Тил тафаккурни ифода қилувчи ишоралар мажмуидир"(Ф.Де Соссюр).

"Тил - одам онгининг иштирокисиз, унинг ташқи дунёга нисбатан бўлган механик ҳаракатидир» (Л.Блумфилд).

"Тил фикрни ифода қилишга мўлжалланган, талаффуз қилинадиган, чегараланган товушлар мажмуидир" (Б.Гроссе).

Ушбу фикрлар, гарчи бир-бирини тўлдирса ҳам, уларнинг бирортаси тилнинг тўлиқ таърифи бўла олмайди, чунки улар тилнинг ижтимоий моҳиятини очиб беролмайди. Шунини ҳам айтиб ўтиш зарурки, тил ижтимоий жиҳатдан шунчаки алоқа воситаси бўлибгина қолмай, ўзига хос хусусиятларга ҳам эга.

Тил ҳақиқатан ҳам ишоралар тизими, бироқ у ниҳоятда кенг қамровли бўлиб, барча ишоралар ўрнида қўллана олади. Тилни инсон ўз фаолиятининг барча соҳаларида бемалол ишлата олади. Хусусан, тилнинг ҳам оғзаки (товуш тили сифатида), ҳам ёзма (ёзма нутқ) шаклларга эгаллиги тилнинг ишлатилиш кўламини ниҳоятда кенгайтириб юборган. Бошқа алоқа воситаларининг ишлатилиш кўлами чекланган, масалан, кўча ҳаракати белгилари асосан ҳайдовчилар ва йўловчиларга хизмат қилади, бошқа ерда ишлатилмайди. Демак, тил ўзига хос ишоралар системаси, яъни семиологик система тарзида жамиятдаги энг муҳим алоқа қуроли, жамият тафаккурининг тараққий этишини таъминловчи, авлоддан - авлодга маданий-тарихий меърос ва анъаналарни етказувчи восита хизматини ўтайди.

Тилдан бошқа барча сигналлар системалари сунъийдир. Улар инсонлар томонидан яратилади ва шароитга кўра ўзгартирилиши мумкин. Сунъий воситаларнинг яратилишида барча инсонлар эмас, балки мазкур соҳани яхши билувчи кичик бир гуруҳ иштирок этади. Тил эса одамларнинг истак-хохишларига боғлиқ бўлмайди, уни жамият аъзолари ўз ихтиёрлари билан ўзгартира олмайди. Бошқа сигнал системалари тилга нисбатан иккиламчи, унга кўшимча восита сифатида намоён бўлади ҳамда, тилни тўлдиради.

Тил асрлар давомида жамиятга хизмат килади, уларнинг эҳтиёжларини тўла-тўқис бажаради. Тил мунтазам тараққиётдаги ўзгарувчан ҳодиса бўлса-да, у фақат ўзининг ички объектив қонунлари асосида ривожланади. Шу билан бирга шуни ҳам қайд қилиш керакки, жамият бўлмаса, тил бўлмайди, жамият тилни кундалик ҳаётида қўлламаса, у тил ривожланмайди. Демак, тил ва жамият доимо бир-бирини тақозо этади, лекин ҳар бири ўз қонуниятлари асосида ривожланади.

Тил фикр ва ҳиссиётларни ифода қилувчи восита, чунки у бир шахсдан иккинчи шахсга қуруқ ахборотнинг ўзинигина етказмасдан, балки гапирувчининг бу ахборотга муносабатини, унинг хоҳиш-истаги ва баҳоси, руҳий ҳолатини ҳам акс эттиради.

Тил – ижтимоий ҳодиса. Кишилиқ жамиятининг тарихий тараққиёти давомида жамиятининг асосий алоқа воситаси саналган тил ва унинг хусусиятлари борасида ҳар хил қарашлар вужудга келга. Маълум тоифа олимлар тилни ҳайвон, ўсимлик каби жонли нарсаларга ўхшатиб, тилни ҳайвон, ўсимлик каби табиатдаги тирик организм деб тушунганлар. Уларнинг фикрича, тил тирик организм сингари, табиат қонунларига итоат қилган ҳолда туғилади, ўсади ва тараққий қилади, сўнг эскириб, ўлади.

Маълумки, XIX асрда Ч.Дарвин таълимоти вужудга келиши билан бу назария қатор фанларга ўз таъсирини ўтказа бошлади. Албатта, тилшунос олимлар ҳам бу назария таъсирида тилни табиий восита сифатидагина эътироф этдилар (Мюллер, Шлейхер - немис тилшунослари).

Ушбу назария тарафдорлари Дарвин таълимотини тилшуносликка буришга интилдилар. Физиологик жиҳатдан тил умуртқа ҳайвонларга хос бўлган оғиз бўшлиғида жойлашган серҳаракат бир қисм. Бироқ ҳайвон тили таъм билиш, овқатланиш учунгина керак бўлса, кишиларда тил шу хусусиятлардан ташқари, кишиларнинг жамиятдаги алоқасини таъминлайди, яъни коммуникатив ижтимоий вазифани бажаради.

Инсоннинг табиий-биологик хусусиятлари кишилиқ жамиятидан ташқари, жамиятга боғлиқ бўлмаган ҳолда, масалан, янги туғилган гўдак ҳаётининг такомили (нафас олиши, кўриши, овқат ейиши, аста-секин юриб кетиши ва ҳоказолар) табиат қонунларига мувофиқ ҳолда тараққий этаверади, ўсаверади. Аммо тил бундай табиий ҳодиса эмас. Кишининг сўзлаши, фикрлай билиши учун жамият, кишилиқ жамиятининг бўлиши шарт (масалан, ҳайвонлар (бўрилар) орасида ўсган бола).

Шуни эътироф этиш зарурки, кишининг табиий-биологик хусусиятлари наслдан-наслга ўтиши мумкин, бироқ боланинг тили - сўзлаш хусусияти наслдан-наслга ўтмайди, ўзбеклар орасида яшаган немис боласи ўзбек тилида сўзлайди, бироқ унинг юз кўриниши, табиий ҳолати ўзбекларникига ўхшамаслиги аниқ.

Кўринадики, тил табиий-биологик ҳодиса бўлмай, кишилиқ жамиятининг энг муҳим алоқа воситаси сифатида жамиятга хизмат қилувчи синфга боғлиқ бўлмаган ижтимоий ҳодисадир. Шунга кўра қуйидаги хулосаларни қилиш мумкин:

- тил муайян жамиятда шаклланади, тараққий этади ва шу жамият учун хизмат қилади;

- тил табиий-биологик эмас, ижтимоий ҳодисадир;

- тил кишиларнинг табиий-ирқий белгиларига алоқадор бўлмайди;

- тил жамиятнинг маълум бир гуруҳ томонидан эмас, балки бутун жамият аъзолари томонидан яратилган ижтимоий ҳодиса саналади.

Тил маълум бир табақа, гуруҳлар учун хизмат қилмайди, жамият аъзолари учун баравар хизмат қилади. Тил орқали ифода этирилаётган маълум фикр тил ва тафаккурнинг ўзаро алоқада эканлигини намоён этади. Киши ўз фикр истагини тил орқали юзага чиқаради, бироқ фикр юрита олмайдиган киши сўзлай ҳам олмайди (албатта даража, савия бошқа масала).

Тафаккур билан тилнинг муносабати ўзига хос жараён дир. Ҳар қандай фикр муайян моддий қолипга тушмагунча, яъни сўз, гап орқали ифода этилмагунча юзага чиқмайди. Тил фикрнинг воқеланиши, намоён қилиниши дир. Фикр сўзлар орқали шаклланади, тилда ўзининг ифодасини топади. Шундай қилиб, сўз фикрни мужассамлаштиради, моддий шаклга солиб уни юзага чиқаради. Фикр мазмуни эса сўзлар воситаси билан таркибий қисмларга ажралади. Онгимизда пайдо бўладиган фикрнинг моҳиятини, мазмунини ташкил этадиган ҳар қандай идрок ёки тасаввур ҳам фақат сўзлар воситаси билангина воқеаланади.

Тил фақат инсонларга хос бўлгани каби, тафаккур ҳам фақат инсонларга хос бўлади. Тил ва тафаккур бир-бири билан чамбарчас боғлиқ бўлиб, тил тафаккурсиз, тафаккур тилсиз мавжуд бўла олмайди. Бироқ тил ва тафаккур бошқа-бошқа ходисалар бўлиб, тафаккур ташқи моддий оламнинг кишилар миёсида акс этишининг энг юксак шакли дир. Тил эса тафаккурни, фикрни муайян бир шаклга солади ва сўзлар орқали, гаплар воситасида ифодаланиши билан фарқланади.

Шунингдек, тил ва тафаккур бошқа-бошқа фан соҳаси сифатида ажратилади: тил лингвистиканинг, тафаккур мантиқ илмининг ўрганиш объекти дир. Уларнинг ўзаро тенг эмасликларини барча одамларнинг бир хилда фикр юрита олмасликлари билан ҳам кўрсатиб ўтиш мумкин. Худди шу фикрнинг исботи тарзида жамият аъзоларининг турли гуруҳлари мисолида уларнинг фикр юритиш, шунга кўра, сўзлаш даражасини бир-биридан фарқлаш мумкин:

- касбий нуктаи назаридан: ишчи ва сотувчи, шифокор ва қурувчи, олим ва шоир ва ҳ.з.;

- ёш нуқтаи назардан: болалар, ёшлар, кексалар;
- жинс нуқтаи назаридан: аёл ёки эркек;
- яшаш жойи нуқтаи назаридан: шаҳар ёки қишлоқ кишиси ва бошқалар.

Шунингдек, соқов инсонларнинг нутқи ҳам мавжуд бўлиб, уларни ўзаро боғловчи восита имо-ишоралардир.

Тилнинг пайдо бўлиши тўғрисидаги асосий фаразлар. Тилнинг пайдо бўлиши тўғрисида асосий фаразлардан бири товушга тақлид. Бу фараз қадимги Юнонистонда – Демокрит ва Платон даврида ўртага ташланган бўлиб, унга кўра ибтидоий одамлар ё онгли, ё онгсиз тарзда турли-туман товушлар, яъни ҳайвонларнинг бақириқлари, қушларнинг сайраши, шамол ва шаршараларнинг овозлари ва ҳоказоларга тақлид қилишга ҳаракат қилишган. Ибтидоий одамлар дастлаб айрим товушларни, кейинчалик бу товушларни бир-бирига қўшиб талаффуз қилишни ўрганишган: бу товуш ва товуш бирикмалари сўз яшашга асос бўлган, деган фикр илгари сурилади.

Товушга тақлид қилиш фарази. Ҳар бир тилда табиат товушларига тақлид қилиш йўли билан пайдо бўлган сўзлар, масалан, рус тилида кукушка, гавкать, шипеть (шипение), ўзбек тилида - қарға, шаршара, каклик, чумчуқ, миёв (миёвламоқ) сўзларининг мавжудлиги бундай фаразга асос қилиб олинган. Аммо бу сўзлар тилдаги сўзларнинг жуда камчилигини ташкил этади. Табиатда товуш чиқармайдиган нарсаларнинг сони товуш чиқарадиганларга нисбатан кўп. Шундай бўлгач, товуш чиқармайдиган нарсаларга ном қаердан олиб қўйилган, деган табиий савол туғилади. Товушга тақлид қилиш фарази тўғри бўлса, унда ибтидоий жамиятда яшаган қабилалар тилида бундай усулда ясалган сўзларнинг сони фан ва техникаси ривожланган халқлар тилидагига нисбатан кўпроқ бўлиши керак. Лекин сўнгги йилларда Австралия ва Жанубий Америкада топилган, ибтидоий тузумни бошидан кечираётган қабилалар тилида ўтказилган тажрибалар, бу тилларда товушга тақлид қилиш йўли билан ясалган сўзлар ривожланган тиллардагига нисбатан бирмунча камлигини кўрсатди. Ундан ташқари, табиатдаги бақириқ-чақириқ, шовқин-суронларга тақлид қилиш учун нутқ органларининг ўта ривожланган бўлиши зарурлиги ҳам аниқланган. Демак, товушга тақлид фарази тилнинг пайдо бўлиши масаласини узил-кесил ҳал қилолмайди.

Маълумки, тил билан тафаккур бир вақтда пайдо бўлади. Шундай экан, юқоридаги фаразни илгари сурган файласуфлар ва тилшуносларнинг фикри тил билан тафаккур бирлигига зиддир, чунки фаразда дастлабки тақлидий товушларни ибтидоий одамлар беихтиёр «изҳор қилишган» дейилади. Бундай ҳолда тил тафаккурдан аввал пайдо бўлган деган нотўғри хулоса юзага келиши мумкин.

Ундовлар фарази. Тилнинг пайдо бўлишига доир иккинчи кенг тарқалган фикр ундовлар фаразидир. Бу фараз ҳам қадимий бўлиб, унинг асосида ҳам ҳайвонларнинг бақириқ-чақириқлари ётади. Бу фараз асосчиларининг фикрича, ибтидоий одамлар ҳайвонларнинг бақириқ-чақириқларини ўрганиб, улар орқали ўзларининг ички кечинмалари, ғам-аламларини ифодалашган: оҳ, уҳ каби ундов сўзлар бунга мисол қилиб кўрсатилади. Тилдаги бошқа сўзлар эса, ана шундай сўзларнинг бирикувидан келиб чиққан, деб тушунтирилади. Таниқли француз олими Жан Жак Руссо (XVIII аср) ҳам шу фикрни қувватлаган.

Дунёдаги барча тилларда бундай бирликлар мавжуд бўлиб, улар ёрдамида ҳар хил сўз туркумлари ясалиши мумкин: (ўзбек тилида уфламоқ ва рус тилида охать, ухать;). Лекин бу сўзларнинг миқдори шу қадар камки, тилдек мураккаб ҳодиса ана шу йўл билан пайдо бўлган дейиш бу масалани жуда соддалаштириб юборган бўлар эди.

Маълумки, тилнинг асосий вазифаси одамлар орасида фикр алмашинувини таъминлашдир. Бинобарин, мазкур фаразни қабул қилиш тилнинг асосий вазифасини, тилнинг ижтимоий ҳодиса эканлигини рад этишга олиб келади. Ички кечинмаларни изҳор қилиш доимо ҳам жамиятнинг бўлишини тақозо қилмайди. Ваҳоланки, тилнинг яшаши ва ривожланиши жамият билан узвий боғлиқ: жамият бор жойдагина тил бор, тил бор жойда жамият бор.

Меҳнат чақириқлари фарази. Бу фаразни илгари сурган олимларнинг фикрича, тил одамлар жамоа бўлиб меҳнат қилаётганларида меҳнатни ташкил қилишда фойдаланилган товушлар асосида пайдо бўлган.

Ҳозирги замон олимларининг далолат беришича, тилнинг пайдо бўлишида меҳнат чақириқларининг ҳеч қандай дахли йўқ, чунки у на одамлар орасида алоқа воситаси вазифасини бажаради, на нарса ва ҳодисаларнинг номини атайди ва на ҳис-ҳаяжонни ифодалайди. Бу фараз ҳам тилнинг келиб чиқиш сабабларини, тилнинг пайдо бўлишини жамиятнинг пайдо бўлиши, сўзлаш ва фикр юритиш қобилиятига эга бўлган инсониятнинг пайдо бўлиши билан узвий равишда боғлай олмайди.

Ижтимоий келишув фарази. Бу фараз XIX асрнинг иккинчи ярмида пайдо бўлиб, уни илгари сурувчи олимлар баъзида бир-бирига зид хулосаларга келишган, уларнинг тилнинг келиб чиқиши тўғрисидаги асосий фикрлари бир хил. Қисқа қилиб айтганда, бу фаразга нарсаларни қандай аташни одамлар ўзаро келишиб олишган. Кўриниб турибдики, бошқа фаразларга қараганда бу энг оддий ва осон танқид қилиниши мумкин, чунки бирор нарса тўғрисида келишиб олиш учун, табиийки, келишув воситаси, яъни тил керак. Бинобарин, бу фараз тилнинг пайдо бўлишини эмас, балки тил ривожланишининг бир йўналишини тушунтириши мумкин.

Ҳозирги вақтда у ёки бу фанга тааллуқли сўз ва атамалар ўзаро келишиб олинади. Лекин буни тилнинг пайдо бўлишига ҳеч қандай алоқаси йўқ.

Булардан ташқари, турли диний фаразлар ҳам мавжуд. Қайд этилган фаразлар айрим-айрим олинганда тилнинг пайдо бўлиши жараёнини тўла-тўқис тушунтириб бермаса-да, уларнинг ҳар бирида маълум даражада ҳақиқат бор, яъни бу фикрларнинг ҳар қайсиси тилнинг пайдо бўлиши ҳодисасига ўз ҳиссасини қўшган. Аввал айтилганидек, тил - ижтимоий ҳодиса, одамлар жамиятларга уюшган вақтдан бошлаб, бир-бирларига ниманидир айтиш эҳтиёжи туғилган. Жамиятсиз тил, тилсиз жамият мавжуд бўла олмайди. Шунингдек, тилнинг пайдо бўлиши тафаккур билан бир вақтда содир бўлган. Инсониятга хос бўлган бу икки ҳодиса бир-бири билан узвий боғланган, бири иккинчисисиз яшай олмайди. Тилнинг асосида тафаккур ётади, тафаккур эса ўз навбатида тил орқали намоён бўлади ва ривожланади. Тилнинг такомиллашишининг гарови ҳам тафаккурдир.

Демак, тил, аввало, ижтимоий ҳодиса ва кишилик жамиятининг энг муҳим алоқа воситасидир. Тилларнинг шаклланиши ва ривожланишида ҳам жамиятнинг ўрни, аҳамияти катта.

Тилларнинг шаклланиши ва ўзаро муносабатлари. Кишилар ибтидоий жамиятнинг дастлабки даврларида тўда-тўда, яъни уруғ бўлиб яшаганлар. Уруғ кишилар жамиятининг энг кичик, оддий ҳамда қадимий уюшмаси бўлиб, бир нечта қардош уруғлар қабилани ташкил қилган. Бундай уюшмаларнинг ҳар бирининг ўз тили, ўз алоқа воситаси бўлган. Вақт ўтиши билан қабил аъзолари кўпайиб, кенгроқ ҳудудларга тарқала бошлайдилар. Бошқа жойларга кўчиб кетган қариндош қабилалар маълум ижтимоий-иқтисодий шароитларда бир тилнинг турли шеваларида сўзлашувчи қабилаларнинг уюшмасига – қабил аиттифоқларига бирлашади. Қабил аиттифоқларининг умумий тили бўлиб, айрим қабил тиллари қабил аиттифоқи тилига нисбатан шева ҳолатини эгаллайди.

Шевалар, миллий тиллар уруғчилик давридан бошлаб сон жиҳатдан кўпайиб боради. Аввал бир қабил аиттифоқиға кирган тилларда марказдан узоқлашган сари, шеваға хос фарқ орта боради ва охир натижада бу фарқ янги тил пайдо бўлишиға олиб келиши мумкин; сон ўзгариши сифат ўзгаришиға олиб келади. Янгидан янги шева ва тилларнинг пайдо бўлишида икки омил: вақт ва масофа ҳал қилувчи аҳамиятға эгадир: вақт ўтган сайин, масофа кенгая бориши, янги шева ва тиллар пайдо бўлишиға олиб келади.

Шеваларнинг сони кўпайиши ва улар асосида янгидан янги тилларнинг вужудға келиши тилшуносликда **фарқланиш (дифференциация)** деб аталади. Фарқланиш деганда тилларни шеваларға парчаланиши, бир тилға мансуб шеваларнинг миқдорини ортиб бориши тушунилади. Т

Маълумки, тил бутун бир халққа хизмат қилади, шева эса халқнинг бир гуруҳигагина тааллуқлидир. Шу сабабдан тил кўп функцияли, ҳамма учун умумий алоқа воситаси, яъни инвариант воситадир, шева эса, вазифа нуқтаи назардан чегараланган бўлиб, тилнинг бир вариантыни ташкил этади. Қардош қабилалар иттифоқи вақти келиб халқни ташкил қилади. Халқ тили ёзма - адабий тил кўринишида ҳам намоён бўлиши мумкин, бироқ унинг ҳамма тилларни бирлаштириш қобилияти бу даврда нисбатан кучсиз бўлади. Кишилиқ жамиятининг бу уюшмаси муайян янада тараққий қилиши оқибатида алоҳида миллатга айланса, халқ тили миллий тил даражасига кўтарилади. Миллатнинг пайдо бўлиши ва ривожланиши учун, албатта, кўп сонли одамлар орасидаги иқтисодий муносабат бўлиши зарур. Миллатнинг асосий белгилари: умумий ҳудуд, умумий тил, умумий маданий-маънавий бирлик ҳамда ижтимоий-иқтисодий ҳаёт тарзидан иборат бўлиб, шу белгиларни ўзида мужассамлаштирган кишилар уюшмасини миллат дейиш мумкин. Демак, миллий тил бир-биридан фарқ қилувчи шеваларни ўзаро бирлаштирувчи, етакчи, иқтисодий ва маданий марказ тили сифатида намоён бўлади.

Тил бирлиги миллатнинг асосий белгиларидан бири ҳисобланади. Миллий тил ўз адабий ёзув шаклига эга бўлиб, тилнинг бу шакли мазкур миллатнинг ҳар бир аъзоси, ҳар бир шеваси учун умумийдир. Ҳар бир миллатнинг маданий мероси ҳам ана шу тилда ўз аксини топади. Турли шеваларнинг умумий қоидаларга бўйсунган ҳолда маълум адабий тилга бирлашиши **мужассамлашув (интеграция)** дейилади.

Ҳар бир тил ўзига хос ривожланиш даврини бошидан кечиради ва бу шу тил амал қиладиган жамиятга, ундаги ўзгаришларга боғлиқ бўлади. Бирорта тил пайдо бўлганидан бошлаб то ҳозиргача ўзича ривожланмайди, у фақат жамият тилдан фойдалангани учунгина ривожланади. Демак, тилнинг ривожланиши бевосита жамият билан, унинг тарихи жамият тарихи билан узвий боғланган.

Шуни ҳам қайд қилиш керакки, тилдаги ўзгаришлар кескин, тўсатдан содир бўлмайди. Тилда ҳеч қачон инқилобий ўзгаришлар содир бўлмайди, тилдаги ўзгаришлар аста-секин, эволюцион йўл билан амалга ошади. Шу билан бирга тил тараққиётида турғунлик ҳам бўлмайди, у доимо ривожланишда бўлади. Жумладан, миллий тилларнинг пайдо бўлиши ижтимоий тузумга, миллатнинг пайдо бўлишига боғлиқ бўлиб, ҳамма ерда бир вақтда содир бўлмаган. Миллат ва миллий тилларнинг пайдо бўлиши турли халқларда турлича амалга ошади. Айрим халқлар эса ҳали миллат даражасигача ўсиб етмаганини, демак, ушбу жамиятда миллий тил ҳам шаклланмаганини кузатиш мумкин. Умуман, миллий тилларнинг пайдо бўлишида 3 хил йўл алоҳида қайд этилади.

Биринчиси миллий тил пайдо бўлгунга қадар мавжуд бўлган бирор бир шевага миллий тил мақомини бериш. Бунга ҳозирги замон француз тили яхши мисол бўла олади. Француз миллий тили асосида Париж ва унинг атрофида кенг тарқалган Ил-де- Франс шеваси ётади. 1539 йилда Франциск I нинг буйруғи билан бу шева Франциянинг ягона давлат тили деб эълон қилинган.

Иккинчиси чатишув орқали бўлиб, бунга инглиз тилини мисол келтириш мумкин. Инглиз тили ўз ривожланиш тарихида асосан уч даврни бошидан ўтказган:

Биринчи давр - қадим замонлардан то XI асргача бўлган давр. Бу даврда инглизлар, сакслар ва ютларнинг Британияни босиб олиб, маҳаллий кельт (ҳозирги шотландлар, ирландлар ва уелсларнинг қадимий аждодлари) қабилаларини Британ ярим оролига ҳайдаб, ўзлари Британия оролига ҳукмрон бўлиб олган даврдир. Бу даврнинг IX-X асрларида англосакслар ва данияликлар орасида урушлар бўлиб ўтади ва бу урушда данияликлар енгиб, англосаксларга қўшилиб, чатишиб кетадилар.

Иккинчи давр XI-XV асрларни ўз ичига олади. Бу вақт ичида нормандлар Британияни босиб олиб, ҳукмронликни ўз қўлларига оладилар. Улар француз тилида, англосакслар герман тилида гаплашардилар. Бу икки тил орасида узоқ вақт кураш бўлиб, оқибатда маҳаллий тил енгиб чиқди, лекин француз тилига маълум даражада ўз таъсирини кўрсатди. Жумладан, инглиз тили тарихида содир бўлган «унлиларнинг буюк силжиши» француз тили суперстрати билан тушунтирилади.

Учинчи давр XVI асрнинг охири, Шекспир ижодининг бошланиши билан боғланган. Бу англосаксон тили орасидаги чатишув жараёни тугаб, миллий тилнинг барпо бўлиш даврига тўғри келади.

Учинчи йўл, яъни шеваларнинг мужассамлашуви орқали миллий тилнинг ҳосил бўлишига рус миллий тилининг шаклланишини мисол қилиб келтириш мумкин. XVI-XVII асрда Москва давлатининг пайдо бўлиши билан бир вақтда Москва диалекти асосида рус миллий тили шакллана бошлайди. Маълумки, Москва ўша вақтда шимол ва жануб диалектларининг туташадиган маркази эди.

Миллий тилларнинг шаклланишида бадий сўз усталари, ёзувчи ва шоирларнинг ҳам ҳиссаси жуда ката бўлади. Жумладан, ўзбек адабий тилининг шаклланишида Алишер Навоий, рус миллий тилининг тараққиётида А.С. Пушкин, янги грузин тилининг вужудга келишида Шота Руставели, немис тилининг тараққиётида Мартин Лютер, инглиз тилининг ривожланишида Вильям Шекспир ва бошқаларнинг кўшган ҳиссалари бекиёсдир.

Тилларнинг ўзаро муносабатлари. Тил тараққиётида кўшни халқлар ўртасидаги турли муносабатлар, савдо-сотик ва маданий алоқалар, урушлар

ўз таъсирини қолдирмай қўймайди. Бундай ҳодисалар баъзи тилларда кўпроқ, баъзиларида эса камроқ акс этади. Масалан, ҳозирги замон инглиз тили луғат бойлигининг фақат 30 фоизга яқини соф инглиз тилига оид, қолганлари роман ва шарқ тилларидан кирган сўзлардир. Тилларнинг бундай муносабатлари **тиллар ҳамкорлиги** дейилади. Тиллар ҳамкорлигида **тилларнинг чатишувига** одатда катта аҳамият берилади. Баъзи олимларнинг фикрича, ҳар қандай ҳамкорлик ҳам тиллар чатишувига кирмайдими. Масалан, бир тилдан иккинчи тилга сўз ўзлаштирилиши тиллар чатишувига кирмайди, чунки ўзлаштирилган сўзлар тилнинг грамматик кўринишига ўз таъсирини ўтказмайди. Масалан, араб тилидан ўзбек тилига ўзлаштирилган сўзлар бунга яхши мисол бўла олади.

Франциянинг XI асрда Британия оролини босиб олиши ва француз тили билан англосаксон тиллари орасидаги алоқа тиллар чатишувига энг яхши мисолдир. Маълумки, бу ерда ғолиблар тили бўлмиш француз тили билан мағлублар тили – англосаксон тиллари орасида узок вақт давом этган урушдан кейин, ғолиблар ўз тилини йўқотиб, англосаксон тилини қабул қилишларига тўғри келди. Шунинг ҳам айтиш керакки, англосаксон тили ҳам француз тилидан баъзи элементларни қабул қилди. Чатишув содир бўлганда **субстрат ва суперстрат** (бу сўзлар латинча бўлиб, биринчиси таг қатлам, иккинчиси эса, устки қатлам деган маъноларни англатади) ҳодисалари тўғрисида фикр юритиш мумкин.

Ҳар иккала тушунча мағлуб тилнинг ғолиб тилда қолдирган элементлари, изларини билдиради. Агар мағлуб тилнинг элементлари ғолиб тилнинг фонетик, грамматик тузилишини бузиб, унга фаол таъсир қилган бўлса, унда субстрат ёки суперстрат ҳодисалари рўй беради. Бир тилдан иккинчи тилга сўз ўзлаштириш субстратга кирмайди. Келгиндилар тилининг маҳаллий тилни сиқиб чиқариши ва айни пайтда ишлатилишдан чиқиб кетаётган тилнинг келгиндилар тилига сезиларли таъсир кўрсатиши **субстрат ҳодисаси**

Суперстрат ҳодисасида эса, келгиндилар тили маҳаллий тил билан курашиб, унга сезиларли даражада таъсир ўтказди, лекин уни сиқиб чиқара олмайди. Бунга Британия оролининг нормандлар томонидан босиб олиниши ва норманд тилининг инглиз тилига ўтказган таъсири энг яхши мисол бўла олади.

Назорат саволлари:

1. Тилшунослик фани нималарни ўрганади?
2. «Тилшуносликка кириш» курсининг вазифаси нималардан иборат?
3. «Умумий тилшунослик» курси ўз олдида қандай масалаларни кўяди?
4. «Умумий тилшунослик» ва «Тилшуносликка кириш» фанларининг ўрганиш объекти ва улар орасидаги фарқни тушунтиринг.

5. Нима учун тил ижтимоий ҳодиса сифатида қаралади?
6. Тилнинг пайдо бўлиши ва ривожланишида жамиятнинг роли қандай?
7. Тил ва тафаккур орасида қандай боғлиқликлар мавжуд?
8. Тилни тилшуносликдан ташқари яна қайси фанлар ўрганади?
9. Тилни бошқа фанларнинг ҳам ўрганиш соҳаси сифатида олиб, макролингвистика ва микролингвистика атамаларини шарҳлаб беринг.
10. Тилнинг пайдо бўлиши ҳақидаги фаразлар тўғрисида гапириб беринг.
11. Тилнинг шаклланиши ва ривожланиши тўғрисида гапириб беринг.
12. Тилларнинг ўзаро муносабатларида қандай қонуниятлар амал қилади?

Таянч ибора ва тушунчалар (гlossарий)

1. **Тил** - алоқа-аралашув воситаси, **тилшунослик** - тилга хос хусусиятларни ўрганувчи фан.
2. **Хусусий тилшунослик** маълум бир тилнинг луғат таркиби, фонетик системаси ва грамматик қурилишини ўрганади,
3. **Умумий тилшунослик** тил билан тафаккур, тилнинг келиб чиқиши, жамиятдаги ўрни, тараққиёт йўллариини ўрганувчи фан.
4. **Макролингвистика** тил ҳодисаларини кенг миқёсда бошқа фанлар билан биргаликда ўрганади, **микролингвистика** эса тилнинг ички тузилишини, фонетик, лексик ва грамматик ҳодисаларни ўрганиш билан шуғулланади.
5. **Экстраллингвистика** тилни ижтимоий ҳодиса сифатида ўрганувчи фандир. .
6. **Интралингвистика** тилнинг ички тизимини, унинг бирликлари ва категориялари, тилнинг яруслари ҳамда уларнинг тузилишини ўрганади.
7. **Компаративистика** қиёсий-тарихий тилшунослик.
8. **Коммуникатив лингвистика** тилни алоқа-аралашув воситаси сифатида ўрганадиган, тил ва нутқ, тилнинг жамиятдаги асосий вазифаси ва ўрни масалалари билан шуғулланадиган соҳадир.
9. **Интеграция (мужассамлашув)** турли шеваларнинг умумий қоидаларга бўйсунган ҳолда адабий тилга бирлашиши, **дифференциация (фарқланиш)** тилларнинг шеваларга парчаланишидир.
10. **Субстрат** (лот. таг қатлам) ишлатилишдан чиқиб кетаётган маҳаллий тилнинг келгиндилар тилига сезиларли таъсир кўрсатиши, **суперстрат** (лот. устки қатлам) келгиндилар тилининг маҳаллий тилга таъсир ўтказишидир.
11. **Система** – ўзаро боғланган ва шартли қисмлар йиғиндиси, **структура** (лот. қурилиш) бутунлик қисмлари ичидаги муносабатдир.
12. **Парадигматика** - тил бирликларини ўхшашлик ва фарқлашга асосида танлаб, сайлаб олиш муносабати.
13. **Синтагматика** - қатор жойлашган бирликларнинг ўзаро муносабати.
14. **Иерархия** - тил бирликларининг босқичли кетма-кетликдаги муносабати

Тавсия этилган адабиётлар рўйхати

1. Ирискулов М. Тилшуносликка кириш. – Т., 2008.
2. Йўлдошев И., Шарипов Ў. Тилшуносликка кириш. – Т., 2007.
3. Yoldoshev I., Muhamedova S., Sharipova O., Madjidova R. Tilshunoslik asoslari. – Т., 2013.
4. Маслов Ю.С. Введение в языкознание. – М, 2007.
5. Мечковская Н. Б. Умумий тилшунослик, тилларнинг тузилмавий ва ижтимоий типологияси. – Т., 2006
6. Реформатский А.А. Введение в языкознание. – М., 2006

ВИЗУАЛ МАТЕРИАЛЛАР

1-савол. Тилшунослик фанининг ўрганиш объекти

1-илова

Тилшунослик – тилнинг пайдо бўлиши ва ривожланиши, тил ва тафаккур, тил ва жамият ўртасидаги муносабатлар, тилнинг жамиятдаги ўрни, тилнинг ички тузилиши, тилнинг таснифи, тилни таҳлил қилиш усулларини ўрганадиган фан

Макролингвистика (катта тилшунослик) – тилнинг пайдо бўлиши ва унинг тараққиёт қонунлари, тилнинг ижтимоий моҳиятини: унинг тафаккур билан муносабатини, тил ва бошқа сигнал системалари орасидаги ўхшашлик ва фарқларни, тилнинг тарқалиши, янги тил масалалари каби муаммоларни ўрганади

Микролингвистика (кичик тилшунослик) – тилнинг фақат ички, яъни фонетик, лексик ва грамматик тузилишини ўз ичига олади

Тилшуносликнинг асосий масаласи


2-илова

Тилшунослик фанининг асосий масалаларидан бири тилнинг ушбу фаннинг предмети сифатидаги таърифидир. Маълумки, табиий инсон тили фақат тилшуносликда эмас, балки яна бир қатор фанлар томонидан ўрганиладиган мураккаб объект бўлиб, ҳар бир фаннинг тилга берган таърифи ҳам турлича бўлиши мумкин. Ҳаттоки, тилшунослик фанининг ўзида ҳам тилнинг ягона таърифи йўқ. Тилнинг таърифи масаласи тилшунослик фани тарихида энг муҳим масалалардан бири бўлиб, фан тарихида турлича талқин қилинган ва ҳозирги кунда ҳам турли илмий мактаблар ва оқимлар орасида кескин баҳсларга сабаб бўлмоқда

2-савол. Тилшуносликнинг фан сифатида шаклланиши

3-илова

- Тилшунослик фанининг предметини, тилнинг табиатини ва моҳиятини ҳар хил тушуниш, фан тараққиёти тарихида турли илмий мактаблар ва оқимларнинг вужудга келишига сабаб бўлган. Натурализм, психологизм, структурализм ва бошқалар.
- Тилшуносликнинг нутқ фаолиятининг турли аспектларини ўрганадиган янги тармоқлари, жумладан, социолингвистика, психолингвистика, этнолингвистика ва бошқа турлари шаклланди.
- ҳозирги вақтда тилшунослик фанининг доираси тобора кенгайиб бормоқда ва фаннинг янгидан янги (этнолингвистика, психолингвистика, антропологик лингвистика, генератив лингвистика, амалий лингвистика, когнитив лингвистика каби) тармоқлари шаклланмоқда



4-савол. Тил – ижтимоий ҳодиса

5-илова

Инсон тилини жамият яратади ва у жамиятга хизмат қилади. Жамият бўлмаса, тил бўлмайди. Демак, тил ижтимоий ҳодисадир. Шундай экан, тилни ўрганадиган ижтимоий фанлар қаторига киради ва ўрганадиган предметининг ўзига хос хусусиятлари мавжудлиги туфайли бошқа ижтимоий ҳодисаларни таништирадиган фанлардан фарқланиб туради.

- Тил табиий ҳодиса эмас;
- Тилнинг пайдо бўлиши учун кишилик жамияти бўлиши шарт.

5-савол: Тилнинг пайдо бўлиши ва ривожланиши

6-илова



6-савол: Тилшунослик фанининг вазифаси ва бошқа фанлар билан ўзаро боғлиқлиги

7-илова

Тилнинг пайдо бўлиши ва ривожланиши жамият тараққиёти билан боғлиқлиги туфайли тил социологлар томонидан ҳам ўрганилади. Шунга кўра, тарихчилар тил тарихига, тилшунослар эса ўз навбатида тарих фанига мурожаат қиладилар. Демак, тилшунослар тилга оид масалаларни ҳал қилишда этнография, психология, антропология, математика, география, физика ва бошқа фанларга оид материаллар ва хулосалардан

2-МАЪРУЗА: Фонетика ва фонология. Нутқнинг фонетик жиҳатдан бўлиниши. Фонетик товуш ўзгаришлари. Фонема ва унинг вариантлари. Нутқ товушлари таснифи.

Режа:

1. Фонетика ва унинг турлари.
2. Нутқнинг фонетик жиҳатдан бўлиниши: фраза, такт, бўғин, товуш.
3. Нутқ органлари. Нутқ товушларининг артикуляцияси ва акустикаси.
4. Фонетик ҳодисалар: комбинатор ва позицион ўзгаришлар.
5. Фонема тушунчаси ва фонология.
6. Нутқ товушлари таснифи.

Мақсад: Фонетика ва унинг турлари, нутқнинг фонетик бўлиниши ва фонетик товуш ўзгаришлари, нутқ товушларининг артикуляцияси, акустикаси ва таснифи, фонология ва фонема ҳақида тушунчага эга бўлиши, фонетик бирликлар ва ўзгаришларни ажрата олишига ўргатиши.

Фонетика (грекча “фоне” - товуш сўзидан олинган) тилшуносликнинг бир бўлими бўлиб, тилдаги товушларни ўрганувчи соҳадир. Фонетика бирор тилдаги нутқ товушларини, унли ва ундошларни, уларнинг пайдо бўлиши, ривожланиши қонуниятларини, умуман, инсон товушларини (антропофонетикани) ўрганади. Фонетика нутқ аппарати, бўғин ва уларнинг тузилишини текширади, шунингдек, адабий талаффуз нормаларини, товушлар ўзгаришларини, урғу, интонация ва унинг турларини ҳам ўрганади.

Фонетика тилшуносликнинг орфография, орфоэпия, фонология, лексикология, грамматика, диалектология ва бошқа соҳалари билан бевосита алоқадордир. Шунингдек, фонетика физика, физиология, медицина каби фанлар билан ҳам яқин муносабатдадир.

Нутқ товушлари тарихий, қиёсий, тавсифий, ҳозирги ҳолатига кўра ҳамда турли сабаблар воситасида ўрганилиши мумкин. Шунга кўра, фонетика 1) умумий фонетика, 2) тарихий фонетика, 3) қиёсий фонетика, 4) чоғиштирама фонетика, 5) тавсифий фонетика, 6) экспериментал фонетика каби турларга бўлинади.

1. Умумий фонетика. Бунда умуман инсон товушларининг бошқа товушлардан фарқи, уларнинг кўринишлари, дунё тилларида унли ва ундош товушлар тизими, тилларда уларнинг миқдори ҳақида маълумот берилади. Умумий фонетикада қариндош ёки қариндош бўлмаган тилларнинг фонетик системаси ўрганилади.

2. Тарихий фонетика. Бунда конкрет бир тилнинг товушлар системасини тарихий нуқтаи назардан текширилади. Бирор тилнинг товуш системасидаги тараққиёт ва ўзгаришлари; айрим товушларнинг истеъмолдан чиқиши, янги товушларнинг юзага келиши ёки товушларнинг бошқа товушларга айланиши, унинг тарихий сабаблари ўрганилади. Масалан: ҳозирги ўзбек тилидаги сўзлар таркибида қўлланувчи “й” товуши VIII-XI да қўлланувчи асарлардан “з” товуши ҳолида қўлланилган. Бу товушлар сўзларда XIV асрдан кейин “й” товушига айланган. Қиёсланг: *адзақ – адоқ - аёқ; базрам – байрам, қазғу - қайғу* каби.

3. Қиёсий фонетика. Бунда бир қанча қариндош бўлмаган тилларнинг товушлар системаси бир-бирига қиёсланади: масалан, рус ва ўзбек, ўзбек ва тожик, инглиз ва рус, немис ва ўзбек каби тиллардаги товушлар қиёсланиб, улардаги ўхшаш ва ноўхшаш томонлар солиштирилади.

4. Чоғиштирма фонетика. Чоғиштирма фонетика қариндош бўлган, бир оилага мансуб тилларнинг фонетикасини бир-бирига чоғиштиради, солиштиради, таққослайди. Шу йўл билан улар ўртасидаги ўхшаш ва ноўхшаш томонларни ўрганади.

5. Тавсифий фонетика. Бунда бирор конкрет тил товуш системасининг ҳозирги ҳолати, унлилар, ундошлар, уларга хос белгилар, товуш ўзгаришлари ўрганилади.

6. Экспериментал фонетикада нутқ товушлари махсус замонавий асбоблар ёрдамида экспериментал йўл билан ўрганилади. Шу йўл билан унлилардаги чўзиқлик, қисқалик, ундошлардаги портлаш ва сирғалиш хусусиятлари жуда аниқ белгиланади.

Нутқнинг фонетик жиҳатдан бўлиниши.

Фонетик жиҳатдан нутқ тўрт таркибий қисмга: фраза (жумла), такт, бўғин ва товушга бўлинади. **Фраза** нутқнинг энг катта фонетик бирлиги бўлиб, икки томондан пауза билан чегараланади, ўзига хос оҳангга эга бўлади. Масалан: *Гулнор чолнинг чиқиб кетишини кутиб, деворга қисилган ҳолда турди. (О.) Шипи наст, деворлари юпқа, торгина дўконхона, ҳар вақтдагидек ивирсиқ. (О.)* Биринчи гапда 2 та фраза борлиги аниқ. Учинчи гапда неча фраза борлигини айтиш қийин. Чунки нутқда фразани ажратиш кўпинча субъектив сабабларга боғлиқ бўлиши мумкин. Тез гапирувчилар бу фразани иккига, секин гапирувчилар эса тўрт фразага ажратишлари мумкин. Шундай экан, фонетик бирлик бўлган жумла ва грамматик бирлик бўлган гап ҳар доим бир-бирига тўғри келавермайди.

Фраза тактлардан ташкил топади. Фразанинг икки кичик паузаси орасига жойлашган ва ягона урғу билан талаффуз қилинадиган бир ёки бир неча бўғиннинг йиғиндисига **такт** деб айтилади. Фразада нечта урғу бўлса,

шунча такт бўлади: *Ҳаво булут эди*. Гапда иккита урғули сўз бор: Ҳаво ва булут, учинчиси урғусиз. Демак, бу гап иккита тактдан иборат.

Одатда, урғу олмаган сўзлар урғу олган сўзларга бирикиб, дунё тилларида кўшимчалар сўздан олдин ёки сўздан кейин кўшилиши мумкин. Урғусиз сўз урғули сўздан олдин кўшилса, **проклитика** ҳодисаси, Урғусиз сўз урғули сўздан кейин кўшилса, **энклитика** ҳодисаси дейилади. Демак, такт ўз ичига проклитика ва энклитика ҳодисаларини қамраб олади.

Turkiy tillarda enkliza hodisasi uchrasa, ovrupa tillari uchun esa ham prokliza , ham enkliza hodisasi xosdir. Chunonchi,

| O`zbek tilida | Rus tilida | Ingliz tilida |
|-------------------|--------------|----------------|
| Stol ustida | На столе | on the mable |
| O`quvchilar uchun | Для учеников | for pupils |
| Ukam bilan | С братом | for my brother |

Такт бўғинлардан ташкил топади. **Бўғин** бир ёки бир неча товушдан иборат бўлиб, бир зарб билан талаффуз қилинадиган фонетик бирликдир. Масалан, *мустақиллик* сўзида тўрт бўғин бор, чунки тўрт зарб бор. Тактда нечта унли товуш бўлса, шунча бўғин бўлади. Лекин баъзи тилларда сирғалувчи сонор товушлар ҳам бўғин ҳосил қилади.

Бўғинлар унли ва ундош товушларнинг жойлашиш ўрнига кўра 4 хил турга бўлинади: очик, ёпиқ, беркитилган ва беркитилмаган. Ундош билан тугаган бўғин ёпиқ бўғин, унли билан тугаган бўғин очик бўғин дейилади. Ундош товуш билан бошланган бўғин беркитилган, унли билан бошлангани эса беркитилмаган бўғин дейилади. *Ол-ма* сўзининг биринчи бўғини беркитилмаган, иккинчиси эса беркитилган.

Бир бўғин таркибида 1-6 тагача товуш иштирок этиши мумкин. Шунга кўра бўғин типларга ажратилади. Дунё тилларида бўғин тузилишига кўра бир хил эмас. Айрим тилларда бўғинлар содда тузилишли бўлиб, одатда бир унли ва бир ундошдан иборат бўлади (масалан, туркий тилларда). Бундай тилларда ундошларнинг кетма-кет келиши ҳодисаси деярли учрамайди. Айрим тилларда эса, бир бўғин таркибида 5 тагача ундош ва биттагина унли мавжуд бўла олади. Бундай тилларда бўғинлар мураккаб тузилишли бўлади.

Jahon tillarida eng ko`p uchraydigan bo`g`in tipi “undosh + unli ”bo`lib , u qulay talaffuzi bilan ajralib turadi : *qo-ra , to`- ra; му-ка , пу-ка* kabi. Tillarda juda ko`p uchraydigan bo`g`in chizmalari : cv , vc , vcv , cvc , ccv , vcc , cccv , cvcc va boshqalardir. O`zbek tilida cv , vc , cvc , c , cvcc , cccv kabi bo`g`in chizmalari ko`proq uchrasa, rus tilida ccv , cvc cvcc , cccv kabi bo`g`in chizmalari, ingliz tilida esa o`zbek va rus tillari uchun xos bo`lmagan vcv , vcc kabi bo`g`in shakllari ko`proq uchraydi.

| Bo`g`in tipi | O`zbek tilida | Rus tilida | Ingliz tilida |
|--|---|---|--|
| cv vc vcv | kema osh - | ру-ка он - - | ve –ry (juda) al –so (ham) one (bir) are (fe'l) |
| cvc ccv vcc ccccv cccv cvcc | non qon son ost ust - - tort surt | нас шаг суд иск встре-ча стра-на банк бинт | big (katta) bag (sumka) boy (bola) - -- - cry (yig`lamoq) sky(osmon) arm (qo`l) inn (mehmonxona) -- -- tint –(ton) help – (yordam bermoq) |

Бўғин имло ва талаффузда, шунингдек, тил ўрганиш ва шеър ёзишда муҳим амалий аҳамиятга эга бўлган фонетик ҳодисадир *Biroq bo`g`inni morfemadan farqlamoq kerak. Morfema-so`zning ma`noli qismi. Bo`g`inga ajratilgan qism ma`no ifodalashi ham, ifodalamasligi ham mimkin . Demak, so`zni morfema va bo`g`inga ajratish har doim ham mos kelavermaydi. Masalan, mehnatkashlarimizni so`zining bo`g`in va morfemaga ajratilishi quyidagicha: meh-nat-kash-la-ri-miz-ni – mehnat-kash-lar-imiz-ni. Bir bo`g`inli hisoblangan xitoy, tibet tillarida ko`p hollarda bo`g`in va morfemaga ajratish mos tushadi. Nutqning eng kichik birligi bu **tovush**dir. Bo`g`inlar tovushlarga bo`linadi. Masalan, *inson* so`zi ikki bo`g`indan iborat bo`lib, birinchi bo`g`ini ikki tovushdan (in), ikkinchi bo`g`ini uch tovushdan (son) tashkil topgan.*

Bo`g`in yoki so`zning biror fonetik vosita orqali ajratilib, zarb bilan aytilishi **urg`u** deyiladi .Tilshunoslikda, odatda, urg`uning tushish o`rniga qarab ikki turi ajratiladi: so`z (leksik urg`u) urg`usi va mantiq (logik urg`u) urg`usi. Leksik urg`u so`zning biror bo`g`iniga xos bo`lgan fonetik hodisa bo`lsa, logik urg`u gapning ma`lum bir bo`lagiga tegishli bo`lgan sintaktik hodisadir. Ilmiy adabiyotlarda urg`u haqida gapirilganda, odatda, asosan so`z urg`usi nazarda tutiladi. So`z urg`usida so`zning ma`lum bir bo`g`inidagi unli tovush boshqalariga qaraganda kuchliroq ohang bilan talaffuz qilinadi. So`z urg`usini uch tomonlama tasnif etish mumkin:

- 1.Urg`u so`zning qaysi bo`g`iniga tushishiga ko`ra.
- 2.Urg`u sifatiga ko`ra.

3. Ko'p bo'g'inli, qo'shma va murakkab tuzilishli so'zlarda urg'u miqdoriga ko'ra.

Ilmiy adabiyotlarda urg'u so'zning qaysi bo'g'iniga tushishiga ko'ra 2 turga: **erkin urg'u va bog'liq urg'uga** bo'linishi qayd etiladi. So'z bo'g'inlaridan bo'g'inlariga ko'chib, uning ma'nolarini farqlash uchun xizmat qiladigan urg'u **erkin urg'u** deyiladi. Erkin urg'u rus, ingliz, italyan va qisman o'zbek tiliga ham xosdir. Chunonchi, *орзан (a'zo, mucha) - орзон (musiqa asbobi)*, *здороро (juda, rosa) - здороро (salom, yaxshimisiz)* kabi ruscha so'zlarda; *сузмон (taomning nomi)- сўзма (buyruq shaklidagi fe'l)*, *сизсиз (olmosh; Ishonganim sизсиз)- сизсиз(сифат; Сизсиз о'tган давлар беҳуда)* kabi o'zbekcha so'zlarda bu holatni kuzatish mumkin.

Urg'uning o'rni har doim so'zning muayyan bir bo'g'ini bilan bog'liq bo'lsa, bunday urg'u **bog'liq urg'u** deb ataladi. Fransuz, polyak va turkiy tillar uchun bog'liq urg'u xosdir. Chunki bu tillarda urg'uning o'rni, odatda so'zning oxirgi bo'g'inida bo'ladi. Masalan, *трико, палто* (fransuzcha); *gulchi, gulchilik, gilchilikdon* (o'zbekcha).

So'zlardagi bir yoki undan ortiq bo'g'inlarni ajratib talaffuz qilish turli nutqiy vositalar orqali amalga oshadi. Nafas kuchi, kuchli talaffuz va tovush paychalarining tebranishi so'zga urg'u qo'yishning asosiy vositalari hisoblanadi. Artikulyatsion-akustik vositalar urg'uning sifatini belgilaydi. Urg'u sifatiga ko'ra 3 turga bo'linadi: **dinamik urg'u, miqdor urg'usi va musiqiy urg'u**.

Tilshunoslikda so'z tarkibidagi urg'u qabul qilgan unli tovushning bir qadar kuchli va cho'ziq talaffuz etilishi **dinamik urg'u** hisoblanadi. Ayrim tillarda dinamik urg'uning ta'siri natijasida so'z tarkibidagi urg'usiz unli tovushlar pozitsion o'zgarishlarga uchraydi. Ya'ni urg'u qabul qilgan unli tovush baland ovoz bilan, shiddat bilan aytilganda, urg'usiz unlilar talaffuzida noaniqlik, qisqalik, bilinar-bilinmaslik yuzaga keladi. Bu holatni slavyan tillarida, chunonchi, rus tilidagi ayrim so'zlar talaffuzida kuzatish mumkin. Ruscha *трактор* so'zida birinchi bo'g'indagi **a** unlisiga dinamik urg'u tushadi, shuning uchun u o'z artikulyatsiyasi bilan aniq va to'liq talaffuz etiladi. Ikkinchi bo'g'indagi **o** unlisi urg'u tushmaganligi bois o'z sifatini o'zgartirib, ancha noaniq, bilinar-bilinmas aytiladi. *Тракторучи (traktorchi)* so'zida esa urg'u oxirgi bo'g'indagi **i** tovushiga tushganda, o'rta bo'g'indagi **o** unlisi endi a tarzida aniq talaffuz etiladi.

Shunga ko'ra, rus tilida urg'u tushgan bo'g'inlar kuchli pozitsiya, urgu'siz bo'g'in esa kuchsiz pozitsiya sifatida ajratiladi. Ushbu pozitsiyalarda unli tovushlar bir-biridan farqli, ba'zan hatto butunlay boshqacha talaffuz qilinadi. Buni, masalan, *молоко* so'zidagi o tovushi talaffuzi misolida [*м'лако*] ko'rish mumkin. *композитор (bastakor)-композитора(bastakorni)*, *город (shahar)-города (shaharlar)* kabi so'zlar talaffuzida ham yuqoridagi kabi o'zgarishlar yuz beradi. Bunday tillarda urg'uning roli beqiyosdir. Avvalo, urg'u so'zlar

orfoepiyasi uchun o'ta muhim, ikkinchidan, nutqdagi shakldosh (omonim) so'zlarning ma'nosini farqlaydi: *мука(un)* - *мука (azob)* kabi.

Turkiy tillarda, jumladan, o'zbek tilida rus tilidan farqli o'laroq so'z tarkibidagi urg'uli unli tovush ta'sirida urg'usiz bo'g'inlardagi unlilar artikulyatsiyasi deyarli o'zgarmaydi. Masalan, *bilimdonlikdan*, *yoshlarimizning* kabi. Talaffuz jarayonidagi urg'uli bo'g'inning cho'ziqligi asosiy xizmatni bajarsa, **miqdor urg'usi** yoki **kvantitativ urg'u** deyiladi. So'zlar talaffuzida sof miqdor urg'uni ajratish qiyin. Chunki u ko'proq dinamik urg'u bilan qarishiq holda bo'ladi. Shunga ko'ra rus, o'zbek, nemis tillaridagi urg'u dinamik-kvantitativ urg'u sanaladi.

Asosiy ton (ohang)ning harakati yordamida amalgam oshiriluvchi urg'u **tonal** (melodik) yoki **musiqiy urg'u** deyiladi. Qadimgi grek, qadimgi hind, hozirgi xitoy, yapon, serb, litva tillarida muzikal (musiqiy) urg'u uchraydi. Norveg, island, shved tillarida urg'u ovoz kuchi va ohang bilan bog'liq. Shuning uchun ham bu tillarning urg'usi dinamik-musiqiy urg'u hisoblanadi.

Dunyodagi barcha tillar ham so'z urg'usiga ega bo'lavermaydi. Shimoliy Osiyo, Shimoliy-Sharqiy Osiyo va Shimoliy Amerika tillarining ko'pchiligida so'z urg'usi yo'q.¹

Ko'p bo'g'inli qo'shma va murakkab tuzilishli so'zlarda urg'u miqdoriga ko'ra bosh urg'u hamda ikkinchi darajali urg'uga bo'linadi. Ma'lumki, o'zbek tilida urg'u asosan so'zning oxirgi bo'g'iniga tushadi. So'zga ma'lum bir yasovchi, turlovchi, tuslovchi qo'shimchalar qo'shilganda urg'u oxirgi bo'g'inga kochaveradi: *paxta* – *paxtakor* – *paxtakorlari* – *paxtakorlarimizga*; *kelajak* – *kelajakda* – *kelajakdagi* kabi. Biroq ayni vaqtda shu misollardagi kabi ko'p bo'g'inli so'zlarda ham urg'u bo'linib tushadi. Bunday vaqtda asosiy urg'u so'z oxiriga tushsa, qo'shimcha urg'u ikkinchi bo'g'inga yoki so'zning o'rta bo'g'inlariga tushadi. Yordamchi urg'u olgan bo'g'inni talaffuz qilishda nafas kuchi asosiy (bosh) urg'u olgan bo'g'indan kam bo'ladi, biroq u urg'usiz bo'g'inlarga qaraganda bir oz kuchliroq aytiladi. Shu jihatiga ko'ra, bunday yordamchi urg'ular ikkinchi darajali urg'ular sanaladi. Ikkinchi darajali urg'uning so'zning qaysi o'rniga tushishi so'zning qanday ohang (intonatsiya) bilan aytilishiga va shu ohangning xarakteriga ham bog'liq. Masalan, *вольна* (*erkin, betalol*) – *вольнодумец* (*hurfikr*), *дело* (*ish, yutmush*) – *деловито* (*jiddiy, ish bilarmon odamdek*) kabi.

Ma'lumki, o'zbek tilida afikss yuklamalar urg'u qabul qilmaydi. Ammo bu ularga urg'u butunlay tushmaydi degani emas. – mi, - chi, - ku, - da, - oq (-yoq), - a(- ya), - gina (- kina, - qina) kabi affiks yuklamalar ko'p bo'g'inli so'zlarga qo'shilganda, urg'uning bo'linishi natijasida hosil bo'lgan ikkinchi darajali urg'u shu yuklamalarga ham tushishi mumkin. Chunonchi, *yuraversang* – *chi*, *nordonroq-ku* kabi.

¹ Зиндер Л.Р. Обшая фонетика. Изд. ЛГУ, 1979.

Xuddi shunday [-miz], [-siz] tuslovchi qo‘shimchalarga ham ikkinchi darajali urg‘uning tushish tushmasligi shu affikslar qo‘shilgan so‘zning aytilish ohangiga bog‘liq. Shuni ham ta‘kidlash lozimki, turli sheva vakillarining nutqdagi urg‘uning qaysi bo‘g‘inga tushishi har xil ko‘rinishda bo‘ladi. Toshkent, Farg‘ona sheva vakillari nutqda *boramiz*, *kelamiz* kabi so‘zlarning oxirgi bo‘g‘ini kuchsiz talaffuz etiladi va so‘z oxiridagi **z** undoshi jarangsizlashib **s** tarzida eshitiladi. Aynan shu so‘zlar Buxoro, Samarqand shevalarida boshqacharoq talaffuz etiladi, ya‘ni oxirgi [– miz] qo‘shimchasiga yordamchi urg‘u tushiriladi, natijada so‘z oxiridagi **z** undoshining aniq talaffuz saqlaniladi.

Mavzuning kirish qismida sintaktik hodisa sifatida xarakterlanuvchi mantiq urg‘usining mavjudligi to‘g‘risida ham aytib o‘tgan edik. Mantiq urg‘usi gapdagi so‘z shaklni mazmun jihatdan ajratib ko‘rsatish uchun ishlatiladi. Mantiq urg‘usi tilshunoslikda logik urg‘u, gap urg‘usi, intonatsion urg‘u kabi nomlar bilan ham yuritiladi.

Tilda emfatik emotsional urg‘u ham mavjud. Urg‘uning bu ko‘rinishi ham gapdagi ma‘lum bir so‘zshaklni ajratib ko‘rsatishga xizmat qiladi. Bu bilan u mantiqiy urg‘uga o‘xshab ketadi. Biroq, mantiqiy urg‘udan farqli o‘laroq emfatik urg‘uda hissiylik kuchli bo‘ladi. O‘zbek tilida emfatik urg‘u ostidagi so‘z tarkibida unli yoki undosh cho‘ziladi. Masalan,

Havo t - o- o – za ekan.

Ch - i - royli qiz keldi.

Mantiqiy va emfatik urg‘u ostidagi so‘zlarda pauza ham ko‘maklashuvchi vosita sifatida qatnashadi. Bu kabi urg‘ularni olgan so‘zlardan oldin ko‘p hollarda pauza paydo bo‘ladi.

Fraza nutqqa xos fonetik birlik bo‘lib, har ikki tomonidan chuqur pauza bilan bo‘lingan eng katta segment hisoblanadi. Fraza va gaplardagi so‘zlarning biror bo‘g‘inini ajratib talaffuz qilish **fraza urg‘usi** deyiladi. Fraza urg‘usi intonatsiyaning eng asosiy tarkibiy qismlaridan biridir. Fraza urg‘usi, ritm, musiqiylik, tovushning asosiy toni, cho‘ziqlik, temp, tembr kabi unsurlar birligidan iborat bo‘lib, tilda har xil sintaktik, ekspressiv va hissiy-ta‘siriy ma‘nolarni ifodolovchi murakkab hodisa **intonatsiya** (ohang)dir.

Musiqiylik va fraza urg‘usi ohang uchun birlamchi, qolgan unsurlar esa ikkilamchi qismlar hisoblanadi. Nutq ohangining tushishi yoki ko‘tarilishi **musiqiylik** (melodiya) bo‘lib, nutqda har bir fraza o‘z melodiyasiga ega. Musiqiylik frazalarni ulash va nutqni ifodali qilish vazifalarini bajaradi. **Fraza urg‘usi** nutqning biror qismini so‘z, bo‘g‘in yoki so‘z birikmasini ham alohida ajratib talaffuz etishi bilan xarakterlanadi. Fraza va taktlarda urg‘uli va urg‘usiz hamda cho‘ziq va qisqa bo‘g‘inlarning almashib turishi **ritm**dir.

Ohang – so‘z va gapning libosi bo‘lib, bu til va nutq birliklari qanday ifoda etilishiga ko‘ra, uning ma‘nolari ham o‘zgarib boradi. Shuning uchun ham

“gap so‘zda emas, ohangda, qaysi so‘zning qanday talaffuz etilishida” deydi taniqli rus so‘zshunosi V.G.Belinskiy.

Нутқ аъзолари. Нутқ товушлари айрим аъзоларнинг бевосита ёки билвосита ҳаракати туфайли юзага келади. Товуш ҳосил қилишда иштирок этадиган барча нутқ органлари йиғиндиси *нутқ аппарати* дейилади. Бирок товуш ҳосил қилиш ушбу аъзоларнинг бирламчи вазифасига кирмайди. Ушбу физиологик аъзоларнинг асосий вазифалари биологик бўлиб, улар, аввало, инсонга нафас олиш ва чиқариш, таъм билиш, чайнаш ва таом ейиш каби ҳаётий функцияларни бажариш учун керак. Бу биологик хусусиятлар ҳайвонларда ҳам бор. Бироқ онг ва тафаккур натижасида тилнинг юзага келиши инсонда ушбу аъзоларнинг иккиламчи функциясини ҳам вужудга келтирди ва ушбу аъзолар нутқ аъзолари вазифасини ҳам бажара бошлади. Нутқ аъзоларига кўкрак қафаси, ўпка, кекирдak, товуш пайчалари, танглай, оғиз бўшлиғи, жағ, тиш, лаб, бурун, тил ва бошқалар киради. Ушбу аъзолар товуш ҳосил қилишдаги иштирокига кўра икки турга бўлинади:

1. Фаол нутқ органлари: тил, кичик тил, лаб ва пастки жағ киради.

2. Нофаол нутқ органлари: кекирдak, кўкрак қафаси, юқори жағ, қаттиқ танглай, бурун, тиш киради.

Инсонда учта бўшлиқ: оғиз, бурун, бўғиз бўшлиқлари бор бўлиб, нутқ товушлари, одатда, бирор бўшлиқда пайдо бўлади. Нутқ товушларини ҳосил қилишда оғиз бўшлиғи асосий ўрин тутади, чунки у шакл ва ҳажм жиҳатдан ҳар хил тусга кира олади. Оғиз бўшлиғи товуш ҳосил қилишда резонаторлик вазифасини бажаради. *Nutq apparati* 3 qismdan iborat :

Ovoz paychalaridan pastki qism. Bu qismga o`pka, nafas olish yo`llari, kekirdak va diafragma (ko`krak qafasi bilan qorin bo`shlig`i o`rtasidagi parda) kiradi. Bu a`zolar havo manbai bo`lib, o`pkadan chiqqan havo tovush paychalarining yordami bilan ovoz hosil qiladi .

2. Bo`g`iz. Halqasimon va qalqonsimon tog`aylar bo`g`izda joylashgan. Bu ikki tog`ay o`rtasida ovoz paychalari o`rnashgan. Bo`yin chetlarida tovush paychalari bir-biriga to`la yoki deyarli to`la jiplashib turadi. Ovoz paychalarining ishtirokisiz ovoz chiqarish mumkin emas.

3. Ovoz paychalaridan yuqori qism. Bu qismga bo`g`iz qopqog`i , og`iz bo`shlig`i , burun bo`shlig`i , qattiq va yumshoq tanglay , til , kichik til , ustki va pastki tishlar , ustki va pastki lablar kiradi . Bular orasida eng harakatchan a`zo tildir.

Til harakati orqali til oldi , til o`rta , til orqa , chuqur til orqa tovushlari (unli va undoshlar) hosil qilinadi. **Lab** ham ancha faol nutq a`zosi bo`lib , b , p , m , v , f , o , o` , u kabi tovushlar hosil qilishda ishtirok etadi . **Kichik til** qattiq tebranib , xitoy va fransuz tillariga xos bo`lgan tovushlarni hosil qiladi. **Bo`g`iz**

qopqog`i ham ayrim tillarda tovush hosil qiluvchi a'zo sanalib, arab tilida ξ (ayn) tovushini hosil qiladi .

Nutq apparatining, ya'ni nutq a'zolarining harakati natijasida tovush hosil bo`lish jarayoni **artikulyatsiya** deyiladi. Jahondagi barcha kishilarning nutq organlari bir xil tuzilgan bo`lsa ham, har bir tildagi tovushlarning talaffuzida ularning harakati turlicha bo`lishi mumkin. Ma'lum bir tilga xos bo`lgan nutq tovushlarini hosil qilishga muvofiqlashgan nutq apparati **artikulyatsiya bazasi** deb ataladi. Bir tilning artikulyatsiya bazasi shu tilga xos nutq tovushlarini hosil qiladi. Shuning uchun ham har bir tilga moslashgan nutq artikulyatsiyasi bazasi ikkinchi bir tilning tovushlarini birdan to`g`ri talaffuz eta olmaydi. Buni ingliz tilini, koreys tilini o`rganish jarayonida kuzatish mumkin yoki, aksincha, ingliz xalqining rus, o`zbek tilida so`zlashish jarayoni ham fikrimizni tasdiqlaydi.

Нутқ товушлари артикуляцияси. Муайян товушни ҳосил қилиш учун нутқ аппарати томонидан бажариладиган амал шу товушнинг артикуляцияси деб аталади. Товуш артикуляцияси уч босқичдан иборат бўлади:

1. Нутқ органларининг бирор товушни ҳосил қилишга ҳаракатланиши. Бу босқич *экскурсия* дейилади.

2. Товушнинг ҳосил қилиниши жараёни. Бу *лябор ёки выдержка* деб аталади.

3. Нутқ органларининг асл ҳолига қайтиши. Бу жараён *рекурсия* дейилади.

Маълум бир тилга хос бўлган товушларнинг талаффузига мувофиқлашган нутқ органи **артикуляция базаси** дейилади. Artikulyatsiyada ikki hodisa muhim rol o`ynaydi: birinchidan, artikulyatsiya o`rni, ikkinchidan, artikulyatsiya usuli. Tovush hosil qilishda nutq a'zolarining harakat etgan qismi **artikulyatsiya o`rni** deyiladi . Masalan , b, p, m, v, f kabi tovushlarni hosil qilishda lab ko`proq harakat qiladi, to`g`rirog`i labda hosil bo`ladi . Shuning uchun bu tovushning artikulyatsiya o`rni labdir va shunga ko`ra lab undoshlari deyiladi. Yoki d, t, s, z, ch tovushlari tilning ustki tishlar va milkka tegishi bilan hosil bo`ladi. Bu tovushlarning artikulyatsiya o`rni tilning old qismidir, shuning uchun bu tovushlar til oldi undoshlari nomini olgan.

Artikulyatsiya usuli deganda tovush hosil qilish paytida nutq a'zolarining qanday holatda harakat qilishi tushuniladi. Masalan, v, z, y, x, sh, h kabi tovushlarni talaffuz qilganda nutq a'zolari bir-biriga yaqinlashadi, ammo havo oqimining chiqishi uchun torgina oraliq qoladi, havo oqimi ana shu oraliqdan sirg`alib chiqadi va bunday tovushlar artikulyatsiya usuliga ko`ra sirg`aluvchi tovushlar nomini oladi. Portlovchi tovushlarni hosil qilishda esa havo oqimi jipslashgan a'zolar orasidan portlab chiqadi.

Тилларнинг артикуляцион базалари бир-биридан фарқ қилади. Масалан, русча товушларни ҳосил этишда нутқ аппарати бир тарзда ҳаракат қилса, ўзбекча товушларни ҳосил этишда бир қадар бошқача ҳаракат қилади.

Товуш акустикаси. Нутқ товушлари нутқ органларининг ҳаракати натижасида ҳосил бўлади. Товушларнинг физик хусусияти акустикада ўрганилади. Акустикада товушнинг қуйидаги хусусиятлари фарқланади:

1. Товуш баландлиги.
2. Товуш кучи.
3. Товуш чўзиқлиги.

Товуш кучи нутқ органига ҳавонинг берган зарби билан ўлчанади. Аммо товуш кучи товуш баландлиги эмас. Кучли товуш паст бўлиши ҳам мумкин. Товуш кучи зарбдан ҳосил бўлган тебранишнинг ҳар бир силкинишидаги зарб йўналиши билан белгиланади. Уни физиклар тилида тебраниш амплитудаси дейилади. Тебраниш амплитудаси децибел билан ўлчанади. Урғу тушган бўғин унлисида унинг **бали** юқори бўлади.

Товуш чўзиқлиги ўпкадан келган ҳавонинг нутқ органига урилиш давомийлиги билан ўлчанади, яъни товушга кетган вақт билан боғлиқ бўлади. Уни бир неча омиллар белгилайди. Нутқ тезлиги ортиқ бўлса, ундаги товушлар чўзиқлиги анча кам кечади. Урғули бўғинлар товуши бошқа бўғинлар товушига нисбатан анча чўзиқроқ бўлади. Сўзлардаги ток бўғинлар мутлақо урғусиз бўлгани учун қисқа, кўпинча редукцияга учраган (кучсизланган) ҳолда қайд этилади.

Товушнинг чўзиқлиги м/сек бирлиги билан ўлчанади.

Одатда, товуш ҳосил бўлиш кечимидаги ҳаво тебраниши *гц* (герц) билан ўлчанади. Бир гц товуш пайининг берилган зарбидан бир силкиниб қайтиши бўлиб, бу силкиниш ҳавонинг бир тебранишида акс этади. Инсон 16 гц дан 20 минг гц гача товушни эшитиш қобилиятига эга. Ундан ортиқ гц ли товушлар ультра товуш бўлиб, уни инсон эшита олмайди. Инсон оддий сўзлашувда 100 гц дан 40 гц гача баландликдаги товушни қўллайди. Инсоннинг энг паст товуши *бас* деб аталиб, у 40 гц га тенг, энг баланд товуши *сопрано* деб аталиб, 170 гц га эга бўлади.

Товуш пайчаларининг кўп ёки кам миқдорда тебраниши товуш пайларидаги имкониятга боғлиқдир. Товуш пайчалари юқори бўлса, кўп тебраниш имкониятига эга бўлади. Унинг қалинлиги шу имкониятини чегаралайди. Одатда, аёллар ва болаларнинг товуш пайчалари юпқа бўлиб, эркакларнинг товуш пайлари катта ёшидан қалинлашади. Шунинг учун эркакларнинг товуши йўғон ва паст, аёл ва болаларнинг товуши ингичка ва баланд эшитилади.

Bulardan tashqari, tovushning fizik xususiyatlariga ton, tembr, temp kabilar ham kiradi. **Tovushning toni**, ya'ni intensivlik deganda kuchli va kuchsiz talaffuz, nafas kuchi nazarda tutiladi. Talaffuz vaqti, talaffuz tezligi (sekin, o'rta

va tez) **nutq tempi** deyiladi. Nutq jarayonida ovozning turli xil o'zgarishi va shu orqali hissiy – ta'siriy jihatdan ifodalanishi **ovoz tembri** deb ataladi.

Хуллас, фонетика тил сатҳида нутқ товушларининг юқорида қайд этилган физиологик-артикуляцион, физик-акустик хусусиятлари ўрганилади.

Фонетик товуш ўзгаришлари. Nutq jarayonida tovushlar so'z tarkibidagi o'rni yoki yondosh tovushlar ta'sirida turli **kombinator** yoki **pozitsion** o'zgarishlarga uchraydi. Masalan, rus tilidagi *лодка* va *город* so'zlarida [d] tovushi [t] tarzida talaffuz qilinadi, ya'ni jarangsizlashadi. O'zbek tilida *yutdi* va *obod* so'zlarida ham shu holat yuz beradi. *Лодка* va *yutdi* so'zlarida jarangsizlanish qo'shni tovush ta'sirida yuz bersa, *город* va *obod* so'zlari talaffuzida o'zgarish tovushning so'z tarkibidagi mavqeyi bilan bog'liqdir. Birinchi holat kombinator o'zgarish bo'lsa, ikkinchi holat pozitsion o'zgarishdir. Biz quyida shu o'zgarishlar haqida fikr yuritamiz.

1. Singarmonizm. Bu hodisada unli va undoshlarning o'zgarishi farqlanadi. Unlilarning nutq jarayonida o'zgarishi **singarmonizm** deyiladi. Singarmonizm unlilarning moslashishi, uyg'unligi demakdir. Singarmonizm faqat turkiy tillarga xosdir. Uning ikki asosiy ko'rinishi mavjud: a) til garmoniyasi; b) lab garmoniyasi.

Til garmoniyasida unli tovushlar yumshoqlik va qattqlik, til oldilik yoki til orqalik jihatdan bir-biriga moslashadi. Masalan, *qalam* so'zidagi [q] undoshi chuqur til orqa undoshi bo'lganligi bois, birinchi bo'g'indagi [a] unlisi ham til orqalik xususiyatiga ega bo'ladi. Buning natijasida esa keyingi bo'g'inda [a] tovushi ham til orqa unlisi sifatida namoyon bo'ladi. Demak, birinchi [a] unlisi [q] undoshiga, keyingi bo'g'indagi [a] esa oldingi bo'g'indagi [a] unlisiga moslashadi.

Lab garmoniyasida unlilarning moslashishi ikki tomonlama bo'ladi. Bunda unlilar ham til oldi - til orqalik jihatidan, ham lablanganlik- lablanmaganlik jihatidan o'zaro, shuningdek, undoshlarga ham moslashadi. Bunga ko'ra, so'z boshidagi unli lablangan til oldi unlisi bo'lsa, so'z oxirida ham lablangan til oldi unlisi keladi. So'z boshidagi unli lablangan til orqa unlisi bo'lsa, so'z oxiridagi unli ham lablangan til orqa unlisi bo'ladi. Masalan, *boshqird*, *sog'in*, *bo'g'in* so'zlaridagi kabi.

2. Assimilyatsiya. Nutq tovushlari qator kelganda ba'zan bir-biriga ta'sir qilib, biri ikkinchisini o'ziga moslashtiradi. Nutqdagi bunday hodisa **assimilyatsiya** deyiladi. Assimilyatsiya ikki xil bo'ladi: progressiv assimilyatsiya va regressiv assimilyatsiya. Agar oldingi tovush keyingi tovushni o'ziga o'xshatsa, moslashtirsa, progressiv assimilyatsiya yuz beradi: *ket+di=ketti*, *ayt+di=aytti*, *ot+dan=ottan*, *yurak+ga=yurakka*. Keyingi tovush oldingi tovushga ta'sir qilib, uni o'ziga o'xshatsa, moslashtirsa, regressiv assimilyatsiya yuz beradi: *yigit+cha=yigichcha*, *yoz+sin=yossin*, *uch+so'm=usso'm*,

tuz+sin=tussin. Masalan, rus tilida *omdamь* soʻzi *oddamь* tarzida talaffuz etiladi. Bu ham regressiv assimilyatsiyaga misol boʻladi. Regressiv assimilyatsiya odatda progressiv assimilyatsiyaga nisban nutqda kamroq uchraydi. Chunki assimilyatsiyaning bu turida keyingi tovush oldingi tovushni oʻziga moslashtiradi. Demak, talaffuz jarayoni boshlanmasdan burun soʻzining talaffuz texnologiyasi haqidagi tasavvur ham hosil boʻlmogʻi lozim.

Assimilyatsiya toʻliq va qisman boʻlishi mumkin. Toʻliq assimilyatsiyada bir tovush ikkinchi tovushga aynan moslashadi va toʻligʻicha uning tusiga kiradi. Yuqorida keltirilgan soʻzlarning hammasi toʻliq assimilyatsiyaga misol boʻladi. Qisman assimilyatsiyada nutq tovushlaridan biri ikkinchisini biror tomondan qisman oʻxshatadi (moslashtiradi): *osh+ga-oshka*, *_ish+ga-ishka* soʻzlarida joʻnalish kelishigidagi [g] tovushi oldingi [sh] tovushining taʼsirida [k] tovushiga aylanmoqda. Bu soʻzda qisman assimilyatsiya yuzaga kelmoqda, yaʼni [g] jarangli tovushi oʻzidan oldingi [sh] tovushiga faqat bir tomonlama – jarangsizlanish tomonidan oʻxshamoqda, xolos, lekin toʻliq uning tusiga kirgan emas. [Uchta] leksemasining *ushta*, [pochta] leksemasining *poshta* deb talaffuz qilinishi ham shu hodisaga misol boʻla oladi. Rus tilidagi *каробка*, *водка*: inglizcha: *goods*, *cats* soʻzlarida ham shu turdagi assimilyatsiya mavjud.

Dissimilyatsiya. Ogʻzaki nutqda tovushlar doimo bir-biriga oʻxshay bermasdan, baʼzan uning aksi boʻladi. Ayrim paytda talaffuzda ikki oʻxshash tovush bir joyda yoki bir soʻzda kelgan vaqtda ulardan biri nooʻxshash tovushga aylanib ham qoladi. Bunday hodisa assimilyatsiya kabi progressiv va regressiv boʻladi. Keyingi tovush nooʻxshash tovushga aylansa progressiv dissimilyatsiya yuz beradi: *zarar-zaral*, *zarur-zaril*, *birorta-bironta*, *muyassar-muyastar*, *kissa-kista* kabi. Oldingi tovush oʻzgarsa, regressiv dissimilyatsiya yuz beradi: *malol-malor*, *koridor-kalidor*, *ittifoq-intifoq* kabi.

Dissimilyatsiya hodisasi odatda juda kam uchraydi. Hatto assimilyatsiyaning regressiv turiga nisbatan ham ancha kam qoʻllanadi. Chunki dissimilyatsiya hodisasi nutqda, odatda oʻxshashlikdan nooʻxshashlikka, ixchamlikdan noqulaylikka qaratilgan harakat boʻlib, tavnologiyadan qutilishga xizmat qiladi. Ogʻzaki nutqda *tumba-tunba*, *tramvay-tranvay*, *konbayn-kombayn* deb talaffuz qilishimiz ham dissimilyatsiyaga misol boʻladi.

Metateza. Ogʻzaki nutqda baʼzan yonma-yon kelgan undosh tovushlarning oʻrni almashishi mumkin. Nutqdagi bunday jarayon **metateza** deyiladi: **r-y:** *daryo-dayro*; **m-gʻ:** *yomgʻir-yogʻmir*, **b-r:** *tebratmoq-terbatmoq*; **m-l:** *yamlamoq-yalmamoq*; **h-v:** *ahvol-avhol*; **p-r:** *tuproq-turpoq*, **r-g:** *oʻrganmoq-oʻgranmoq*; **gʻ-r:** *toʻgʻramoq-toʻrgʻamoq*, **n-m:** *aylanmoq-aynalmoq* va b. Chunonchi, rus tilidagi *mapelka* soʻzi aslida nemischa *talerka* shaklida boʻlgan, arabcha *oqvot* soʻzi oʻzbek tiliga *ovqat* tarzida qabul qilingan. Demak, bu hodisa chetdan kirgan soʻzlarda koʻproq uchraydi.

Proteza. Soʻz boshida bitta unlining orttirilishi **proteza** hodisasi sanaladi. Odatda, sonor [r] tovushidan oldin [oʻ] va [i] unilari orttiriladi: *roʻmol-oʻramol, roʻza-oʻraza, rayhon-irahon, rozi-irozi, rais-irais, rang-irang, roʻzgʻor-oʻrazgʻor* kabi. Ayrim holatda soʻz boshida sirgʻaluvchi va portlovchi ikki undosh qator kelganda [i] unlisi orttirilishi mumkin: *shkaf-ishkaf, sprafka-isparafka, stol-istol, shtraf-ishtarap, stansiya- istansa*.

Epenteza. Soʻz boshida, oʻrtasida va oxirida ikki undosh qator kelganda ular orasida [i], baʼzan [u] va [a] unlisi orttiriladi: *fikr-fikir, hukm- hukum, doklad-dakalad, klass-kilass*.

Epiteza. Soʻz oxirida bir oʻrinda kelgan ikki undoshdan soʻng [a] tovushining qoʻshilish hodisasi: *disk-diska, bank-banka, tank-tank, kiosk-kioska, otpusk-otpuska* kabi.

Prokopa. Bunda soʻz boshida baʼzan unli yoki undosh tovush tushib qoladi: *yiroq-iroq, yigna- igna, yogʻach-ogʻoch, yirik-iri*.

Sinkopa hodisasiga binoan soʻz oʻrtasidagi va oxiridagi keng unililar tor unililar kabi talaffuz qilinadi va ayrim holatlarda tushib qoladi: *valochka-valichka, traktor-traktir, avtor-avtir, director-direktir, generator-generatir* kabi.

Apakopa soʻz oʻzagidagi oxirgi unli yoki undoshning tushishi hodisasi: *doʻst-doʻs, xursand-xursan, gazeta-gazit, smena-smen* va h.

Sinerezis hodisasiga koʻra soʻz oʻrtasida bir joyda kelgan ikki unlining biri kuchsizlanadi va nutqda tushib qoladi. Ikkinchi unli fonema esa choʻziq talaffuz etiladi: *maorif-mo:rif, saodat-so:dat, qiroat-qiro:t, jamoat-jamo:t*. Bu hodisa asl oʻzbekcha soʻzlarga xos emas.

Reduksiya. Soʻzning birinchi boʻgʻnida biror unlining, odatda, tor unlining kuchsizlanib talaffuz qilinishidir. Masalan, *bir, bil, til* sozlari bir boʻgʻinli boʻlganligi va urgʻu shu soʻzdagi [i] unlisiga tushganligi tufayli bu soʻzlardagi [i] unlisi meʼyordagidek talaffuz qilinadi va eshitiladi. Lekin shu soʻzlarning oxiriga ikkinchi bir boʻgʻin qoʻshilishi bilan urgʻu ham ikkinchi boʻgʻinga koʻchadi. Natijada birinchi boʻgʻindagi [i] unlisi kuchsizlanadi va eshitilar-eshitilmas holda sust talaffuz qilinadi: *bilak, tilak, biroq*. Birinchi boʻgʻindagi urgʻularning ana shunday kuchsizlanib talaffuz qilinishi reduksiya hodisasiga misol boʻla oladi (reduksiya soʻzining lugʻaviy maʼnosi “kuchsizlanish”, “orqaga qaytish”, “pastga tushish” demakdir). Reduksiyaga quyidagi soʻzlarning birinchi boʻgʻnida kelgan [i] ning kuchsizlanib talaffuz qilinishi ham misol boʻla oladi: *pishiq, shira, pishak, qiliq, ichak* kabi. Reduksiyaning ikkinchi boʻgʻinda kelish hollari ham uchrab turadi. Bu hodisa soʻzga uchinchi boʻgin qoʻshilganda sodir boʻladi - ikkinchi boʻgʻindagi unli tamoman kuchsizlanib, tushib qoladi. Masalan, *burun-burni, boʻyin-boʻyni, egin-egni, keyin-keyni* singari.

Eliziya. Unli bilan tugovchi va unli bilan boshlanuvchi ikki soʻzning qoʻshilishi natijasida unli tovushdan birining tushib qolish hodisasi. Bunda bir necha holat kuzatiladi: a) birinchi soʻz oxiridagi unli tushib qoladi: *yoza oladi-*

yoʻzoladi, bora oladi- boroladi, qora ot- qorot; b) unli bilan boshlanuvchi ikkinchi soʻzning bosh unlisi tushib qoladi: *borar ekan-borarkan, borar emish-borarmish, yozgan ekan-yozgankan* kabi; v) *Abdusalom* soʻzining *Absalom, Abdujabbor* soʻzining *Abjabbor, olib kel* soʻzining *opke* tarzida talaffuz qilinishi natijasida bir unli va bir undoshning tushib qolishi ham eliziyaning yuqori, murakkablashgan formasi hisoblanadi. Bunday hollarda eliziyaning murakkablashishi natijasida soʻzlarning qisqargan shakli hosil boʻladi.

Diyeza. Soʻz tarkibida birorta tovushning tushib qolishi. Oʻzbek tilida *goʻsht, doʻst, rost, boʻlsin* soʻzlari tarkibida kelgan [t] va [l] tovushlari tushirib talaffuz qilinadi: *goʻsh, doʻs, ros, boʻsin* kabi. Rus tilidagi *счастливо, известно* soʻzlari nutqda *счасливо, извесно* tarzida aytiladi.

Demak, nutq tovushlari har bir til qonun- qoidalariga muvofiq maʼlum tartib bilan tutashib, birikib soʻz hosil qilar ekan, soʻz tarkibida aks ettirilgan harflarga nisbatan oʻzgargan holda ham talaffuz etilishi mumkin. Baʼzi hollarda bu imloda ham oʻz aksini toptadi. Bunda oʻzbek adabiy tilidagi [-ga] qoʻshimchasining variantlarini misol qilish mumkin: *terak+ga=terakka, buloq+ga=buloqqa*. Rus tilida *бесплатно-бесплатно, рассказать-рассказать* soʻzlarida qoʻllangan jarangli [z] oʻrnidagi [s] ham orfografiyada oʻz aksini topgan. Eliziya hodisasiga uchragan baʼzi soʻzlar ham shular jumlasidandir.

Фонема тушунчаси ва фонология. Тилшуносликда сўз маъносини фарқлаш учун хизмат қиладиган нутқ товуши *фонема* дейилади. Фонема нутқ товушларининг маъно фарқловчи асосий типидир. Фонема сўздан сўзни, қўшимчадан қўшимчани фарқлаш учун хизмат қиладиган типик товушдир. Масалан, *бор, бер, бўл, бир, бур* сўzlари фақат унлиларга кўра маънода фарқланади ёки *бор, бош, бот, боғ, боб, боп, бой* сўzlарида эса ундoshларга кўра маънода фарқланади.

Нутқ товушини маъно ажратиш учун хизмат қилмайдиган қисми фонеманинг вариантларидир. Фонеманинг уч томони бор: акустик (эшитиш) томони, физиологик (талаффуз) томони, ижтимоий (маъно ажратиш томони) томони. Булар ичида учинчиси - маъно ажратиш томони оал қилувчи аҳамиятга эга. Шу белги бўлмаса, товуш фонема ҳисобланмайди.

Фонемалардан уларнинг вариантларини фарқлаш керак. Масалан, ўзбек адабий тилида - *о* - фонемасининг икки варианты бор: бири тил олди, иккинчиси тил орқа: *ўрган, ўрик, қўл, койлак*; тил олди: *ўртоқ, ўроқ, қўл* тил орқа. Товушлар фонетика бирлиги сифатида ўрганилганда нутқ товушлари ёки фонлар деб юритилади. Фон нутқ товуши, фонема эса тил товушидир. Фонемалар морфема ва сўзларни бир-биридан фарқлар экан, бунинг учун даставвал уларнинг ўзлари бир-биридан ажратиб туриши алоҳида ҳодисалар сифатида ўқилиши лозим. Лекин бу фонемалар бир-бирига ўхшамайди, дегани эмас.

Тилда бир-бирига ўхшамайдиган фонемалар кўп . Масалан: ўзбек тилида *-n-* фонемаси *-б-* фонемасига ўхшамайди: биринчидан, мазкур фонемаларнинг ҳар икковида портлаш элементи бор, иккинчидан: бу фонемаларни реаллаштирадиган иккала товуш лабнинг ҳаракати туфайли юзага келади. Булар *-n-* ва *-б-* фонемаларининг умумий нуқталари. Мазкур фонемаларни бир-биридан айирадиган нуқта уларни реаллаштирадиган товушларнинг акустик қиёфасига тегишли: *-n-* фонемасини реаллаштирадиган товушда жаранг йўқ, *-б-* фонемасини реаллаштирадиган товушда жаранг бор.

Бир фонемани бошқа фонемалардан фарқлаш учун хизмат қиладиган белгилар *дифференциал белгилар* деб аталади. Ўзбек тилидаги *-би* фонемаси *-n-* фонемасидан жаранг элементига эгаллиги билан фарқланади; *-д-* фонемасидан лабда пайдо бўлганлиги билан фарқланади: *-м-* фонемасидан назалиция элементининг йўқлиги билан фарқланади ва ооказо. Саналган элементлар (жаранг, лабда пайдо бўлиши назализациянинг йўқлиги) *-б-* фонемасининг мазмунини ташкил этади. Бу нуқтаи назардан фонема дифференциал белгиларнинг йиғиндиси ҳисобланади.

Фонема тушунчаси шу тушунча доирасига кирадиган товушларни уларнинг умумий белгилари (мазкур товушларнинг барчасига хос бўлган белгилар) асосида ифодаласа, вариант тушунчаси мазкур товушларни уларнинг махсус белгилари асосида ифодалайди. Шу маънода вариант фонеманинг махсус кўриниши, махсус тури ҳисобланади.

Тиллардаги фарқланувчи ва фарқланмовчи хусусиятлар бир хил эмас. Бир тилдан фарқланувчи хусусият иккинчи тилда фарқланмовчи бўлиши мумкин. Масалан, унлиларнинг узун қисқалик хусусияти ўзбек ва рус тиллари учун фарқланмовчи, лекин инглиз, немис, француз, қирғиз, туркман тиллари учун эса фарқланувчидир. Рус тили учун юмшоқ-қаттиқлик хусусияти фарқланувчи, инглиз, немис тиллари учун эса фарқланмовчидир. Масалан, рус тилидаги угол сўзидаги охирги ундош қаттиқ талаффуз қилинади.

Нутқ жараёнида товушларнинг фарқланувчи белгилари ҳар қандай шароитда ҳам сақланиб қолади. Фарқланмовчи белгилар эса товушнинг сўздаги ўрни гапирувчининг нутқий хусусиятларига кўра ўзгариб туриши мумкин. Ҳар қандай ўзгариши (мумкин) янги нутқ товушини, яъни янги фонни ташкил этади.

Агар нутқдаги ўзгаришлар сифат ўзгаришларга олиб келмаса, сўзнинг маъносини у ўзгартирмаса, ундай ўзгаришлар *миқдор ўзгаришлар* деб аталиб, битта фонемага бирлаштирилади. Битта фонемага бирлаштирилган *гора* сўзидаги дастлабки ундошнинг икки хил талаффуз қилиниши сўз маъносини ўзгартирмайди. Шунинг учун бундай ўзгаришни сифат эмас, миқдор ўзгариши деса бўлади.

Тил воситасида фикр алмашиш учун нутқ органлари ёрдамида ҳосил қилинадиган товушлар тилшуносликда фонема деб юритилади. Демак, фонема биз эшитадиган ҳар қандай товуш эмас, балки кишилар талаффуз қиладиган нутқ товушларидир. Бироқ нутқ товушларининг барчаси ҳам мустақил фонема бўлавермайди. Демак, кўпчилик томонидан тан олинган ва кенг тарқалган қоидага кўра, сўз маъноларини фарқлаш учун хизмат қиладиган нутқ товушлари фонемадир. Фонема атамасини Баддуэн де Куртэне тилшуносликка олиб кирган.

Нутқ товушлари таснифи. Нутқ товушлари дастлаб унли ва ундошларга бўлинади. Дунёнинг барча тилларида унли ва ундошлар тизими мавжуддир. Нутқ товушларини бундай гурухлашда уларнинг артикуляция ва акустик хусусиятлари ҳисобга олинади. Дунёдаги тилларнинг барчасида унли ва ундош фонемалар бор, лекин уларнинг миқдори бир хил эмас. Масалан, ўзбек тилида 6 унли, 25 ундош, аборас тилида 68 унли, 3 ундош, немис тилида 13 унли 18 ундош, эстон тилида 9 унли 16 ундош, каби тилларда фонема бор. Хорижий тилшунослардан бири дунёдаги кўпчилик тилларни тадқиқ этиб, энг дастлабки, ибтидоий одамлар тилида биттагина унли ва ўн битта (*п,т,ч,к,кв,х,м,н,нг,в,й*) ундош бўлган, деган фикрни айтган. Дарҳақиқат, айни замонда фақат биттагина унли товушга эга абаза (Шимолий Кавказ), аранта, вишрам (Ҳиндiston) сингари тиллар бор. Жаҳон тилларида атиги битта унлидан тузилган сўзлар ҳам мавжуд. Масалан, Норвегияда - *А*, Францияда - *И* деган қишлоқ бор; Францияда - *О* (*О*) деган фамилия учрайди. Россиядаги кичик бир дарё - *Ў* деб аталади.

Полинезия тилларидан гавай тилига 5 унли, 7 ундош, таити тилида эса 4 та унли, 8 та ундош (жами 12 фонема) мавжуд. Убих (Туркия) тилида уч унли, 78 ундош; кхмер (Кампучия) тилида эса ўттизта унли товуш бор. Ҳозирги ўзбек адабий тилида 6 унли, 26 ундош; ўзбек шеваларининг аксариятида 9 унли, иқон каби ўғуз шеваларида эса 17 унли фонема учрайди.

Унли ва ундошлар ўзаро қуйидаги хусусиятларига кўра фарқланади:

-унлилар талаффузида хаво оқими тосиққа учрамайди.

-унлилар талаффузида хаво оқими кучсизроқ, ундошларда эса кучлироқ бўлади.

-унлилар талаффузида кучланиш бутун нутқ аппаратида ёйилади, ундошлар эса товуш пайдо бўладиган жойга топланади.

-унлилар талаффузида оғиз очилади, ундошларда эса оғиз ёпилади ёки нутқ органлари бир-бирига урилади.

Унли товушлар таснифи. Унли товушларни ҳосил қилишда тил ва лаб энг фаол аъзолар бўлиб, бунда дастлаб **тилнинг горизонтал ҳаракати** ҳисобга олинади. Тилнинг горизонтал ҳаракатига кўра ўзбек тилидаги унлилар 2 га бўлинади:

- а) олд қатор унлилар *и, э, а*;
- б) орқа қатор унлилар *у, о, о*.

Рус тилида эса унлилар уч гурухга бўлинади:

- а) олд қатор унлилар: *э, и*;
- б) ўрта қатор унлилар: *а, ы*;
- в) орқа қатор унлилар: *о, у*.

Унлилар **тилнинг вертикал ҳаракатига кўра** ҳам тасниф қилинади. Бунда оғизнинг очилиш даражаси оисобга олинади. Ўзбек ва рус тилларида унлилар вертикал ҳолатга кўра уч турга бўлинади:

- а) юқори (тор) унлилар: *и, у* (ўзбек тили); *и, ы, у* (рус тили);
- б) ўрта кенг унлилар: *э, о* (ўзбек тили), *э, о* (рус тили);
- в) қуйи (кенг) унлилар: *а, о* (ўзбек тили), *а* (рус тили).

Лабнинг иштирокига кўра унлилар лабланган ва лабланмаган бўлади. Масалан, ўзбек тилида олд қатор унлилар (*а,э,и*) лабланмаган ва ўрта қатор унлилар (*о,о;у*) лабланган, рус тилида эса олд ва ўрта қатор унлилар (*э,и;а,к*) лабланмаган, орқа қатор унлилар (*о, у*) лаблангандир.

Акустика томонидан унлилар чўзиқ ва қисқа унлиларга бўлинади. Бу жиҳатдан инглиз тили характерлидир: унда чўзиқ ва қисқа унлилар фарқланади. Масалан, ўтирмақ маъносидаги *sit* сўзидаги (*i*) товуши қисқа, жой маъносидаги *seat* (*si:t*) сўзидаги (*i:*) товуш чўзиқдир. Шунингдек, унлилар **монофтонг ва дифтонгларга** бўлинади. Масалан, инглиз тилидаги вақт маъносини билдирадиган *time* (*taim*) сўзидаги (*ai*) товуши дифтонгдир. Қирғиз тилидаги *тоо* сўзида ҳам дифтонг мавжуд.

Ундош товушлар таснифи. Тилдаги ундошлар системаси консонантизм деб аталади. Ҳар бир тил ўзига хос ундошлар системасига эга. Ўзбек адабий тилида ундошлар системасида 25 та ундош фонема бор. *б, в, г, д, з, ж, дж, й, к, л, м, н, п, р, с, т, ф, х, ц, ч, ш, қ, ғ, о, нг*. Бу фонемалардан иккитаси ёзувда алоҳида ҳарфлар билан ифодаланмайди (*дж, нг*). *Жожа, жийда* каби сўзларда учрайдиган тил олди, қоришиқ, жарангли *дж* товуши *ж* билан, тил орқа, жарангли, бурун товуши эса ҳарфлар бирикмаси *нг* билан берилади: янги, чанг сўзларидаг каби.

Ундошларни характерлаш ва тасниф қилиш унлиларга нисбатан анча мураккаб. Чунки ундошлар артикуляцияси жараёнида ҳаво оқими муайян тўсиққа учрайди ва айнан шу жой ушбу товушнинг аниқ пайдо бўлиш ўрнини белгилайди. Шундан келиб чиқиб, ундошлар ҳосил бўлиш ўрнига кўра тасниф қилинади. Тўсиқнинг кучли ва кучсизлиги эса товушларнинг пайдо бўлиш усулини аниқлайди: агар тўсиқ кучли, мустаҳкам бўлса, товушлар портлаб чиқади, агар бўшроқ бўлса, товушлар сирғалиб чиқади. Ундошлар талаффузида овозга муайян миқдорда шовқин ҳам қўшилади, шунга кўра ундошлар жарангли ва жарангсиз бўлиши мумкин. Ана шу хусусиятлардан келиб чиқиб, ундош товушлар:

- пайдо бўлиш ўрнига кўра;
- артикуляция усулига кўра;
- овоз ва шовқиннинг иштирокига кўра тасниф қилинади.

I. Пайдо бўлиш ўрнига кўра ундошлар:

а) лаб ундошлари, б) тил ундошлари, в) бўғиз ундошларига бўлинади.

Лаб ундошлари лабиал ёки лаб-лаб ундошларига (*б,п,м* кабиларга) ва лабио-дентал, яъни в,ф ундошларига (лаб-тиш ундошларига) бўлинади.

Тил ундошлари тил олди, тил ўрта ва тил орқа ундошларига бўлинади.

Бўғиз ундоши эса битта бўлиб, унга ҳ товуши киради.

Тил олди ундошлари энг катта гуруҳни ташкил этиб, уларга *т,д,с,з,т,ж,ж,ч,н,л,р* каби ундошлар киради. Ушбу ундошлар тўсиқнинг ҳосил бўлиш ўрнига кўра **дорсал, апикал, какимунал** ундошларга бўлинади. **Дорсал** (лот. орқа) ундошларнинг артикуляциясида тил орқа қисмининг олдинги қисми юқори тишларимизга яқинлашади. *с, д, н* товушлари шу асосда пайдо бўлади. **Апикал** (лот. учи) ундошларининг артикуляциясида тил учи юқори тишларга яқинлашади ёки тегади. Инглизча *t,d,i* товушлари апикал товушларидир. **Какимунал** (лот. чўкки) товушларнинг артикуляциясида тил учи юқorigа кўтарилади. *ш,ж,ч* ундошлари канимуналр ундошлардир.

Тил ўрта ундоши - *й* товушини ҳосил қилишда тилнинг ўрта қисми танглайга яқинлашади. *Тил орқа ундошлари* яқин тил орқа (*к,г,н,(нг)*) ундошлари ва чуқур тил орқа (*қ,ғ,х*) ундошларига бўлинади.

II. Айтилиш усулига кўра ундошлар:

а) портловчи ундошлар;

б) сирғалувчи ундошларга бўлинади.

Портловчиларни талаффуз қилганда ҳаво оқими кучли тосиққа учрайди, натижада *п,б,т,д,к* каби товушлар ҳосил бўлади. Булар эксплозив (фр. портлаш) товушлар деб ҳам юритилади. *м,д,п,б,к,қ,ч,ж (дж),ч,қ,н*.

Сирғалувчилар ҳаво оқимининг нутқ органлари орасида сирғалиб ўтиши билан ҳосил бўлади. *С,ж,ш,в,ф* товушлари сирғалувчи товушлар бўлиб, булар имплозив (фр. *туташиш*) товушлар деб ҳам юритилади: *в,з,ш,ж,х,г,ф,й* кабилар.

Ўзбек тилида *ч,дж(ж),ц(тс)* каби аффрикатлар ҳам бўлиб, талаффузда жаранги товушдан бошланиб, сирғалувчи товуш билан тугалланади. Аффрикатларнинг ҳар икки қисми баъзи вақт бўғин ёки морфемага ажратилмайди. Артикуляцион ажралиш жиҳатдан аффрикатлар бир товушдек талаффуз қилинади. Булардан *ц (тс)* товуши рус тили таъсирида ўзбек тилига ўтган.

Айрим тилларда, жумладан, рус тилида ундошлар артикуляция жиҳатдан каттиқ ва юмшоқ талаффуз қилиш хусусиятига ҳам эга. Ўзбек тилида бундай хусусият йўқ.

III. Овоз шовқинининг иштирокига кўра ундошлар шовқинлилар ва сонорларга бўлинади. Шовқинлилар ўз ичида 2 га бўлинади: жарангли ундошлар ва жарангсиз ундошлар. Ўзбек тилида *б, в, з, д, ж, у, ҳ, г, ғ, й, м, н, р, л, нг* товушлари жарангли ундошлар, *п, ф, с, т, ш, ч, қ, о, х* товушлари эса жарангсиз ундошлардир.

Жарангли ундошларни талаффуз қилишда товуш пайчалари таранглашади ва товушга овоз ҳам қўшилади. Жарангсиз товушлар фақат шовқиндан борат бўлиб, уларни талаффуз қилишда товуш пайчалари таранглашмайди.

Ундошлар ичида шовқиндан овоз устун келувчи товушлар ҳам бор. Булар сонор (лот. овозли) товушлар дейилади. Сонорларда овоз анча кўп бўлади. Шунинг учун ҳам улар унлиларга яқин туради. Ўзбек тилида *м, н, нг, л, р* каби товушлар сонор товуш дейилади. Инглиз, рус тилларида *й* товуши ҳам сонор товуш ҳисобланади. Сонорлар пайдо бўлиш ўрнига кўра: бурун товушлари (*м, н, нг*), ён товуш (*л*) ва титроқ товуш (*р*) каби турларга бўлинади.

Назорат саволлари

1. Фонетика ва фонологиянинг ўрганиш объекти нима?
2. Товуш, фонема, фонеманинг вариантлари атамаларини тушунтиринг.
3. Товушнинг фонетик хусусиятларига нималар киради?
4. Артикуляция ва артикуляция базаси нима?
5. Нутқ акустикасига нималар киради?
6. Фонетик товуш ўзгаришлари қандай турларга бўлинади?
7. Нутқ фонетик жиҳатдан қандай бирликларга бўлинади?
8. Фраза ва такт қандай ажратилади?
9. Бўғин, урғу ва уларнинг турлари ҳақида маълумот беринг.
10. Унли ва ундошлар таснифи қандай белгилар асосида тасниф қилинади?

Таянч ибора ва тушунчалар (гlossарий)

1. **Фонетика** (грекча товуш) тилшуносликнинг тилдаги товушларни ўрганувчи бўлими.
2. **Умумий фонетика** умуман инсон товушларининг бошқа товушлардан фарқини, тилларнинг фонетик тизимини ўрганадиган соҳа.
3. **Тарихий фонетика** конкрет бир тилнинг товушлар системасини тарихий нуқтаи назардан текширувчи соҳа.
4. **Қиёсий фонетика** қариндош бўлмаган тилларнинг товушлар системасини бир-бирига қиёслаб ўрганувчи соҳа.
5. **Чоғиштирма фонетика** бир оилага мансуб тилларнинг фонетикасини бир-бирига чоғиштириб ўрганувчи соҳа.

6. **Тавсифий фонетика** маълум бир тил товуш системасининг ҳозирги ҳолатини ўрганувчи соҳа.

7. **Экспериментал фонетика** нутқ товушлари махсус замонавий асбоблар ёрдамида экспериментал йўл билан ўрганувчи соҳа.

8. **Фраза** нутқнинг икки томондан пауза билан чегараланадиган энг катта фонетик бирлиги.

9. **Такт** бир бош урғу билан талаффуз қилинадиган бир ёки бир неча бўғиннинг йиғиндиси.

10. **Проклитика** урғу олмаган сўзларнинг урғу олган сўзларга қўшиб талаффуз қилиниши.

11. **Энклитика** Урғусиз сўзнинг урғули сўздан кейин қўшилиб келиши.

Тавсия этилган адабиётлар рўйхати

1. Ирискулов М. Тилшуносликка кириш. -Т., 2008.
2. Йўлдошев И., Шарипов Ў. Тилшуносликка кириш. - Т., 2007.
3. Yoldoshev I., Muhamedova S., Sharipova O., Madjidova R. Tilshunoslik asoslari. - T., 2013.
4. Маслов Ю.С. Введение в языкознание. – М., 2007.
5. Мечковская Н. Б. Умумий тилшунослик, тилларнинг тузилмавий ва ижтимоий типологияси. - Т., 2006
6. Реформатский А.А. Введение в языкознание. – М., 2006

ВИЗУАЛ МАТЕРИАЛЛАР

1-савол. Фонетика ва фонология

1-илова

Фонетика қандай масалаларни ўрганади?

Фонетик жиҳатдан нутқ тўрт таркибий қисм: жумла, такт, бўғин ва товушга ажратилади. Фонетика ана шу тўрт birlikнинг тилда тутган ўрни, тури ва хусусиятларини ўрганади. Товушлар талаффузи нутқ органларига боғлиқлиги туфайли фонетика нутқ аппаратини ҳам ўрганишни назарда тутди. Фонетика, шунингдек, нутқнинг урғу, интонация ва шу каби бошқа таркибий қисмларини ҳам ўрганади

Фонология – маълум бир тилдаги фонемалар системасини, уларнинг фарқлаш белгиларини ўрганади

2-савол. Фонема тушунчаси

2-илова

Товушлар тил бирлиги сифатида ўрганилганда тил товушлари ёки фонемалар деб юритилади. **Фонема** энг кичик маъно англатадиган тил бирлигидир


3-савол. Фонетик ҳодисалар: комбинатор ва позиция ўзгаришлар

3-илова




4-савол: Нутқнинг фонетик жиҳатдан бўлиниши

4-илова



5-савол. Нутқ органлари ва артикуляция базаси


5-илова



Артикуляция – товушнинг ҳосил бўлишида нутқ органларининг ҳаракати ва эгаллаган ўрни.

Артикуляция базаси – нутқ товушларини ҳосил қилишдаги артикуляция ҳаракатларининг йиғиндиси

6-савол. Нутқ товушлари таснифи



3-МАЪРУЗА: Лексикология ва унинг бўлимлари. Сўз - тилнинг асосий бирлиги сифатида. Сўзларда маъно тараққиёти. Сўзларнинг шакл ва маъно муносабатига кўра турлари. Тилнинг лексик қатламлари.

Режа:

1. Лексикология ва унинг бўлимлари.
2. Сўз ва лексема. Сўзнинг семантик таркиби.
3. Сўзларда маъно тараққиёти: маънонинг кенгайиши, торайиши ва кўчиши.
4. Сўзларнинг шакл ва маъно муносабатига кўра турлари.
5. Тилнинг лексик қатламлари ва луғат таркибининг бойиши манбалари.

Мақсад: *Лексикология ва унинг бўлимлари, сўз ва лексема, сўзларда маъно тараққиёти, тилнинг лексик қатламлари бўйича билимлар ва тасаввурни шакллантириш, сўзларнинг шакл ва маъно муносабатига кўра турлари юзасидан билимларни чуқурлаштириш.*

Лексикология ва унинг бўлимлари. Лексикология тилшуносликда тил луғат таркибининг бойлигини ўрганиш билан шуғулланадиган бўлимдир. Бу бўлим умуман ҳар бир тилнинг луғат таркиби, шунингдек, сўзларнинг шакли ва маъно муносабатларига кўра турлари, сўзларнинг пайдо бўлиш йўллари каби қатор муаммоларни ўз ичига олади.

Лексикология ўз таркибига семасиология, лексикография, ономасиология, этимология, фразеология, ономастика каби тилшунослик бўлимларини ўз ичига олади. Аввало ана шу атамалар тавсифи ва ўрганиш объекти билан танишиб чиқамиз.

1. Семасиология (семасиология, сигнификация – маъно тўғрисидаги таълим) – инглизча *semasiologie*, немисча *semasiologia*, французча *semasiologie*, испанча *semasiologia*. 1. Тилшуносликнинг бўлими бўлиб, тил бирликларининг мазмунини ўрганади. 2. Тилшуносликда сўз ва ибораларнинг лексик маъносини ва уларнинг ўзгариш шароитини ўрганадиган бўлимдир. Демак, семасиология тил бирликларини маъно жиҳатдан ўрганади. Сўзнинг шакли деганда унинг таркибидаги товушлар. Сўзнинг маъноси деганда уни ташкил этувчи товушлар йиғиндисидан англашиладиган маъно назарда тушунилади. Семасиология тилнинг барча маъно англаувчи бирликларини ўрганади.

2. Ономасиология 1. семасиологиянинг бир қисми, бўлими бўлиб, предмет ва ибораларнинг тушунчаларни тилларнинг лексик ва фразеологик воситалари билан боғлиқ бўлган тамойил ва қонуниятларини ўрганади. 2. маънолар, номинациялар, тушунчалар, фарқ қилувчи маъно ва сигнификация тўғрисидаги фан, яъни нарса ва ҳодисаларга ном бериш

жараёнини ўрганади. Ономастика (ономазиология, ономаталогия) – тилшуносликнинг атоқли отларни ўрганадиган бўлими бўлиб, у қуйидаги бўлимларни ўз ичига олади:

- антропономика – киши номларни ўрганади;
- этнонимика – миллатларнинг номларини ўрганади;
- топонимика – географик жой номларини ўрганади;
- гидронимика – сув ҳавзалари номларини ўрганади;
- зоонимика – ҳайвонлар номларини ўрганади.
- терминология – ишлаб чиқаришдаги маълум тармоқнинг, йўналишнинг, мутахассисликнинг терминлари мажмуаси бўлиб, лексикологиянинг махсус қатламини ташкил қилади.

3. Этимология (etimologia) - 1. мустақил сўз ва морфемаларнинг келиб чиқиши ва тарихини ўрганадиган тилшуносликнинг бир бўлими, унинг сўз этимологияси, “ёлғон” этимологияси, халқ этимологияси каби таркиблари мавжуддир. 2. тил бирликларининг тузилишини ўрганувчи таълимот. Шу муносабат билан бу атама билан тарихан боғланган. Этимон сўзнинг дастлабки шакли унинг аслий, ҳақиқий (ибтидоий) шакли, маъноси атамасини ҳам эътибордан чиқармаслик лозим.

Тилшуносликнинг сўзларнинг келиб чиқиш масалаларини ҳам шакли, ҳам маъноси жиҳатдан ўрганадиган бир қисмидир.

4. Терминология ишлаб чиқаришдаги маълум тармоқнинг, йўналишнинг, мутахассисликнинг атамалар мажмуаси бўлиб, лексикологиянинг махсус қатламини ташкил қилади. Терминология – атамашуносликнинг бир неча шакллари мавжуд: халқаро атамашунослик, илмий атамашунослик, грамматик атамашунослик, сиёсий, иқтисодий, публистик, математик ва бошқалар. Бу маънода ишлатиладиган атамалар ичида лингвистик ва лексик нуқтаи назардан қаралганда, алло-эпик терминологияси эътиборлидир. Бунда лингвистик терминологиядаги систематик қарама-қаршиликлар кўзга ташланади. Чунки лексик тушунчадаги қарама-қаршилик алло атамаси атрофида гавдаланади, масалан: аллофон, алломорф, аллосема ва бошқалар.

5. Лексикография – инглизча (lexicographic) 1. луғат тузиш илми. 2. ҳар бир тил таснифи шаклида луғатлар тузиш. 3. ҳар бир тилга ёки таълим билимига тааллуқли луғатлар намунаси. Тил таркибидаги сўзларни маълум тартиб ва мақсад асосида (алфавит тартибида нутқда ишлатиш даражасига ва шу кабиларга кўра) ёзма равишда луғат тузиш билан боғлиқ кўплаб масалаларни ўз ичига олади, яъни тил таркибида сўзларни маълум тартиб ва мақсад асосида ёзма равишда тўплаб луғат тузиш масалаларини ўрганади.

Одатда, лексикография умумий ва ўқув лексикография қисмларга бўлинади. Умумий лексикография барча тиллар учун луғат тузиш назарий тамойиллари ва методларини чуқур ва атрофлича ёритиб беради. Ўқув лексикографияси эса педагогик ва методик қонун қоидалар нуқтаи

назаридан ёндашган ҳолда луғатлар тузиш масалаларини ўрганади. Ўз вазифаларининг мақсади ва мазмунига кўра ўқув луғатлари бир неча турларга бўлинади: Изоҳли луғат, терминологик луғат, энциклопедик луғат, икки тиллик луғат, морфем луғат, кўптиллик луғат, қисқартмалар луғати, этимологик луғат, омонимлар, синонимлар луғати ва ҳақозолар. Кейинги вақтларда “идеографик” ёки “тезаурус луғати” номи билан аталган луғатлар тузилди ва тузилмоқда. Бу луғатлар бирор тушунча доирасидаги сўзлар гуруҳини, яъни семантик майдонини сўзларнинг бир биридан фарқланиши белгилари ва ички боғланиш таркибини изоҳлаб беради.¹

6. Фразеология – инглизча phraseologia (phrasislogia). 1. тилшуносликнинг, сўзнинг лексик-семантик бирикувини ўрганадиган бўлимдир. 2. ҳар бир бўлимнинг фразеологик бирлик фонди (заҳираси). 3. фразеологик бирликнинг (бирикувининг) турлари мажмуаси. Фразеология тилнинг турғун бирликларини ўрганади.

Сўз ва лексема. Сўз тилшуносликнинг марказий бирлиги бўлиб, у тилшуносликнинг барча бўлимларида ўрганилади. *Сўз предметларнинг, ёзув эса товушларнинг символidir.* (Аристотелр).

Сўз қуруқ товушлардан иборат бўлмай, материянинг номидир. (XVII аср инглиз материалисти Томас Гоббс).

Сўз тарихан ташкил топган товуш тилининг асосий бирлиги бўлиб, реал воқеликнинг умумлашма акси бўлган тушунчанинг яшаш формасидир. (О.С.Ахманова, В.В.Виноградов).

Сўз лексик маънога эга бўлган, мустақил қўллана оладиган айрим товуш ёки товушлар бирикмаси. (Э.Б.Агаян).

Сўз ўзининг товуш состави орқали борлиқдаги предмет, процесс, ҳодисалар ҳақидаги тушунчаларни ифодаловчи ёки улар ўртасида муносабат билдирувчи асосий тил бирлиги. (Д.Э.Розенталр).

Сўз коллектив аозолари томонидан бир хилда талаффуз қилиниб, бир хилда идрок қилинадиган ҳамда бирон предметни (ҳодисани) билдирадиган ёки улар ҳақидаги тушунчаларни эсга соладиган битта товуш ёки бир нечта товушлар бирикмаси сифатида шаклланган ишора (символ) дир. (С.Усмонов).

Мазкур таърифларда сўзнинг қуйидаги муҳим хусусиятлари акс этган:


- тил бирлиги сифатида аташ функциясини бажариши;
- тушунчанинг яшаш формаси, унинг ифодаси эканлиги;
- хотирада товуш ва график образи мавжудлиги ҳамда сақланиши.
- жамоа томонидан бир хил тушунилиши;
- кенг маънода ишора (символ) эканлиги.

¹ Ю.Н.Караулов. Общая и русская идеография. М., изд. «Наука», 1976, с.3-22.

- лексик маънога узвий боғлиқ бўлган, ундан келиб чиқадиган грамматик маънонинг мавжудлиги ва о.к.

Кўринадикки, сўзнинг асосида аввало унинг лексик маъноси ётади. Шундай экан, лексик бирлик бўлган сўзнинг лексик томони, маъноси нима? Сўз одатда борлиқдаги бирор фактни номлайди, атайди. Сўз киши онгида товуш ва график образлар сифатида сақланади. Инсон хотирасида нарсаларнинг умумлашма излари ҳам бор. Ана шу икки томоннинг боғланиши сўзнинг лексик маъносини ташкил этади. Бундан кўринадикки, сўз предметнинг ишораси сифатида хизмат қилади. Бошқача қилиб айтганда сўзнинг маъноси маълум бир тил системасининг воситалари орқали тушунчанинг реаллашувидир. (Борлиқда предмет, онгимизда тушунча, тилда эса тушунчани ифодалаш учун хизмат қиладиган сўз мавжуддир. Борлиқда предмет бўлмаслиги мумкин, лекин хотирада тушунча, тилда эса унинг атамаси - сўз мавжуд бўлади.

Лексикологияда сўзнинг семантик тизими тил белгисининг функционал вазифаси билан боғлиқ ҳолда тадқиқ қилинади. Бунга асос қилиб, “семантик учбурчак” сўз фонемаларининг ёки ёзувдаги графемаларнинг (ҳарфларнинг) йиғиндиси эканлиги билан унинг сигнификат (сўзда ифодаланган тушунча) ва денотат (сўзни ифодаловчи предмет) сўзнинг асл маъносини ифодалайдиган) таркибининг элементи сифатида қаралганда, сўзнинг фонетик жиҳати билан сигнификат алоқаси назарда тутилади. Сўз семантикасининг нутқда ишлатилиши ҳисобга олинса, бир йўла денотат ва фонетик томони ўртасидаги алоқага асосланади. Ф.де Соссюр таълимотида сўзнинг акустик шакли ва маъно жиҳати кўрсатилиб, маъно денотати ўртасидаги алоқа очилмай қолган эди. Жумладан, Ю.С.Степанов семантик учбурчак схемасини қуйидагича изоҳлайди. (бу ерда сўз – фонемалар бирикмасини ёки бир фонема сифатида олинган)².



Сўзларнинг фарқланиш белгиларига **сема** (инглизча – seme 1. семеманинг бир кўриниши (семема – сўзнинг маъноси, предметлик мазмуни) бўлиб, сўзнинг синтагматик қаторидаги кичик маъно элементи) деб аталади ва уларнинг семаларининг йиғиндиси семантема деб юритилади. Бу атама мазмун жиҳатдан лексемага тўғри келади. Агар

² Ю.С.Степанов. Основы общего языкознания. М.изд. Просвещение, 1975, стр.9.

семалар гапнинг формал (грамматик) томонини билдирса, семантема нарсаларнинг маъносини билдиради. Аммо семалар ўртасидаги муносабат маъно (лексика) билан боғлиқдир. Семантикада қайси маънолар семаларга тегишли ёки уларнинг бири тегишли эмаслиги аниқ эмас. Бу вазиятда уларнинг алоқасини синонимик нуқтаи назардан аниқлаш мумкин. масалан, *кетмоқ, уходить*, инглизчи *to go* феъли ҳаракатнинг йўналиши маъносидаги семага эга. Бошқа феъллар – *бормоқ, юрмоқ, жўнамоқ* ҳам кетмоқ феълининг маъносига яқин семаларга эга.

Бироқ улар шу ҳаракатнинг айрим белгиларини ифодалаши мумкин. бу маънолар (белгилар) нутқ вазиятида аниқроқ намоён бўлади. Одатда, уларнинг бир семантик таркибдан иккинчи семантик таркибга ўтиши семантик трансфикация сифатида қаралади. Бу шаклдаги трансформация грамматикага ўхшаш бўлса ҳам, бу ўринда сўз маъноларининг кенгайиши ва торайиши, қайта нормаланиши асосида тушунчалар ўртасидаги боғланиш ва тафаккурдаги формал-мантик қонуниятлар ётади.

Сўз тилнинг асосий бирлиги бўлиб, аънаналарга биноан ифодаланиши ва маъно бирлиги, тилшунос олимлар томонидан сўзнинг формал ва семантик маънолари, грамматик ва лексик маъноларининг қарама-қаршилиқ жиҳатлари аниқланган ва тасдиқланган. Бу қарама-қаршилиқлар орасида сўзнинг икки томони, яъни унинг шакли (мулоқотда бўлиши, ифодаланиши, коммуникативлиги) ва мазмуни орқали кенг тушунтирилади.

Сўзнинг семантик томонидан икки томонлама бирлик эканлиги ташқи (предмет) ва ички (тил қурилиши) томонини ифода этади. Шунинг учун сўз тилда икки қиёфада намоён бўлади: 1) номинация, яъни ифода бирлиги сифатида маълум лексик маънога эга бўлган луғатнинг элементи; 2) тил қурилиши таркибининг негизи сифатида маълум морфологик шаклланишга, яъни грамматик маънога эга бўлган бирлик.³

Demak, so‘z muammosi leksikologiyaning asosiy o‘rganish manbayidir. O‘zbek tilshunosligida **leksema va so‘z** atamasining hozirgacha yonma-yon qo‘llanayotganligi va leksemani lisoniy sath birligi atamasi, so‘zni nutqiy sath birligi sifatida qarashga intilish kabi ziddiyatli nuqtayi nazarlar yashab kelayotganligini aytish joizdir. Tilshunoslar Arastu davridan boshlab leksikaga ta’rif berish ustida bosh qotirganlar. Ularning barchasi so‘zning alohida-alohida qirralariga berilgan ta’riflar bo‘lib, leksemaning barcha jihatlarini qamrab olishga qodir emas. «Bugungi kunda sintaksis bo‘yicha tilshunoslik nazariyasida yaratilgan kesim haqidagi yangi ta’limotga tayangan holda o‘zbek tilshunosligida o‘zbekcha kesim tushunchasini ishlab chiqish mumkin ekan, bunga bevosita metodologik omil sifatida tayanib, uni umumiy va xususiy leksema nazariyasiga ham tadbiiq qilish lozim», - deydi professor H. Ne’matov. Darhaqiqat, leksemaga

³ Общее языкознание. Внутренняя структура языка. Код, изд. Член корр. АН СССР. Б.А.Серебренников. М., изд. Наука, 1972, стр. 395.

ta'rif berilar ekan, har bir tilning ichki tabiatidan kelib chiqish zarurati mavjud bo'lishi kerak. Ma'lumki, Yevropa tilshunosligida leksemaga morfema orqali ta'rif beradilar, chunki flektiv tillar, jumladan, rus va arab tillarida o'zaklar mustaqil qo'llanishga ega emas, o'zak morfemaning bir turi sifatida qaraladi. Chunonchi, *пишу, читаю, друзья, ушу* kabi ruscha, *ktb, qr'* kabi arabcha so'zlarda o'zak qo'shimchalar bilan qorishib ketgan, o'zak bilan affiks orasida chegara aniq emas. Turkiy tillarda o'zak va qo'shimcha orasida chegara aniq bo'lganligi tufayli, leksemaga morfema orqali emas, balki lisoniy sathning alohida bir birligi sifatida qarash lozim.

Leksema nima? Bu savolga shunday javob qaytarish mumkin: Jamiyat a'zolari uchun tayyor, umumiy, majburiy bo'lgan, shakl va mazmunning barqaror birikuvidan tashkil topgan voqeylikdagi narsa, belgi, xususiyat va munosabatlarni shakllantiruvchi, nutq va lug'atda grammatik morfemalarni o'ziga biriktira oladigan morfema turi leksemdir. Ma'lumki, formal tilshunoslikda til va nutq hodisalari, birliklari farqlanmas edi. Shunga ko'ra, leksema va so'z ham bir-biridan farqlanmagan. Sistem tilshunoslik nuqtayi nazaridan bevosita kuzatishda berilgan matn va lug'atlarda qayd etilgan so'zlar nutq birliklari hisoblanadi. Yuqorida qayd etib o'tganimizdek, til birliklari bevosita kuzatishda berilmagan bo'lib, ular jamiyat a'zolari uchun tayyor va majburiy bo'ladi.

Til birliklari (fonema, morfema, leksema, konstruksiya)dan fonemaning to'la ta'rifi bilan tanishmiz. Morfemalarni keyingi ma'ruzalarimizda atroflicha o'rganamiz. Leksemaning nutqdagi voqeligi so'zdir. Leksemalar konstruksiyalarda mustaqil o'rin egallay olish yoki egallay olmasligiga ko'ra, mustaqil va yordamchi leksemalarga bo'linadi.

Mustaqil leksemalar nutqda alohidalik xususiyatiga, o'zidan keyin grammatik morfemalarni ergashtirish qobiliyatiga ega. Biroq leksemalar ichida shundaylari ham borki, ular gapda mustaqil o'rinni egallay olmaydilar. Bunday leksemalar sirasiga yordamchi so'zlar (bog'lovchilar, sof ot, fe'l, ravish, ko'makchi, yuklama, nisbiy so'zlar va b.: *ham, hamda, biroq, lekin; uchun, bilan, sari, sayin; tag, ost, bo'y, old; qara; boshla, yubor, bo'l, so'ng, kabi, yanglig', burun...*) kiradi. Mohiyatan ushbu yordamchi leksemalar grammatik morfemalardir. Ular leksemalarga o'xshab, alohidalik xususiyatiga ham ega bo'ladi. Boshqacha aytganda, yordamchi so'zlar leksemalar va qo'shimchalar orasida «oralik uchunchi» bo'lib, ham lekmemalar, ham grammatik morfemalar xususiyatini o'ziga mujassamlashtiradi. Ammo ular na leksemalarga, na grammatik morfemalarga to'liq teng bo'la olmaydi.

Leksema jamiyatning barcha a'zolari uchun tayyor, umumiy va majburiy sanalishi bilan bir qatorda yana bir qancha xususiyatlarga egadir. Jamiyat a'zosi leksemani yasamaydi, uni tayyor holda qabul qiladi. Jamiyat a'zosining ongida har bir leksema boshqa leksemalar bilan o'xshashlik qatorlarida (paradigmalarda) yashaydi. Masalan: *[daftar] ~ [bloknot]; [daftar] ~ [oynoma] ~ [ro'znoma];*

[daftar] ~ [qissa] ~ [roman]; [daftar] ~ [muqova] ~ [varaq] ~ [bet] ~ [bob] kabi. *Daftar* soʻzi shu munosabatlar asosida turlicha maʼno beradi.

Leksemalar inson ongida qoʻshnichilik munosabatlarida (sintagmatik) ham yashaydi. Masalan: [daftar] ~ [yoz] ~ [ol] ~ [sifatli] ~ [matematika] ~ [ona tili]; [daftar] ~ [son qoʻshimchalari] ~ [egalik qoʻshimchalari] ~ [kelishik qoʻshimchalari].... Bu oʻxshashlik va qoʻshnichilik munosabatlari, maʼno va vazifa imkoniyatlari nutqda oydinlashadi, aniqlashadi. Demak, leksemalar til egalari ongida voqelashgan va voqelashadigan nutqiy imkoniyatlar yigʻindisi hamdir.

Leksema til birligi sifatida turlicha imkoniyatlar majmuasi boʻlsa, soʻz uning voqelanishi, roʻyobga chiqishi, aniq shakl, mazmun va vazifa kashf etgan moddiy koʻrinishidir. Har bir leksema nutqda muayyan soʻz sifatida namoyon boʻladi. Leksema ikki tomonga ega boʻlgan til birligidir. Aniqrogʻi, u shakl va mazmun tomonlaridan iborat ramzdir. Sistem tilshunoslikda leksemaning shakl tomoni **nomema** deyiladi. Nomema faqat leksemaning shakliga (moddiy qobigʻi, tashqi tomoniga) nisbatan ishlatiladi. Leksemaning mazmun tomoni (maʼnosi, ichki tomoni...) esa **semema** nomi bilan yuritiladi. Demak, leksema = nomema + semema dir.

Nomema leksemaning tilga xos tomonidir. U ongimizda muayyan fonemalar tizmasi sifatida mavjud. Nomemaning fonemalar tizmasidan iboratligi ichki nutq jarayonida (kishi fikr yuritganda, maʼlum matnni ichida oʻqiganda) aniq seziladi. Chunki odam ichki nutq jarayonida soʻzlarni, qoʻshimchalarni ketma-ket tizib, xuddi gapirayotgandek, ularni grammatik jihatdan shakllantiradi. Demak, inson faqat ovoz chiqarganda emas, balki ovozsiz ham fonemalarga moddiy shakl bera oladi. Tashqi muhitda nomema tovushlar (yoki harflar) tizmasi sifatida voqelashadi. Substansional tilshunoslik leksemalarning moddiy tomoniga – nomemalarga koʻp ahamiyat bermaydi. Chunki nomema leksemaning mohiyatiga taʼsir koʻrsatmaydi. Leksemaning mohiyati esa uning ichki tomoni – semema orqali va shunga koʻra leksemaning boshqa til birliklariga munosabati, aloqaga kirishuvi orqali belgilanadi. Nomemaning ahamiyati nazmiy nutqda behad katta boʻladi (qofiya, radif, tajnis turlari, sajʼ....). Shu sababli sheʼriyatda nomemaga asosiy eʼtibor qaratiladi. Lingvistika nuqtayi nazaridan esa asosiy eʼtibor faqat sememaga qaratiladi.

Semema leksemaning ichki tomoni, uning mazmuni, maʼnosi, nimani ifodalab kelishidir. Sememalar koʻpincha ongimizda muayyan bir tushuncha bilan bogʻliq boʻladi. Tushuncha – ong, mantiq birligi, semema esa leksemaga xos birlikdir. Masalan, [oʻrik] leksemasining sememasi quyidagi tushunchalarda namoyon boʻladi: 1) hoʻl meva turi; 2) shu mevaning quritilgani; 3) shu mevani beradigan daraxt.

Sememaning tushunchalar bilan bogʻliqligini faqat mustaqil leksemalardagina kuzatish mumkin. Yordamchi leksemalarda, olmoshlarda esa

bunday bog‘lanishni ko‘rmaymiz. Tilshunoslikda sememani hosil qiluvchi ma’no bo‘laklari **sema** deyiladi. Masalan: [daraxt] leksemasining semalari quyidagilar: 1) predmet; 2) o‘simlik; 3) yerda o‘sovchi; 4) tanali; 5) ildizli; 6) shoxli; 7) bargli.

Leksemalarni shu nuqtayi nazardan o‘zaro ichki munosabatlar asosida muayyan qatorlarga, guruhlariga, tur va turkumlarga birlashtirish zarur. leksemalarni tizim sifatida tahlil qilish sistem tilshunoslikning asosiy vazifalaridan biridir.

Сўзнинг лексик маъноси ҳамма вақт тушунчанинг ўзинигина ифодалайвермайди. Сўзнинг асосий лексик маъноси эмоционал-экспрессив оттенка, стилистик боёқ биргаликда лексик маънонинг компонентларини ташкил этади. Сўзнинг маъноси ҳақидаги мазкур фикрлардан кўриниб турибдики, сўз реал борликдаги турли-туман нарсалар ва улар ҳақидаги тушунчалар билан диалектик равишда боғлиқдир. Сўзнинг табиатини аниқ тасаввур қилмоқ учун сўз билан тушунча ўртасидаги муносабатнинг қандайлигини яхши билиш лозим.

Ўтмишда яшаган баъзи машҳур олимлар (Платон, Сократ ва б.) сўз билан предмет ўртасида табиий боғланиш бор деб ойлаганлар. Сўз предмет билан бирор жиҳатдан боғланса ҳам, бироқ бу боғланиш бевосита, ички табиий боғланиш эмас. Агар сўз билан предмет ўртасида бундай боғланиш бўлганда эди, бир хил нарсаларни бир неча ном билан аташ мумкин бўлмай қолар эди. Ном (сўз) билан нарса ўртасидаги муносабат шартлидир.

Бироқ шуни ҳам айтиш керакки, предметларга ном мутлақо тасодифий равишда қойилмайди. Ном қўйишнинг маълум қонунияти бор. XIX асрда яшаган немис файласуфи Л.Фейербах номнинг моҳияти ҳақидафикр юритиб: “Ном нимадир? Фарқлаш учун зарур бўлган белги, кўзга ташланиб турадиган қандайдир аломат бўлиб, мен предметни бутунлигича тасаввур этиш учун нарсанинг намояндаси, вакили қилиб оламан” дейди. Оақиқатан, бирор нотаниш нарсаларга дуч келганда, аввал у таниш предметларга солиштириб кўрилади ва шу асосида янги предметнинг кўзга ташланадиган бирор белгиси ажратилиб, ана шу белги предметга ном қойиш учун асос қилиб олинади. Шунинг учун ҳам рус тилшуноси А.А.Потебня “Бирор нарсани шундай деб атабмизми, бунинг изоҳи бор” деб алоҳида таъкидлаб ўтган.

Бирор сўзга асос бўлган белги вақтлар ўтиши билан аста-секин унутила боради. (Масалан, *отланмоқ*). Натижада сўзнинг ҳозирги маъноси билан унинг дастлабки маъноси ўртасида узилиш содир бўлади. Тилдаги жуда кўп сўзлар ана шундай процессни ўз бошидан кечирган. Тилда келиб чиқишини, пайдо бўлиш тарихини исботлаш қийин бўлган сўзлар (мотиви йўқ сўзлар) шу тарика пайдо бўлган. Агар сўз умумлаштирмай якка-якка нарсаларни билдирганда эди, тилда сўзлар толиб-тошиб кетган бўлар эди.

Сўз билан тушунча ўртасидаги муносабат ҳақида яна қуйидагиларни айтиш мумкин. Сўз ишора (символ) сифатида ташқи, материал томон бўлса, тушунча фикр сифатида ички идеал томондир. Бу икки томон бир-бирига қарама-қарши бўлибгина қолмай, улар айна замонда ажралмас категориялар ҳамдир. Сўз билан тушунчанинг ўзаро уйғунлик томони уларнинг умумлаштириш хусусиятида ҳам кўринади. Тушунчани шу асосда сўз билан тенглаштириш, уларни бир хил ҳодиса деб талқин этиш тўғри бўлмайди. Сўз билан тушунча ўртасида муҳим фарқлар ҳам бор. Булар қуйидагича:

- сўз тилнинг элементи бўлса, тушунча тафаккурнинг элементи дир;
- тушунча идеал ҳодиса бўлиб, предметларнинг умумий ва муҳим белгиларини акс эттирувчи фикр формасидир, сўз эса материал ҳодиса бўлиб, тушунчанинг яшаш формасидир. Буни қуйидаги мисол орқали тушунтириш мумкин:

Сўз ичра мудом ақл яшириндир. (Сўз ва тушунча)

Сўз чимилдигу, ақл келиндир. (Сўз ва предмет) (Н.Хисрав).

- сўз маълум бир жамоага мос бўлса, тушунча умуминсоний дир;
- сўзда миллий, эмоционал томонлар бўлиши мумкин, аммо тушунча бундай характерга эга эмас.
- тушунча ҳар гал ўзининг мантиқий мазмуни билан чегараланади;
- ҳар қандай сўз тушунчани билдиравермайди, бирор тушунча одатда сўз орқали ифодаланади. Бир сўз бир неча тушунчани, бир неча сўз бир тушунчани билдириши ҳам сўз билан тушунча ўртасида фарқ борлигини кўрсатади. Сўз билан тушунча ўртасидаги тенглик атамаларгагина хос.

Юқорида айтиб ўтилганидек, одатда предметга ном унинг кўзга ташланиб турган бирон белгиси асосида қойилади. Бироқ нарсани номлаш учун асос қилиб олинган белги иккинчи бир нарсада ҳам бўлиши мумкин. (Масалан, *кўк - ранг, кўк - ўт, ўсимлик, кўк - осмон*). Бунинг натижасида ҳар бир тилдаги анчагина сўзлар ўзининг асосий маъносидан ташқари бир қатор кўчма маънога ҳам эга бўлади. Натижада бир сўз бир неча маъно касб этиб, кўп маънолилик хусусияти келиб чиқади. Сўзнинг бир неча маъно англатиши *полисемия* ёки *полисемантизм*, бир маъно билан чегараланиши *моносемия* ёки *моносемантизм* деб юритилади.

Сиртдан қараганда полисемия фикр олишувига монелик қилиши мумкиндек туюлади. Аслида эса бундай эмас. (“Полисемиядан жудо бўлган тил лингвистик дўзахга мубтало бўлади”. О.Есперсин). Тилда полисемантик сўзларнинг маъносини аниқ белгилаб берувчи мезон-воситалар бор. Ана шундай мезон-восита контекст дир. (“Сўзнинг оақиқий ҳаёти контекст ичида дир”. А.А.Потебня). контекст (лотинча боғланиш) сўзни бошқа маънолардан тозалайди, уни кўп маънолиликдан маўрум этиб, аниқ бир

маънога келтирадиган сўзлар ўрамидир. Баъзилар ойлагандек, контекстнинг роли у билан чегараланмайди. Контекст юқоридаги функциядан ташқари сўздаги полисемантик ҳолатни топиш учун ҳам хизмат қилади. Масалан, *кўз қораси энг нозик орган. Хайр оғлим, хайр кўзим қораси!* (Ғ.Ғ.). Баозан сўзнинг маъносини контекст эмас, нутқ вазияти (ситуация) аниқ кўрсатади. *Илдиз остида нима бор?* (Математика); *Илдиз остида нима бор?* (Ботаника). Бу икки гап таркибидаги илдиз сўзининг қандай маънода қўлланганлигини сўзлар ўрами орқали эмас, балки нутқ вазияти орқали аниқ бўлаётир.

Хуллас, сўз предметнинг номи, тушунчанинг ифодаловчисидир. Сўз номинатив функция бажарувчи тил бирлигидир. Тилнинг бирорта бошқа бирлиги (фонетик ёки грамматик бирлиги) бундай вазифа бажармайди. Сўз тилнинг энг конкрет ва асосий бирлиги ҳисобланади. Тили чиқаётган годак тилнинг сўз томонига дуч келади. Нутқни остириш, чет тилини ўрганиш даставвал сўзларни ёдлашдан бошланади. Ёзувчи ва таржимон аксарият ҳолларда сўз билан иш кўради. Тилни онгли, илмий билмайдиган киши тилнинг фонетик ёки грамматик томонини эмас, балки унинг сўз томонини аниқ тасаввур этади, чунки сўз тил структурасида кўзга яққол ташланиб туради. Шу сабабдан бўлса керак, товушлашиш, қўшимчалашиш дейилмай, сўзлашиш гаплашиш дейилади.

Шундай қилиб, сўз лексикологиясининг энг ҳаракатчан соҳаси бўлиб, тилшуносликнинг ҳамма соҳалари билан алоқада, улар билан бирга иш кўради. *Xulosa qilib aytish mumkinki, leksema «o‘zida tayyorlik, majburiylik, takrorlanuvchanlik, ijtimoiylik xususiyatlarini mujassamlashtirgan, shakl va denotativ ma’no birligidan iborat mustaqil anglanish va qo‘llanish tabiatiga ega bo‘lgan lisoniy birlik» deb tariflanar ekan, bu ta’rif faqat mustaqil leksemalar uchun xosdir. Chunki yordamchi leksemalar denotativ xususiyatlarga ega emas. Yordamchi leksemalar uchun grammatik ma’no xosdir.*

Сўзларда маъно тараққиёти: маънонинг кенгайиши, торайиши ва кўчиши. Тил ўз доирасидаги субъектив ва объектив қонун-қоидалар асосида ривожланади, тараққий этади ва бу жараён жамиятда содир бўлаётган ҳодисалар билан боғлиқ бўлади. Бундан ташқари, жамиятнинг тараққиётига ҳам, ўз навбатида, тилнинг таъсири катта. Тилнинг луғат таркиби ҳам бундан мустасно эмас. Сўз маъноси ривожланиши, сифат ва миқдор ўзгариши, улар маъноларининг кенгайиши ва торайиши, ҳатто сўзларнинг тилдан тушиб қолиши, яъни истъъмолдан чиқиб кетиши ҳам мумкин. Бунда жамият тарихи ва унинг тараққиёти алоҳида аҳамиятга эга.

Ижтимоий ҳаёт ва унинг асосларидан бири бўлган тафаккурнинг интенсив ривожланиб бориши фан ва техниканинг тараққиётига олиб келади. Натижада янгидан-янги табиий ҳодисалар моҳиятини билиш,

ўзлаштириш, ҳаётга тадбиқ қилиш, техника янгиликларини кашф қилиш лозим бўлади ва у жамият тараққиётига олиб келади. Тил буларнинг барчасига ҳам алоҳида янги ном ярата олмайди, аммо уларни мавжуд истемолдаги сўзлар ёрдамида янги маънолар билан ифодалаш мумкин. Масалан: *учмоқ* сўзи аслида паррандалар ҳаракати билан боғланган. Аммо ҳозирги кунда унинг маъноси кенгайиб, *варрак*, *самолёт*, *ернинг сунъий йўлдоши* каби тушунчалар билан ҳам ифодаланадиган бўлди. Ёки *майдон* сўзи *спорт майдони*, *Мустақиллик майдони*, *мардлар майдони*, *футбол*, *волейбол*, *баскетбол майдони* ва бошқалар. Рус тилида *крыло* сўзининг маъноси *крыло птицы* – қушларга хос предмет, аммо бу сўзлар ҳозирги кунда *крыло самолета*, *левое*, *правое крыло поля*, *правая*, *центральное крыло здания* ва бошқа маъноларда ҳам қўлланмоқда. Сўз маъноларининг кенгайиши ва торайиши ҳодисалари луғат таркибининг доимо янгилашини таъминлайдиган воситалардан биридир.

Сўз лексик маъносининг кенгайиши натижасида кўп маъноли (полисемантик) сўзлар пайдо бўлади. Лексик маънонинг торайиши эса сўз маъноси кенгайишининг аксидир. Сўз маъносининг торайиши унинг қўлланиш чегараси, доирасини белгилайди. Кўпчилик тилшуносларнинг фикрича, сўз маъносининг торайиши деганда умумлаштирувчи сўзнинг айрим, хусусий маънони ифодалашга ўтиши тушунилади. Масалан: *ош* сўзи илгари барча овқат турларини билдирадиган бўлса, ҳозирги кунда фақат *палов* маъносини билдиради. Рус тилида *хрусталь* сўзи хрусталдан ишланган буюмларни, идишларни назарда билдиради, аслида эса бу сўз билан кристал маъносини ифодалар эди.

Сўзларнинг кенгайиши ёки торайиши тўғрисида қуйидаги мисолни ҳам келтириш мумкин. Масалан: *бахши* сўзи аслида хитойча бўлиб, хитой тилида “пак-си” (ҳозирги хитой тилида *бо-ши*) шаклида бўлиб, туркий тилга мўғул тили воситасида ўзлаштирилган. Ушбу хитойча сўз япон тилидаги “*hakase/hakusi*” сўзлари учун ҳам манба бўлиб ҳисобланади. “Турк тилининг этимологик луғати”да *бахши* сўзи қуйидагича изоҳланади: “*Хитойча пак-си ёки поси шаклида бўлиб, устоз, ёзувчи, котиб маъноларини англатади*” ва шу шаклга асосланиб *бахси-бакси* сўзлари ишлатилади. Бу шакл қадимги турк тилида ишлатилиб, “*тўй тантаналарини бошқарувчи кишига*” нисбатан қўлланилган. Ҳозирги Осиё туркларининг тилида “*п*” товуши “*б*” билан ифодаланади. Шунинг учун: *по-си / бо-си*, *бакси / баски*. Санскритда *bhinsi*, мўғилча *baksi*. “*Древнетюркский словарь*”да табиб ёки ҳокимларнинг отаси *bakshi* деб аталган. Отаси *бахши* туркий тилда “*от*” сўзига “*амак*” қўшимчасини қўйиши натижасида қўйиши натижасида ҳосил бўлган “*отамак*”, “*ўтамоқ*” – “*сўз айтмоқ*”дир. Қадимда бу сўз “*ўт-ўланлардан дори-дармон*

тайёрлаб, беморларни даволайдиган табиб, ҳоким маъноларини ифодалаган”⁴.

Ҳозирги ўзбек тилида бу сўз учрамайди, аммо ҳозирги турк тилида *отаки – отамак – дори-дармон* билан беморни тузатадиган, ҳаким, табиб маъноларини англатувчи сўз шаклида ишлатилади. “Девону луғатит турк”да бу атама “отачи” шаклида учрайди ва “табиб” маъносини англатади. Бу атамани баъзи шева ва лаҳжаларда “бахши”, “табиб”, “шаман”, “қуш ваҳшийси”, “фолбин” шаклларида қўлланилишини кайд қилган.

В.В.Бартольднинг фикрича, бахши лексемаси Шарқий Туркистонда яшовчи уйғур котиблар ва уйғурлар ичида яшаган буддистлар орасида бахши сўзи ана шу маънода ишлатилган. Мўғуллар давлатида бахши сўзи “котиб”, “маъмур” маъноларини англатган. А.К.Боровковнинг ифодалашича, XII-XIII асрларда Шарқий Туркистонда уйғур котиб-бахшилар обрўли ўринда бўлишган. Улар расмий девонхоналарда хизмат қилишган. Алишер Навоий ўз асарларида “бахши” сўзини асосан “котиб”, “мирзо” маъноларида ишлатган. “Бобурнома”да ҳам “бахши” сўзи “котиб”, “мирзо”, “ёзувчи” маъноларида ишлатилган.

Ҳозирги ўзбек тилида ҳам бахши сўзи ишлатилиб, у қуйидаги маъноларни англатади: 1. халқ дostonларини куйловчи шоир, оқин. 2. Дуолар ўқиб, дам солиб, ирим-сиримлар қилиб даволовчи табиб. Кўриниб турибдики, ҳозирги ўзбек тилида бахши сўзининг қўлланиши кенгайган, айниқса, маъно англатиш чегарасида.

Тахрир сўзининг араб тилидаги маъноси “асар ёзиш” маъноси билан чегараланган бўлса, ҳозирги ўзбек тилида унинг маъно чегараси анча кенгайган ва асарга тузатишлар киритувчи ёки чоп қилишга, нашр қилишга тайёрлаш, бир ишни илмий нуқтаи назардан талаб даражасига олиб бориш каби маъноларни ҳам билдиради.

Муниший, мусаввир, ҳаттот, унишо каби сўзларининг қўлланиш маънолари торайган. Баъзи арабча сўз ва атамаларнинг маъноси анча кенгайган, масалан, ҳат сўзи дастлаб уч маънода қўлланилган бўлса, бугунги кунда тўққиз маънони англатишда қўлланилади. Қалам сўзи ҳам илгари икки маънода қўлланилган бўлса, ҳозир унинг олти та маъноси ишлатилади – бу ҳодиса маънонинг кенгайишидир.

So'zlarninig shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari. Til birikmalarini yaxlit bir tizim sifatida o'rganish borasidagi tadqiqotlar natijasida ma'lum bo'ldiki, leksik birliklar lisonda turli semantik munosabatlar asosida har xil paradigmalar hosil qilgan holda mavjud bo'ladi. Sinonimiya, antonimiya, graduonimiya, partonimiya, giponimiya kabilar ana shunday lisoniy

⁴ И. Йўлдошев, Ў. Шарипова. Тилшунослик асослари. 90-91 бетлар.

munosabatlar sirasiga kiradi. Quyida ularning har birini alohida-alohida ko`rib o`tamiz.

Sinonimiya. Shaklan turlicha, ammo bir tushunchani turli bo`yoq va ottenkalar bilan ifodalaydigan leksemalar sinonimlardir. Ma`nodosh leksemalar orasidagi aloqadorlik *s i n o n i m i k m u n o s a b a t* deyiladi. Ma`lumki, o`zbek nutqida ishlatiladigan so`zlarning juda katta qismini ko`p ma`noli (polisemantik) so`zlar tashkil etadi. Ko`p ma`noli so`zlarda so`zning asl bosh (yetakchi) ma`nosidan o`sib chiqqan turli hosila ma`nolar kuzatiladi. Aslida leksemalar o`zaro sememalari asosida boshqa leksemalar bilan ma`nodoshlik munosabatida bo`ladi. Aniqrog`i, ko`p sememali (ma`noli) leksemalar har bir sememasi bilan alohida-alohida ma`nodoshlik qatoriga kiradi. Chunonchi, [*bosh*] leksemasi «tananing bo`yindan yuqori qismi» semasi asosida [*kalla*] leksemasi bilan, «rahbarlik qilmoq, boshqarmoq» semasi asosida [*yetakchi*], [*yo`lboshchi*], [*sardor*], [*boshliq*], [*rahbar*] leksemalari bilan, «tik narsalarning tepa qismi» semasi asosida [*uchi*], [*cho`qqisi*] leksemalari bilan sinonimik munosabatga kirishadi. Demak, sinonimiya hodisasi haqida gap ketganda, bu hodisani *semantik* sinonimiya deb atash to`g`riroqdir.

Sinonim leksemalar sememalaridagi atash va vazifa sememalari aynan bir xil bo`lib, faqat ifoda semalari farqlanadi. Masalan, *kulmoq ~ iljaymoq ~ tirjaymoq ~ ishshaymoq ~ hiringlamoq ~ tabassum qilmoq*. Ma`nodoshlik qatoridagi mazkur leksemalarning barchasida atash semalari bir xil: «xursandligini yoki zavq-shavqini, ichki quvonchini kulgi bilan ifodalamoq». Ammo ifoda semalari har bir leksemada o`ziga xos. Ya`ni «shaxsiy munosabat» har bir leksemada boshqacha namoyon bo`lgan. Bu munosabat [*kulmoq*] leksemasida «shaxsiy betaraf munosabat» ko`rinishida bo`lsa, [*ishshaymoq*] leksemasida «o`ta kuchli shaxsiy salbiy munosabat» tarzidadir.

Ma`nodoshlik qatoridagi leksemalarning ifoda semalari turli-tumandir. Chunonchi, ijobiy yoki salbiy baho semalari; leksemaning qo`llanilish davri bilan bog`liq holatdagi «arxaik», «tarixiy», «umumiste`moldagi», «yangi» semalar; leksemaning qo`llanilish doirasini ko`rsatuvchi «shevaga xos», «so`zlashuvga xos», «kitobiy», «ko`tarinkilik» va h. semalar.

Ma`nodoshlik qatoridagi leksemalarning bittasi *dominanta* (bosh) bo`lib, boshqalari shu leksema atrofida birlashadi va ma`nodoshlik qurshovini hosil qiladi. Dominanta leksemaning yuqorida sanalgan barcha ifoda semalariga nisbatan neytral, betaraf bo`ladi. Dominantaning o`ziga xos xususiyatlari quyidagilar:

- *dominanta* leksemaning ma`nodoshlik qatoridagi boshqa leksemalarnikiga nisbatan «kambag`alroq» bo`ladi. Chunonchi, *oriq*, *nozik*, *qotma*, *qiltiriq*, *ramaqijon*. Ushbu qatordagi [*oriq*] leksemasida [*nozik*], [*qotma*], [*qiltiriq*], [*ramaqijon*] leksemalaridagi kabi hissiy-ta`siriy bo`yoq yo`q;

- dominanta leksemaning qo'llanilish doirasi boshqa ma'nodoshlarnikiga nisbatan keng;
- dominanta leksema istalgan vaqtda o'z ma'nodoshlarini almashtira oladi; ma'nodoshlik qatori mansub bo'lgan katta tizimga faqat dominanta leksema kiradi va boshqa leksemalar bilan paradigma hosil qila oladi.

Masalan, «kishi tana a'zolari» lug'aviy ma'no guruhiga *yuz, aft, bashara, turq, oraz, bet, diydor, tal'at, chehra* sinonimik qatoridan faqatgina [*yuz*] dominanta leksemasi kirib, [*quloq*], [*burun*], [*lab*], [*qosh*], [*peshona*] leksemalari bilan paradigma hosil qiladi. Boshqa ifoda semasidagi ifodalar «betaraf» bo'lolmaganligi bois yuqoridagi paradigmaga kira olmaydi.

Sinonimiya hodisasini deyarli barcha tillar doirasida kuzatish mumkin: *nizo, kelishmovchilik, ixtilof, nifoq, adovat; oqil, aqlli, bama'ni, dono*; ruscha: *светлый, ясный, яркий (ravshan); положение, состояние, обстоятельство (ahvol); путаный, запутанный, сложный, трудный (chatoq)*; inglizcha: *look, stare (qaramoq); misfortune, failure (baxtsizlik); whole, full (butun)* kabi.

Antonimiya. Leksemalar orasidagi zidlik munosabati antonimlikdir: *katta-kichik, oq-qora, baland-past, yosh-qari*; ruscha: *чёрный-белый, хорошо-плохо, лежать-вставать*; inglizcha: *necessary-needless (kerakli-keraksiz), light-dark (ochiq-to`q ranglar), rich-poor (boy-kambag`al)* kabi. Antonimik leksemalarning asosida borliqdagi qarama-qarshi hodisalarning in'ikosi bo'lgan o'zaro zid tushunchalar yotadi.

Antonim leksemalarda umumiy va birlashtiruvchi semalar ham, qarama-qarshi semalar ham bo'lishi lozim. Masalan, [*yoq*]:[*qish*] leksemalari umumiy «yil fasli» semasiga va qarama-qarshi [*qish*] – «yilning eng sovuq fasli», [*yoq*] – «yilning eng issiq fasli» semalariga ega.

Antonimlar tuzilishiga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:
har xil o'zakli antonimlar: *chiroyli-xunuk, issiq-sovuq, muhabbat-nafrat*;
bir xil o'zakli antonimlar: *ongli-ongsiz, o`rinli-noo`rin, guldor-gulsiz, odobli-beodob*. Antonimlarning mantiqiy asosini ikki ko'rinishdagi qarama-qarshilik tashkil etadi:

a) kontrast qarama-qarshilik va b) komplementar qarama-qarshilik.

Kontrast antonimiya darajalanuvchi leksemalar qatorining birinchi va oxirgi a'zosiga tegishli bo'ladi, ya'ni ikki antonim leksema orasida har xil antonim a'zo belgilarini o'zida mujassamlashtirgan bog'lovchi bo'g'in mavjud bo'ladi. Masalan, *yosh~o`smir~balog`at~o`rta yosh~qari; past~o`rta~baland* daraja qatorlarining birinchi va oxirgi a'zosi antonimlik hosil qiladi. Demak, leksemalarning kontrast qarama-qarshiligini ularning darajalanish (graduonimik) qatoridan izlash zarur.

Komplementar antonimiyada qarama-qarshilik uchinchi, oraliq bo'g'insiz bo'ladi: *oson-qiyin, rost-yolg`on, arzon-qimmat* kabi.

Graduonimiya. Lugʻaviy birliklarning oʻzaro maʼnoviy munosabatlariga koʻra maʼlum darajalanish qatorlarini hosil etishi graduonimiya hodisasidir. Darajalanish qatori kamida uchta aʼzodan iborat boʻladi.

Darajalanish munosabatlari bilan bogʻlangan soʻzlar qatorini ikki omilga tayanib ajratish mumkin: 1) *gʻayrilisoniy* asoslar va 2) *sof lisoniy* asoslar.

Gʻayrilisoniy omilning mohiyati shundaki, borliqdagi narsa, belgi, xususiyatlarda sifat farqlari bilan birga miqdor farqlar ham mavjud. Inson ongida miqdoriy va sifatiy oʻzgarishlar oʻz aksini topadi va ular alohida-alohida leksemalar bilan ifodalanadi. Chunonchi, *nihol-koʻchat-daraxt; ninni-chaqaloq-goʻdak-bola...; buzoq-tana-gʻunajin-sigir.*

Demak, ongda aks etgan miqdoriy farqlarning tildagi inʼikosi gʻayrilisoniy omilning asosini tashkil etadi. Darajalanish qatorlarini ajratishning lisoniy asosi maʼnoviy omil hamda soʻzlarning paradigmatic munosabatlarini qamrab oladi. Bir qator leksemalar sememalarida bir belgining oz-koʻpligi, turli xil darajalariga ishora maʼnoviy omil bilan bogʻliqdir. Masalan,



Gulobi - pushtiga moyil rang; **pushti** – shaftoli guli rangidagi och qizil, gulobidan toʻqroq rang; **qizgʻish** – pushtidan toʻqroq rang; **qizil** – qon rang; **ol** – qizildan toʻqroq rang; **qirmizi** – toʻq rangdagi qizil.

Demak, yuqoridagi chizmada har bir leksema maʼlum bir belgining turlicha darajalanishiga ishora qilmoqda. Shu asnodan maʼnoviy omilning oʻzi ham ikki jihatni – bir-biriga yaqin va oʻxshash tushunchalarni ifodalashni hamda ayni bir belgining turli xil miqdoriga ishora qilishni qamrab oladi.

Graduonimik qatorlar lugʻaviy paradigmalariga qoʻyiladigan talablarning barchasiga javob bera oladi.

Giponimiya. Leksemalararo semantik munosabatlarning yana bir turi gipo-giperonimiya boʻlib, unda tur-jins munosabatlari oʻz ifodasini topadi. Giponimik munosabatda giperonim (jins) va giponim (tur) farqlanadi.

Giperonim jins belgisini bildirgan predmetning nomini ifodalovchi koʻpgina maʼnolarni semantik jihatdan umumlashtiruvchi mikrotizimning markaziy leksemasidir. Giponim esa muayyan jins turlarining nomlarini hamda oʻzining semantik tarkibida jins maʼnosini ham ifodalovchi, giperonimga nisbatan boy boʻlgan lugʻaviy birlikdir. Chunonchi, *daraxt* (jins) – *terak, olcha, dub, chinor, olma, archa...* (tur); *meva* (jins) – *olma, olcha, shaftoli, oʻrik, nok...* (tur).

Giponimik munosabat barcha tillar uchun xosdir. Chunonchi, *дерево* (jins) – *груша, вишня, яблоко, персик* (tur); *the man* (jins) – *women, man* (tur); *der Baum* (jins) – *der Tannenbaum, der Aafelbaum, der Abrikosenbaum* (tur).

Partonimiya. Partonimik munosabatlarda butun-bo`lak tushunchasi o`z aksini topadi. Tarkiban murakkablik, bo`laklarga bo`linuvchanlik borliq ashyolarining umumiy qurilish qonuniyati bo`lib, bu qonuniyat ong orqali lisonda o`z aksini topadi va shu asosda partonimik munosabatlar yuzaga chiqadi. Masalan, *daraxt* (butun), *shox, tana, ildiz* (qismlar); *odam* (butun), *bosh, tana, qo`l, oyoq* (qismlar). Tirnoq barmoqqa nisbatan, barmoq qo`lga nisbatan, qo`l esa odamga nisbatan butun-bo`lak munosabatida bo`ladi.


Omonimiya. Shaklan bir xil, mazmunan esa turlichalik nutqiy bosqichga xos bo`lib, lisoniy birliklarda omonimlik yo`q.

Nutqda ba`zan so`zlarning shakli ham, talaffuzi ham shakldosh bo`lib qoladi va uning ma`nosi kontekstda oydinlashadi. Chunonchi, *Topgan gul keltirar, topmagan bir bog` piyoz. Yaxshidan bog` qoladi, yomondan dog`.* Omonim so`zlarda ma`no bog`liqligi bo`lmaydi, ular shu jihatiga ko`ra ko`p ma`noli so`zlardan farqlanadi.

Leksmalarning mazmun guruhleri (LMG) semasiologiyaning eng zarur tushunchalaridan biri hisoblanadi. LMG deganda, muayyan birlashtiruvchi semasi asosida ma`lum guruhga birlashtiruvchi, ayni paytda farqlovchi semalariga ko`ra o`zaro farqlanib, ajralib turuvchi leksemalar tushuniladi. Yuqorida ko`rib o`tilgan ma`nodoshlik qatorlari, mazmuniy darajalanish qatorlari LMGlarning bir turidir.

Leksemalarni LMGlarga birlashtirishda ularni shunday belgilar asosida umumlashtirish lozimki, bu guruhga birlashuvchi leksemalar ma`lum sohaga, muayyan turkumga oid bo`lib, ular orasida o`xshashlik juda ko`p, farq esa oz bo`lsin. Masalan, qoramol LMG: (*sigir, buzoq, tana, g`unajin, ho`kiz, buqa, govmish...*); o`ragichlar LMG: (*ro`mol, qiyiq, belbog`, tasma, peshonaband, gardanband, bo`yinbog`, paytava, kamar...*).

LMGlar ikki qismdan – asos va qurshovdan iborat bo`ladi. LMG asosi, odatda, bir necha (taxminan ikki - besh) leksemadan tashkil topadi va doimiy barqarorlikka ega bo`ladi. Qurshov esa o`zgaruvchandir. Chunonchi, «Osmon jismlari» LMGning markazi (XV asrdan to hozirgacha) to`rtta leksemadan iborat: [*quyosh, oy, yulduz, sayyora*]. Bu leksemalarning qurshovi har bir davr uchun o`ziga xos bo`lib, vaqt o`tishi bilan o`zgarib turishi tabiiydir. XV asrda:



Hozirgi kunga kelib [quyosh] leksemasi qurshovida [kun], [oftob] so`zlari qolgan, xolos. Qolgan uchta markaziy leksema va uning qurshovi haqida ham yuqoridagi kabi fikrlarni ayta olamiz.

Umumiy bir mavzuga oid bir necha LMGLarining o`zaro birlashuvi lug`aviy ma`no to`dalari(LMG) deyiladi. Masalan, o`zi bir necha LMGLaridan iborat bo`lgan «Uy hayvonlari» LMGLari, «Qushlar» LMGLari shular jumlasidandir.

Лексик қатламлар ва луғат таркибининг бойиши манбалари.

Дунёда бирор бир тил изоляция ҳолида якка ўзи яшамайди. Тил соҳиблари ўзаро мулоқотсиз жамиятда яшай олмаганидек, тиллар ҳам ҳаминша ўз эгаларининг георафик ҳудудий жиҳатдан яқин ёки узоқ яшашига ва бошқа муайян тарихий шарт-шароит, вазиятлардан келиб чиққан ҳолда ўзаро турлича муносабатларда бўлади ва бир-бирига таъсир ўтказиб туради. у Дунёда бошқа тиллардан сўз ўзлаштирмаган бирорта ҳам тил йўқ. Айнан сўз ўзлаштириш, бошқа тил таркибидаги ўрнидан келиб чиқиб, тиллар турли тиллар қатламларидан алоҳида жой ҳам эгаллайди. Шу боис ҳар бир тилдаги луғат таркиби аввало тилнинг **ўз қатлами ва ўзлашган қатламлар**га бўлинади. қатламлардан иборат бўлади.

Ўз қатлам сўзларига шу тил мансуб бўлган тил оиласининг бирламчи сўзлари, шу тилга яқин қариндошчилик алоқасидаги тилларда ҳам мавжуд бўлган сўзлар ҳамда фақат шу тилнинг ўзидагина мавжуд бўлган сўзлар киради. Масалан, ўзбек тилининг ўз қатлам сўзларига умумтуркий ва ўзбекча сўзлар қатлаמידан иборат бўлса, рус тилининг ўз қатлами ҳинд-европа сўзлари, умумславян сўзлари ва фақат рус тилига тааллуқли сўзлар қатламларига бўлинади.

Ўзлашган қатлам ҳам ҳар бир тилда турлича шарт-шароитлардан келиб чиқиб ҳосил бўлади. Масалан, ўзбек тилида ўзлашган қатлам араб тилидан, форс-тожик тилидан, рус тилидан ва у орқали Европа тилларидан кириб келган сўзлар қатламларидан ташкил топган бўлиб, булардан биринчиси, VII асрдаги араблар босқини билан, иккинчиси яқин қўшничилик муносабатлари, маданий-бадий алоқалар туфайли, учинчиси эса Ўрта Осиёнинг Россия томонидан босиб олиниши ва Собиқ Иттифоқ таркибига киритилиши, шунингдек, фан ва техника тараққиёти туфайли юз берган.

Сўз ўзлаштириш ижобий ҳодиса санадлади, чунки у тилни бойитади, тил эгаларининг билимларини, дунёқараши ва сўзлашиш имкониятларини кенгайтиради. Бироқ у меъёрдан ортиб кетса ва тилнинг ўз қатламига оид сўзларини сиқиб чиқара бошласа, унда катастрофа ҳолати юз бериши ва тил аста-секинлик билан йўқолиб кетиши мумкин.

Тил луғат таркиби асосан 4 та манба орқали тўлдирилади, бойийди:

1) морфемик деривация (ҳосила), яъни аффиксация усулида сўз ясаш.

Бу ички омил ҳисобланади.

2) семантик деривация, яъни тилда сўзлардаги маъно тараққиёти ва кўчиши орқали янги сўзларнинг ясалиши; Бу ҳам ички омил.

3) эркин бўлмаган бирикмалар ҳосил қилиш;

4) бошқа тиллардан сўз ўзлаштириш, яъни ташқи омиллар орқали.

Морфемик деривация ва лексикализация. Узоқ Шарқ ва Жанубий – Шарқий Осиё мамлакатларидаги изоляциялашган тилларда (хитой, вьетнам, кхмер ва бошқалар) морфемик деривация кам миқдорда ишлатилади. Масалан, синтетик вьетнам тилида матндаги 100 та сўздан 6 таси аффиксал деривация ҳисобланади. Аммо изоляциялашган тилларда сўзларнинг ўзаро кўшилиши жуда ривожланган. Чунки, масалан, вьетнам тили матнларида аффиксал ясалган ва ясама сўзларнинг салмоғи 31%ни, ясама бўлмаган сўзларнинг миқдори эса 69% ни ташкил қилади.⁵ Бу ерда шуни эътиборга олиш лозимки, изоляциялашган тилларда икки ўзакли қўшма сўзларни сўз бирлигидан, мустақил сўзларни эса ёрдамчи сўзлардан фарқлаш қийин.

Ажратувчи тилларда морфем деривация кенг қўлланади ҳамда янги сўзларнинг асосий манбаи ҳисобланади. Рус тилида XX асрнинг иккинчи ярми давомида ўзлаштирилган 3500 янги тушунчаларнинг 33% морфемик деривацияни, инглиз тилининг лексикасида 67,5% морфемик деривацияни, яъни ясама сўзларни ташкил қилади. В.Г.Гакнинг таъкидлашича, француз ва рус тили лексикасининг 2/3 қисми ясама сўзлардан иборатдир.⁶

Луғат таркибининг бойиши сўз ўзлаштиришнинг энг маҳсулдор қисми бўлиб, у уч асосий гуруҳ далиллари билан белгиланади: 1) тилларнинг алоқа хусусиятлари билан; 2) жамиятнинг лингвистик ғояси ва тил вазиятининг, тил ҳолатининг ўзига хослиги; 3) тилнинг ички таркиб хусусиятлари билан.

Ҳар бир тилдаги ўзлаштирилган сўзларнинг оз-кўплиги мазкур тилларнинг заифлигидан далолат бермайди, аксинча, бу миллатнинг иккинчи миллатга ёки халққа бўлган очик кўнгилилиги, ҳар томонлама яхши муносиблиги, бир миллатнинг бошқа миллат маданиятига бўлган объектив, оқилона муносабатидир. Масалан, инглиз тилидаги сўзларнинг қарийб 50% француз ва латин тилларидан ўзлаштирилган. Ўзбек тили луғат таркибининг қарийб 40%ни араб ва форс-тожик сўзлари ташкил қилади.

Инглиз тилидаги француз сўзларининг, рус тилидаги латин, роман, герман тиллари сўзларининг ёки ўзбек тили луғат таркибидаги араб, форс-тожик сўзларининг кўп миқдорлилиги номи тилга олинган халқлар тилларининг лексик томондан бир-бирига яқинлигини ва бундан ташқари, бу тиллардаги умум байналминал сўзларни қўллаш, ишлатиш шу

⁵ Солнцев Н.В. Проблемы типологии изолирующих языков. М., Наука. В книге Н.Б. Мечковской. Общее языкознание. М., Наука, 2008. стр. 97-102.

⁶ Г.В.Гак. Сравнительная типология французского и русского языков. Л., Просвещение. 1977. стр.104-133.

халқларнинг маданий, техник, технологик томонидан яқинлашувига олиб келади, мулоқот қилишни осонлаштиради.

Агар рус, инглиз, немис, испан, поляк тилларида XX асргача француз тилидан ўзлаштирилган сўзлар кўпчиликни ташкил қилган бўлса, бугунги кунда бу тилларда инглиз тилидан ўзлаштирилган сўзлар салмоқлироқдир. Ё бўлмаса яқингача ўзбек тилининг таркибида араб, форс тилларидан ўзлаштирилган сўзларнинг миқдори салмоқли бўлган бўлса, бугунги кунда ўша тиллардан ўзлаштирилган сўзлар қаторидан инглиз тилидан кириб келаётган сўзлар тобора кўпайиб бормоқда.

Шунингдек, тил луғатидаги сўзлар қўлланишига кўра ҳам **фаол ва нофаол қатламларга** бўлинади. Кундалик турмушда кенг ишлатиладиган умумистеъмолдаги сўзлар фаол сўзлар қатламини, тилга янги кириб келган ва ҳали фаоллашиб улгурмаган ёки тарихийлик ёхуд эскирганлик нуқтаи назаридан тилда кам ишлатиладиган, шунингдек, муайян худудий, касбий, этник, услубий маънолари жиҳатидан қўлланиши чегараланган сўзлар эса нофаол сўзлар қатламларини ташкил этади. Ушбу қатламга шевага хос сўзлар, атама-терминлар, касб-ҳунарга хос сўзлар, жаргонлар, арголар, эвфемизмлар киради. Тилдаги барча сўзлар каби ушбу қатламлар ҳам ўзгариб туради, қулай тарихий шарт-шароитларда улар фаол сўзларга айланиши ёки акси бўлиши ҳам мумкин.

Тил луғат составида эскиришга қараганда янгиланиш ва бойиб бориш кучли бўлади. Бу ҳол тилнинг луғат составида аниқ билинади. Луғат составининг ҳаракати қуйидагиларда кўринади: Эски сўзлар йўқолади, актив сўзлар пассивланади, ва аксинча, эски сўзлар янги сўзлар билан алмашади, янги сўзлар ясалади, бошқа тиллардан сўз ўрлашади, қошма сўзлар, турғун бирикмалар пайдо бўлади. Сўз маъноси кенгаяди, кичраяди, айрим сўзлар эски маъносини йўқотиб, янги маънода қўлланади, оддий сўзлар атамага айланади.

Назорат саволлари

1. Лексикология ва унинг бўлимлари ҳақида гапириб беринг.
2. Сўз, тушунча ва ном муносабатини тушунтиринг.
3. Семасиология нимани ўрганади?
4. Сўздаги маъно тараққиёти нималарни қамраб олади?
5. Шакл ва маъно муносабатига кўра сўзлар қандай гуруҳларга бўлинади?
6. Ономастика шахс номларидан ташқари яна қандай муаммолар билан шуғулланади?
7. Лексикография қайси масалаларни ўрганади?
8. Этимология ва топонимика нимани ўрганади?

9. Этнонимика ва терминология-чи?
10. Фразеологик бирикмалар нима сабабдан лексикологияда ўрганилади?
11. Тилнинг қандай лексик қатламларга бўлинади?
12. Тилнинг луғат таркиби қандай усуллар билан бойийди?

Таянч ибора ва тушунчалар (глоссарий)

Лексикология – тил луғат таркибини ўрганадиган фан.

Семасиология – тилнинг маъно ва мазмун томонини ўрганадиган соҳа.

Семиотика – белгилар назарияси ҳақидаги фан.

Лексикография – луғат тузиш илми, ҳар бир тилга ёки таълим билимига тааллуқли луғатлар намунаси, тил таркибидаги сўзларни маълум тартиб асосида сўзларни ёзма равишда тўплаб, луғат тузиш масаласини ўрганади.

Ономасиология (ономастика) – семасиологиянинг бир қисми бўлиб, предметларга ном бериш масалалари билан шуғулланади.

Этимология – мустақил сўз ва морфемаларнинг келиб чиқишини ўрганади.

Фразеология – тилдаги турғун бирикмалар, ибораларни ўрганади.

Топонимика – жой номларини ўрганадиган лингвистик йўналиш.

Этнонимика – элат, халқларнинг номини ўрганади.

Терминология – атамашунослик.

Лексик тасниф – тилшуносликдаги ҳар бир маънонинг таснифидир.

LMG - lekmalarning mazmuniy guruhlari, muayyan birlashtiruvchi semasi asosida ma'lum guruhga birlashgan leksemalar.

Тавсия этилган адабиётлар рўйхати

1. Ирискулов М. Тилшуносликка кириш.- Тошкент, 2008.
2. Ирискулов М..Тилшуносликка кириш. -Тошкент, 1992.
3. Содиков А., Абдуазизов.А., Ирискулов М. Тилшуносликка кириш. -Тошкент, 1981.
4. Реформатский А.А.. Введение в языковедение. - Москва, 2008.
5. Головин Б. Н. Введение в языкознание. - Москва, 1979.
6. Кодухов В. И. Введение в языкознание. - Москва, 1979.
7. Кодухов. В. И. Общее языкознание. - Москва, 2009.
8. Чурилина. Л. Н. Актуальные проблемы современной лингвистики. - Москва, 2009.
9. Шарафутдинова. Н. С. Теория и история лингвистической науки. - Москва, 2007.

ВИЗУАЛ МАТЕРИАЛЛАР

1-савол. Лексикология ва унинг бўлимлари

1-илова

Лексикология – лингвистикада тилнинг луғат бойлигини ўрганувчи бўлим. Лексикология сўз маъноси кенгайиши ва торайиши, сўзларнинг шакл ва маъно муносабатларига кўра турлари, уларнинг ҳудудий ва ижтимоий қатламлари, янги сўзларнинг пайдо бўлиши каби қатор масалаларни ўз ичига олади

Семасиология – тил бирликларини маъно жиҳатдан ўрганади.

Лексикография – тил таркибидаги сўзларни маълум тартиб асосида ёзма тўплаб, луғат тузиш масалаларини ўз ичига олади

Ономасиология – нарса ва ҳодисаларга ном беришни ўрганади

Этимология – сўзларнинг келиб чиқиш тарихини ўрганади

Ономастика – атоқли отларни ўрганадиган фан



Фразеология – тилнинг турғун бирикмаларини ўрганади

2-савол. Сўз, нарса ва тушунча

2-илова

Тиллардаги барча сўзлар 3 хил муносабатга киришади:

- сўзнинг ўзи англатган предмет ва ҳодисага;
- сўзнинг инсон фикрига, ҳиссиётига, ҳоҳиш-истагига;
- сўзнинг бошқа сўзларга нисбатан



3-савол. Тилнинг лексик қатламлари

4-илова



4-савол: Сўзларнинг шакл ва маъно муносабатига кўра турлари

5-илова

Тил таркибидаги лексик маънолар ўзгарувчан бўлади. Сўзларнинг шакл ва маъно муносабатига кўра турлари куйидагилар:

Синоним – бир хил ёки бир-бирига яқин маъноли сўзлар (чиройли-гўзал)

Омоним – ёзилиши бир хил, маъноси ҳар хил сўзлар (кул-кул)

**4-МАЪРУЗА: Грамматика – тилларнинг тузилишини
ўргатувчи фан сифатида. Морфология ва морфемика.
Грамматик маъно, грамматик категориялар ва грамматик
воситалар. Сўз туркумлари.**

Режа:

1. Грамматика атамаси талқини ва унинг асосий бўлимлари
2. Тилларнинг грамматик тузилиши.
3. Морфология ва морфемика.
4. Грамматик маъно ва грамматик категориялар.
5. Сўз туркумлари таснифи.

Мақсад: Грамматика, унинг асосий бўлимлари, тилнинг грамматик тузилиши, грамматик маъно ва грамматик категория тушунчалари ҳақида тасаввур ҳосил қилиш. Сўз таркиби, морфемалар, сўз туркумларини, уларнинг турли тиллардаги ҳолати, грамматик воситалар ҳақидаги маълумотни кенгайтириш.

Тилшуносликда “**грамматика**” термини турли хил талқин этилади. Бу термин “ўқиш ва ёзиш санъати” деган маънони билдириб, *tor ma`noda morfologiya va sintaksis, keng ma`noda esa tilning barcha qurilish sathlari tushuniladi.* Демак, грамматика тилнинг грамматик қурилишини, морфологик категория ва формалар системасини, синтактик категория ва қурилмаларни, сўзларнинг ясалиши ва гапларнинг шаклланиш қонун-қоидаларини ўрганади.

Morfologiya va sintaksis bir-birini taqozo etuvchi sathlar sanaladi. Morfologiya grammatikaning so`z shakllari va ularning ma`nosi haqidagi sohasi bo`lsa, sintaksis so`z shakllarining vazifasi haqidagi sohasidir. Tilning asosiy ijtimoiy vazifasi aloqa-aralashuv, insonlar orasida fikr almashtirish vositasi bo`lganligi sababli sintaksisning o`rganish manbai bo`lgan gaplarda tilning barcha sathlarining - fonologiya va fonetikaning, leksika va semantikaning, morfemika va morfologiyaning birliklari voqelanadi, yuzaga chiqadi. Bu birliklardan har birini tilshunoslikning alohida-alohida bo`limlari o`rganadi, ammo sintaksisning o`rganish manbai bo`lgan gaplarda barcha sath birliklarining belgilari jamlanadi.

Инсон лексик хазинасининг ўзи фикримизни аниқ етказиб бериш учун етарли эмас. Масалан (*Мен, мақсад, дунё, бутун, саёҳат, бўйлаб, қилмоқ*) каби сўзлар тўпламини гап шаклига келтириб, грамматик қурилиш ҳосил қилинади: *Менинг мақсадим бутун дунё бўйлаб саёҳат қилмоқ.* Демак, грамматика тилнинг товуш таркибини ҳам, лексик қатламини ҳам

ўрганмайди. У тил қурилишининг асоси ҳисобланиб, грамматикасиз сўзни ҳам, сўз бирикмасини ҳам, гапни ҳам, матнни ҳам тузиб бўлмайди.

Til birliklari o`rtasidagi 3 xil: **sintagmatik** (qatorlanish) — til birliklarining ketma-ket joylashuvi, **paradigmatik** (guruhlanish) — ma'lum birlashtiruvchi belgi asosida muayyan sinfga birlashtiruvchi birliklar o`rtasidagi munosabat, **iyerarxik** (pog`onaviylik) — kichik birliklarning o`zidan kattaroq birliklar tarkibiga kirishi, ya'ni butun va bo`lak aloqasini namoyon etuvchi munosabatlar aniqlanadi. Har qanday grammatik paradigma zaminida zidlanish, ya'ni morfologik birliklarning birlashtiruvchi va farqlovchi belgilarini ma'lum paradigma tarkibida zidlash yotadi. Tilshunoslikning vazifasi ana shu zidlanish belgilarini ochishdan iborat. Bu zidlanishlar nutqiy konkret ma'nolar asosida emas, balki grammatik (morfologik) shaklning umumiy - lisoniy ma'nosi asosida quriladi. Umumiy - lisoniy ma'nolar esa o`zaro mutanosib grammatik shakllarning aloqadorligi asosida ochiladi. Chunonchi, birlik son bilan ko`plik son shakllarining nutqiy ma'nolarini qiyoslasak:

Birlik son

kitob

1 ta kitob

Ko`plik son

kitoblar

ko`p kitob

10 ta kitob

Son shakli ma'nolarini qiyoslash shuni ko`rsatadiki, birlik son aniq miqdorni ham, noaniq miqdorni (*ko`p kitob*) ham, birlikni ham, aniq va noaniq ko`plikni ham ifodalay oladi. Ko`plik son esa hamisha noaniq ko`plikni ifodalaydi. Mana shu noaniq ko`plikni ifodalash ko`plik sonning umumiy ma'nosi, birlikni ham, ko`plikni ham, aniqlikni ham, noaniqlikni ham ifodalay olish esa birlik sonning umumiy ma'nosidir.

Morfologik paradigmalarda shakllar mana shunday umumiy ma'nolar asosida zidlanadi. Morfologik shaklning mana shu usulda ochilgan umumiy ma'nosi bu shaklning qo`llanilishida — sintaksisda voqelanadi. Shuning uchun morfologik shaklning umumiy ma'nosi imkoniyat sifatida unda yashiringan bo`ladi. U nutqda sintaktik birliklar vositasida yuzaga chiqadi, ya'ni morfologik shakl imkoniyat bo`lsa, sintaktik qurilma voqelanishdir. Jumladan, "*ukamga*" so`z shakli:

- 1) lug`aviy ma'no o`zidan kichik, erkak jinsidagi bir ota-onadan bo`lgan bir avloddagi qarindosh;
- 2) ma'lum bir so`z turkumi (ot)ga mansublik;
- 3) miqdor jihatdan noaniqlik;
- 4) qandaydir boshqa so`zga tobe (to`ldiruvchi yoki hol) mavqeida kelib, harakat yoki biror narsaning unga yo`nalganligi;
- 5) I shaxsga aloqadorlik ma'nolari mujassamlangan.

"*ukamga*" soʻzida bu maʼnolarning barchasi noaniq va umumiy boʻlib, u nutqda boshqa soʻzlar bilan "*Kitobni ikkinchi ukamga oldim*", "*Bu gapni kenja ukamga aytdim*", "*Boshimni koʻtarib oʻrtancha ukamga qaradim*" kabi aloqadorlikda voqelanganda aniqlashadi.

Bundan quyidagi xulosaga kelish mumkin: morfologik shakl nafaqat sintaktik qoʻllanishi bilan, balki lugʻaviy maʼno va lugʻaviy toʻldirilishi bilan ham uzviy bogʻlangan. Bu leksika, morfologiya va sintaksisning oʻzaro uzviy aloqadorligi va tilning yaxlitligi bilan tabiatan bogʻliqdir. Biz tilni, uning birliklarini turli sathlarga sunʼiylik bilan ajratamiz, ayrim maqsadlarni koʻzlab ajratamiz. Haqiqatda esa ular bir butunlikda yashaydi, ularni bir-biridan ajratish mumkin emas. Lekin har bir sath uchun faqat shu sath uchun xos boʻlgan xususiyatlarni aniqlash maqsadida biz oʻrganilayotgan sath birligini boshqa sathlar tajallisidan sunʼiy ravishda ozod qilishimiz kerak.

Masalan, "*Ahmadlar*" soʻz shaklida *-lar* qoʻshimchasining maʼnosi "*kitoblar*" soʻzshaklidagi *-lar* maʼnosidan farq qiladi. Bu farq, shubhasizki, yakka shaxs nomi boʻlgan. "*Ahmad*" va bir jinsdagi predmetlarning umumiy nomi boʻlgan "*kitob*" soʻzining lugʻaviy maʼnosi bilan va morfologik shakl boʻlgan koʻplik sonning umumiy morfologik maʼnosiga aloqador emas. Xuddi shunday *-ni* tushum kelishigi qoʻshimchasini qabul qilgan vositasiz toʻldiruvchi quyidagi birikmalarda har xil maʼnoga ega: *Uyni qurdik. Uyni buzdik. Uyni bezadik. Uyni boʻyadik. Uyni koʻrdik. Uyni oʻyladik...*

Lekin bu rang-baranglik *-ni* shaklining umumiy morfologik maʼnosidan emas, balki unung qanday soʻzlar bilan birikib kelgani bilan bogʻliq. Tushum kelishigining umumlisoniy maʼnosi ot yoki maʼnosi toraygan soʻzni oʻtimli feʼl bilan tobe boʻlak (vositasiz toʻldiruvchi) mavqeida bogʻlashdan iborat, xolos. Demak, grammatika umumiy maʼnolarni ham, xususiy nutqda voqelangani maʼnolarni ham oʻrganadi, shunga koʻra 2 asosiy boʻlim: morfologiya va sintaksisga boʻlinadi.

Морфология сўзлар, уларнинг грамматик маънолари ва грамматик категориялар, сўз туркумларини ўрганувчи бўлим бўлиб, сўзлар ва сўз шакллариининг ички тузилиши, морфема ва морфлар, уларнинг турлари **морфемика** бўлимида ўрганилади.

Soʻz nutqqa xos boʻlgan eng kichik birlik boʻlib, har qanday soʻz material (tovush) va maʼno tomonlarining yigʻindisidan iborat. Ушбу сўз шакллариининг айримлари ham leksik, ham grammatik maʼnolarga (mustaqil soʻzlar), айримлари esa faqat grammatik maʼnoga (yordamchi soʻzlar) egadir. Soʻzlar grammatik maʼno ifodalash xususiyatiga kўpa maʼnoli qismlarga boʻlinadi.

Soʻzlar yoki soʻzshakllar tarkibida ajratiladigan eng kichik maʼnoli qismlar **morflar** (yunoncha **morphe** – *shakl* demakdir) deyiladi. Morflar til faning morfemika sathida oʻrganiladi. Demak, **morfemika** – soʻzning maʼnoli qismlari haqidagi taʼlimot. Morflar ikki turga boʻlinadi: oʻzak morflar va affikslar morflar.

Chunonchi, *tinchimoq, mehnatkashlarning, kitobxonlarimiz, to`qimachilik*. Ushbu so`zshakllarning har birida to`rttadan morf bo`lib, ularning bosh qismlari (*tin, mehnat, kitob, to`qi*) o`zak morflar, o`zaklarga qo`shilgan qismlar ([*-ch*], [*-i*], [*-moq*], [*-kash*], [*-lar*], [*-ning*], [*-xon*], [*-imiz*], [*-ma*], [*-chi*], [*-lik*]) esa affiksial morflar hisoblanadi.

Дунёдаги барча тиллар сўзларнинг структураси жиҳатидан 2 катта гуруҳга бўлинади. Бу гуруҳдаги тилларда сўзларни ўзак, негизларга ажратишда маълум фарқлар бор. Биринчи гуруҳдаги тиллар Осиё ва Африкада яшовчи халқларнинг тиллари, туркий тиллар, угор-фин тилларида қўшимчалар ўзбек ёки негизга тўғридан-тўғри қўшилади. Иккинчи гуруҳдаги тиллар, жумладан, ҳинд-европа тиллари, хом-сом тилларида грамматик маънони ифодалаш жараёнида қўшимчалар ўзак ёки негизга сингиб кетади. Ўзак, негиз билан қўшимчаларнинг бундай бирикиб кетиши флектив тилларга хосдир (*fleksiya* - лот. эриб кетиш).

Har bir so`zshaklda ishtirok etishi shart bo`lgan, lug`aviy ma`no ifodalovchi qism **o`zak** deyiladi. So`zga turlicha affikslar qo`shilganda ham o`zak morf o`z ma`nosini yo`qotmaydi va so`zshaklning umumiy ma`nosi o`zak morfning ma`nosi bilan zich bog`langan bo`ladi. Masalan, *tinch, tinmoq, betinim, tinchi* kabi so`zlar *tin* o`zagidan, *boshla, boshliq, boshchi, boshq, boshsiz, boshqalar* so`zlari *bosh* o`zagidan; rus tilidagi *опытник (tajribachi), опытничество (tajribachilik), опытный (tajribali)* so`zlari *опыт* o`zagidan; *братание (birodarlashuv), брататься (aka-uka tutinmoq), братья (birodarlar), братец(og`ayni)* so`zlari *брат* o`zagidan; ingliz tilidagi *worker (ishchi), working (ishlaydigan), workshop (ishxona)* so`zlari *work (ish)* o`zagidan yasalgan.

Affiksial morflar mustaqil ravishda ishlatilmaydi, faqat so`zshakl tarkibidagina grammatik ma`no ifodalaydi, o`zak asosida yangi leksik ma`noli so`zning yuzaga kelishiga xizmat qiladi. Ifodalaydigan ma`no mohiyatiga ko`ra affiksial morflar uch turga bo`linadi:

so`z yasovchi affikslar;

aloqa-munosabat shakllarini hosil qiluvchi affikslar;

lug`aviy shakl hosil qiluvchi affikslar.

So`z yasovchi affikslar turli so`zlarga qo`shilib, uning ma`nosi bilan bog`liq yangi so`zlar hosil qiladi. Yasovchi affikslar bir so`z turkumi doirasiga mansub yangi so`zlar yasashga: *mulk ~ mulkdor, san`at ~ san`atkor, uzum ~ uzumzor, zina ~ zinaroqa, odam ~ odamgarchilik (ot); киоск (do`koncha) ~ киоскёр (do`konchi), кран – крановщик (kranchi), глаз (ko`z) ~ глазница (ko`z kosasi)* (ot) va bir turkumdan boshqa turkum so`zlarini yasashga ham xizmat qiladi. Jumladan, *gul* (ot) – *gulli* (sifat) – *gulla* (fe`l), *keng* (sifat) - *kengay* (moq) (fe`l), *o`yin* (ot) – *o`yna* (fe`l), *yelpi* (fe`l) – *yelpig`ich* (ot), *chida* (fe`l) – *chidam*

(ot); *зрубо* (qo`pol-sifat) – *зрубость* (qo`pollik-ot), *зруз* (yuk-ot) – *зрузить* (yuklamoq-fe`l), *ax* (oh-undov) – *аханье* (ohlamoq - fe`l) kabi.

O`zakka birdan ortiq yasovchi affikslar qo`shilishi ham mumkin. Bunday holatlarda so`z tarkibi murakkablashadi: *choy-xona-chi-lik*, *suvo-q-chi-lik*, *be-g`araz-lik*.

So`z yasovchi affikslarning so`z yasash darajasi ham bir xil emas. Juda ko`p miqdorda yangi so`z yasashga xizmat qiluvchi affikslar unumli affikslar hisoblanadi. *Jangchi*, *tarixchi*, *aqli*, *g`ayratli*, *oqla*, *tuzla*, *moslama*, *qatlama*, *yoshlik*, *bolalik* so`zlari tarkibidagi [-chi], [-li], [-la], [-lik] affikslari shular jumlasidandir. Miqdoran kamroq so`z yasovchilar kamunum affikslar deyiladi. Chunonchi, *qamoq*, *tirnoq*, *toshqin*, *qirg`in*, *ekin*, *tugun* kabi.

Tarixan yangi so`z yasashga xizmat qilgan, hozirda esa bunday xususiyatini yo`qotgan affikslar unumsiz affikslardir. Masalan, [-vul], (*qorovul*), [-dak] (*kekirdak*), [-chil] (*epchil*)...

Aloqa-munosabat affikslari so`z birikmalarida so`zlarni bir-biriga bog`lashga, shuningdek, gap bo`laklarini shakllantirishga xizmat qiladi. Aloqa-munosabat qo`shimchalari guruhiga 1) egalik affikslar; 2) kelishik affikslar; 3) kesimlik kategoriyasi qo`shimchalari (zamon, mayl, shaxs-son) kiradi. Masalan, *Bu gapni hech kimga aytmaganingiz juda yaxshi bo`libdi, buni hozircha sir tutganimiz ma`qul*.

Lug`aviy shakl hosil qiluvchi affikslar sirasiga otlardagi son shakli, kichraytirish-erkalash shakllari, sifatlardagi daraja lug`aviy shakllari, fe`llardagi nisbat, ravishdosh, sifatsdosh, harakat nomi va harakat tarzi shakllari kiradi. Bunday shakllar o`zaklarga qo`shilib, ularning lug`aviy ma`nosiga qo`shimcha ma`no beradi. Lug`aviy shakl hosil qiluvchi affikslar deyarli barcha agglyutinativ tillar uchun xosdir. Masalan, *kitobcha*, *qizaloq*, *kichikroq*, *o`qigan*, *yurib*; *книжка* (*kitobcha*), *домик* (*uycha*), *девчонка* (*qizaloq*); *smaller* (*kichikinaroq*), *more comfortable* (*qulayroq*).

Old qo`shimchalar (prefikslar). O`zak-negiz oldidan qo`shilishi mumkin bo`lgan bunday qo`shimchalar, odatda, so`z yasovchi affikslar bo`ladi. O`zbek tilida prefekslar fors-tojik tili va rus tili ta`sirida paydo bo`lgan. [ba-], [bo-], [be-], [no-], [ser-], [bad-], [xush-], [ham-] affikslari fors-tojik tilidan o`zlashgan: *bahaybat*, *boadab*, *befarosat*, *noinsof*, *serchiqim*, *badbo`y*, *xushbichim*, *hamfikr*. [anti-], [pan-], [ultra-], [eks-] kabilar esa rus tili ta`sirida o`zlashgan affikslardir: *antidemokratik*, *antifashist*, *panturkizm*, *panislomist*, *ultratovush*, *ultrabinafsha*, *ekschampion*, *eksprezident*; *безграмотный*, *безопасно*, *изгнать*, *починить*, *наилучший*, *перечитать* (ruscha); *rewrite*, *impossible* (inglizcha), *beenden*, *Vorgang* (nemischa); *combattre*, *ossasion* (fransuzcha).

Infikslar. Infiksal morflar o`zakning ichiga joylashgan bo`ladi. Masalan, *gultoixo`roz*, *ishqiboz*, *undan*.

Postfikslar. O`zakdan keyin qo`shiladigan qo`shimchalar ko`pchilik tillarga xosdir. Chunonchi, *sinfdosh, paxtadan, oynadek; снутник, белый* (ruscha); *beautiful, lovely, tables* (inglizcha); *weifheit, Freunds chaft* (nemischa).

Bir affiksial morfemaning turli ko`rinishlari variantlari **allamorflar** deyiladi. Jo`nalish kelishigi qo`shimchasi [-ga], uning variantlari [-ka], [-qa], [-g`a] allamorflardir yoki sifatdosh shakli qo`shimchasi [-gan], uning variantlari [-kan], [-qan], [-g`an] allamorflar hisoblanadi.

Nutqiy bosqichda so`zlarda bo`lgani kabi qo`shimchalarda ham shakl va ma`no munosabati asosida omonimiya, sinonimiya, polisemiya antonimiya kabi hodisalar uchraydi. Affiksial omonimiya, ya`ni qo`shimchalarning bir xil bo`lib qolishi faqat nutqiy bosqichga xos, lisoniy bosqichda har bir affiksial morf alohida zot sifatida mavjud bo`ladi. Qo`shimchalarda omonimlik ikki yoki uch so`z turkumi doirasida ro`y beradi. Jumladan, *tuzdon* (ot) – *bilimdon* (sifat), *bostirma* (ot) – *yasama* (sifat) – *yugurma* (fe`lning bo`lishsiz shakli), *ukam* (egalik shakli) – *o`qidim* (shaxs-son shakli) – *to`plam* (ot).

Affiksial polisemiya deganda so`z yasovchi affikslarning bir so`z turkumiga xos bo`lgan xilma-xil ma`noli so`zlarni yasashi tushuniladi: *tortma* (joy oti), *isitma* (mavhum ot), *surma* (narsa oti); *supurgi* (narsa oti), *sevgi* (mavhum ot) kabi. *Adabiyotchi* – *adabiyotshunos*, *badavlat* – *davlatli* – *serdavlat* – *bodavlat* – *davlatmand*, *childirmachi* – *childirmakash* kabilar affiksial sinonimiyaga; *baxtli-baxtsiz*, *noumid-umidvor*, *sertashvish-betashvish*, *itoatkor-itoatsiz* kabilar esa affiksial antonimiyaga misol bo`la oladi. Affiksial morflar o`zakka nisbatan joylashish o`rniga ko`ra 3 xil ko`rinida bo`ladi:

Morfemalarni bo`ginlar bilan aralashtirilmaslik kerak. Birinchidan, morflar tilning eng kichik ma`noli birligi bo`lib, ular hamma vaqt bo`g`inlarga to`g`ri kelavermaydi va bo`g`inlar ham doimo morfemalarga mos bo`lavermaydi. Masalan, o`zbek tilidagi *sharoit* so`zi uch bo`g`indan, lekin bir morfemadan tashkil topgan, *bolam* so`zi esa ikki bo`g`in va ikkita morfemadan tashkil topgan bo`lsa ham, ularning chegarasi bir-biriga to`g`ri kelavermaydi. Fonetik jihatdan *bo-lam* tarzida bo`g`inlarga ajratiladi, morfemalarga esa quyidagicha ajratiladi: *bola-m*. Ba`zi holatlarda morfemalar bo`g`inlarga tasodifan mos kelib qolishi ham ehtimol: *sinf-dosh-lar*, *gul-lar-ning* kabi.

Грамматик маъно ва грамматик категория. Grammatik ma`no deganda har bir tilning qurilish tizimi nutqda ifodalanishini zaruruy va majburiy deb talab etadigan va turli xil shakliy ko`rinishlar bilan beriladigan umumlashgan ma`nolar tushuniladi. Chunonchi, "*Bolalar qiziqarli kitobni o`qiydilar*" gapini olsak, "*Bolalar*" so`zida 2 xil ma`no ajralib turadi:

1) lug`aviy ma`no, ya`ni bu so`zning borliqdagi odam jinsiga mansub bo`lgan, yosh jihatdan voyaga yetmagan shaxsni yoki voyaga yetgan kimsaning farzandi, avlodini atab kelish;

2) ko`plik sonda, bosh kelishikda, gapda ega vazifasida kelgan turdosh ot. Bu ma'nolardan birinchisi lug`aviy, leksik ma'no bo`lsa, ikkinchisi grammatik umumlashgan ma'nodir. Grammatik ma'nolar har bir til uchun shu til uchun o`ziga xos bo`ladi va rang-barang shakliy usullar bilan (biz bularni navbatdagi mavzuda ko`rib o`tamiz) ifodalanadi.

Biz ko`ra oladigan, seza oladigan, o`lchay oladigan, kuzata oladigan narsa, belgi, voqea - hodisa xususiylikdir. Masalan; *daraxtni* biz ko`ra olamiz, paypaslaymiz, shoxlari va barglarini, mevasini sanay olamiz. *Daraxtning* moddiyligi uning ildizi, tanasi, shox-shabbasida. Har bir *daraxt* takrorlanmas, chunki bir yilda ekilgan *2 ta olma daraxti* 2 ta alohidalikdir- mevasi, tanasi bir xil bo`lsa-da, barglar miqdori bilan farqlanishi mumkin. Demak, yer yuzida nechta *daraxt* bo`lsa, shuncha xususiy *daraxt* bor. Ularning hisobi nisbiy, chunki sanaguncha nechtasi quriydi, nechtasi yonib ketadi va hokazo...

Umumiylik nima? Xohlagan xususiylikda umumiylikning belgisi yotadi. Minglab daraxtlar uchun (*olma, anjir, chinor... daraxtlari*) umumiy bo`lgan tomon - tanasi, shoxi bor o`simlik. Bizning ongimizda *daraxt* xuddi shu ma'no bilan yashaydi. Umumiyliklar mayda - chuyda belgilarni o`z ichiga olmaydi, umumiylik xususiyliklarda takrorlanib turadi. Demak, xulosa shuki, xususiylik - takrorlanmas, chegaralangan; umumiylik - takroriy, chegaralanmagan. Istalgan butunlik shakl va ma'no tomonidan iborat bo`ladi. Yana *daraxt* misoliga qaytamiz. *Daraxtning* shakl tomoni bizga ma`lum: qattiq tanali o`simlik. *Daraxt* nima uchun kerak?

1) soya soladi;

2) meva beradi;

3) yog`och beradi... Bular *daraxtning* mazmun tomonidir, ya'ni vazifasi.

Nutqiy hosilalarning mazmuni turli nutqiy sharoitda qanchalik xilma - xil bo`lmasin, ma`lum bir lisoniy umumiylik ma'nosining tajallisidir. Demak, *daraxt* umumiyligi o`ta sodda va u "o`simlik + tana + shox"dan iborat, xolos. Lekin borliqda milliardlab behad rang - barang daraxtlar bor.

Grammatik ma'no, grammatik shakl va grammatik kategoriya grammatikaning o`zaro uzviy bog`liq eng muhim tushunchalari bo`lib, ular turli usullar bilan ifodalanadi. Dastlab, grammatik ma'no to`g`risida mufassal to`xtaylik. Grammatik ma'noning tashuvchisi va ifodalovchisi grammatik shakl sanaladi. Tabiatan agglyutinativ va sintetik bo`lgan o`zbek tilida qo`shimchalardan aloqa - munosabat qo`shimchalari va lug`aviy shakl hosil qiluvchi qo`shimchalar, asosan, grammatik ma'no ifodalaydi. Masalan, *kitobi* so`zshakliga e`tibor bersak. Bu shakldagi [-i] qo`shimchasi kitobning qandaydir uchinchi bir shaxsga tegishlilikini ifodalasa, "*O`tgan kunlar*" *kitobi*" birikmasida tur va jins nomini o`zaro bog`lab birikma hosil qilyapti. Masalan, "*Javondagi kitoblardan oldi*" gapida [-dan] qo`shimchasi ma`lum bir manbadan biror narsa ajralayotganini ifodalasa, "*Anvar uydan chiqdi*"

gapida esa *Anvar* degan shaxsning chiqish joyini ko`rsatmoqda. Bu o`rinda kelishik qo`shimchalari grammatik ma`no ifodalaypti. Grammatik ma`no lisoniy va nolisoniy munosabatlarning muayyan shakl (qolip) da mujassamlangan mavhum inikosidir.

Fe'l zamonlari ham grammatik ma`no ifodalaydi. Bu zamonlar faqat nutqdagi, matndagi so`zlarning qaysi zamonga oid ekanligini ko`rsatish bilan chegaralanmay, balki tashqi dunyoda sodir bo`ladigan voqea va hodisalarning qachon bo`lib o`tganini, ya`ni aynan gapirilayotgan vaqtda yoki gapirilayotgan vaqtdan oldin yo keyin sodir bo`layotganligini ifodalash uchun ham xizmat qiladi: *Lola o`qidi; Lola o`qiydi; Lola o`qiyotir; Лола прочитала; Лола читает...* Sifat darajalari ham grammatik ma`no anglatadi. Ular narsa, predmet, hodisalarning borliqdagi nisbiy farqini aks ettiradi: *tor/ torroq /eng tor; go`zal/ go`zalroq/ eng go`zal; красивый-красивее-самый красивый.*

Mana shunday ma`lum bir shaklda mujassamlangan va tilda ifodalanishi zarur bo`lgan umumlashgan, lug`aviy ma`no ustidagi ustama ma`no — **grammatik ma`no** sanaladi. Grammatik ma`nolar quyidagi usullar bilan ifodalanadi:

1. Affiksatsiya tilimizda grammatik ma`noni ifodalashning eng keng tarqalgan usuli bo`lib, tilimizga xos bo`lgan grammatik ma`nolarning deyarli barchasi son, egalik, kelishik, hurmat, shaxsiy munosabat, belgi darajasi, harakat, nisbat, tarz (harakatning sodir usuli), bo`lishli-bo`lishsizlik (tasdiq-inkor), mayl- zamon, shaxs-son affiks - qo`shimchalar yordamida ifodalanadi. O`zbek tilida, asosan, suffikslar, ya`ni o`zak yoki asosdan keyin qo`shiladigan qo`shimchalar ishlatiladi. Tilimizda eroniy tillardan kirgan bir qator [*be-*], [*bo-*], [*ser-*], [*no-*], [*ba-*] kabi prefikslar — o`zak va asosdan oldin keladigan qo`shimchalar ham o`zlashib qolgan. Lug`aviy shakl va aloqa - munosabat qo`shimchalari vositasida yasaladigan shakllar tilshunoslikda **s i n t e t i k** shakllar deb aytiladi. Affiksatsiya usuli esa **s i n t e t i k vositalar** deb ataladi. Chunonchi, *kitoblar, akamga, uylarimizda, kelmasaydingiz, yaxshiroq, o`nta* kabi shakllar sintetik shakl sanaladi. O`zbek tilida kelishik shakllari standart holda (tushum kelishigi faqat — **ni** orqali ifodalanadi) bo`lsa, rus tilida kelishik ma`nosi turli shakllar orqali ifodalanadi. Qaratqich kelishigining birlik ma`nosi: **a** (окна), **и** (тетради), **я** (коня) va **h**.

2. Yordamchi so`zlar. Bular ham grammatik ma`no ifoda qilish uchun qo`llaniladi. Ko`makchilar ot, ma`nosi toraygan so`zlar bilan birga kelib, o`zi aloqador bo`lgan so`zni boshqa so`z bilan munosabatga kiritadi: *Biz kelajakka ishonch bilan qaraymiz* (A.Q.) - holat ma`nosi voqelangan; *Telefon orqali gaplashdim* –vosita ma`nosi voqelangan; *Do`stlik biz uchun hamisha ilhom va kuch-quvvat manbai bo`lib kelgan* (O`U.) – atalganlik ma`nosi voqelangan. O`zbek tilida yordamchi so`zlar juda katta guruhni tashkil etadi, ko`makchi, bog`lovchi va yuklamalarning yarim bog`lovchi, yarim ko`makchi, yarim

yuklama kabi turlari mavjud bo`lib, bunday so`zlar ham mustaqil, ham yordamchi ma`noga ega. Chunonchi, *Ishning boshida Abdurahim turar edi*.

Yordamchi so`zlar sifatida o`zbek tilida *juda, eng, bag`oyat, nihoyatda, o`ta, sal, birmuncha* kabi ravishlar ham, *olmoq, bermoq, qolmoq, o`tirmoq, chiqmoq, ketmoq, boshlamoq, bo`lmoq* kabi 40 dan ortiq fe`llar ham keng qo`llaniladi. Yordamchi so`zlar vositasida yasalgan shakllar **a n a l i t i k** shakllar, ushbu vositalar esa **a n a l i t i k vositalar** deb ataladi. Tilimizda juda ko`p holatlarda ayni bir grammatik ma`no sintetik shakl bilan ham, analitik shakl bilan ham ifodalanishi mumkin. Chunonchi, *Kitobni akamga (akam uchun /akamga deb / akamga atab/ akamga mo`ljallab/...) oldim*. Ingliz tilida *the* va *a (n)*, fransuz tilida *le, un*, nemis tilida *der, das* kabi artikllar grammatik ma`no ifodalaydi. Masalan, *the table* ingliz tilida aniqlik grammatik ma`nosini ifodalayapti. Rus tilida *в, на, под* kabi predloglar turli ma`nolarni ifodalaydi.

3. Takror (reduplikatsiya)- bir so`zni aynan ikki marta takrorlash sanalib, bunda ham turli grammatik ma`nolar hosil qilinadi: predmetning ko`pligi, belgining oshirilishi, ma`noning kuchayishi, harakatning takrorlanishi hamda uzoq davom etishi va boshqalar. Chunonchi, *etak-etak paxta* — miqdoriy ko`plik; *ayta- ayta charchamoq* — harakat davomiyligi.

Grammatik vosita sifatida takror malay (indoneziya tili), hind, xitoy singari tillarda ishlatiladi. Masalan: xitoy tilida *син* – yulduz, *син-син* – yulduzlar; hind tilida *бхай* – birodar, *бхай-бхай* – birodarlar; malay tilida *orang* – kishi, *orang-orang*- kishilar Tilimizda bu usulning to`liq takror (*etak- etak paxta*) va qisman takror (*qip - qizil, ko`m- ko`k, yam - yashil*) va tilimizgagina xos bo`lib, fanda "sadodosh takror" (слово-эхо) deb atalgan ko`rinishi ham keng tarqalgan (*mayda- chuyda, she`r-pe`r, kitob -mitob, ko`k- mo`k, qizil- pizil*).

4. So`z tartibi - grammatik ma`no anglatishning yana bir vositasi. So`zlarning gapda ma`lum tartibda oldinma-keyin joylashtirilishi ham grammatik ma`no ifodalash uchun xizmat qiladi. Tilimizda ba`zan shu vosita orqali so`zning qaysi kelishikda ekanligi aniqlanishi mumkin. Masalan, bunday holatlar xususan poetik nutqda keng uchraydi. So`z tartibi so`z birikmalari hosil qilishda yetakchi omillardan biri sanaladi. Chunonchi, *keng dalalar* (so`z birikmasi) - *Dalalar keng* (gap). So`z tartibi grammatik omili nutqda hamisha ohang bilan birga ish ko`radi. Shuning uchun yuqoridagi hosilalarning ohangi bir-biridan tubdan farq qiladi. Chunonchi, *bir, ikki kitob- bir- ikki kitob* birikmalarining ohangi har xildir. So`z tartibi xitoy-tibet tillari oilasiga kiruvchi tillar uchun juda muhimdir. Bu usul ingliz, fransuz tillarida so`zlarning gapdagi vazifalarini, turkumini ko`rsatadi.

5. Ohang ham grammatik ma`no ifodalashga xizmat qiladi. Bu vosita:

a) gapning turini ajratishga: *Imtihon topshirdi. Imtihon topshirdi? Imtihon topshirdi!*

b) gap bo`laklarini ajratishga xizmat qiladi: *Gulnora, singlim keldi. Gulnora, singlim keldi! Gulnora singlim keldi.* Birinchi gapda “*Gulnora*” va “*singlim*” so`zlari uyushib kelgan bo`lsa, ikkinchi gapda “*Gulnora*” so`zi undalma vazifasida kelgan, uchinchi gapda esa *ism* ma`nosida kelgan.

6. Juftlash har xil so`zlarni – ma`nodoshlarni (*baxt-saodat*), zid ma`nolilarni (*yaxshi-yomon*), giponimlarni ulov-*(ot-eshak)*, darajalanuvchilarni (*qo`y-qo`zi*), umumiste`mol arxaizmlarni (*bola- chaqa, cho`pon- cho`liq*) — o`zaro qo`shish orqali har xil grammatik ma`nolarni ifodalash ham tilimizda anchagina.

Yuqorida sanalgan usullardan tashqari **ichki va tashqi fleksiya, suppletivizm** kabi vositalar ham mavjud. Fleksiya turli grammatik ma`nolarni ifodalash uchun so`z tarkibidagi tovushlarning o`zgarishidir. Bu vosita hind-yevropa va semit tillarida keng qo`llaniladi. Masalan: ingliz tilida: *see-saw-seen*; nemis tilida *fahren – fuhr*. **Suppletivizmga**, chunonchi, o`zbek tilida juda kam qo`llaniladigan (*men -biz, sen -siz*; eski o`zbek tilida *u- alar, anga, anda, ani, aning*) so`zlarni kiritish mumkin. Shuningdek, arab tili orqali o`zlashgan *kitob – kutubxona, xabar – axbor, fikr - afkor, taraf - atrof* so`zlarida ichki fleksiya usullari ham uchraydi.

7. Urg`u. Dynyoy tillarining barchasida urg`u grammatik ma`nolarni ifodalashgaxizmat qiladi. Masalan: *tugma* (ot) -*tugma* (fe`l), *yozma* (sifat)-*yozma* (fe`l), *studentsiz* (sifat)- *studentsiz* (kesim) kabi so`zlarning o`zaro farqlanishini urg`uning turli xil o`rni bilan bog`lanadi.

Hozirgi tilshunoslikda grammatik ma`noni alohida til hodisasi sifatida o`rganish endi boshlandi. Shu kungacha grammatik ma`no grammatik shaklning bir tomoni sifatida o`rganilib kelindi. Grammatik ma`noni ifodalashning rang - barang usullarini ko`rib o`tgach, biz ayta olamizki, ayni bir grammatik ma`no xilma-xil vositalar bilan ifodalanishi mumkin. Chunonchi, son ma`nosi o`zbek tilida affiksatsiya \emptyset /*-lar*, ya`ni birlik/ko`plik son shakllari paradigmasi doirasida ko`rib chiqilgan. Son shakllarining ma`nosi deganda mana shu ikki morfema nazarda tutilgan. Tilimizda son ma`nosining ifodalanishi yana boshqa vositalar orqali ro`yobga chiqadi. Chunonchi, ko`plik ma`nosi takror, juft so`zlar bilan ham, birlik ma`nosi juz`iy reduplikatsiya (takror) yoki so`z- so`zsimon (*kitob - mitob, non - pon, meva - cheva*) bilan ham ifodalanishi mumkin.

Hozirgi fanimizda son ma`nolarining o`xshashlik va farqli tomonlari, shuningdek, "*Kitobni akam uchun oldim*" va "*Kitobni akamga deb/ atab oldim*" kabi hosilalar orasidagi ma`no farqlari deyarli o`rganilmagan. Ya`ni ayni bir ma`noni turli xil vositalar bilan ifodalash yo`llari fanimizning o`rganilmagan muammolari sirasiga kiradi. Aslida, gnosseologik (bilish) nuqtai nazardan materiyaning yashash shakli, hodisalarning izchil almashinish tarzi sifatida tadqiq qilinadigan zamon (payt) ma`nosining lisoniy tizimda voqelashish hodisasi

tilning bu kategoriyani yuzaga chiqarish imkoniyatlari keng, rang-barang ekanligini dalillaydi. Bu tillararo xususiyatlarni, xususan, ingliz va o`zbek tillaridagi payt ma`nosini ifodalashning lisoniy vositalarini tekshirganda yanada yaqqol ko`rinadi. Zamon (vaqt, payt) tushunchasi grammatik ma`no, mazkur kategoriyani yuzaga chiqaruvchi usul va vositalar esa payt ma`nosini ifodalovchi grammatik vositalar deb hisoblanadi. Quyida ingliz va o`zbek tillarida payt ma`nosini ifodalashning uyg`un, o`xshash xususiyatlarni, ya`ni umumiy (integral) belgilarini hamda o`ziga xos xususiyatlari - farqlovchi (differensial, oppozitsion, zid) belgilarini qiuoslaymiz.

Payt ma`nosining ingliz va o`zbek tillari tizimida voqelanishi

| | | <i>O`zbek tilida</i> | <i>Ingliz tilida</i> |
|------------------------------|---------|--|--|
| turkumlari | fe'llar | Hoz.z.: <i>yozaman, yozmoqdaman.</i> O`tgan z.: <i>yozdim, yozgan edim.</i> Kel. Z.: <i>yozaman, yozmoqchiman.</i> | Pres.: <i>I write. I am writing.</i> Past: <i>I wrote. I had written.</i> Future: <i>I`ll write.</i> |
| | Otlar | <i>Kun, kecha, kunduz, yil, sutka, fasl, sahar, asr, namozshom, oqshom, erta, peshin, tong, nahor , indin, bugun .</i> | <i>Evening, day, night,centure, afternoon, morning, year, season, era, future,dawn, old (yosh);</i> |
| M u s t a q i l s o`z | Sifat | <i>Tonggi, kuzgi, qishki, bahorgi, tunggi, sirtqi, kunduzgi, kechki;</i> | <i>Fast, early,late,slow,short (day), long(night);</i> |
| | Son | <i>Soat 7da uyg`ondi. Mustaqilligimizga 13yil to`ldi.</i> | <i>He came at 6 o`clock. Our republik was independent in 1991.</i> |
| | Ravish | <i>Endi, hali, boya, doim, saharlab, ertalab, mudom, faqat;</i> | <i>Never, ever, usually, often, ago, yet, now, then, nowadays, lately, after, before, untill, forever, always, meanwile, recently;</i> |
| | Olmosh | <i>Shu-shu (Shu-shu Fotima kelmay qo`ydi); so`roq olmoshlari: qachon? qachondan buyon? qachongacha?</i> | <i>When?</i> |

| | | | | |
|----------------------------------|--------------|--|--|--|
| Yordamchi soʻz turkumlari | kò makchi | <i>Sayin, sari (Koʻrgan sari koʻrging kelaveradi); Yarim koʻmakchi soʻz: avval, keyin, soʻng;-gacha (qoʻshimchasimon koʻmakchi); qadar (sof koʻmakchi); bilan (Qoʻngʻiroq chalinishi bilan darsga kirdim);</i> | Conjunctions | <i>...as soon as...,...as long as ..., since, before, after, until, while;</i> |
| | bogʻlovchi | <i>Dam...dam, ...baʻzan...baʻzan, goh...goh;</i> | | |
| | Affiksatsiya | a | <i>Toki, -u, -yu (Qoʻngʻiroq chalindi-yu, dars boshlandi).</i> | Predlogs |
| | | <i>-da (oʻrin payt): peshinda,-dan (chiqish): peshindan,-ga (joʻnalish): peshinga qarab;</i> | | |

Koʻrinadiki, har bir tilning grammatik maʼno ifodalash usul va vositalari farq qilgani hamda har bir til oʻziga xos ichki grammatik qurilishga ega boʻlganidek, oʻzbek va ingliz tillarida payt grammatik maʼnosini yuzaga chiqarish imkoniyatlari benihoya keng va oʻziga xos, farqlidir.

Ҳар бир тилда муайян грамматиқ маънони ифода этувчи воситалар тизими **грамматиқ категорияларни** ташкил этади. Yuqorida soʻz shakllarining morfologik paradigmalarda turli umumiy maʼnolar asosida oʻzaro zidlanishi haqida gapirib oʻtgan edik. Sўz va cўz shakllari ўrtasidaгид зидланишлар грамматиқ маънонинг ифода усулларидан келиб чиққан ҳолда турлича бўлади ва бир-бирига қарама-қарши оппозиция ҳолатида бўлади. Масалан, кўплик бирликка нисбатан, ҳозирги замон ўтган ва келаси замонга, биринчи шахс иккинчи ва учинчи шахсга нисбатан олинади.

Демак, грамматиқ категория муайян тилда муайян грамматиқ маънони ифодалаш тизимидир. Бироқ тилдаги грамматиқ маъноларни ифодаловчи воситаларнинг барчаси ҳам тизимлиликни ташкил эта олмайди. Тилда **категориал ва нокатегориал шакллар** ҳам учрайди. Жумладан, ўзбек тилида феълларнинг нисбат шакллари муайян тизимни ташкил этиб, муайян категорияга бирлашгани ҳолда, *мижигламоқ, кулимсирамоқ, тортқиламоқ* каби сўз шакллари зид шакллар тизимини ҳосил қилмагани сабабли нокатегориал шакллар ҳисобланади. Ў

Одатда, ўзaro зидликни ташкил этувчи унсурлар икки, уч ва кўп узвли бўлиши мумкин. Бу турли тилларда ҳар хил бўлиб, жумладан ўзбек тилида сон, бўлишли-бўлишсизлик 2 узвли, замон, шахс-сон, эгалик, даража категориялари 3 узвли, келишиқ, нисбат категориялари кўп узвли

грамматик категориялар ҳисобланади. Айни пайтда, ўтган замон шакллариининг ўзи кўп узвли бўла олади. Демак, грамматик категориялар ўз ичида ҳам грамматик категорияларга бўлиниши мумкин. Буни сўз туркумлари мисолида кўриш мумкин. Энг катта грамматик категория сўз туркумлари бўлиб, ҳар бир тилдаги мустақил сўз туркумлари қатор грамматик категорияларга эга.

Сўз туркумлари. Маълумки, тилда ранг-баранг, сон-саноксиз сўзлар мавжуд бўлиб, уларни муайян туркумларга ажратиш учун маълум ўлчовлар, шартлар, мезонларга асосланиш зарур. Тилшунослик тарихида структурализм оқими пайдо бўлгунча, яъни ўтган асрнинг ўттизинчи йилларигача сўзларни туркумларга ажратишда асосан 3 белгига асосланилган.

1. Сўзларнинг луғавий маъноси.
2. Сўзларнинг морфологик белгилари.
3. Сўзларнинг гапдаги вазифаси.

Айрим олимлар сўзларни туркумларга ажратишда лексик маъносини етакчи деб билсалар, айримлар морфологик белгисини, яъни бошқалар синтактик вазифасини асос қилиб олдилар. Кейинги ишларда сўзларни туркумларга ажратишда юқоридаги белгилардан ташқари сўз ясаиш белгиси ҳам қўшилди. Сўзларни туркумлашда, албатта, ҳар бир тилнинг хусусиятларидан келиб чиқилади. Жумладан, хитой тилида сўзларни туркумларга ажратишда уларнинг синтактик белгиси, сўз тартиби асосий роль ўйнаса, ўзбек тилида морфологик белги етакчидир. Шунингдек, турли тилларда сўзларнинг туркумлари ва уларнинг миқдори бир хил эмас, ўзбек тилида 10 та, рус тилида ҳам 10 та, инглиз тилида ҳам 10 та, уйғур тилида 8 та, француз тилида 9 та сўз туркумлари мавжуд.

Тилшуносликда сўнги йилларда сўзларни туркумларга ажратишда уларнинг қуйидаги муҳим белгилари асос қилиб олинмоқда: семантик белги, морфологик белги, синтактик белгиси ва сўз ясаиш белгиси.

Сўз туркумларининг семантик белгиси деганда, уларнинг конкрет маъноси эмас, умумлашган маъноси кўзда тутилади. Масалан, *уй, қалам, олма, қуёш* каби сўзларнинг аниқ, конкрет маънолари бор. Лекин уларнинг конкрет маъноси эмас, умумлашган маъно-предметлиги кўзда тутилади. Жумладан, предметнинг тушунчасини ифода қилувчи сўзлар от сўз туркумига киритилади. *Ўқимоқ, қочмоқ, турмоқ, яшамоқ, қурмоқ* каби сўзларнинг конкрет маънолари ҳар хил, лекин уларнинг ҳаммасига хос бўлган маъно иш-ҳаракатдир.

Сўз туркумларининг морфологик белгиси деганда, у ёки бу сўзга хос бўлган морфологик-грамматик категориялар, мазкур сўзларга хос форма ясовчилар, сўз ўзгартирувчи аффикслар тушунилади.

Сўз туркумларининг синтактик белгиси дейилганда, сўзларнинг гаптаги ўрни, гап бўлаклари нуктаи назаридан бажариладиган вазифаси кўзда тутилади. Сўзларнинг гапта бошқа сўзлар билан бирика олиш имконияти (дистрибуцияси) ҳам синтактик белги ҳисобланади. Масалан, араб, инглиз, немис, француз тилларида артиклар билан бириккан сўзларни албатта от деймиз, чунки артиклар фақат отлар билан бирика олади. Ўзбек тилида ҳам шундай келишиклар от ёки олмошларга қўшилади.

Сўз ясашиш белгиси дейилганда, у ёки бу сўз туркумига хос сўз ясовчи қўшимчалар назарда тутилади. Ҳар бир сўз туркумининг ўзига хос ясовчи формаси бор. Масалан: *-ли* сифат, *-лик* от ясовчи сифатида қаралади.

Сўзларни туркумлар бўйича таснифлаш. Сўз туркумлари назариясининг иккинчи принципи сўзларни туркумларга ажратиш принциpidир. Сўз туркумлари, дастлаб, икки катта гуруҳга бўлинади: **муस्ताқил ва ёрдамчи сўзлар.** Муस्ताқил тушунчалар бирор предмет, белги, ҳаракат номини англатади. Ёрдамчи сўзлар тушунча ифода этганда фақат грамматик маънони англатади. Ёрдамчиларга кўмакчи, предлог, юклама, боғловчи ва артиклар киради.

Soʻzlar **maʼnoviy belgisiga** koʻra quyidagicha turkumlanadi:

1. Mustaqil maʼnoli soʻzlar:

- a) mavjudotlarni atovchi soʻzlar - otlar;
- b) belgi - xususiyatni atovchi soʻzlar – sifatlar;
- d) harakat - holat ifodalovchi soʻzlar – feʼllar;
- e) miqdorni ifodalovchi soʻzlar – sonlar;
- f) oʻrin - payt, tarz - tusni ifodalovchi soʻzlar- ravishlar;
- g) taqlidni ifodalovchi soʻzlar-taqlidiy soʻzlar.

2. Boʻsh-ishora maʼnoli soʻzlar-olmoshlar.

3. Yordamchi maʼnoli soʻzlar: koʻmakchi, bogʻlovchi, yuklama, koʻmakchi feʼllar. Soʻzlarning mustaqil va yordamchi tiplarga ajralishi ularning mustaqil holda maʼno ifodalay olish qobiliyatiga koʻra belgilanadi.

Oʻzbek tilshunosligida olmoshlarning doirasi va vazifasi zoʻrma-zoʻrakilik bilan cheklantirilib, "ot, sifat, son oʻrnida qoʻllanuvchi soʻzlar" sifatida tor doirada tushinilgan edi. Bu oʻrinda olmoshning nafaqat ot, sifat, son oʻrnida, balki feʼl, ravish, taqlidiy soʻz, undov gap, hattoki matnni almashtira olish, ularga ishora etish xususiyati hisobga olinmagan.

DTSga asoslangan ona tili oʻquv dasturi va darsliklarida ham oʻzbek tili qurilishi talqinida qator yangiliklar koʻzga tashlanadi:

1. Olmoshning nafaqat ot, sifat, son, balki feʼl, ravish, taqlidiy soʻz, undov gap va, hatto, matnni almashtira olish, ularga ishora etish xususiyati hisobga olingan holda ularni oʻrganish feʼl, ravish, taqlidiy soʻzlardan keyinga koʻchirilgan va ular ishora soʻzlar sifatida izohlanilgan.

2. Dasturda bir soʻz turkumidan ikkinchi bir soʻz turkumiga oʻtish talqini rus tili grammatikasidan koʻchirilgan hodisa sifatida baholanadi (“*Yaxshi bola yaxshi oʻqiydi*”; “*Mardona yigit mardona gapiradi*” kabi gaplarda *yaxshi* va *mardona* soʻzlari birinchi birikmada sifat deb, ikkinchi birikmada esa ravish deb bahslanadi). Darslikda ravish soʻz turkumining xususiyatlari oʻrganilar ekan, uning morfologik kategoriyalarni, soʻz oʻzgartiruvchi qoʻshimchalarni qabul qila olmasligi asosiy belgisi qilib koʻrsatilgan. Ravishlarning morfologik jihatdan oʻzgarmas ekanligi qator misollarda (*tasodifan, birga, qasddan, oʻzbekona, haqiqatan*) aniqlab berilgan. Ravishlarning sintaktik vazifasi ularning aniqlovchi boʻlib kela olishi bilan kengaytirilgan.

3. Egallik, kelishik qoʻshimchalari faqat otlar va otlarni almashtirishga xizmat qiladigan olmoshlar bilan birikadi, degan gʻayriilmiy talqin dasturdan oʻrin olmagan. Grammatikadagi otlashuv hodisasi "maʼno torayishi" mavzusi doirasida izohlangan.

4. Soʻz turkumlarini oʻrganishda ularning asosiy maʼnoviy, morfologik, sintaktik xususiyatlari hisobga olingan holda, amaldagi dastur va darsliklarimizdan farqli oʻlaroq quyidagicha joylashtirilgan:

- | | |
|----------------|---|
| 1. Feʼl. | 7. Olmosh |
| 2. Ot. | 8. Koʻmakchi |
| 3. Sifat. | 9. Bogʻlovchi |
| 4. Son. | 10. Yuklama |
| 5. Ravish. | 11. Soʻz- gaplar (undov, modal, tasdiq va inkor, taklif soʻz- gaplar) |
| 6. Taqlid soʻz | |

Soʻz turkumlarning miqdori, ularning belgilari tarixiy oʻzgaruvchan boʻlib, turli sistemalardagi tillardagina emas, qarindosh tillarda ham turlichadir. Shunga qaramay bir tildagi soʻz turkumlarning miqdori boʻyicha ham olimlar orasida turli qarashlar, tasniflar mavjud. Masalan, hozirgi rus tilidagi soʻz turkumlarining miqdori haqida shunday tasnif mavjud. Koʻpchilik olimlar soʻz turkumini oʻnta deb hisoblaydilar. Bular: ot (имя существительное), feʼl (глаголы), sifat (имя прилагательное), ravish (наречие), son (имя числительное), bogʻlovchi (союзы), predloglar, undov (междометные слова), yuklama (частицы).

Hozirgi ingliz tilidagi soʻz turkumlarining soni ham turli olimlar tomonidan turlicha talqin qilinadi: baʼzilari oʻnta deb koʻrsatsa (ot(noun), sifat (adjectives), son (numeratives), olmosh (pronouns), feʼl (verbs), ravish (adverbs), predlog, artikl va yuklama (conjunctions), baʼzilari oʻn toʻrtta deyдилar: yuqoridagilarga qoʻshimcha ravishda modal soʻzlar, holat kategoriyasi, undovlar, javob soʻzlar kiritiladi.

Hind-yevropa tillariga kiruvchi tojik tilida ham soʻz turkumlari quyidagicha tasniflanadi: ot: *дафтар, духтар, хона*; sifat: *нав, калон, калонтар, сурх, сурхтар*; son: *як, дах, бист*; olmoshlar: *ман мо, ту, шумо, ў,*

онҳо, ин; fe'l: кардан, рафтан, истодан; ravishlar: муваққатан, ҳоло, тозон-тозон; predloglar: ба, дар, аз, барои; bog'lovchilar: ва, ҳам, чунки, зеро, бо ин ки; yuklamalar: - ми, - а, - ку, не; undov so'zlar: оҳ! офарин! вой! э вой!

Xulosa qilib aytish mumkinki, keyingi yillardagi ona tili tizimidagi qator yangiliklar, tajribalar, ilmiy xulosalar umumiy o'rta ta'lim dastur va darsliklarida ham o'z ifodasini topgan.

Назорат саволлари

1. Грамматика сўзининг маъноси нималарни билдиради?
2. Грамматиканинг асосий бўлмлари қайсилар ва улар нималарни ўрганади?
3. Грамматик маъно ва грамматик категориялар тушунчаларини изоҳланг.
4. Сўзнинг морфем таркиби унинг товуш таркибидан нимаси билан фарқ қилади?
5. Морфема нима, унинг лексемадан фарқи нимада?
6. Морф ва уларнинг турлари ҳақида гапириб беринг.
7. Аналитик ва синтетик воситаларга нималар киради.
8. Сўзларни туркумларга ажратиш принциплри ҳақида гапириб беринг.

Таянч ибора ва тушунчалар (глоссарий)

Морфология – сўзларнинг грамматик маънолари ва грамматик категориялар, сўз туркумларини ўрганувчи бўлим.

Morfemika – so'zning ma'noli qismlari haqidagi ta'limot.

Morflar (yunoncha **morphe** – *shakl*) - so'zlar yoki so'zshakllar tarkibida ajratiladigan eng kichik ma'noli qismlar.

Алломорф – вариант, альпориант, турли кўриниш, морфеманинг аниқ манифестацияси.

Интерфикс – мураккаб сўзларни боғлаш учун ишлатилади: зубр-о-бизон, лоб-о-тряс, обст-е-бўк, каш-е-вар, вин-о-черний, кров-о-пийста.

Конфикс – икки иффикс қўшилмаси (комбинацияси). Префикс ва постфикс (немис тилида бон-loben-хвалить-ge-lob-t-хвалённўй) префикс - ge, постфикс – t.

Трансфикс – (древнеевропейский вавилон аккад) ўзакни ёриб кириш (ундош ўртасига қўшилиш).

Grammatik ma'no — umumlashgan, lug'aviy ma'noga qo'shilgan ustama ma'no.

Грамматик категория тилда муайян грамматик маънони ифода этиш тизими.

Тавсия этилган адабиётлар рўйхати

1. Ирискулов М. Тилшуносликка кириш.- Тошкент, 2008.
7. Ирискулов М..Тилшуносликка кириш. -Тошкент, 1992.
8. Содиқов А., Абдуазизов.А., Ирискулов М.. Тилшуносликка кириш. -Тошкент, 1981.
9. Реформатский А.А.. Введение в языковедение. -. Москва, 2008.
- 10.Головин Б. Н. Введение в языкознание. - Москва, 1979.
- 11.Кодухов В. И. Введение в языкознание. - Москва, 1979.
- 12.Кодухов. В. И. Общее языкознание. - Москва, 2009.
- 13.Чурилина. Л. Н. Актуальные проблемы современной лингвистики. - Москва, 2009.
- 14.Шарафутдинова. Н. С.Теория и история лингвистической науки. - Москва, 2007.

ВИЗУАЛ МАТЕРИАЛЛАР

1-савол. Грамматиканинг асосий вазифаси


1-илова

Грамматика (грекча – “ёзув санъати”) тарихий сўз бўлиб, ўқиш ва ёзиш деган кенг маънони англатади

Грамматика – тил функциясининг умумий қонунларини ўрганади ва лингвистика сўзига синоним термин ҳисобланади


Грамматика – тилнинг грамматик қурилиши, морфологик категория ва форма системаси, синтактик категория, синтактик қурилиш, сўз яшаш усуллари ва тилнинг грамматик таркибини ўрганади

2-илова






3-савол. Грамматик категориялар



4-савол. Сўзларнинг морфологик ва этимологик шаклланиши


6-илова



5-савол. Сўз туркумлари

7-илова





5-МАЪРУЗА: Синтаксис. Тилнинг синтактик бирликлари.

Гап, гап бўлаклари. Гапнинг актуал бўлиниши

Режа:

1. Sintaksis gap to'g'risidagi ta'limotni o'rganuvchi sath sifatida.
2. Sintaktik munosabatlar va nutqda ularni ifodalash yo'llari.
3. So'z birikmasi va uning bog'lanish yo'llari.
4. Gap, uning bo'laklari va tuzilishiga ko'ra turlari.
5. Gapning aktual bo'linishi.

Maqsad: Grammatikaning sintaksis sathi, uning o'rganish o'byekti, sintaktik munosabatlar va nutqda ularni ifodalash yo'llari, gapning aktual bo'linishi haqida ma'lumot berish, so'z birikmasi va uning bog'lanish yo'llari, gap, uning bo'laklari va tuzilishiga ko'ra turlari haqidagi tasavvurini kengaytirish.

Sintaksis (yunoncha sintyaxys – «tuzish», «qurish» demakdir) atamasini ikki ma'noda tushunish mumkin: tilning sintaktik qurilishi ma'nosida va tilning sintaktik qurilishini o'rganadigan grammatikaning bir qismi ma'nosida. Sintaksis so'z birikmalari, gap va gap bo'laklarini o'rganadi. Gap fikr ifoda etadi. So'z birikmasi esa fikr emas, balki so'z kabi tushuncha ifodalaydi. Ma'lumki, so'z birikmasi ifodalagan ma'no so'z ifodalagan ma'nodan ko'ra xususiyoq (aniqyoq) bo'ladi. Demak, sintaksisning eng asosiy birligi gapdir.

Gapda so'zlar ma'lum qoidalar asosida bir-biri bilan bog'lanadi, ya'ni semantik-sintaktik aloqaga kirishadi. Har qanday sintaktik aloqa sintaktik munosabatlar majmuidir. «Munosabat» arabcha so'z bo'lib, bir qancha ma'nolarni ifodalaydi: 1) kishilar o'rtasidagi aloqa, muomala; 2) narsa, hodisalar o'rtasidagi o'zaro bog'lanish, aloqa; 3) kishining voqelikdagi narsalarga, hodisalarga qarashi, yondashishi kabi. «Munosabat» atama sifatida filosofiyada muayyan sistemadagi elementlarning joylanish xarakteri va ularning o'zaro bog'liqligini ifodalovchi falsafiy kategoriya bo'lsa, mantiq fanining atamasi sifatida hodisalarga xos serqirralikka turlicha yondashish nuqtayi nazari tushuniladi.

Tilshunoslikda «sintaktik munosabat» atamasi gap tarkibida so'zlar o'rtasidagi o'zaro bog'lanish, aloqa demakdir. Turli tillarda mavjud bo'lgan sintaktik munosabatlar dastlab ikki turga bo'linadi: **predikativ va nopredikativ** bog'lanish. O'zbek tilida **predikativ bog'lanish** deganda gap tuzilishining asosi (gapning markazi) kesim bilan bog'liq bo'lgan sintaktik munosabat nazarda tutiladi. Shuni ta'kidlash lozimki, o'zbek tilidagi sodda gaplarda ega ishtirok etmasligi ham mumkin.

Kesim gapning markazi bo'lib, u tasdiq / inkor, mayl / modallik, zamon, shaxs / son ma'nolarini ifodalab keladi, hukmni ifodalaydi va gapning boshqa

bo‘laklarini o‘z atrofida birlashtiradi. Chunonchi, *Mardni maydonda sinaymiz* gapida kesim (*sinaymiz*) tasdiq ma’nosida, xabar maylida, kelasi zamon, I shaxs ko‘plik shaklida ifodalangan bo‘lib, gapning ikkinchi darajali bo‘laklari – vositasiz to‘ldiruvchi (*mardni*) hamda o‘rin holi (*maydonda*) bilan o‘zaro sintaktik munosabatga kirishgan.

Nopredikativ bog‘lanish bunday xususiyatga ega emas. Nopredikativ bog‘lanishda so‘zlar tenglashish va ergashish orqali o‘zaro sintaktik munosabatga kirishadi. Grammatik jihatdan bir-biriga teng bo‘lgan so‘zlarning o‘zaro grammatik munosabatga kirishishidan **teng bog‘lanish** yuzaga keladi. Tenglashish munosabati, odatda, teng bog‘lovchilar va sanash ohangi orqali ifodalanadi. Masalan: *o‘quvchilar va o‘qituvchilar; kitoblar, daftarlar; omeu u demu; хорошо, но дорого* (ruscha); *The Lesson finished and the teacher went off* (ingl.); *Die Mutter und die Tochter* (nemis).

Ergash bog‘lanishda grammatik jihatdan teng bo‘lmagan so‘zlar o‘zaro grammatik munosabatga kirishadi va tobe-hokim munosabatiga ega bo‘lgan so‘z birikmalarini yuzaga keltiradi. Masalan: *umidli dunyo, qo‘shiq aytmoq, shoshib gapirish* (o‘zb. tilida); *длинная дорога, крепкий чай, имеет право* (rus tilida); *cleart profit; Long island is a long island* (ingliz tilida). Tobelanish munosabati, asosan, aloqa-munosabat affikslari, ko‘makchilar, fleksiya, so‘z tartibi, ohang kabi vositalar bilan ifodalanadi.

Yuqorida sanab o‘tilgan sintaktik munosabat tiplari turli ko‘rinishdagi quyidagi grammatik vositalar orqali ifodalanadi:

Aloqa - munosabat affikslari. Bunday qo‘shimchalar sintaktik shakllar deb ham yuritiladi. Ular so‘zlarning lug‘aviy ma’nosiga ta’sir ko‘rsatmasdan, ularni sintaktik aloqaga kiritish uchungina xizmat qiladi. Turkiy tillarda sintaktik munosabatlarni ifodalashda turlovchi va tuslovchi qo‘shimchalar keng qo‘llaniladi: Masalan: *kinoni ko‘rmoq, xonaga kirish, uning qalbi, sizning tuyg‘ularingiz* (o‘zbek tilida); *Ornina jat (o‘rningga yot), Bez sag‘at 10 da uyeqtaurg‘a jatteq (Biz soat 10da uxlashga yotdik)* (qozoq tilida).

Fleksiya. Bu hodisa flektiv tillarga hind-yevropa (rus, nemis, latin, hindu), som (arab, ivrit) tillariga xosdir. Bu tillarda har bir mustaqil so‘zning dastlabki ko‘rinishi ham negiz va qo‘shimchalarga bo‘linadi, ammo o‘zak-negizni mustaqil qo‘llab bo‘lmaydi. Chunonchi: *старший брат, синие брюки, моего отца, хороших друзей* каби. (Rus tilidan olingan ushbu so‘z birikmalaridagi sintaktik munosabat ifodalovchi vositalar qo‘shilgan so‘zlarning o‘zak-negizi *старш, син, мо, хорош* bo‘lib, ular mustaqil holda qo‘llanilmaydi.)

Yordamchi so‘zlar (bog‘lovchilar, ko‘makchilar, bog‘lama) so‘zlarni sintaktik munosabatga kiritishda alohida ahamiyatga egadir.

O‘zbek tilida: *Rasmni to‘yqalam bilan chizdi. Men o‘qituvchi bo‘laman;*

Rus tilida: *еxать к друзьям, писать на бумаге.*

Ingliz, fransuz, arab tillarida sintaktik vosita sifatida **artikl** ham qoʻllaniladi. Roman-german tillarida artikl faqat ot soʻz turkumiga xos soʻzlardan oldin ishlatiladi. Arab tilida esa artikl ot, sifat, son bilan birga qoʻllanilaveradi. Chunonchi: *a table (stol)*; *an apple (olma)*; *Al kita: bu; ru – N* (arabcha) kabi.

Soʻz tartibi. Soʻzlarning sintaktik funksiyasi maxsus morfologik koʻrsatkichlar bilan ifodalanmaganda soʻz tartibi sintaktik munosabatlarni koʻrsatuvchi muhim vosita boʻlib qoladi. Bu vaqtda soʻzlarning gapdagi vazifasi soʻz tartibiga bogʻliq boʻladi. Soʻz tartibi oʻzgarishi bilan sintaktik holat ham, gap semantikasi ham oʻzgaradi. Masalan: *shirin qovun* (aniqlovchi-aniqlanmish), *Qovun shirin* (ega-kesim), *Gullagan daraxt hammamizni hayratga soladi. Daraxt gullagan, hammamizni hayratga soladi.*

Baʼzan soʻz tartibining oʻzgarishi sintaktik holatga daxl etmasligi ham mumkin, yaʼni gap boʻlaklarining oʻrni oʻzgarsa-da, ularning sintaktik vazifasi ilgarigicha qolaveradi. Masalan: *Yana keldi qalbinning rozi, Yana keldi men kutgan bahor.*

Qalbinning rozi yana keldi. Men kutgan bahor yana keldi.

Flektiv tillarda soʻz tartibi sintaktik vosita sifatida kam qoʻllaniladi.

Intonatsiya ham sintaktik munosabat ifodalaydigan vositalardan biri hisoblanadi. Oldingi mavzularimizdan sizga maʼlumki, mantiq urgʻusi, pauza, ritm, melodika kabilar intonatsiyaning tarkibiy qismlaridir. Intonatsiya – barcha tillarga xos boʻlgan sintaktik munosabat ifodalovchi vosita. U yoki bu tilda sintaktik vositalardan qaysi turining ishlatilishi har bir tilning grammatik qurilishiga bogʻliqdir.

Maʼlumki, har bir millat, xilq tili oʻzining tuzilishi bilan, ayrim unsurlarning oʻzaro munosabati bilan butun sistema (tizim)ni tashkil etadi. Tilning har bir sathi «lison ~ nutq» aspektida oʻrganilishini yodga olaylik. Til (lison) birliklarini fonema, morfema, leksema hamda lisoniy sintaktik qoliplar tashkil etsa, bevosita kuzatishda berilgan nutqiy birliklarni tovush (harf), affiks, soʻz, soʻz birikmasi, gap, matn kabilar ifodalaydi.

Kishilar ongida, chunonchi, lisoniy sathda soʻzlash, yaʼni xilma-xil maqsadlarga xizmat qiluvchi nutqni shakllantirish uchun leksemalarni soʻz birikmalari sifatida bogʻlash, leksema yoki soʻz birikmalariga gap shaklini beruvchi qoliplar mavjud. Bular LSQ lar, modellar, konstruksiyalar, qurilmalar tarzida nomlansa-da, aslida bir tushunchani ifodalaydi. LSQ larni biz jamiyatda tayyor holda qabul qilib olamiz va uni oʻz ixtiyorimizcha oʻzgartira olmaymiz. LSQ lar va ularning nutqiy voqelanish (soʻz birikmalari, gap)lari oʻrtasida umumiylik ~ xususiylik, mohiyat ~ hodisa, imkoniyat ~ voqelik, sabab ~ oqibat dialektikasi mavjud boʻlib, lisoniy sintaktik qoliplar bizning ongimizdagi yuksak darajali umumiyliklardir. Ular ongimizda ichki imkoniyat, zarurat, mohiyat sifatida mavjuddir. Shu oʻrinda LSQ va uning hosilalari boʻlgan soʻz birikmasi yoki gapga xos xususiyatlarni taqqoslab koʻraylik.

| LSQ larga xos belgilar | LSQ larning nutqiy hosilalariga xos belgilar |
|--------------------------------|--|
| bevosita kuzatishda berilmagan | Bevosita kuzatishda berilgan |
| ijtimoiy | individual (alohida) |
| takrorlanuvchan | Takrorlanmas |
| chegaralangan | Chegaralanmagan |
| majburiy | Ixtiyoriy |

LSQ lar ma'lum shaxslar tomonidan yasalgan emas, balki muayyan tilda so'zlashuvchi jamiyat a'zolari tomonidan uzoq asrlar davomida kishilar ongida shakllangan. LSQ lar barcha jamiyat a'zolari uchun teng baravar xizmat qiladi. Bitta lisoniy sintaktik qolip yuzlab, minglab so'z birikmalarida yoki gaplarda takrorlanaveradi. Masalan, [ot^{tushum kelishigi} + fe'l] so'z birikmasi qolipidan *polni bo'yamoq, farzandni sevmoq, onani ardoqlamoq, kitobni o'qimoq* kabi son-sanoqsiz nutqiy sintaktik birliklarni hosil qilish mumkin. Demak, LSQ lar takrorlanuvchandir. Yuqorida eslatib o'tganimizdek, bevosita kuzatishda berilgan birorta hodisada takroriylik yo'q. Hayotdan ko'z yumgan birorta odamni qayta yaratib bo'lmaganidek, qolipdan chiqqan so'z birikmasi yoki gapni ham qayta aytish, yozish mumkin emas. Bu nutqiy hosilalarga xos betakrorlikdir.

LSQlar chegaralangan bo'ladi. Masalan, o'zbek tilshunosligida so'z birikmalarining 18 ta ustuvor qolipi aniqlangan. O'zbek tilidagi minglab, yuz minglab (balki undan ham ko'proq) so'z birikmalari turli nutq sharoitlariga mos ravishda turfa ko'rinishlarda aks etsa-da, LSQ ning mohiyat chegarasidan chiqib keta olmaydi. Demak, LSQlardan chiqadigan nutqiy hosilalar miqdori esa chegaralanmagan bo'ladi.

Rus tilshunosligida sodda gaplarning eng kichik qurilish qolipi [S - P], ya'ni [ega - kesim] ko'rinishiga egadir. Masalan: *Трава зеленеет. Птицы улетают* kabi. O'zbek tilida sodda gapning eng kichik qurilish qolipi [WPM] ko'rinishiga ega. So'z birikmalariga xos bo'lgan umumiy qolip [TB+HB], ya'ni [tobe bo'lak+hokim bo'lak] dir.


Har qanday so'z birikmasi va gap, kontekst va matn kabi sintaktik butunliklarning birlamchi moddiy asosi so'zdir. Fikr almashish jarayoni aslida so'zlardan, ularning semantik-sintaktik bog'lanishidan yuzaga keladi. Demak, so'z ham til birligi, ham nutq birligidir. Tilshunos olim Ravshanxo'ja Rasulov ta'kidlaganidek, ham til, ham nutq birligi bo'la olish imkoniyati faqat so'zga xosdir.

Gap tarkibida soʻzlarning muayyan qurshovda boʻlishi, muayyan ishtirokchilar bilan birika olish imkoniyatlari tasodifiy va butunlay erkin emas. Ular muayyan qonuniyatlarga boʻysunadi. Maʼlum til birligining boshqasi bilan birikuvining asosiy qonuniyatlari **valentlik** tushunchasida birlashadi. Maʼlum bir soʻzning boshqa soʻzlar bilan birika olish imkoniyati, maʼnoviy sintagmani tuzishi, oʻz maʼnosini toʻla ochish uchun muayyan soʻz va soʻz shakllarni talab etishi **valentlik** nazariyasining asosini tashkil etadi. Valentlik soʻzi aslida «kuch» degan maʼnoni bildiradi. Fizika fanidan maʼlumki, kuch-oʻzaro taʼsir va bogʻlanish demakdir. Ushbu atama dastlab kimyo fanida qoʻllangan boʻlib, biror kimyoviy element atomining boshqa element atomlaridan muayyan sondagisini biriktirib olish xossasini ifodalaydi.

Jahon tilshunosligida «valentlik» atamasi oʻtgan asrning 20-30-yillarida paydo boʻldi va juda tez ommalashdi. XX asrning 40-yillarida valentlik tushunchasini sovet tilshunosligiga S.D.Kotsnelson, 80-yillarida esa oʻzbek tilshunosligiga R.Rasulov olib kirdi.¹ R.Rasulov valentlik hodisasini imkoniyatli voqelik sifatida baholab, olimlar oʻrtasida uzoq yillar davom etgan valentlik maʼnoviy tabiatga egami yoki sintaktik xarakterga egami, degan jiddiy munozaraning yechimini bera oldi va oʻzbek tilshunosligida valentlik ikki tomonlama: ham semantik, ham sintaktik hodisa ekanligini isbotladi.

Tilshunoslikda valentlik tushunchasida uch jihatni: soʻz valentligi, sintaktik valentlik, grammatik shakl valentligi. farqlash kerak boʻladi.

Soʻz valentligi soʻzning semantik strukturasi muajassamlangan yashirin imkoniyat boʻlib, u maʼlum bir soʻzning muayyan bir maʼnoviy turkum soʻzlari bilan meʼyoriy ravishda bogʻlana olishi, birika olish qobiliyatiga ega ekanligini ifodalaydi. Soʻzlarning lisoniy valentligidagi bu imkoniyat **semantik (maʼnoviy) valentlik** deb yuritiladi. Misol tariqasida [yozmoq] soʻzining maʼnoviy valentligini koʻrib oʻtamiz.



¹Qarang: С.Д.Коцнельсон. О грамматической категории. Вестник. ЛГУ.- М., 1948. №2. - С.132.; Rasulov R. Oʻzbek tilidagi holat feʼllari va ularning obligator valentliklari.- T.: «Fan», 1989.

Demak, [yozmoq] soʻzi oʻz maʼnosini toʻla ochib berishi uchun yuqoridagi soʻroqlarga javob boʻla oladigan soʻzlar bilan kengaytirilishi (nutqda birikib kelishi) talab etiladi. Nutqiy valentlik yashirin imkoniyat, mohiyat, umumiylik, zaruriyat boʻlgan lisoniy valentlikning moddiylikka ega boʻlishi, yaʼni roʻyobga chiqishidir. Soʻz valentligi substansial hodisa sifatida soʻzning doimiy ichki xususiyati boʻlib, bu xususiyat nutq faoliyatida soʻzlarning oʻzaro bogʻlanishida paydo boʻlmaydi. U nutqqacha, yaʼni tilda – til «birligi» sifatida soʻz maʼno tarkibida mavjud boʻladi, «yashaydi», yuzaga chiqishga tayyor turgan imkoniyat tarzida saqlanadi.

Biriktiruvchi soʻz maʼlum bir maʼnoviy turkum (guruh) soʻzlar bilan birikishi uchun bu turkum soʻzlarning maʼlum bir sintaktik shaklda boʻlinishini talab etadi. Soʻz lisoniy valentligidagi bu tomon **sintaktik valentlik** deyiladi. Maʼnoviy valentlik va sintaktik valentlik soʻz lisoniy valentligining ajralmas ikki tomonidir. Sintaktik valentlik bilan maʼnoviy valentlik baʼzi holatlarda oʻzaro nisbiy mutanosib bogʻliqlikda boʻladi, yaʼni biri oʻzgarsa, ikkinchi ham oʻzgaradi. Masalan:

foil manba harakat

Salim kitobga yozdi.

sababchi manba harakat

Salim kitob yozdirdi.

sababchi manba harakat

Salim uchun kitob yozildi.

Affiksial morfemalarning birikuvchanlik qobiliyati **grammatik shakl valentligi** deb yuritiladi. Grammatik shakl valentligi mohiyatan maʼnoviy valentlikka oʻxshashdir, biroq umumiylik darajasiga koʻra semantik valentlikdan ancha yuqori boʻlib, kategorial umumlashmalar darajasidadir. Masalan, qaratqich kelishigining morfemasi oʻzidan keyin kelgan soʻz tarkibidagi egalik qoʻshimchasi bilan birika olish valentligiga ega, bu soʻz birikmasi tarkibida muvofiqlashadi. Ular bir-birini tanlagan, birikish uchun bir-birini tanlash esa v a l e n t l i k d i r.

Xulosa qilib aytganda, valentlik nutqda soʻzlar orasidagi sintaktik aloqani, soʻzlarning, grammatik shakllarning oʻzaro birikuvini taʼminlovchi potensiyadir. Sintaktik aloqadan valentlik kelib chiqmaydi, balki valentlikdan sintaktik aloqa kelib chiqadi. Soʻz valentligi va sintaktik aloqa dialektik bogʻliq, oʻzaro bir butun, ajralmas, ayni vaqtda, har biri nisbiy mustaqil boʻlgan hodisalardir.

Soʻz birikmasi. Maʼlumki, narsa-buyum, belgi, ish-harakatni umumiy ifodalash, nomlash vazifasini soʻz bajaradi. Soʻz birikmasi ham mohiyatan atash, nomlash (nominatsiya) sath birligidir. Boshqacha qilib aytganda, soʻz birikmasi lisoniy qiymat jihatidan soʻzga (leksemaga) barobardir. Masalan, *direktor* soʻzi oʻrnida *korxonaning boshligʻi (tashkilotning rahbari)* kabi soʻz birikmalaridan birini bemalol ishlatish mumkin. Oʻzbek tilida soʻz birikmalarining soʻzlarga

atash vazifasi jihatidan teng qiymatliligiga yuzlab misollarni keltira olamiz. Chunonchi, *tartibli – intizomda birinchi, shabada – yoqimli shamol, amaki – otaning akasi (yoki ukasi), tog`a – onaning akasi (yoki ukasi), yanga – akamning xotini* va h.

Leksema bilan so`z birikmasi orasidagi asosiy farq atash (nomlash) vazifasida emas, balki shu vazifani qaysi yo`l, qaysi usul va qaysi shakl bilan ifoda etishidadir. Leksik sathda bu vazifani so`z (leksema) to`g`ridan to`g`ri bajaradi, so`z birikmasi esa atash vazifasini so`zlarni o`zaro erkin sintaktik aloqaga kiritish yo`li bilan amalga oshiradi. Erkin sintaktik aloqaga kiritish deganda so`zlarning vaqtinchalik, faqatgina nutq talabi va ehtiyojiga ko`ra tobehokim munosabatlari kiritish tushuniladi. So`z birikmasining tarkibi tobe bo`lak va hokim bo`lakdan iborat bo`lib, so`z birikmasi hokim bo`lakning ehtiyoji va tobe bo`lakning imkoniyati orasidagi uyg`unlikning voqelanish usulidir.

So`z birikmasi bitta mustaqil so`z atrofida birlashadi, ya`ni so`zlardan biri hokim, qolganlari unga tobe bo`ladi. So`z birikmalari hokim bo`lakning qaysi so`z turkumiga mansubligiga qarab, o`tli birikma va fe`lli birikmaga bo`linadi. Hokim bo`lak ot, sifat, son, olmosh, taqlid, undov yoki harakat nomi bilan ifodalansa, **o`tli birikma** hisoblanadi. O`tli birikmalarda tobe bo`lak ot, sifat, sifatdosh, son, olmosh, ravish, taqlid, undovlar bilan ifodalanishi hamda hokim bo`lak bilan birikib turli ma`noviy munosabatlarni bildirishi mumkin.

Chunonchi, [ot + ot] birikuvidan tuzilgan so`z birikmalari muayyan predmetning qanday materialdan yasalganligi (*oltin soat, taxta ko`prik*); bir predmetning boshqasiga qarashlilik (*bolalar bog`chasi, Salimanning kitobi*); butun-bo`lak munosabati (*stolning oyog`i, mashinaning motori*); sabab-natija munosabati (*e`tiborsizlik natijasi, sabrsizlikning oqibati*); tur-jins munosabati (*tuyaning erkagi, tuyaqushning modasi*); shaxs yoki narsa-buyumning sifati, xususiyati (*Karimanning pokligi, uying tozaligi*) kabi o`ndan ortiq ma`nolarni ifodalashga xizmat qiladi. Bunday birikuvli so`z birikmalari rus tilida [именительный падеж + родительный падеж] qolipida tuzilgan birikmalarga to`g`ri keladi: *книга брата, карандаш Махмуда* kabi. Demak, rus tilida otga ot ergashganda tobe ot ikkinchi o`rinda родительный падеж shaklida keladi.

[sifat + ot] birikuvli so`z birikmalari quyidagi ma`nolarni ifodalaydi: *qizil baxmal, qora chopon* (muayyan predmetning rang-tusi); *shirin qovun, achchiq danak* (predmetning maza-ta`mi); *puldor odam, gulli mato* (xoslik, egalik belgisi); *injiq bola, mard o`g`lon* (xarakter-xususiyat); *yaxna ovqat, nimjon chaqaloq* (predmetning holati) va hokazo. Chunonchi,

[sifat + ot] – *o`qigan qiz, kelgusi avlod*;

[son + ot] – *birinchi yil, uchinchi farzand*;

[olmosh + ot] – *anovi hovuz, hammaning fikri*;

[ravish + ot] – *mardona harakat, yashirincha uchrashuv*;

[taqlid + ot] – *shivir-shivir gap, g`uvur-g`uvurning ta`siri*;

[undov + ot] – *oh-vohning oqibati, salomning javobi* kabi birikuvlarning har biri ham alohida-alohida ma`noviy ma`nolarni bildiradi. Boshqa tillardan ham shunga o`xshash misollarni keltirish mumkin.

Bosh so`z fe`l va uning ravishdosh sifatdosh shakllari bilan ifodalansa, **fe`lli birikma** hosil bo`ladi. Fe`lli birikmalarda tobe bo`lak turli so`z turkumlari bilan ifodalanishi va semantik jihatdan o`ziga xos ma`noviy munosabatlarni yuzaga chiqarishi mumkin. Chunonchi, [ot + ravishdosh] birikuvidagi so`z birikmalari tobe bo`lak semantikasi bilan bog`liq ravishda harakat yoki holatning o`rnini yoki paytini ifodalaydi: *maktabdan kelib, uydan uzoqlashib, yozga yetib, qishga qoldirib* kabi.[ravishdosh + sifatdosh] – *shoshib gapirgan, tinmay ishlayotgan, o`qigani kelgan* kabi nutqiy hosilalarda harakatning holati, maqsadi kabi ma`nolar seziladi. Rus tilida fe`lli birikmalarda hokim so`z oldin, tobe so`z keyin qo`llanadi: *читать лёжа, услышав о приезде, идти работать* kabi.

Nutqiy bosqichda so`z birikmasi tarkibidagi so`zlarning o`zaro birikish usullari sifatida **boshqaruv, moslashuv, bitishuv** ajratiladi. Bular, asosan, nutqimizda ishlatiladigan son-sanoqsiz so`z birikmalarining zohiriy jihatlarini kuzatish asosida yuzaga kelgan desak, xato qilmaymiz. Boshqaruv, moslashuv, bitishuv usullari bilan tanishamiz.

Boshqaruv. Bunda sintaktik aloqaga kirishayotgan muayyan so`z boshqa shunday bir so`zning ma`lum shaklga kirishini talab etadi. Boshqaruvda hokim bo`lakning talabiga ko`ra tobe bo`lak tushum, jo`nalish, o`rin-payt, chiqish kelishigi shakllarini qabul qiladi yoki so`z ko`makchilar bilan birga keladi. Ba`zan tobe bo`lakning tarkibida ham grammatik shakl (kelishik qo`shimchasi), ham ko`makchi qo`llaniladi. Shu xususiyatiga qarab, boshqaruv hodisasini uch turga ajratish mumkin:

kelishikli boshqaruv: *onani ardoqlash, shahardan ketish*;

ko`makchili boshqaruv: *kun bo`yi ishlash, adolat uchun kurash*;

kelishikli-ko`makchili boshqaruv: *uyga tomon yurish, otdan ko`ra balandroq*.

Tobe bo`lakning qanday shaklda bo`lishi hokim bo`lakning leksik-sintaktik xususiyatiga bog`liq. Ayni paytda hokim bo`lakning tanlanishi ham tobe bo`lakning shakliga, semantikasiga bog`liqdir.

Moslashuv. Bunday bog`lanishda ikki yoki undan ortiq so`z yoki tobe hamda hokim bo`laklar bir-biri bilan grammatik-semantik jihatdan muvofiqlashadi, bir-biriga moslashadi. Bunda biror belgi, harakat, xususiyat, narsa-buyum qaysi predmetga oidligi, aloqadorligi ko`rsatiladi. Chunonchi, *gulning hidi, motor qizishi, o`z bolasi*; *наши современники, короче говоря, воля судьба* kabi.

Bitishuv. Bu usuldagi bog`lanishda tobe bo`lak hamda hokim bo`lak hech qanday formal belgilarsiz munosabatga kirishadi. Bitishuvda hokim bo`lakning shakli o`zgarsa-da, tobe bo`lak o`z formasini o`zgartirmaydi. Bunday so`z

birikmalarida tobe hamda hokim bo`laklar odatdagi tartib (jipslashuv) va intonasiya bilan xarakterlanadi: *moviy osmon, chiroyli sahna, orombaxsh havo, dono chol*. Bitishuvli birikmalarda hokim bo`lak, odatda, ot so`z turkumiga yoki fe`lga mansub bo`ladi. Hokim bo`lak ot bilan ifodalansa, atributiv birikma hosil bo`ladi: *chiroyli qomat, uzun soch, yorug` xona* kabi.

Hokim bo`lak fe`l bo`lganda, relyativ (holli) birikma yuzaga keladi: *yugurib chiqmoq, sekin gapirmoq, tez charchamoq ...*

So`z birikmalari tarkibidagi tobe bo`lak hamda hokim bo`lakning birikish usullari turli tillarda turlicha ko`rinishlarga ega bo`ladi, ya`ni ular bir-biriga ko`pincha mos kelavermaydi. Chunonchi, turkiy tillarda [sifat + ot], [olmosh + ot], [son + ot], [sifatdosh + ot] birikuvlari bitishuv munosabatini bildirsa, xuddi shu birikuvlar rus tilida moslashuvni ifodalaydi. Qiyoslang: *katta bino, beshta daftar, bu odam, o`qiyotgan bola; большой дом, вторая книга, пятый курс, читающий человек*.

Gap. Nutq faoliyati uchun eng asosiy birlik gapdir. Chunki ijtimoiy hayotda so`zlovchining fikr ifodalashi, axborot uzatishi, tinglovchining axborot qabul qilishi, ya`ni kishilarning o`zaro fikr almashuvi so`z yoki so`z birikmasi orqali emas, balki gap orqali amalga oshadi. «Til ~ nutq ~ nutq qobiliyati»dan asosiy maqsad gap tuza olish va uni bayon etishdan iborat. Inson tilida nimaiki bo`lsa, barcha-barchasi gapni turfa shakl va mazmunda qurish uchun xizmat qiladi. Zeroki, gap ma`lum fikrni, hukmni ifodalaydi. Fikrning manbai esa real borliq yoki tuyg`u-hissiyotlardir. Masalan, *Daraxt gulladi* gapini olaylik. Ushbu gap bizning ongimizda ikki tasavvur – predmet (*daraxt* haqidagi tasavvur) va uning holati (*gullamoq* haqidagi tasavvur)ni jonlantiradi va o`zaro yaqin ikki tasavvurning qo`shilishidan hukm (fikr) yuzaga keladi. Hukm esa gap orqali ifodalanadi. Tildan maqsad – gap qura olish, gapdan maqsad esa fikr ifodalashdir.

Gap har bir til sistemasida kommunikativ mohiyatga molik bo`lgan eng asosiy birlik bo`lib, o`ziga xos tuzilishga ega. Til o`zining kommunikativ vazifasini faqat gap orqaligina bajaradi, shuning uchun tilning barcha sathlari – fonologiya, fonetika, leksika, semantika, morfologiya, sintaksis, stilistikabitta maqsadga – gapni shakllantirishga xizmat qiladi.

Har bir tilda gaplarga xos bo`lgan zohiriy (nutqiy) va umumiy (lisoniy) qoliplar mavjud. Masalan, *Qizim maktabga boryapti* gapining zohiriy qoliplari

1-qolip: Ot^{e.q.} + ot^{j.k.} + f^{h.zamon} ; 2-qolip: ega + hol + kesim hisoblanadi.

Nutqda voqelangan gaplarning tuzilishi behad xilma-xil bo`lgani kabi yuqoridagi nutqiy qoliplar ham nihoyatda xilma-xildir. Gapning lisoniy sintaktik qolipi shakl va mazmun tomonlaridan iborat bo`lib, mazmun tomoni fikr yoki hukm ifodalashdan, shakl tomoni esa bo`laklarning gapdagi o`rni va o`zaro bog`lanishidan klib chiqadi.

O`zbekcha gaplar uchun gapning asosi **kesim** bo`lib, u tasdiq\inkor, zamon, mayl/modallik, shaxs\son ma`nolarini ifodalab keladi, hukmni ifodalaydi

va gapning boshqa bo`laklarini o`z atrofida birlashtiradi. Kesim vazifasida kelgan atov birligining nutq talabi va ehtiyojiga ko`ra kengayish qobiliyati, ya`ni gapning zaruriy bo`laklarini o`z atrofida birlashtira olishi kesim vazifasida kelgan so`zning semantik-sintaktik valentligiga bog`liqdir.

Yevropa tishunosligida XVI asrdan buyon gapning lisoniy sintaktik qolipi ikki a`zoli [E-K] (ya`ni «ega+kesim») qurilma sifatida ajratiladi. Aslida bu qurilma tilshunoslikka mantiqdan ko`chirilgan bo`lib, mantiq fanida hukm hamisha ikki a`zoli, ya`ni «subyekt - predikat»dan iboratdir. Bu qurilma [S-P] to`ppa-to`g`ri gap tizimiga ko`chirildi, gapning egasi «subyekt», kesimi esa «predikat», ya`ni gap «subyekt bilan predkat orasidagi aloqa» deb nomlanadi. Bu fikr ruscha gaplarga ham tegishli bo`lib, ruscha gaplarning tabiati [E+K] qolipiga uyg`undir. Chunonchi, *Я приишёл. Идём снег. Я умею рисовать. Я встаю в семь часов* kabi.

Nutqiy bosqichda gap o`ziga xos belgilarga ega bo`lib, gapning lisoniy sintaktik qolipida shu belgilarga ishora bo`ladi. Gap, avvalo, sintaktik tugallangan qurilma ekanligi bilan xarakterlanadi, ya`ni gap nisbiy tugallangan fikrni ifodalaydi, tugallangan ohang bilan aytiladi. Demak, gapning eng muhim belgilari quyidagilar: gap tarkibida kesimlik ko`rsatkichlari bilan shakllangan kesimning bo`lishi shartligi; gapning grammatik-intonatsion va fikriy jihatdan bir butunlikka, tugallikka ega bo`lishi.

Gapning grammatik va intonatsion jihatdan shakllangan, tugallangan bo`lishi shartligi ohangning nutqiy gapdagi doimiy xarakterli belgilardan biri ekanligini ko`rsatadi. Gapning nisbiy tugallangan fikrni ifodalashi ohangning tugallanganligiga mos keladi. Og`zaki nutqda gapning grammatik-fikriy bir butunligini ohang bildirib turadi va uni gap bo`lmagan nutqiy hodisalar (so`z, so`z birikmasi)dan farqlashga yoram beradi. Masalan: 1) *baqirayotgan bola; bu student* (so`z birikmalari); 2) *Baqirayotgan – bola; Bu – student* (gaplar). Ohang nafaqat gapning tugallanganligini bildiradi, balki gapning turli tiplarini belgilashda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan: *Gullar ... Gullar. Gullar? Gullar! Mehmon keldi. Mehmon keldi?... Mehmon keldi! Mehmon keldi!!!*

Gapning kengaytiruvchilari gap tarkibida ma`lum bir bo`lak vazifasida kelayotgan so`zlarning lug`aviy ma`nosi bilan emas, balki gapning kesimini shakllantiruvchi morfologik vositalarga bog`lanadi. Ega va hol gap kengaytiruvchilaridir.

Ega gap kesimini shakllantiruvchi [Pm] – kesimlik kategoriyasida mujassamlangan shaxs-son ma`nosini muayyanlashtiradi. Masalan: *Biz xatni o`qidik* nutqiy hosilasidagi kesimning lug`aviy qismi bo`lgan *o`qi* – fe`lini istagan boshqa so`z bilan almashtirsak (masalan: *ol-*, *yoz-*, *yubor-*, *yirt-*, *yashir-*, *g`ijimla-*, *ko`r-* va h.), biroq [-dik] qismini saqlasak, *Biz* ega vazifasida kelaveradi. [-dik] tarkibidagi shaxs\son qo`shimchasini, ya`ni [-k] olib tashlasak

yoki almashtirsak (masalan, [-ngiz] shakli bilan), *Biz* ham o`zgarishiga to`g`ri keladi.

Tabiiyki, payt holi [Pm] tarkibidagi zamon ma`nosini oydinlashtiradi. Chunonchi, *Salima kecha kelgan edi. Salima bugun kelyapti. Salima ertaga keladi.* Holning ma`no jihatdan boshqa turlari ot-kesimli gaplar tarkibida kelganda gap kengaytiruvchilari, fe`l-kesimli gaplar tarkibida esa so`z kengaytiruvchilari bo`lib keladi. Shuningdek, kesim tarkibidagi so`zning lug`aviy ma`nosini so`z kengaytiruvchilari muayyanlashtiradi. Bu siraga to`ldiruvchi va aniqlovchini kiritish mumkin. So`z kengaytiruvchilari gap konstruktiv tuzilmasidan o`rin egallay olmaydi. Gap kengaytiruvchilari esa gapning minimal qoliplaridan o`rin egallaydi.

Yevropa tilshunosligida, jumladan, rus tilshunosligida gap tarkibi bosh bo`laklar (ega va kesim) va ikkinchi darajali bo`laklar (to`ldiruvchi, aniqlovchi, hol)ga ajratiladi. Xuddi shunday talqinni o`zbek tiliga oid 1930-1990-yillar oraliq`ida chop etilgan har bir darslik yoki qo`llanmada ham uchratish mumkin. Chunki o`tgan asrning 30-yillarida yangi davr o`zbek tilshunosligi shakllanish jarayonida yevropa tilshunosligidan, xususan, rus tilshunosligidan gapning umumiy [S-P] qurilishi o`zbek tili tizimiga ko`chirildi va o`sha davr mafkurasiga ko`ra, asta-sekin darslik, qo`llanmalarga ommalashdi. O`zbek tili uchun kesim gapning markazi ekanligini yuqoridagi gap tarkibi bo`linishini rad etadi.

O`zbek nutqi uchun gapning «jon»i, «yuragi» kesimdir. U gapning grammatik asosini tashkil etadi. O`zbek tilshunosligida keyingi yillarda N.Mahmudov, A.Nurmatov, L.Raupova, M.Abuzalova, M.Saidova kabi olimu olimalar tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlarda kesim gapning yadrosi, gapning bevosita tashkil etuvchisi va uning uyushtiruvchisi ekanligi, hattoki, atov gaplarning tarkibi egadan emas, balki kesim tarkibidagina iboratligi isbotlab berildi. Kesimning mustaqil va nomustaqil kesimlik shakllari farqlandi. (Bular haqida til fanining «Sintaksis» bo`limida to`laroq ma`lumotga ega bo`lasiz.)

Gaplar turli tillarda, asosan, quyidagi belgilar asosida tasnif etiladi:

- Ifoda maqsadiga ko`ra: darak, so`roq, buyruq gaplar.
- Hissiy-ta`siriy jihatiga ko`ra: his-hayajonli gaplar va his-hayajonsiz gaplar.
- Ifoda mazmuniga bo`lgan munosabatga ko`ra: tasdiq mazmunli gaplar va inkor mazmunli gaplar.
- Grammatik asosning miqdoriga ko`ra: sodda va qo`shma gaplar.
- Gaplar grammatik jihatdan shakllanishiga ko`ra: to`liq gaplar va to`liqsiz gaplar.

Shuningdek, ushbu tasniflar o`zbek nutqi uchun xarakterlidir:

Gaplar kesimlik kategoriyasi mazmunini ifodalash usuliga mos ravishda: grammatik shakllangan gaplar va semantik-funksional shakllangan gaplar.

Gapning lisoniy qurilishida eganing ifodalangan yoki ifodalanmaganligiga ko`ra: **egali gaplar va egasiz gaplar.**

E`tiborimizni gapning grammatik asoslar miqdoriga ko`ra ajratilgan turlarga qarataylik. Yuqoridagi fikr-mulohazalarimizda, asosan, sodda gapga xos bo`lgan xususiyatlar tahlil etildi. Sodda gaplarning eng kichik qurilish qolipi [WPm] ekanligi aniqlandi. Endi diqqatni qo`shma gaplarga jalb etamiz.

Qo`shma gaplar sodda gaplar bilan mustahkam bog`langan, biroq ulardan tuzilishi, uzatilayotgan axborot nuqtayi nazaridan farqlanuvchi sintaktik qurilmadir. Sodda gapda shakllangan kesim bitta bo`lsa, qo`shma gapda u birdan ortiq bo`ladi, ya`ni qo`shma gap birdan ortiq sodda gaplarning mazmun hamda grammatik birikuvidan tashkil topadi. Kesimlarning birdan ortiqligidan tashqari, har bir qo`shma gapda ifodalanayotgan fikr, uzatilayotgan axborot ham birdan ortiq bo`ladi va ular o`zaro zich munosabatni, sodda gaplararo grammatik butunlikni hamda intonatsion yaxlitlikni taqozo etadi.

Kommunikativ nuqtayi nazardan sodda gap bir fikrni, hukmni ifodalasa, qo`shma gaplarda bu birdan ortiq bo`ladi. Masalan: *Oy yoritadi, ammo isitmaydi. Men o`qiyman, yo zaman va ishlayman.* (o`zb. tilida). *Брат сказал, что мы завтра поедем на рыбалку. Наступила минута, когда я понял всю эту цену слов.* (rus tilida) *When I same home, I saw that the table was set.* (ingl. tilida).

Shunday qilib, qo`shma gap grammatik jihatdan shakllangan, birdan ortiq axborotni tashish uchun mo`ljallangan, sodda gaplarning grammatik, semantik, intonatsion va kommunikativ jihatlardan yaxlitlangan butunligidir.

Qo`shma gaplarning umumiy lisoniy sintaktik qolipi [WPm] U [WPm] ko`rinishiga egadir. O`zbek tilida qo`shma gaplarning, asosan, uch turi ajratiladi:

1. Teng tarkibli qo`shma gaplar (qolipi – [WPm], [WPm]).
2. Tobe tarkibli qo`shma gaplar (qolipi – [WPm] → [WPm]).
3. Mutanosib tarkibli qo`shma gaplar (qolipi – [WPm] ↔ [WPm]).

Teng tarkibli qo`shma gaplarning mohiyati shundaki, uning tarkibiy qismlari sanalmish sodda gap kesimlarining har biri mustaqil shakllangan bo`lib, ularni osongina alohida sodda gaplarga aylantirib yuborish mumkin. Chunonchi, *Bormang, bormoqchimisiz? Kechasi qalin qor yog`di, biroq havo unchalik sovimadi. Men seni deyman-u, sen kimni deysan?!*

Tobe tarkibli qo`shma gaplarda ikki yoki undan ortiq sodda gaplar shakllangan [Pm] mavjud bo`lsa-da, birinchi sodda gapning markazi mustaqil sodda gap kesimi bo`la olmaydi. U doimo tobe gap markazini shakllantirib, o`z mohiyatini ochishi uchun o`zidan keyin mustaqil kesimli gap bo`linishini talab etadi. Masalan, *Men qo`shiq aytsam, u tinglaydi. Ergash ko`ringan ham edi, bolalar yugurishdi.* Demak, [WPm] → [WPm] qolipidan chiqqan hosilalarda birinchi gap shaklan va mazmunan ikkinchi bir gapga ehtiyoj sezadi, lekin aksincha emas.

Mutanosib tarkibli qo`shma gaplarni tashkil etuvchi sodda gaplar kesimlarining biri ikkinchisini, ikkinchisi esa birinchisini taqozo etadi. Ikkalasing ham kesimi nomustaqil kesim hisoblanadi. Chunonchi, *Tezroq tong o'tsa-yu, bog'larni, maysalarni ko'rsam. Agar Salima biznikiga kelsa edi, biz birga borgan bo'lar edik.* [WPm] ↔ [WPm] qolipli qo`shma gaplar tarkibidagi sodda gaplarni mustaqil holda qo`llash mumkin. Biroq ular mustaqil qo`llanganda butunlay boshqa ma'no yuzaga chiqadi. Umumta'lim maktablarida qo`shma gaplar ularni bog'lovchi vositalar asosida quyidagich tasniflab beriladi :

- ohang yordamida bog`langan qo`shma gaplar;
- bog`lovchilar yordamida bog`langan qo`shma gaplar;
- yuklamalar vositasida bog`langan qo`shma gaplar;
- nisbiy so`zlar bilan bog`langan qo`shma gaplar;
- kesimlik so`zlari bilan bog`langan qo`shma gaplar.

Qo`shma gaplarni uyushiq kesimli sodda gaplardan (*Salima o'tirar, turar va yig`lab chopar edi; Sotuvchi do`kondagi kitoblardan uch-to`rttasini artib, o`qib chiqdi* kabi) hamda sodda va qo`shma gaplar orasidagi «oralik uchinchi» uyushgan gaplardan (*Bahor kelar, dala ishlari qizib ketar edi* kabi) farqlash lozim.

Gapning aktual bo`linishi. Nutq xusuiylik tabiatiga egaligi sababli gapda ishtirok etayotgan so`zshakllar tartibi bir qadar erkindir. Biroq bu «erkinlik» hech qachon umumiy lisoniy qonuniyatlar doirasidan chetga chiqolmaydi. Nutq qaysi uslubdaligiga ko`ra, so`zlovchining maqsadi asosida gap tarkibidagi so`zshakllar umumiy tartibga ega bo`ladi. Bundan tashqari, nutqiy bosqichdagi istalgan gap mazmunan ma'lum voqelikni ifodalash bilan birga, so`zlovchi axborotni nima maqsadda uzatayotganligini ham bildiradi.

Chunonchi, *Salima universitetdan qaytdi* gapida muayyan shaxsning (ya'ni *Salimaning*) universitetdan qaytishi voqeligi xabar qilingan, bu birinchidan. Ikkinchi jihatdan e'tibor qaratsak, gapda so`zlovchining tinglovchiga Salimaning qaerdan qaytganligi haqidagi ma'lumotni yetkazish maqsadi ham aks etganligi seziladi. Shunga ko`ra, ushba gap *Salima qaerdan qaytdi?* so`rog`iga javob bo`la oladi. Agarda shu gapni *Universitetdan Salima qaytdi* shaklida o`zgartirsak, gapda ifodalangan voqelik mazmuni o`zgarishsiz qoladi, ya'ni *Salima universitetdan qaytdi – Universitetdan Salima qaytdi* gaplari bir xil. Biroq, ikkinchi gapda so`zlovchining axborot maqsadi *Universitetdan kim qaytdi?* savoli orqali muayyanlashadi. Birinchi gapda harakatning yo`nalishi, ikkinchi gapda harakatning bajaruvchisi axborot maqsadini xarakterlaydi. Gapning axborot yetkazish vazifasi nuqtayi nazaridan tuzilishi **aktual bo`linish** deyiladi. Aktual tuzilmaning tarkibiy qismlari aktual bo`laklar hisoblanadi.

Aktual bo`laklar **gap ifoda asosi** va **ifoda yadrolaridan** iborat bo`ladi. Gapda ifodalangan fikrning ma'lum qismi, ya'ni ifoda asosi tema (ma'lum demakdir) va noma'lum qismi, ya'ni ifoda yadrosi rema (yangilik demakdir) deb

ham yuritiladi. Gapning rema qismi kommunikativ (axborot yetkazish) nuqtayi nazaridan ahamiyatli bo`ladi. Savol har doim remani aniqlash uchun beriladi. Gapning tema qismi ma`lum bo`lganligi sababli u so`roq gap tarkibida aynan takrorlanadi. Quyida ba`zi sodda gaplarning tema-rematik, ya`ni aktual bo`linishiga diqqat qiling:

| tema | rema |
|----------------|-----------------------------------|
| Salima | (qayerdan?) universitetdan qaytdi |
| Universitetdan | (kim?) Salima qaytdi |
| Bahorda | (nimalar?) gullar ochiladi |
| Gullar | (qachon?) bahorda ochiladi |
| Karim | (nimani?) kursini tuzatmadi |
| Kursini | (kim?) Karim tuzatmadi |

Gapning aktual bo`linishi gapning shakliy bo`linishiga qarama-qarshi turadi. Agar shakliy (formal) bo`linishda gap tarkibidagi grammatik element (kesim, hol, to`ldiruvchi, aniqlovchi kabi)larga e`tibor qaratilsa, aktual tuzilmada gapning ma`no jihatdan bo`linishi nazarda tutiladi. Aktual bo`linishda fikr ma`lumdan noma`lumga qarab boradi. Aktual bo`linish gapning formal bo`linishi bilan mos kelishi ham, kelmasligi ham mumkin. Chunonchi, *Ikki dugona olimpiadada g`olib bo`lishdi; Chekish mumkin emas* gaplarida *ikki dugona* va *chekish* tema bo`lib kelgan. Har ikkala gapda ham tema gapning egasi bilan muvofiq keladi. *Olimpiadada ikki dugona g`olib bo`lishdi; Dunyoni go`zallik qutqaradi* gaplaridagi *olimpiadada* hamda *dunyoni* so`zshakllari tema bo`lib, sintaktik bo`linishga muvofiq kelmaydi.

Demak, aktual bo`linish talabi bilan gapda so`zshakllarning tartibi har xil bo`ladi. Va u mantiqiy birlik bo`lgan hukmning bo`laklanishi (subyekt ~ predikat)ga ham o`xshaydi. Yuqoridagi xususiyatlar hisobga olingan holda, aktual bo`linish sathi mantiqiy-grammatik sath deb nomlanadi.

Aktual bo`linish lisoniy konstruktiv-sintaktik mohiyat bilan bog`liq sof nutqiy hodisadir. Gapda so`zshakllar tartibi aktual bo`linish bilan chambarchas bog`liq bo`lsa-da, buning lisoniy sintaktik qurilishga dahli yo`q.

Aktuallashtiruvchilar qatorida tartibdan tashqari fonetik, leksik va grammatik vositalar ham mavjud. Fonetik aktuallashtiruvchilar sirasiga logik hamda emfatik urg`uni kiritish mumkin. Logik (mantiq) urg`usi nutq tempi va pauza bilan bog`liqdir. Ma`lumki, gapda nechta so`zshakl bo`lsa, shuncha miqdorda so`z urg`usi bo`ladi. Gap tarkibidagi qaysi so`zshakl mantiqiy urg`u olsa, o`sha so`z shakli rema, gapning qolgan qismi esa tema hisoblanadi. Emfatik urg`uda hissiy-ta`siriylik kuchli bo`lib, unli yoki undoshlar cho`ziladi, ba`zan so`zlar takrorlanadi (*Senga ka-a-atta tort keltirdim; Ko`zlaring chchchi-royli; Men, men aytaman* kabi). Emfatik urg`u olgan so`z shakllari remadir.

Ba'zi gaplar tarkibida yordamchi so'zlar (masalan, so'z-yuklamalar) va grammatik shakllar (masalan, affiks-yuklamalar) ham so'z shakllarining aktuallashishiga yordam beradi. Masalan, *Sarvar ham keldi; Yigitning o'zigina tushunadi* kabi. O'zbek tilidagi atov gaplar, to'liqsiz gaplarning ba'zi ko'rinishlari tema-rematik bo'linishga ega bo'lmaydi va ular kommunikativ bo'linmas gaplar hisoblanadi. *Bahor! Oppoq qor... Rahmat. Ha, mayli* kabilar shular jumlasidandir. Anglatilayotgan fikr xarakteriga qarab bir gap turlicha aktual bo'linishi mumkin: *Karim / musobaqada g'olib chiqdi – Karim musobaqada / g'olib chiqdi* kabi.

Gapning aktual bo'linishini rus, ingliz, nemis, fransuz kabi tillarda ham kuzatish mumkin. Odatda, bu tillarda tema-rematik bo'linish gapning formal bo'linishi bilan mos kelmaydi. Masalan:

| rus tilida | |
|----------------------|---------------------|
| tema | rema |
| Смех | побеждает грусть. |
| Грусть | побеждает смех. |
| Моё любимое дерево – | берёза. |
| Берёза – | моё любимое дерево. |
| Поезд | подходит к вокзалу. |
| К вокзалу | подходит поезд. |

Keltirilgan misollarda, jumladan, birinchi gapda tema bo'lib kelgan *смех* so'zi именительный падеж ko'rinishida, rema – *грусть* so'zi esa винительный падеж shaklini olgan. Axborot maqsadi deyarli o'zgarmagan *Грусть побеждает смех* gapida esa, tema (*грусть*) именительный падеж, rema (*смех*) винительный падеж shakliga ega bo'lgan va hokazo. Yoki ingliz tilida: *The ball hit the boy* (*Koptok bolani yiqitdi*) - *The ball* (tema) – *hit the boy* (rema). *The boy hit the ball* (*Bola koptokni yiqitdi* (*qo'lidan tushurdi* degan ma'noda) – *The boy* (tema) – *hit the ball* (rema).

Nemis tilida: *Die Frau sah das Madchen* (*Ayol kishi qizni ko'rdi*) – *Das Madchen sah*. Qiyoslangan gaplarda tema-rematik bo'linish shakliy bo'linishga mos kelmaganligini ko'rish mumkin.

| tema | rema |
|-------------|-----------------|
| Die Frau | sah das Madchen |
| Das Madchen | sah die Frau |

Назорат саволлари

1. Синтаксиснинг ўрганиш объектлари нималардан иборат?
2. Синтактик алоқа турлари ҳақида гапириб беринг.
3. Валентлик тушунчасини изоҳланг.
4. Сўз бирикмаси, унинг асосий қолиплари қандай?
5. Тобе алоқа турлари ҳақида маълумот беринг.
6. Гап қайси белгилар асосида ажратилади?
7. Гап бўлақларининг анъанавий ва замонавий таснифидаги фарқлар нималардан иборат?
8. Нима учун кесим гапнинг марказий бўлаги деб ҳисобланади?
9. Қўшма гапларни тасниф қилишда нималарга эътибор берилади?
10. Гапнинг актуал бўлиниши деганда нимани тушундингиз?

Тавсия этилган адабиётлар рўйхати

1. Ирискулов М. Тилшуносликка кириш.- Тошкент, 2008.
2. Ирискулов М. Тилшуносликка кириш. -Тошкент, 1992.
3. Содиков А., Абдуазизов.А., Ирискулов М. Тилшуносликка кириш. -Тошкент, 1981.
4. Реформатский А.А. Введение в языковедение. - Москва, 2008.
5. Головин Б. Н. Введение в языкознание. - Москва, 1979.
6. Кодухов В. И. Введение в языкознание. - Москва, 1979.
7. Кодухов. В. И. Общее языкознание. - Москва, 2009.
8. Чурилина. Л. Н. Актуальные проблемы современной лингвистики. - Москва, 2009.
9. Шарафутдинова. Н. С. Теория и история лингвистической науки. - Москва, 2007.
10. Расулов Р.

Таянч ибора ва тушунчалар (глоссарий)

Sintaksis (yunoncha «tuzish», «qurish») grammatikaning tilning sintaktik qurilishini o'rganadigan bo'limi.

LSQ - lisoniy semantik qurilmalar.

So'z valentligi - so'zning semantik strukturasi mujassamlangan yashirin imkoniyat.

Grammatik shakl valentligi affiksial morfemalarning birikuvchanlik qobiliyati.

Gapning aktual bo'linishi gapning axborot yetkazish vazifasi nuqtayi nazaridan tuzilishi.

Tema gapda ifodalangan fikrning ifoda asosi.

Rema gapning noma'lum qismi, ya'ni ifoda yadrosi.

So'z valentligi so'zning semantik strukturasi mujassamlangan yashirin imkoniyat


ВИЗУАЛ МАТЕРИАЛЛАР

1-савол. Синтаксис бўлимининг ўрганиш объекти

1-илова

Синтаксис – грамматиканинг бир қисми бўлиб, унда камида икки мустақил сўзларнинг синтактик боғланиши ҳамда матнлар ўрганилади

2-илова




2-савол. Гап ва унинг турлари

3-илова

Гап – бир ёки бир неча сўздан ташкил топган, предикативлик хусусиятига ва оҳанг бутунлигига эга бўлган ҳамда нисбий тугал фикр англатадиган тилнинг мулоқот бирлигидир



3-савол. Гап бўлаклари




4-савол. Сўз бирикмалари


Сўз бирикмаси – бир бири билан синтактик жиҳатдан боғланган, биринчи даражали предикативлик муносабатига эга бўлмаган, икки ёки ундан ортиқ мустақил сўзлар қўшилмасидир

5-савол. Синтактик муносабат воситалари

7-илова



8-илова



6-савол. Гапнинг актал бўлиниши

9-илова



Бир гап ўрдамида бир нечта хукми ифо қилиш мумкин. Гапнинг ҳар бир бўлаги хукмнинг субъекти темаси ёки предикати бўлиб келиши мумкин.

6-МАЪРУЗА: Ёзув ва унинг ривожланиш босқичлари. Ёзувнинг махсус турлари.

Режа:

1. Ёзув, унинг пайдо бўлиши ва ривожланиш босқичлари.
2. Графика ва орфография. Имло қоидалари.
3. Алифбо, унинг пайдо бўлиши ва амалий аҳамияти.
4. Ёзувнинг махсус турлари.

***Мақсад:** Ёзув, унинг пайдо бўлиши ва ривожланиш босқичлари, ёзувнинг махсус турлари ҳақидаги тасаввур ва билимларни бойитиш, графика ва орфография, имло қоидалари ҳақидаги билимларни чуқурлаштириш.*

Ёзув инсониятнинг тафаккурининг энг олий махсулларида бири бўлиб, жамият тараққиётининг тезлашувида, фан ва техниканинг пайдо бўлиши ва ривожланишида муҳим рол ўйнаган, шу боис ёзув инсониятнинг улуғ кашфиёти, муваффақияти ҳисобланади. У туфайли инсониятнинг ихтиролари, барча эришган ютуқлари, тарихи сақланиб, кейинги авлодларгача етиб борди.


Ёзув – муайян бир тилда қабул этилган ва кишилар ўртасидаги мулоқотга хизмат қиладиган ёзма белгилар ёки тасвирлар тизими. Ёзув кишилик жамияти маданий тараққиётнинг том маънодаги, башариятнинг узок ва мураккаб тадрижий тақомили жараёнидаги омилларнинг энг асосийларидан биридир. Ёзув оғзаки тилга нисбатан иккиламчи, қўшимча алоқа воситаси бўлса-да, унга қараганда кўп авфзалликларга эга. Хусусан, тилнинг асосий вазифаси – кишилар ўртасидаги алоқани таъминлашдир. Тилнинг коммуникатив вазифаси ёзувсиз амалга ошиши мумкин эмас. Тилнинг эстетик, гностиологик (билиш) каби асосий вазифаларини ҳам ёзувсиз тасаввур қилиш қийин. Айниқса, тилнинг инсоният қўлга киритган тажриба-билимларини сақлаш ва авлодларга етказишдан иборат вазифаси бевосита ёзув орқали бажарилади. Товуш тили учун ноқулайлик туғдирувчи масофа ва вақт омили ёзувнинг бу борада устунлигини далиллайди. Бир лотинча мақол бор: “Verba volant – scripta manent” – “Сўзлар учиб кетади, ёзувдагиси эса қолади”.

Ёзув тилдан анча кейин пайдо бўлган. Товуш тили 400-500 минг йиллар илгари юзага келган, ёзув эса 4-5 минг йил олдин пайдо бўлган. Оғзаки нутқнинг замон ва макон нуқтайи назаридан чекланганлиги ва уни бартараф этиш зарурияти ёзувнинг пайдо бўлишига олиб келган. Оғзаки тил талаффуз вақтидагина ва айна пайтда муайян масофадаги (товуш тўлқинлари етиб бориши мумкин бўлган) киши учунгина мавжуддир. Бошқа шароитларда тилга эҳтиёж пайдо бўлиши билан инсон даҳоси бу


эҳтиёжни қондира олувчи воситаларни қидира бошлаган, натижада белгилар тизимидан иборат ёзув дунёга келган. Аслида, белгилар тизими сифатидаги ёзув пайдо бўлишидан олдин инсон рамзий воситалардан кенг фойдаланган. Масалан, славян қабилаларида нон - туз - дўстлик рамзи, трубка - тинчлик, атиргул - севги рамзи ва ҳ.к. белгилар “буюмли ёзув” характериға эға эди. Фанда турли хил ёзув кўринишлари аниқланган ва ёзувнинг тадрижий тарихи исботлангандир.

Пиктографик (лат. pictus - чизмоқ), расмли ёзув дастлабки ёзув туридир. Пиктографик ёзув ибтидоий тасвирий санъат намунаси бўлиб, тошларға суякларға, ғор деворларига ўйиб ишланган.

Ушбу расм Жанубий Америкада яшаган ҳиндулар томонидан қояға ўйиб туширилган бўлиб, унда бу сўғмоқдан фақат тоғ эчкиси ўта олиши мумкинлиги, отлар ўтса, жарликка қулаб тушиши мумкинлиги тасвирланган.



Пиктографияда ҳаётий вазиятлар (ов, саёҳат), нарсалар (қайиқ, уй, ой, қуёш, ер), мавжудотлар (инсон, сигир, қўй) қабилар акс эттирилган эди. Жумладан, Шимолий Америка ҳиндулари томонидан юборилган ушбу расмда 30 та бўрсиқ терисига бизон алмашишлари мумкинлиги баён этилган.



Ёзувнинг расм билан алоқадор ҳодиса эканлигини туркий тиллардаги битик (ёзув) сўзи таркибидаги бити – хитойча *би*: *мўйқалам* билан алоқадорлиги, шунингдек, славян тилларидаги *писать* (*jivoris*) феълининг ўзаги лат. “*pingere*” – *расм солмоқ* тушунчаси билан боғлиқлиги, готча *malian* (ёзмоқ) феълининг дастлабки маъноси ҳам *мўйқаламда расм солмоқ* бўлиб, ҳозирги немис тилида “*malen*” – *расм чизмоқ* маъносида қўлланилиши тасдиқлаб турибди.

Б.Н. Головин пиктография ҳодисасини шундай тушунтиради: “Пиктографик мактублар билан мулоқот қилмоқчи бўлган икки ҳозирзамон дўстларини тасаввур қилайлик. Улардан бири қоронғу осмондаги яримой тасвирини, чиқаётган қуёш, қайиқдаги одам, балиқ ва қармоқ расмини


чизди. Кейингиси жавоб тариқасида ботаётган куёш, қоронғу осмондаги яримой, паравоз ва уч вагон ва улар олдида одам ҳамда Москва Кремлнинг тасвирини берган. Шунингдек, вагонни куёш билан боғлайдиган чизик (линия)ни ҳам кўрсатган. Демак, булардан биринчисининг мазмуни: *“Мен эртага балиқ овига бораман”*. Иккинчиси эса: *Бугун кечқурун (оқшомда) мен поездда Москвага кетаман”*, - деган маъноларни англатади.¹ Дарҳақиқат, олим жуда тўғри тасаввур мулоҳаза келтиради. Ибтидоий тафаккур ва ёзувнинг табиатини шу каби кўринишларда кузатиш мумкин. Шу боисдан ҳам, расмли (пиктографик) ёзув дунёдаги мавжуд барча ёзувларнинг келиб чиқиши учун асос бўлган, деган фикрга келиш тўғридир.

Расмлар ёрдамида муайян фикр-ахборотни ифодалаш, юбориш мумкин эканлигини одамлар жуда қадимий даврларда англаб етганлар. Шунинг учун ҳам расмли ёзувнинг оғзаки тил билан боғлиқ бўлмаганлиги унинг турли тил вакиллари томонидан ҳам тушунилаверишини таъмин этган, аммо унда ифодаланган мазмуннинг турлича, ихтиёрий талқин этилишига йўл қўйилган, абстракт тушунчаларни бундай ёзув орқали ифодалаш деярли мумкин бўлмаган. Давлат тузуми ривожланиб, турли ёзишмаларга ва бу ёзишмаларнинг айна бир хил талқин қилинишига бўлган эҳтиёж кучайиб борган сари пиктографик ёзувнинг ожиз томонлари кўпроқ кўзга ташлана бошлаган. Бу ҳол расмли ёзувнинг тараққиётига идеографик ва иероглифик ёзувнинг шаклланишига олиб келган.

¹ Головин Б.Н. Введение в языкознание. М., 1977. стр.: 232.

3-жадвал. Айрим тасвирий логограммаларнинг ташқи эволюцияси

а) шумер ёзуви ва месопотамия ёзувининг кейинги босқичи намуналари

| Первоначальное начертание | Дальнейшая эволюция в | | | Значение |
|---|---|---|--|--------------------|
| | шумерской | раннеави- лонской клинописи | ассирийской | |
|  |  |  |  | птица |
|  |  |  |  | рыба |
|  |  |  |  | осел |
|  |  |  |  | бык |
|  |  |  |  | колос, зерно |
|  |  |  |  | сад |
|  |  |  |  | нога, идти, стоять |
|  |  |  |  | солнце, день |


б) кадимги миср ёзуви нмуналари

| Иероглиф (классическая форма) | Первоначальное значение | Позднейшее развитие начертания | |
|-------------------------------|-------------------------|--------------------------------|-----------------------|
| | | в иератическом письме | в демотическом письме |
| | лист тростника | | |
| | нога | | |
| | вода | | |
| | пьедестал | | |
| | сова | | |

в) В китайском письме

| Древняя форма (письмо инь) | Современная форма * | Значение | Древняя форма (письмо инь) | Современная форма | Значение |
|----------------------------|---------------------|----------|----------------------------|-------------------|----------|
| | 日 | солнце | | 子 | ребенок |
| | 山 | гора | | 犬 | собака |
| | 目 | глаз | | 馬 | лошадь |
| | 口 | рот | | 魚 | рыба |

4-жадвал. Кўчма маъноларни ифодалашда тасвирий белгиларни кўллаш намуналари

| Знак | Его значение | Мотивировка | Знак | Его значение | Мотивировка |
|---|---------------------------|-------------------------------|--|----------------|--------------------------|
| а) В пиктографическом письме североамериканских индейцев | | | | | |
|  | ловкость | человек с крыльями вместо рук |  | любовь | соединенные сердца |
|  | дружба | соединенные руки |  | смерть | животное вниз головой |
| | | |  | внимание, слух | голова с линиями от ушей |
| б) В древнеегипетском письме | | | | | |
|  | старый, старость, возраст | человек с посохом |  | идти | шагающие ноги |
|  | свежий, свежесть | кувшин и струя воды |  | властвовать | посох как знак власти |
| в) В китайском письме | | | | | |
|  | пленник | человек в ограде |  | рвать | рука над деревом |
|  | граница | межа на поле |  | лаять | рот и собака |
|  | слово | рот с выходящим дыханием |  | петь | рот и птица |
|  | светлый | солнце и месяц |  | слышать | дверь и ухо |

5-жадвал. Шумер ёзувидаги айрим кўшма логограммалар намуналари

| | | | | | |
|--|---|--|---|--|--------------------------------|
| | = | | + | | 'дикий бык' (= бык + гора) |
| | = | | + | | 'есть' (= рот + хлеб) |
| | = | | + | | 'госпожа' (= женщина + платье) |
| | = | | + | | 'родить' (= птица + яйцо) |


Маълум бир белгини бир-бирига мазмунан боғлиқ сўзлар қатори ифодаси учун кўчириш (масалан, “оёқ” сўзини □□'юрмоқ, турмоқ сўзлари билан ёки “кўз” сўзини □□'кўрмоқ, қармоқ, эътибор каби), албатта,, логографик ёзувда белгиларни яратиш ва уларни кўчма маънода қўллашда катта аҳамиятга эга бўлди.

Логографик ёзув таркибидаги белгилар аста-секин ўзакдош сўзларни ва бир сўзнинг турли грамматик шакллариини фарқлашга нисбатан ҳам қўллана бошлайди. Бу ёзувнинг мазмуний аниқлигини сезиларли даражада ошириб, белгининг ифода мазмунига тўлиқ мувофиқлигини таъминлашга ёрдам берди. Шу тарзда белгилар фонографик маъно касб эта бошлайди ва турли халқларда турлича йўналишда ривожлана бошлайди. Логограммалар аста-секин морфемограммаларга, аффикслар эса талаффузига кўра фонографик маъно касб эта бошлайди.

6-жадвал. Қадимги Миср ёзуви белгиларида логографик ва фонографик вазифаларнинг мутаносиблиги.

| Иероглиф | Логографическое значение | Фонографическое значение | Иероглиф | Логографическое значение | Фонографическое значение |
|---|--------------------------|--------------------------------|--|--------------------------|--------------------------|
| Примеры «однослоговных» знаков | | | | | |
|  | лист тростника | j + любой гласный ¹ |  | рот | г + любой гласный |
|  | птенец, цыпленок | w + » |  | тростниковая ограда | h + » |
|  | нога, идти | b + » |  | водоем | š + » |
|  | цоколь, табурет | p + » |  | корзина | k + » |
|  | рогатая змея | f + » |  | пьедестал | g + » |
|  | сова | m + » |  | хлеб | t + » |
|  | волна, вода | n + » |  | ладонь | d + » |
| Примеры «двусловных» знаков² | | | | | |
|  | горшок | pw |  | заяц | wn |
|  | лев | gw |  | опухало | mš |

8-жадвал. Қадимги Миср ёзуви белгиларида ишлатилган айрим семантик детерминантлар

| | | | | |
|---|---|--|---|---|
|  |  |  |  |  |
| мужчины | женщины | млекопитающие | деревья | растения |
|  |  |  |  |  |
| города | водные пространства | здания | сосуды, жидкости | корабли |
|  |  |  |  |  |
| земли | орошаемые земли | пустыни, чужие страны | части тела | свет, время |
|  |  или  |  |  | |
| камни | сыпучие тела | огонь | абстрактные понятия | |
|  |  |  |  | |
| ремесла, занятия | режние | связывание | ломание, разделение | |

9-жадвал. Финикия ва грек ёзувлари ўртасидаги боғлиқлик

| Формы букв | | | | | | Звуковые и цифровые значения букв | | | Названия букв | |
|---------------|-----------|------------|----------|---------------|------------------|-----------------------------------|---------------------------|------------------------------------|---------------|----------------------------------|
| фини-квийские | греческие | | | | | у финикийцев ¹ | у греков | семитские (еврейские) ² | греческие | |
| | архан-ные | восточ-ные | западные | класси-ческие | соврем. печатные | | | | | |
| א | ΑΔ | ΑΔ | ΑΑ | Α | Α | α ¹ | a (или α) | 1 | 'алеф | альфа |
| β | ΒΓΥ | ΒΒ | Β | Β | Β | β ² | b | 2 | бет | бета |
| γ | ΓΓΑ | ΓΓ | Γ | Γ | Γ | γ ³ | g | 3 | гимел | гамма |
| δ | Δ | ΔΔ | ΔΔ | Δ | Δ | δ ⁴ | d | 4 | далет | дельта |
| ε | ΕΕ | ΕΕ | ΕΕ | Ε | Ε | ε ⁵ | e (первонач. и ε) | 5 | хе | эй, позже эписилон ³ |
| Ϝ | Ϝ | Ϝ | Ϝ | Ϝ | Ϝ | ω ⁶ | v или ω ⁴ | 6 | вав | вау, позже дигам-ма ⁵ |
| Ζ | Ζ | Ζ | Ζ | Ζ | Ζ | z ⁷ | z (d ²) | 7 | зайин | дзета |
| Η | ΗΘ | ΗΒ | Β | Η | Η | η ⁸ | e (первонач. и западн. η) | 8 | хет | эта |
| Θ | ΘΟ | ΘΘ | ΘΘ | Θ | Θ | θ ⁹ | θ ⁸ | 9 | тет | тета |
| Ι | Ι | Ι | Ι | Ι | Ι | ι ¹⁰ | i (или ι) | 10 | йод | йота |

| Формы букв | | | | | | Звуковые и цифровые значения букв | | | Названия букв | |
|---------------|-----------|------------|----------|---------------|------------------|-----------------------------------|-------------------|-----------------------|---------------|----------------------|
| фини-квийские | греческие | | | | | у финикийцев | у греков | семитские (еврейские) | греческие | |
| | архан-ные | восточ-ные | западные | класси-ческие | соврем. печатные | | | | | |
| כ | ΚΚΚ | ΚΚ | Κ | Κ | Κ | κ ²⁰ | k | 20 | каф | каппа |
| λ | ΛΛ | Λ | Λ | Λ | Λ | λ ³⁰ | l | 30 | ламед | лямбда |
| μ | ΜΜ | Μ | Μ | Μ | Μ | μ ⁴⁰ | m | 40 | мем | ми (мю) |
| ν | ΝΝ | ΝΝ | ΝΝ | Ν | Ν | ν ⁵⁰ | n | 50 | нун | ни (ню) |
| ξ | | ΞΞ | Χ | Ξ | Ξ | ξ ⁶⁰ | ks | 60 | самех | кси |
| ο | ΟΟ | Ο | Ο | Ο | Ο | ο ⁷⁰ | o (первонач. и ο) | 70 | 'айин | омикрон ³ |
| ρ | ΡΡ | ΡΡ | ΡΡ | Ρ | Ρ | ρ ⁸⁰ | p | 80 | пе | пи |
| σ | Μ | | | Σ | | σ ⁹⁰ | s | 900 | цаде | сан ⁵ |
| φ | ΦΦ | Φ | | Ϝ | | φ ¹⁰⁰ | κ | 90 | коф | коппа ⁵ |

| Формы букв | | | | | | Звуковые и цифровые значения букв | | | Названия букв | | |
|---------------|-----------|------------|----------|---------------|------------------|-----------------------------------|----------------------------|-----------------------|---------------|--------------------|----------------------|
| фини-квийские | греческие | | | | | у финикийцев | у греков | семитские (еврейские) | греческие | | |
| | архан-ные | восточ-ные | западные | класси-ческие | соврем. печатные | | | | | | |
| q | ΡΡΡ | ΡΡΔ | ΡΡΡ | Ρ | Ρ | ρ ²⁰⁰ | r | 100 | реш | ро | |
| w | | ΣΣΣ | ΣΣ | Σ | Σ | σ ³⁰⁰ | s | 200 | шин (син) | сигма | |
| x+ | ΤΥ | ΤΤ | Τ | Τ | Τ | τ ⁴⁰⁰ | t | 300 | тав | тау | |
| | ΥΥΥ | ΥΥ | ΥΥΥ | Υ | Υ | | у (или y, в диф-тонгах υ) | 400 | | | ипсилон ³ |
| | | ΦΦ | Φ | Φ | Φ | | φ ⁵⁰⁰ | 500 | | | фи |
| | ↓ | Χ+ | ΨΥ | Χ | Χ | | κ ⁶⁰⁰ (зап. ks) | 600 | | | хи |
| | | ΨΥ | | Υ | Ψ | | ps (зап. k ^h) | 700 | | | пси |
| | Ω | Ω | Ω | Ω | ω | 800 | | | | омега ³ | |

Отношение латинского письма к западногреческому и этрусскому Таблица 10

| западно-греческие | Формы букв | | | | | Звуковые значения букв | | |
|-------------------|------------|--------------|----------------|-------------------|---|------------------------|------------------|----------------------------|
| | этрусские | | латинские | | | западно-греческие | этрусские | латинские (первоначальные) |
| | ранние | классические | первоначальные | добавленные позже | | | | |
| ΑΑ | A | AA | ΑΑ | A | | a | a | a |
| ΒΒ | B | | ΒΒ | B | | b | (b) ¹ | b |
| Γ<< | << | >> | Γ | C | G | g | k/g | k, g ² |
| ΔΔ | D | | Δ | D | | d | (d) | d |
| Ε | Ε | ϵ | Ε | E | | e | e | e |
| ϜϜ | Ϝ | | Ϝ | F | | v | v | f ³ |
| Ζ | Ζ | Ζ± | | (Z) | Z | z | z | z ⁴ |
| ΗΗ | Η | Ηη | Η | H | | h | h | h |
| ΘΘ | Θ | Θ | | | | t ^h | t ^h | |
| Ι | Ι | Ι | Ι | I | J | i | i | i, j ⁵ |
| Κ | Κ | κ | Κ | K | | k | (k) | k ⁶ |
| Λ | Λ | λ | Λ | L | | l | l | l |
| Μ | Μ | μ | Μ | M | | m | m | m |
| Ν | Ν | ν | Ν | N | | n | n | n |
| Ο | Ο | | Ο | O | | o | (o) | o |
| Ρ | Ρ | ρ | Ρ | P | | p | p/b | p |
| Ϙ | Ϙ | ϙ | Ϙ | Q | | k | (k) | k ⁷ |
| ΡΡ | Ρ | ρ | Ϙ | R | | r | r | r |
| ΣΞ | Ξ | ς | Σ | S | | s | s | s |

Ушбу ёзув тизимларининг кейинги даврлардаги ривожланиши

| западно-греческие | Формы букв | | | | | Звуковые значения букв | | |
|-------------------|------------|--------------|----------------|-------------------|----|------------------------|----------------|----------------------------|
| | этрусские | | латинские | | | западно-греческие | этрусские | латинские (первоначальные) |
| | ранние | классические | первоначальные | добавленные позже | | | | |
| T | T | † | T | T | | t | t/d | t |
| YV | Y | V | V | V | YU | u | u | u, u ⁸ |
| X+ | + | | X | X | | ks | ks | ks |
| Φφ | φ | φ | | | | p ^h | p ^h | |
| Ψψ | ψ | ψ | | | | k ^h | k ^h | f |

Ёзувнинг кейинги таракиёт босқичи **бўгин** ёзуви бўлиб, у **фонографик** ёзув турига киради, (мил.ав. 2-минг йилликларнинг ўрталарида пайдо бўлган). Бу ёзувда бўгинлар изроглифлардир. У ёки бу сўзни ёзишга тўғри

келса, ана шу бўғинларни бир-бирига қўшиш усулидан фойдаланилади. Тилдаги сўзлар сонига қараганда бўғинлар сони анча кам, шунинг учун ҳам бўғин ёзуви логографик ёзувига нисбатан сезиларли даражада ўз белгилар тизими билан иш кўради. Масалан, девангари (ҳинд) ёзуви бўғин ёзувидир: улардаги ҳар бир ишора ундош товушларнинг **а** унлиси билан қўшиб талаффуз қилинишини кўрсатади, яъни *на, га, ша* ва ҳ.з. Агар бошқа унлини талаффуз қилиш зарур бўлса, унли ҳарфларнинг *ё* устига, *ё* тагига маълум белгилар қўйилади. девангарида 50 та белги бор: 13 таси унли ва сўз ёки бўғин бошида келувчи дифтонгни, 33 таси бўғинни кўрсатади. 4 та ёрдамчи белги. Бўғин белгилари силлабограмма дейилади. Бу ёзувдан Шимолий Ҳиндистон хундулари фойдаланадилар. Араб, Миср, Эфиопия, Япон (кана), Корейс (кунмун) ёзувлари ҳам бўғин- ёзув турига киради.

Фонографик ёзув тизимини кейинги тараққиёти ҳарф-товуш ёзуви бўлиб, фанда инқилобий ҳодиса сифатида эътироф этилади. Бу йўналишдаги илк ёзув **финикий** ёзувидир. Биринчи марта соф товуш ёзуви, санокли ҳарфлардан иборат мукамал алфавитнинг юзага келиши жамиятдаги ёзувни биладиган кишилар доирасини кенгайтириб юборган. Бу жараён мил.ав. X асрдан бошланган. Ҳозирги кунда бизга маълум бўлган ҳарф-товуш тизимидаги ёзувларнинг бешдан тўрт қисмидан кўпроғи финикий ёзувдан келиб чиққан. Ҳарф-товуш тизими, ҳозирги, асосан 4 хил ёзув тизимидан иборат: лотин ёзуви (жаҳондаги 30 % аҳоли), славян – кирилица (10%), араб ёзуви (10%), ҳинд ёзуви (20%).

Ўрта Осиёдаги халқлар, жумладан, ўзбек халқи турли ёзувлардан фойдаланиб келган. Бу ёзувлар авесто, паҳлавий, ўрхун-энасой (руник), туркий (уйғур), суғд, араб, кирилл, лотин ёзувларидир.

Ёзувнинг, хусусан ҳарф-товуш тизимининг такомиллашуви – алифбони юзага келтирди. Алифбо (араб алфавитининг бошланғич икки ҳарфи *fi* – *alif* ва *bo* номидан олиган)– бирор тилнинг ёзувига қабул қилинган ва маълум анъанавий тартиб берилган ёзув белгилари ёки бўғин белгилари (девангари) мажмуи бўлиб, мил.ав. 2000-йиллар охирларида қадимги Уюрит ва финикий ёзуви товуш тизимидан келиб чиққан. Туркий халқларнинг руник ва туркий (уйғур) ёзувлари бўлган. Аммо бу ўзига хос туркий ёзувлар алифбоси ҳақида маълумот учрамайди. Уларга оид ҳарфлар жадвали товуш белгилари ҳақидаги бошқа манбалардаги маълумотлар ҳамда шу ёзув ёдгорликлари асосида тузилган. Қадимги туркий ёзма ёдгорликларига туркий рун (ўрхун-энасой), уйғур ва қисман моний (моновий), брахмон, суғд ва сўрөний ёзувларида ёзилган обидалар киради. Рун ва уйғур ёзувлари туркий халқларга хос ёзувдир. Тошга ўйиб ёзилган рун ёзуви XIX аср охирида Мўғулистоннинг Ўрхун дарёси бўйидан топилиб, бу ёзувни дастлаб даниялик тилшунос В.Томсон ва рус турколог В.Радлов аниқлади. Ҳозирги пайтгача ўрхун ёзувида ёзилган кўплаб тош, идиш, асбоб,

тангалар, китоб, китоб варақлари ва айрим қоғозлар ҳам маълум. Талас ва Енисей обидаларидаги ёзув Ўрхун обидаларига нисбатан ҳарфларнинг, шаклий вариантларининг кўплиги билан фарқ қилади.

Уйғур ёзувида ёзилган асарларнинг ҳаммаси ҳам қадимги турк даврига оид эмас, чунки бу ёзув XVIII асргача қўлланди. Уйғур ёзувини Маҳмуд Қошғарий “турк ёзуви” деб атайдиган ҳамда бу ёзувда 18 та ҳарф борлигини ва туркий тилларда мавжуд бўлган 7 та товуш (п, ж (портловчи), ж (сирғалувчи), ф, ғ, нг, г) учун махсус ҳарфлар йўқлигини, унлиларнинг эса араб тилидагидек ҳаракатлар билан эмас, ҳарфлар билан ифодаланишини айтиб ўтади. Маҳмуд Қошғарий турк (уйғур) ҳарфларининг алоҳида ва қўшиб ёзилгандаги кўринишларини берган.

Ёзув тараққиётида грек ёзуви, лотин ёзуви ва кирилл ёзуви муайян шароитларда юзага келди. Греклар дастлаб консонант ёзувидан фодаланишган. Эрамиздан олдинги VII-VI асрларда вокал-товуш намуналари учрайди. Эрамизгача 403-йилда Эвклид томонидан Афинада мумтоз грек алифбоси киритилди. +адимги грек ёзуви 24 та ҳарфга эга (17 та ундош ва 7 та унли).

Грек ёзуви асосида латин алифбоси шаклланди. Шарқий грек ёзуви асосида эса кирилл, грузин ва арман алифболари яратилди. Лотин ёзуви Ғарбий Европада кенг тарқалди. XIV асрда қоғознинг пайдо бўлиши, китоб нашр қилишнинг кашф этилиши бу ёзувнинг кенг тарқалишида муҳим омил бўлди. Қадимги лотин ёзувида 23 та ҳарф бор эди (товушлар 35 та бўлган: 16 та унли, 19 та ундош).

Словян алифбоси эса IX аср охири – X аср бошларида пайдо бўлди, чунончи, икки кўринишда қўлланила бошланди: глаголица ва кириллица. Кирилл ёзуви жанубий (болгар, серб, македон) ва шарқий славянларга тарқалди. Бу алифболарнинг яратилиши Кирилл ва Мефодий (ака-укалар) номлари билан боғлиқ. Кирилл алифбосида 43 та ҳарф бор эди, товушлар эса 44 та: 11 та унли ва 33 та ундош. Кирилл ёзуви асосидаги замонавий рус алфавитида 33 та ҳарф, 43 та товуш: 6 та унли ва 37 та ундош мавжуд.

Аслида, ёзув ва тилнинг тараққиёти бир хил, бир-бири билан тўла мос келадиган жараён эмас. Тилдаги у ёки бу ўзгариш тадрижий равишда, аста-секин юз беради. Ёзув ҳақида эса бундай деб бўлмайди. Одамлар, аниқроғи халқлар тил хусусиятларига янада мослаштириш учун ёзувга турли ўзгаришлар киритадилар, ислохотлар қиладилар, бир ёзув тизимини бошқаси билан алмаштирадилар. Масалан, ўзбек халқи асрлар давомида араб алифбосидан фойдаланиб келган. Ўзбекистонда 1929-йилда лотин ёзуви асосидаги ўзбек алифбосига ўтилган, 1940-йилдан эса кирилл ёзуви жорий этилган. Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгаши 1993-йил 2-сентябрда “Лотин ёзувига асосланган ўзбек алифбосини жорий этиш тўғрисида”ги қонун қабул қилинди. Бу қонунга ва уни амалга киритиш

тартиби ҳақидаги Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси 1995-йил 6-майда ўзгаришлар киритадиган қонун қабул қилди. Бу ҳужжатга кўра лотин ёзувига асосланган янги ўзбек алифбоси 26 та ҳарф ва 3 та ҳарфлар қўшилмасидан иборат.

Алфавит, графика и орфография. Ёзувнинг фонемографик тизимида письмо «алфавит», «графика» ва «орфография» тушунчалари фарқланади. **Алфавит ёки алифбо** тилдаги ёзув белгиларининг муайян стандарт тартибда жойлашишидир. Алифбо таркибида нафақат тилдаги маъно фарқловчи фонемалар, балки *ch, sh, ng* каби графемалар, рус тилидаги *ъ, ь* каби товуш билдирмайдиган ҳарфлар ҳам ўрин олган.

Графика ва орфография эса фонемографик ёзув тизимида графемаларнинг амал қилиш қоидалари мажмуасидан иборат. Ушбу қоидалар 2 йўналишни қамраб олади:

Биринчи йўналиш **график - ёзув қоидаларидан** иборат бўлиб, унда ёзув тизимидаги айрим графемалар ва улар комбинацияларининг фонемалар, бўғинлар, просодемалар алоқасида таркибида ва ўзаро алоқасида ёзувда ифодаланиши қоидалари акс этади. Ушбу қоидаларда графемалар ва улар комбинацияларини талаффуз қилиш, ўқиш қоидалари тарзида (масалан, ўзбек алифбосидаги *и* товуши қисқа айтилиши ҳолатлари, рус алфавитидаги *о* ҳарфининг урғули, урғусиз бўғинларда */а, ь/* тарзида талаффуз этилиши; инглиз алифбосидаги *ea* графемасининг */i:/, /e/, /ei/* ёки */ie/*) шаклида талаффуз қилиниши каби қоидалар берилади.

Иккинчи йўналиш **орфографик – тўғри ёзув (имло) қоидалари** тизимидан иборат бўлиб, унда тилнинг маъновий бирликлари, энг аввало, морфемалар ва сўзлар, шунингдек, сўз бирикмалари ва гапларни тўғри ёзиш қоидаларидан иборат. Орфография албатта орфоэпик - талаффуз меъёрлари билан узвий боғлиқ.

Орфография қоидалари графика қоидалари асосида шаклланади, чунки ҳар қандай фонографик ёзув тизимида тилнинг маъновий бирликларини уларнинг талаффузига мувофиқ бериш қоидалари акс этади. Шунингдек, **орфография** тил бирликларини ёзувда ифодалаш, хусусан, қўшиб, ажратиб ва чизикча орқали ёзиладиган сўзлар талаффузи, қисқартма сўзлар, қатордан қаторга кўчирилган сўзлар қисмларининг талаффузи ҳам бериб борилади. Ҳар бир тилда талаффуз ва ёзув ўртасида мутаносиблик ёки номутаносибликнинг муайян тамойиллари амал қилади. Тилда орфографиянинг 5 та асосий тамойили (принципи) амал қилади.

Биринчи принцип **фонетик ёзув тамойили** деб аталиб, унда сўзлар қандай эшитилса, шундай ёзилади. Жумладан, ўзбек тилида *k* ва *q* товушлари билан тугаган сўзларга жўналиш келишиги қўшимчасининг *ka* ва *qa* шаклларида қўшилиши *etakka, tilakka, Sharqqa, qirqqa* сўзларининг талаффузидан келиб чиқади.

Иккинчи принцип **морфологик-этимологик ёзув тамойили** деб юритилиб, бунда сўзлар ва сўз шакллари талаффузига мос ҳолда эмас, балки ясаши асосида, морфологик қоидалар асосида ёзилади. Масалан, ўзбек тилида *тоққа, боққа* сўзлари шундай талаффуз қилинса-да, *toq'ga, bog'ga* шаклида ёзилади. Ёки рус тилидаги *сделка, сбор* каби сўзлари мазкур тамойилда ёзилади. Жарангли ва жарангсиз ундош товушларининг талаффуз ва ёзувдаги фарқли қўлланиши поляк, чех, болгар, немис тиллари орфографиясида ҳам учрайди. Француз тилида бир қатор ҳолларда нутқ товушлари таркибидаги тарихий ўзгаришлар ҳам ёзувда акс этмайди.

Орфографиянинг учинчи принципи **граммематик принцип** деб аталади. Ушбу тамойилда талаффузига мос бўлмаса-да, бир категориядаги граммемаларни бир хилдаги ёзув шакли билан ёзишга қаратилган. Жумладан, рус алифбосида *ь* белгиси *ночь, мышь, рожь, вещь* каби сўзлар женский родда эканлагини кўрсатиш учун қўлланади. Шунингдек, *кость, тень и встань, встаньте, сядь* сўзларида эса ундош товушларнинг юмшоқ талаффуз қилинишини кўрсатувчи белги ҳисобланади. Бироқ *плачь, плачете, ешь, ешьте, режь, режьте* сўзларида эса *чь* ва *щь* товушлари юмшоқ талаффуз қилинмаса-да, аналогик ҳолда юмшоқлик кўрсаткичи сифатида ишлатилади.

Тўртинчи принцип называюот **дифференциациялаш-фарқлаш тамойили** деб аталиб, шаклдош –омоним сўзлардан бирини фарқлаш учун қўлланади. Бунда, одатда, урғу, оҳанг каби фонетик бирликлар алоҳида ўрин тутади.

Орфографиянинг бешинчи принципи **тарихий-анъанавий ёки шаклий ёзув тамойили** деб юритилади. Бу ҳозирги талаффуз меъёрларига ҳам, морфологик тамойилга ҳам зид ҳолда, фақат муайян сўз шакллари тарихий ёки анъанавий асосда қабул қилинган шаклда, шунингдек, хорижий тиллардан кирган ўзлашма сўзларнинг аслиятига мос ҳолда ёзилишидан иборат. Жумладан, ушбу тамойил амалиётини рус тилидаги *горох, молоко* сўзларининг 1-бўғинидаги *о* товуши талаффузини, *общий, вообще* сўзларидаги *б* товушининг талаффузини, *-ого, -его* қўшимчалари таркибидаги *з* ҳарфи в талаффузининг ёзув шаклига номутаносиблигида кўриш мумкин.

Одатда ҳар бир тилда у ёки бу ёзув тамойили устувор ўрин тутади. Жумладан, ҳозирги рус тилиорфографиясида морфологик тамойил етакчилик қилса-да, айрим приставкаларнинг ёзилишида фонетик ёзув тамойили ҳамда граммематик принцип ҳам муҳим ўрин тутади. 1918 йилда ўтказилган имло ислоҳотигача тарихий-анъанавий ёзув етакчилик қилган. Ҳозирги ўзбек тилида эса 2та ёзув тамойили – фонетик ва морфологик тамойиллар етакчи саналади. Немис, француз ва айниқса инглиз орфографияларида тарихий-анъанавий ва дифференциациялаш-фарқлаш

тамойили кенгроқ қўлланади. Фин ёзувида эса сўзларнинг ёзилишида фонематик транскрипциядан деярли фарқланмайдиган график принцип асосий рол ўйнайди, орфография эса, асосан, хорижий тиллардан кирган ўзлашмаларни ва ёзма ҳарфларни ёзиш қоидалари билан шуғулланади.

Транскрипция и транслитерация. Айрим ҳолатларда баъзи сўзлар ва сўз шакллари ёки матнларни тилда қабул қилинган ёзув шакли билан эмас, балки махсус ёзув шакли билан ёзишга тўғри келади. Бу: а) товушлар ва сўзларни ниҳоятда аниқлик билан ёзиш керак бўлганда; б) тилдаги сўзлар талаффузини бошқа тил вакиллари тўғри ўқий олишлари керак бўлганда қўлланади. Биринчи ҳолда илмий фонематик ёзув ёки фонетик транскрипция, иккинчи ҳолда эса махсус илмий транслитерация қўлланади. Ҳар қандай транскрипция нутқ товушларини аниқ талаффуз қилишга қаратилади, яъни унинг асосида аввало талаффузга мослашиш туради. Транслитерацияда эса, аксинча, ёзувдан келиб чиқиб, муайян ҳарфий тузилмага эга сўз ёки сўз шакли қандай талаффуз қилиниши, ўқилиши кераклигини кўрсатишга қаратилади. Масалан, рус тилидаги **Егоров** фамилияси фонематик транскрипцияда — / jɛg'ɔraf / ёки /йэг'ораф/, латин ёзувидаги транслитерацияда — **Egorov** шаклида берилади.

Транскрипция ва транслитерация одатда муайян ёзув тизимида мавжуд анъанавий белгилар билан ифодалангани учун уларнинг қўлланиши чегараланган бўлади. Жумладан, буни латин ёзувининг француз варианты асосида ёзиладиган халқаро телеграммаларни ёзиш мисолида кузатиш мумкин. хусусан, айрим атоқли отларни хорижий тиллардаги матнларга киритишда кўплаб учратиш мумкин. Масалан, француз тилида **Henri** исмининг **Анри** шаклида, **Hugo** фамилиясининг **Гюго** шаклида берилишини мисол сифатида келтириш мумкин. Кўпчилик ҳолларда тиллардаги миллий реалияларнинг берилишида транслитерация ҳодисасини мумкин қадар камроқ қўллаш, аксинча, транскрипция, ёрдамида сўз ва сўз шаклларининг аслиятини сақлашга интилиш тенденцияси кучаймоқда.

Шунингдек, тилда ёзувнинг махсус стенографик тури ҳам мавжуд бўлиб, ушбу ёзув тури оғзаки талаффуздаги нутқни тез ва айнан ёзиб олишга қаратилади. Ушбу ёзув тури кўпроқ симпозиумларда, халқаро конференциялар, диссертациялар ҳимоялари, суд мажлиси йиғилишларида қўлланади. Ушбу ёзув тури билан ўғулланувчилар стенографистлар деб аталади.

Ёзув –инсониятнинг энг муҳим кашфиётларидан бири бўлиб, уни жамият цивилизациясининг асосий ричаги деб ҳисоблаш мумкин. Инсоният тарихида ёзувнинг ўрни ҳам, аҳамияти ҳам бўлакча. Шу боис ёзувга ҳамиша катта эътибор қаратилган. Айниқса, Шарқда чиройли ёзиш санъат даражасига кўтарилган, ҳуснихат, каллиграфия санъати кенг тармоқ отган.

Ҳатто буюк мутафаккир Алишер Навоий ҳам, Бобур ҳам ҳуснихат санъатига жиддий қарашган. Заҳириддин Муҳаммад Бобур “хатти бобурий” деб номланган ёзув турини ҳам кашф этган.

Назорат саволлари

1. Ёзув нима учун инсон тафаккурининг энг олий ютуқларидан бири саналади?
2. Ёзувнинг илк кўриниши расмли ёзув бўлганлиги қандай манбаларда ўз аксини топган?
3. Пиктография – идеография – фонография - ёзувнинг тадрижий босқичлари сифатидаги тараққиётини изоҳлаб беринг.
4. Хитой ва ҳинд ёзувлари нима билан фарқланади?
5. Алифбо нима? Унинг жаҳонда қандай турлари бор?
6. Ўзбек ёзувлари тарихини сўзлаб беринг.

Фойдаланиш учун тавсия этилган адабиётлар:

1. Абдурахмонов Ғ., Рустамов А. Қадимги туркий тил.- Т.: Ўқитувчи, 1982.
2. Головин Б.Н. Введение в языкознание. - М.: Высшая школа, 1977.
3. Кодухов В.Н. Введение в языкознание.- М.: Просвещение, 1987.
4. Реформатский А.А. Введение в языкознание. - М., 1955.
5. Содиков А. ва б. Тилшуносликка кириш. - Т.: Ўқитувчи, 1981.
6. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. I-II жилдлар.- Т., 2002.
7. Расулов Р. Умумий тилшунослик. – Т.: 2006.

Таянч сўз ва иборалар

Ёзув – муайян бир тилда қабул этилган ва кишилар ўртасидаги мулоқотга хизмат қиладиган ёзма белгилар ёки тасвирлар тизими.

Алфавит ёки алифбо тилдаги ёзув белгиларининг муайян стандарт тартибда жойлашишидир.

Графика ва орфография фонемографик ёзув тизимида графемаларнинг амал қилиш қоидалари мажмуаси.

Графика ёзув тизимидаги айрим графемалар ва улар комбинацияларининг фонемалар, бўғинлар, просодемалар алоқасида таркибида ва ўзаро алоқасида ёзувда ифодаланиши қоидаларидир.

Орфография – муайян тилдаги тўғри ёзув (имло) қоидалари тизими.
Фонетик ёзув талаффузга асосланган ёзув тамойили бўлиб, бунда сўзлар қандай эшитилса, шундай ёзилади.

Морфологик-этимологик ёзув тамойили сўзлар ва сўз шакллариининг қандай айтилишидан қатъи назар морфологик қоидалар асосида ёзилишидир.

Дифференциациялаш-фарқлаш тамойили шаклдош-омоним сўзлардан бирини фарқлаш учун қўлланадиган қоидалар тизими.

Тарихий-анъанавий ёки шаклий ёзув тамойили муайян сўз шакллариининг тарихий ёки анъанавий асосда қабул қилинган шаклда, шунингдек, хорижий тиллардан кирган ўзлашма сўзларнинг аслиятига мос ҳолда ёзилиши қоидаларидир.


Транскрипция муайян тилдаги нутқ товушлари, сўз шакли қандай талаффуз қилиниши, ўқилиши кераклигини кўрсатувчи махсус белгилар тизими.

Транслитерация сўз ўзлаштиришда тилда мос нутқ товушлари мавжуд бўлмаган ҳолларда нутқ товушларини аслиятга яқин шаклда бериш қоидалари.

ВИЗУАЛ МАТЕРИАЛЛАР

1-савол: Ёзувнинг пайдо бўлиши

1-илова



Алфавит – бу бирор фонографик ёзувнинг тарихий жиҳатдан маълум тартиб асосида жойлаштирилган ҳарф ва белгилари системаси


2-савол: Графика

2-илова

Графика атамаси грек тилидаги *graphikos* сўзидан олинган бўлиб, ёзилган, ифодаланган деган маъноларни англатади. Бу ҳарфларнинг ёзилиш шакллари ва ҳарф билан товуш орасидаги муносабатни ўрганадиган фандир

3-савол: Орфография

3-илова




4-илова



4-савол: Ёзувнинг махсус турлари

5-илова



7-МАЪРУЗА: Тилларни таснифлаш асослари. Тилларни генеологик таснифлашда қиёсий-тарихий методнинг ўрни. Тилларнинг типологик таснифи.

Режа:

1. Дунёдаги тиллар ва уларни таснифлаш асослари.
2. Ареал ва функционал жиҳатдан тилларни таснифлаш.
3. Тилларни генеологик таснифлашда қиёсий-тарихий методнинг ўрни.
4. Тилларни типологик жиҳатдан гуруҳларга ажратиш.

Мақсад: Дунёдаги тиллар, уларни таснифлаш белгилари ҳақида тасаввур ҳосил қилиш; тилшуносликда қиёсий-тарихий методнинг шаклланиши ҳақида маълумот бериш; генеологик, морфологик, ареал ва функционал таснифлар ҳақидаги билимларни чуқурлаштириш.

Дунё тилларини таснифлаш. Тасниф сўзи арабча синф сўзидан олинган бўлиб, гуруҳлаш, синфларга ажратиш маъносини билдиради. Табиий ёки ижтимоий ҳодисаларнинг энг асосий, энг муҳим белгиларини назарда тутган ҳолда гуруҳларга ажратилиши таснифлаш дейилади. Тилларни таснифлашда тузилиши, ижтимоий вазифаси, тарқалиши, қариндошчилик муносабатлари, шу тилда гаплашувчилар сони каби жуда кўп жиҳатлар эътиборга олинади. Бироқ ҳозирги кунгача жаҳонда қанча тил борлиги аниқ маълум эмас. Ҳозирги вақтда ер юзиде тахминан 3000га яқин тил бор. 1965 йилда “Население мира” журналида ер юзиде 2000 дан ортиқ тил борлиги қайд қилинган, тилшуносларнинг 1974 йилда Испанияда бўлган йиғилишида эса ер юзи аҳолиси 2974 хил тилда гаплашиши маълум қилинган. Бироқ тиллар ва тил оилаларининг аниқ миқдорини айтиш қийин, чунки айрим ҳудудлардаги тиллар кам ўрганилган, шу боис тилларнинг аниқ миқдорини белгилаш анча қийин. Бунинг устига айрим тиллар ўлик тиллар ҳисобланади. Ҳозирги вақтда диалект ва тил жиҳатидан кам ўрганилган минтақалар ҳам мавжуд бўлиб, уларга Австралия, Океания ва Жанубий Америка киради. Агар дунё тилларидаги энг йирик диалектларни ҳисоблаб чиқилса, уларнинг сони 5000дан ошар экан. Масалан, Янги Гвинеяда деярли ҳар бир қишлоқ аҳолиси ўз тилига эга, лекин уларнинг тили ҳақиқатан ҳам, мустақил тилми ёки бирор тилнинг диалектими, бу ҳали аниқ эмас. 1951 йилги маълумотга қараганда, Биргина Ҳиндистоннинг ўзиде 720 та диалект бор. Бир ярим аср мукаддам Туркия ҳудудида яшовчи алоҳида бир қабила оуб их тилида гаплашган, уларнинг сони 50 минг бўлган. Оуб их тилида учта унли товуш, 82 та ундош товуш бўлиб, жаҳонда энг кам учрайдиган тиллардан биридир, деб тахмин

қилинаёпти. Ҳозирги кунда ягона киши - 82 ёшли турк деокони Тофик Есенцгина бу тилни билади. Германияда чиқадиган “Вохенпост” ҳафталик газетаси берган маълумотга кўра, айти пайтда Франция Фанлар Академиясининг мутахассислари Тофик Есенц билан ҳамкорликда ишлаб тил грамматикасини ўрганмоқдалар.

Кўринадики, дунёда тиллар ҳам, уларда гаплашувчи кишиларнинг сони ҳам ҳар хил. Ҳинд ва хитой тилларида бир неча юз миллиондан ортиқ аҳоли гаплашгани ҳолда, баъзи тилларда бир неча минг киши гаплашади, холос. Шу жиҳатдан ҳам дунё тилларини мукаммал тасниф қилиш қийин. Дунёдаги тиллар энг асосий, энг муҳим белгилари назарда тутилган ҳолда 4 хил жиҳат асосида тасниф қилинади. Булар: ареал, функционал, генеологик ва типологик таснифлардир.

Ареал таснифда тилларнинг георафик-худудий жиҳатдан тарқалиш миқёси ўрганилади, яъни тилларнинг дунё тилларининг географик харитаси яратилади. Айти вақтда бу тилларга хос ҳодисаларнинг макон ва замонда тарқалиш қонуниятларини аниқлаш, тилларнинг бир-бирига таъсири масалаларини ўрганиш имконини ҳам беради. Ареал тилшуносликнинг марказий масалаларидан бири тиллар, лаҳжалар ва шеваларнинг чегаралари, диалектлар ва тилларнинг шаклланиш босқичлари, уларнинг ўзаро алоқалари масалаларидар. Тиллараро алоқалар муайян ҳудудда яшовчи турли тилларни бирлаштирувчи тиллараро иттифоқларини юзага келтиради. Жумладан, Болқон ярим оролида ҳинд-европа тилилари оиласининг 4 та тармоғи вакиллари ҳисобланадиган булғор, македония, румин, молдова, албан ва янги грек тилларини бир иттифоққа бирлаштирган бўлиб, ушбу тиллар кўп йиллик алоқалар таъсирида фонетик, грамматик, лексик жиҳатдан ўзаро муштарак жиҳатларга эга бўлганлар. Турли тиллар оилалари вакиллари ҳисобланувчи ўзбек ва тожик тиллари ўртасидаги алоқалар ҳам ушбу тилларга ўз таъсирини ўтказмай қолмаган. Барча туркий тилларга хос бўлган сингармония ҳодисасининг ўзбек тилида йўқолиб бораётгани, ўзбек тилидаги *ж* ловчи шевалар ўрнининг *й* ловчи шевалар эгаллагани ҳам ушбу тиллараро алоқа таъсиридир.

Ареал тасниф дунё тилларининг харитасини замонавийлик ва тарихийлик нуқтаи назаридан, яъни синхрон ва диахрони аспектда классификации қилиш имконини ҳам беради. Тарихий шарт-шароит натижасида тиллар турли ҳудудларда тарқалиши мумкин. Жумладан, испан тилида гаплашувчи 300 млн аҳолидан 30 млнигина Испанияда, қолганлари асосан Лотин Америкаси ҳудудида яшайди ва испан тилини ўз она тиллари деб билади. Шунингдек, португал тилида гаплашувчиларнинг асосий қисми ҳам людей Португалияда эмас, Бразилияда яшайди. Тилларнинг ўзаро алоқаларини диахрон ёндашув асосида ўрганиш ушбу тилларнинг

ҳозирги ҳолатида юз берган ўзгаришлар ва кейинги тараққиёти хусусиятларини тадқиқ қилиш имкониниятини беради.

Функционал тасниф ареал тасниф билан узвий алоқадордир, чунки дунё лингвистик харитаси тилларнинг бугунги кундаги маъмурий-сиёсий харитаси билан боғланиб кетади. Тилларни функционал таснифлаш кўп қиррали бўлиб, унда тилларнинг ҳудудий тарқалиш миқёси ҳам, ушбу тилларда сўзлашувчилар сони ҳам, тилнинг маъмурий давлат тизимида ва жамиятда тутган ўрни, мавқеи ва нуфузи ҳам эътиборга олинади. Тилларни функционал классификация қилишда одатда қуйидаги муҳим омиллар асос қилиб олинади:

- дунёдаги ўлик ва тирик тиллар сони;
- тирик тилларда гаплашувчилар сони;
- тилнинг ўз ҳудудидан ташқарида тарқалиш ва қўлланиш даражаси;
- тилларнинг ҳозирги дунё ҳамжамиятида тутган ўрни;
- ўз ёзувига эга ва ўз ёзувига эга бўлмаган тиллар;
- табиий ва сунъий тиллар;
- тилнинг амал қилиш шакли ва бажарадиган ижтимоий вазифалари.

Тил ва жамиятнинг ўзаро узвий муносабати бизга маълум. Шу жиҳатдан келиб чиқиб, тиллар уруғ тили, қабила тили, халқ-элат тили, миллий тиллар босқичларини бошидан кечиради. Бошқача айтганда, тил жамият даражасига мос бўлади. Шунингдек, тилнинг тарқалиш ва бошқа мамлакатларда, минтақаларда қўлланиши ҳам давлатнинг халқаро ҳамжамиятда иқтисодий-сиёсий жиҳатдан тутадиган ўрни, мавқеига боғлиқ бўлади. Айрим тилларнинг бошқа мамлакатларда ҳам кенг амал қилиши ва ўзга халқлар томонидан кенг ўрганилиши шулардан келиб чиқади. Айнан шу ҳолат тилларни маҳаллий тиллар ва минтақалараро, миллатлараро алоқа воситаси ва халқаро тиллар каби тиллар гуруҳларига ажратишга сабаб бўлади. **Халқаро тилларга** БМТнинг ишчи тиллари — инглиз, хитой, рус, француз, испан ва араб тилларини мисол қилиб келтириш мумкин. Бироқ бу юқорида қайд қилинган омиллардан келиб чиқиб ўзгариб туради. Жумладан, бир вақтлар немис тили халқаро тил ҳисобланган, хитой ва рус тиллари бу даражага кейинроқ эришган.

Тилларнинг функционал таснифида тилга алоқадор вазият ҳам эътиборга олинади, яъни муайян жамиятдаги ижтимоий қатламлар ва уларга хизмат қиладиган тиллар, тилнинг давлат тизимида, ижтимоий-сиёсий, маданий-маърифий, диний соҳаларда қўлланиш даражаси ва шулардан келиб чиқиб жамиятда тутадиган ўрни аниқланади. Тиллар жамиятда бажарадиган вазифалари ва амал қилиш шакллари кўра адабий тил ва шева, давлат тили, дин ёки фан тили каби турларга бўлиниши мумкин. Шунга кўра бир тилли, икки тилли, кўп тилли жамиятлар мавжуд. Жуда кўп мамлакатларда икки тиллилик, ҳатто уч-тўрт тиллилик амал

қилади. Масалан, Финляндия икки тилли, Бельгия уч тилли, Швейцария тўрт тилли мамлакат ҳисобланади.

Тилнинг муайян жамиятда тутадиган ўрни, аввало, тилнинг мамлакатдаги статуси, мавқеи ва мазкур жамият томонидан қўлланиш даражаси билан белгиланади. Бу тилга **давлат тили** мақоми берилиши билан ҳам боғлиқ бўлиб, кўпчилик мамлакатларда ушбу мақом маҳаллий халқ тилига берилади. Шу билан бирга, бир йўла 2 тил давлат тили бўлган мамлакатлар ҳам бор. Давлат тили мақоми тилни ҳимоялаш вазифасини ҳам бажаради. Жумладан, Швейцарияда конституционал қонун асосида 4та тилга — немис, француз, италян и ретороман тилларига давлат тили статуси берилган, ваҳоланки, ретороман тилида маҳаллий аҳолининг 1%га яқини ўз оилавий шароитида гаплашади. Кўп тилли мамлакатлардан бири бўлган Ҳиндистонда инглиз ва ҳинду тиллари давлат тили сифатда расман белгилаб қўйилган. Ҳинду тили мамлакат аҳолисининг кўп қисми биладиган тил бўлса-да, бироқ турли штатларда яшовчи аҳоли ўз тилларини камситилган деб ҳисоблаб, кўпроқ инглиз тилида гаплашишини афзал кўрадилар.

Тил сиёсатининг бундай нозик жиҳатлари метатилларнинг яратилишига ҳам олиб келди. **Метатил (эталон тил)** турли тил системасини классификация қилиш учун битта умумий система, барча учун умумий универсал тил яратиш ғояси XIX асрда пайдо бўлди. Ушбу ғояга кўра, метатил асос тил сифатида амал қилади, бошқа тиллар унинг инварианти ҳисобланади. Эталон тил вазифасини сунъий тил, рамзий тиллар бажариши мумкин. Шу мақсадда айрим сунъий тиллар яратилди ҳам. Бироқ сунъий тиллар илдизсиз, яъни ўз эгаларисиз бўлгани учун жонли тиллардек ривожланиб кета олмайди. Буни 100 йилдан ортиқ муддатда амал қилаётган эсперанто тили мисолида кўриш ҳам мумкин.

Типологик ёки морфологик тасниф. XIX-XX асрларда тиллар яна бир жиҳатдан – типологик жиҳатдан классификация қилинди. Типология – грек (typos – шакл, намуна, logos - таълимот) бўлиб, ушбу таснифнинг асосий принципи тиллар қариндош ёки қариндош эмаслигидан қатъи назар ички тузилиши, морфологик тузилишига кўра гуруҳланади. Шу боис ушбу классификация икки хил ном билан – типологик ёки морфологик тасниф деб юритилади. Типология бир томондан, тилларни тасниф қилишнинг умумий назариялари, қонун-қоидалари ва усулларини ўз ичига олса, иккинчи томондан у тил системаси бирликларини умумий белгиси, хусусияти асосида тасниф қилиш билан шуғулланади. Лингвистик типология тил системаси ва структураси қонун-қоидаларига таянган ҳолда тилнинг умумий ва ўзига хос категорияларини ўрганади. Тилшунослик тарихида типология қиёсланаётган тиллар таҳлили ва тадқиқида ўз вазифасини, фаолиятини диалектик фалсафанинг методологик асоси бўлиб

хизмат қилувчи муҳим категорияларининг бири умумийлик ва хусусийлик категориясига кўра иш олиб боради. Шу жараёнда тилларнинг систем-структур табиатига хос жиҳатлар, алоҳидаликлар, махсусликлар аниқланади. Типология тилшуносликнинг муайян соҳаси сифатида тилларни типологик классификация қилиш билан шуғулланади. Типология қариндош ва қариндош бўлмаган тиллар доирасида иш кўради, бу тилларни қиёсий ўрганади, қиёсланаётган тилларнинг тузилишидаги ўхшаш ва фарқли томонларини аниқлайди.

Лингвистик типология тилларни қиёслаб, улардаги умумийликни аниқлайди. Дунёдаги барча тиллардаги умумий хусусиятлар **универсалия** деб юритилади. Масалан: сўзлардаги бир-кўп маънолик, унли ва ундош товушлар, омоним, синонимлар, урғу, замон, сўз туркумлари. Шунингдек, лингвистик типология фақат бир тилга хос шахсий жиҳатларни ҳам ўрганади. Масалан: ўзбек тилидаги ў, қ, ғ, ҳ каби товушлар, ўзбек тилида унлининг асосий охириги бўғинга тушиши, рус тилида ҳар хил келиши, рус тилида урғунинг сўз ясаши ва ҳоказо. Рус тилидаги род ва вид категориялари. Лингвистик типология қиёсланаётган тилларни умумийлик ва хусусийлик категорияларига кўра иш олиб боради.

Тил ўрганадиган шахс тилларда 2 жиҳат: 1) моддий ўхшашлик (биродар, brother, bruder, брат). 2) сўзларнинг грамматик тузилиши, негиз ясалишида, гапларнинг бир-бири билан боғланишида ўхшашлик борлигини билади. Типология қиёслашни тақозо қилади. Бу метод – тилларни, қиёслаб, умумлаштириб ўрганувчи метод бўлиб, структурал типология – тил структурасидаги умумийликни ўрганади. Масалан: тилда суффикс бўлса, послелог ҳам бўлади префикс + предлог, род категорияси + сон категорияси.

Морфологик таснифда тиллар қариндошлик муносабатларидан қатъий назар грамматик тузилиши асосида 4та асосий гуруҳга ажратилади: флектив, агглютинатив, аморф (ўзак) тиллар, мужассамлаштирувчи (полисинтетик) тиллар. Тилларнинг морфологик типологиясига бағишланган дастлабки илмий асар Германияда 1809 йилда Фридрих Шлегел томонидан яратилган. «Ҳиндларнинг тили ва донолиги ҳақида» деган асарида Ф. Шлегел тилларни флектив ва аффиксал тилларга ажратади. Унинг фикрича, тиллар пайдо бўлган кундан бошлаб, бу икки турдан бирига мансуб бўлади ва шундайлигича қолади. Шундай қилиб, тилдаги доимий содир бўлиб турувчи ўзгариш инкор этилади. Таснифга асос қилиб сўз ўзагидаги ўзгариш олинган. Ф. Шлегел гапда сўзлар муносабатга киришганда ўзакнинг ички тузилиши ўзгарадиган тилларни истиқболли ҳисоблаб, уларни флектив тиллар деб атаган, бу турга немис ва бошқа ҳинд – оврупо тилларини киритган. Унинг фикрича, аффиксал тилларнинг ўзаклари ўзгармайди, грамматик форма эса аффиксларнинг

тўғридан-тўғри кўшилиши туфайли ўзгаради. Бундай тилларни у «нуқсонли» тиллар деб атаб, уларга грамматик структураси туркий тилларникига ўхшаган тилларни киритган, қиёсланг:

Флектив тиллар

шрайбе – шрийб

лежу – лег

Аффиксал тиллар

ёзаяпман – ёздим

ётибман – ётдим

1818 йилда Ф. Шлегелнинг укаси Август Шлегел «Провансал тили ва адабиёти тўғрисида хотиралар» деган асарида тилларни флектив, аффиксал ва аморф тилларга ажратади. У аморф тилларга хитой – тибет тилларини киритиб, уларнинг хусусиятлари тўғрисида батафсил маълумот берди, флектив тилларни эса синтетик флектив тиллар ва аналитик флектив тилларга ажратишни тавсия этди.

А. Шлегел ҳам тилларни мукамал ва мукамал бўлмаган тилларга ажратади. Шуни қайд қилиш керакки, тилларнинг яхши – ёмони, мукамал ёки нуқсонлиси бўлмайди. XIX ва ҳатто XX асрда яшаб ижод этган айрим немис ва америка олимлари миллат ва уларнинг тилларини камситувчи ана шундай фикрларни илгари суришган. Аслида барча миллат ва тиллар бир-бирига тенг, чунки тиллар ўз жамиятига тўла-тўқис хизмат қилади. Немис тили немис халқига қандай хизмат қилаётган бўлса, ўзбек, нанай тиллари ҳам ўз халқига айнан шундай хизмат қилмоқда. Барча тилларнинг вазифаси бир хил, яъни алоқа воситаси хизматини ўташдир.

Ака-ука Шлегеллардан кейин бу масала таниқли немис олими, тилшунослик фанининг асосчиларидан бири Вилгельм Фон Гумбольдт томонидан ҳар томонлама кўриб чиқилди. «Тилдаги товуш ва ғоя формаларининг бир-бирига тўғри ва шиддат билан қовушиб кетиши, тиллардаги муносабатларнинг ифода этилиши, гапларнинг ясалиш услублари ва товуш формаларидан кўриниб туради», - дейди Гумболдт. Ана шуларни ҳисобга олиб, у тилларни флектив, агглютинатив, ажратувчи (аморф), мужассамлаштирувчи (полисинтетик)деб номланувчи тўрт турга ажратди.

Бу тасниф олдингиларидан бирмунча фарқ қилади. Гумбольдт тилларнинг биринчи тури номини ўзгартирмай, «флектив» тарзида қолдириб, унга кўшимча тилларни киритди. Хусусан, бундай тилларга фақат ўзакда ўзгариш содир бўладиган тиллар эмас, балки баъзи аффиксал тиллар ҳам киришини тушунтирди. Лекин бу аффикслар агглютинатив тиллардагилардан тубдан фарқ қилади.

Ака-ука Шлегеллар аффиксал деб атаган тиллар гуруҳини Гумбольдт агглютинатив атамаси билан атади. Бу билан у аффиксал флектив тилларни аффиксал агглютинатив тиллардан фарқ қилишини назарда тутди. Аморф тилларни ажратувчи тиллар деб атади, чунки аморф сўзи формасиз деган маънони англатади. Хитой -тибет тиллари бошқа тиллар каби ўз формасига

эга, лекин уларнинг грамматик формалари бошқа тиллардан фаркли ўларок сўз формаларини ўзгартириш йўли билан эмас, балки сўз тартиби ва оҳанг орқали ўзгаради.

В. Гумболдт мавжуд таснифга яна бир тиллар гуруҳини киритиш мақсадга мувофиқ эканлигини таъкидлаб, уни мужассамлантирувчи (полисинтетик) тиллар деб атайди. В. Гумбольдт фикрича, тафаккурнинг ривожланишини таъминлай оладиган ва унинг ривожланишига «тўсиқ бўладиган» тиллар мавжуд. Шундан келиб чиқиб, у флектив тилларни “қатъий тўғри формага эга бўлган тиллар” деб, агглютинатив, ажратувчи ва мужассамлаштирувчи тил турларини эса “қатъий тўғри формадан чекинувчи тиллар” деб атади, аммо у ўз фикрини тасдиқлайдиган бирорта асосли далил топа олмади.

Шунингдек, тиллар таснифи билан Август Шлейхер, Ф. Мистели, Н.Финк, Ф. Ф. Фортунатов, Э. Сепир ва бошқа бир қанча тилшунослар ҳам шуғулланишган. Масалан, А. Шлейхер тилларни уч гуруҳга ажратиб (ўзак, агглютинатив ва флектив тиллар), ҳар бир тил ўз тараққиёт даврида ана шу уч босқични ўз бошидан ўтказади, деб тушунтиради. Унинг фикрича, тиллар ўзак ҳолида туғилиб, вақт ўтиши билан баъзи ўзаклар ўз урғуларини йўқотади ва ёрдамчи сўзлар қаторидан ўрин олади; бу ёрдамчи сўзлар кейинчалик мустақил сўзларга боғланиб, аввал агглютинатив аффиксларга, кейинроқ эса флектив аффиксларга айланади.

Умуман олганда, тилларда мустақил сўзларнинг ёрдамчи сўзларга ва уларнинг, ўз навбатида, қўшимчаларга айланиш ҳодисаси учраб туради. Туркий тилларда бу ҳозир ҳам давом этмоқда. Масалан, ўзбек тилидаги *Мен талабаман* гапини олсак, ундаги шахс ва сон кўрсаткичининг бевосита мен олмошига алоқадорлиги, шу олмошдан келиб чиққанлигига ҳеч қандай шубҳа йўқ. Бу гапимизга далил сифатида ҳозирги замон бошқирд ва тува тилларини келтириш мумкин. Мазкур тилларда кесимдаги шахс ва сон кўрсаткичини урғу олмаган кишилиқ олмошлари бажаради. Ўзбек тилида бу жараён бирмунча илгарилаб кетган, яъни -ман қўшимчага айланиб, кесимга қўшилиб ёзилади, лекин тува ва бошқирд тилларида бу кўрсаткич гарчи урғу олмаса ҳам, ўз мустақиллигини сақлаб, кесимга қўшилмай ёзилади. Бироқ бу, Шлейхер айтганидек, тиллар уч босқични босиб ўтади, дейишга асос бўла олмайди. Туркий тилларнинг тарихида ўзак даври бўлганлигини исботлайдиган далил йўқ. Лекин айрим тилларда акс жараёни кузатиш мумкин. Масалан, бир вақтлар ички ва ташқи флексияга бой бўлган инглиз, француз тиллари кейинчалик ўзларининг бу хусусиятларини йўқотиб, хитой, бирма тиллари каби гапда сўзларни бири-бирига боғлаш, синтактик муносабатларни ифодалашда қатъий сўз тартиби ва ёрдамчи сўзларни кенг ишлатадиган бўлди. Демак, Шлейхер яратган назария амалда тасдиқланмади.

Таниқли рус олими Ф. Ф. Фортунатов тиллар типологияси мутлак эмас, балки нисбий эканини таъкидлади. У мужассамлантирувчи тилларни типологик системадан четлатиб, тилларнинг тўртинчи тури сифатида флектив – агглютинатив тилларни қўшди ва унга семит тилларини киритди, чунки бу тилларда негиз флексиялари асосий грамматик восита ролини ўтайди. Унинг фикрича, бу тиллардаги ички флексияларнинг негизларга бўлган муносабати агглютинатив тиллардаги аффиксларнинг ўзак ва негизларга бўлган муносабати билан бир хилдир. Америка тилшуноси Э.Сепир морфологик типологиянинг янги системасини яратишга уринди. У тилларни 15 дан ортиқ турга ажратди. Бу тасниф қатор камчиликлари туфайли кўпчиликка манзур бўлмади. Ҳозирги замон тилшунослигида В. Фон Гумбольдт яратган морфологик типология кўпчилик томонидан эътироф этилиб, тилларни тўрт турга ажратиш анъанага айланган. Бу тасниф асосида Гумбольдт системаси ётган бўлса ҳам, уни узоқ вақт сақланиб қолишига Гумбольдтдан кейин яшаб ижод этган тилшунослар ўз ҳиссаларини қўшдилар. Энди тилларнинг ана шу тўрт асосий морфологик турини батафсил кўриб чиқамиз.

Флектив тиллар. Флектив тилларда сўзларнинг морфологик тузилишида флексия асосий ўрин тутиб, у ички ва ташқи турлага бўлинади. Флексияда бир грамматик восита бир неча грамматик маънони ифодалаш учун қўлланиши билан характерланади. Масалан, рус тилидаги *рука* сўзидаги –а окончаниеси бир йўла женский род, бирлик сон, именительный падеж маъноларини ифодалайди. Флектив тилларда аффикслар ўзакдан олдин ҳам (префикслар), кейин ҳам (суффикслар), ўртада ҳам (инфикслар) келиши мумкин. Флектив тилларга, аввало, ҳинд-европа тиллари киради ва улар ўзакда ўзгаришлар юз бериши билан характерланади. Масалан: рус тилида *бегать – бежать, летать – лечу* ва ҳ.з. Ушбу тиллар аналитик ва синтетик тузилишга эга бўлиб, аналитик тузилишда грамматик маъноларни ифодалашда ёрдачи сўзлар, сўз тартиби ва оҳанг катта рол ўйнайди. Аналитик тузилишли тилларга инглиз, француз, немис, араб ва бошқа тиллар киради. Синтетик тузилишда эса грамматик маънолар сўз шакллари таркибидаги флексиялар – ўзгаришлар, шакл ҳосил қилувчи суффикслар ва префикслар орқали ифодаланади. Синтетик тузилишли тилларга рус, поляк, белорус, литва ва бошқа тиллар киради. Бундай тилларда турловчи ва тусловчи қўшимчалар бирнеча турли бўлади.

Нутқда сўзлар орасидаги синтактик муносабатлари асосан флексиялар асосида амалга оширилади. Аналитик флектив тилларда, гарчи флексиялар бўлса ҳам, уларнинг миқдори катта эмас, гапдаги сўзлар орасидаги синтактик муносабат кўпроқ сўз тартиби ва ёрдамчи сўзлар воситасида амалга оширилади. Шунинг учун антик тилларда сўз тартиби қатъий, ҳар бир гап бўлаги ўз ўрнида туриши шарт. Аналитик флектив тилларга инглиз,

франсуз тиллари каби тиллар киритилади. Бу тилларда одатда гапнинг эгаси биринчи ўринда (кесимдан олдинги ўринда), кесим иккинчи ўринда (егадан кейинги ўринда), агар кесим ўтимли феъл билан ифодаланган бўлса, унда учинчи ўринда (кесимдан кейин) тўлдирувчи туради. Аниқловчининг ўрнини олдиндан белгилаб бўлмайди. У доимо от билан боғланган бўлади; аниқланмиш қаерда бўлса, аниқловчи ҳам шу ерда бўлади; у эга вазифасини бажараётган сўздан олдин ҳам, қўшма от кесимнинг от қисми вазифасида келган отдан олдин ҳам туриши мумкин. Ҳол эса маъносига кўра гапда турли ўринларни эгаллаб туриши мумкин. Шундай қилиб, сўз тартиби тўғрисида гап борганда эга, кесим ва тўлдирувчининг гапдаги ўрни назарда тутилади. Синтетик флектив тилларда сўз тартиби нисбатан эркин бўлади.

Тилларнинг **иккинчи морфологик типи** – **агглютинатив тиллар** бўлиб, агглютинация (ёпиштириш) – сўзнинг ўзак-негизига аффиксларни муайян кетма-кетликда (ўзакдан кейин) қўшиб борилиши ва бунда ҳар бир аффикснинг алоҳида грамматик маънони ифодалашидир. Агглютинатив тилларда ҳар бир морфема ўз маъно мустақиллигини сақлаб қолади. Масалан, бошқирд тилида:

им. падеж ед. числа *баш (голова)* — мн. числа *баш-лар (голови)*

род. падеж ед. числа *баш-тын (голови)* — мн. числа *баш-лар-тын (голов)*

вин. падеж ед. числа *баш-ты (голову)* — мн. числа *баш-лар-ты (голови)*.

Агглютинатив тиллар учун ўзак таркибида товуш ўзгаришлари юз бериши характерли эмас. Уларда турланиш ва тусланиш одатда бир хил типда бўлади. Бироқ ушбу тилларда ҳам ўзига хосликлар кўп учрайди. Ушбу тилларга туркий тилларни мисол сифатида келтириш мумкин.

Тиллар морфологик тузилишининг **учинчи типи** — **аморф – ўзак тиллар** деб аталиб, улар сўз ўзгариш тизимини мавжуд эмаслиги билан характерланади. Масалан, хитой тилида *ча — чай, во — я, бу — не, хэ — пить* маъносини билдиради, бироқ ушбу сўзлар *ча во бу хэ* тартибида бирикканида *я не нью чаю* (буквально *чай я не пить*) маъносини билдиради. Формал кўрсаткичлар – аффиксларнинг мавжуд эмаслиги ушбу тилларда аналитик воситалар – ёрдамчи сўзлар, гапда сўз тартиби, оҳанг кабиларнинг етакчилик қилишига олиб келган. Ушбу тилларда морфологик шаклларни ҳосил қилувчи воситалар бўлмагани ва уларда сўз шакли ўзакка тенг бўлгани учун улар аморф — ўзак тиллар деб юритилади. Бундай тилларга хитой, вьетнам каби тиллар киради.

Тилларнинг **тўртинчи морфологик типи** — **полисинтетик тиллар** деб аталаб, уларнинг асосий тузилиши хусусияти гап таркибида сўзларнинг бирикиб, худди қўшма сўзлар сингари қўшиб ёзилишидир. Натижада бундай тиллар ҳеч қандай морфологик кўрсаткичларсиз боғланадиган бир бутун синтактик қурилмалардан иборат бўлади. Ушбу синтактик қурилмалар эгадан бошланиб кесим билан тугайди, гап ўртасида эса тўлдирувчи, аниқловчи, хол

бўлаклари жойлашади. Масалан, чуқот тилидаги *тыатакаанмыркын* мураккаб синтактик курилмасида *ты — я, ата — жир, каа — олень, нмы — убивать, ркын — делать* сўзлари ўзаро бириккан ҳолда *Я жирных оленей убиваю ёки Мен семиз кийикларни ўлдирияман* маъносини ифодалайди.

Демак, бу ўринда *я-жир-олень-убив-делай*. сўзлари алоҳида сўзлар эмас, балки мазмунан боғланган гап бўлаклари бўлиб келмоқда. Полисинтетизм ҳодисаси ҳинду тилларига, шимоли-шарқий Осиёдаги чуқот, коряк, камчадал каби тилларга хосдир.

Тилларнинг генеологик таснифи. XIX асрнинг 50-60 йилларида файласуф В. фон Гумбольдтнинг шогирди тилшунос Август Шлейхер тилларни таснифлаш билан шуғуллана бошлади. Бунда қиёсий-тарихий метод асосида тилларнинг қариндошлик муносабатлари аниқланади, қариндош ва қариндош бўлмаган тилларга, қариндош тиллар эса тил оилаларига ажратилади. Қариндош тиллар деб, битта манбадан келиб чиққан, фонетик ўхшашлик, умумий ўзак ва қўшимчалар топилган тилларга айтилади. Олимларнинг фикрича, тиллар қадимдан умумий ўзак, қўшимчалар, фонетик қурилишига кўра битта ўзак тилдан (олимлар уни праязык, боботил деб атаганлар) ҳосил бўлган. Тилларни генеологик жиҳатдан тасниф қилиш дастлаб ҳинд-европа тиллари билан ҳиндларнинг қадимги адабий тили – санскрит ўртасида муштараклик аниқлангач ва қиёсий-тарихий метод юзага келгач бошланди. Тилларнинг генетик таснифида турли тиллардаги нутқ товушлари, бўғин тузилиши, ўзак ва қўшимчалар тузилишини қиёслаш, ўзаро ўхшаш сўз ва сўз шаклларини таҳлил қилиш орқали тарихий ва энг қадимий умумий шаклларни аниқлашга қаратилди. Генеологик тасниф қариндош тиллар оилалари ва улар асосида турган бобо тилни аниқлаш имконини берди.

Тилларнинг генетик жиҳатдан оилаларга тақсимлаш тарихий-қиёсий метод асосидаги далилларга таянади. Тиллар орасидаги қариндошлик яқин ва узоқ бўлиши мумкин. Оила деб ўзаро қариндош бўлган барча тиллар тўпламига айтилади. Оила ичидаги гуруҳлар тармоқларга, улар эса гуруҳлар ва гуруҳчаларга бўлинади. Шу тарзда бир оила таркибиган кирадиган тиллар узоқ ёки яқин қариндошчилик муносабатида бўлиши мумкин. Жумладан, рус тили ҳинд-европа тиллари оиласининг славян тиллари тармоғи таркибидаги шарқий славян тиллари гуруҳига мансуб бўлиб, мазкур гуруҳга кирувчи украин, белорус, поляк тиллари билан яқин қариндошчилик муносабатида, ҳинд-европа тиллари оиласидаги роман-герман тиллари тармоғидаги француз, немис тиллари билан узоқроқ, ҳинд, форс тиллари билан эса энг узоқ қариндошчилик муносабатида.

Ҳинд-европа тилларининг умумий жиҳати шундаки, уларнинг барчаси флектив тиллар ҳисобланади. Бу уларнинг барчасида мавжуд

умумий ўзак сўзлар (*мать, брат, овста, сердце, писать, два, три* каби), умумий аффикслар, товуш ўзгаришларининг мослиги орқали аниқланган.

Тилларнинг асосий оилалари. Ҳозирги кунда тилшунослар томонидан 20дан ортиқ тил оилалари аниқланган бўлиб, уларга орасида энг кўп ўрганилганлари қуйидагилар:

1. Ҳинд -Европа тиллари оиласи.
2. Хом-сом тиллари оиласи.
3. Олтой тиллар оиласи.
4. Угор-фин тиллари оиласи.
5. Кавказ тиллари оиласи.
6. Хитой-Тибет тиллари оиласи.
7. Дравид тиллари оиласи.
8. Индонезия тиллари оиласи ва бошқалар.

I.Ҳинд -Европа тиллари оиласи гаплашувчилар сонига кўра энг йирик ва тўлиқ ўрганиб чиқилган оила ҳисобланади. Ҳинд-европа тиллари жаҳонда энг кўп тарқалган оила бўлиб, улар Европанинг катта қисмида, Осиёда (Ҳиндистонда), Америкада, Австралияда, Африкада кенг тарқалган. Ҳатто эрамиздан олдинги IV асрларда яшаган қабилалар ҳам бу тилда гаплашишган деган фикрлар мавжуд. ҲиндҲинд-европа тиллари оиласи 12 тармоқдан иборат бўлиб, улар таркибига ҳиндустони, эрон, славян, болтиқ, герман, роман, келрт, грек (юнон), албан, арман каби 100 дан ортиқ жонли, тирик тиллар, шунингдек, ўлик тиллар ҳисобланувчи анатолий ва тоҳар гуруҳи киради. киради. Хет тили – энг қадимги ёзувли ҳинд-европа тилидир. Ушбу тил оиласи тармоқларидан айримларига тўхталиб ўтамиз:

1.Ҳиндустони тиллар тармоғига ҳинд, урду, бенгал, маратхи, панжоб, ражостони, гужарати, ўрия, лоли, синдои каби жами 96 та тиллар, шунингдек, ўлик тиллардан санскрит, нажи, прокрит каби тиллар киради.

2. Эрон тиллари тармоғига эса форси, афғон, курд, тожик каби 10та тирик-жонли тиллар ва авесто, паҳлавий, сўғд, хоразмий, скиф, парфён каби кўплаб ўлик тиллар ҳам киради.

3. Славян тиллари тармоғи ўз ичида 3та гуруҳга – шарқий славян, ғарбий славян ва жанубий славян тиллари гуруҳларига бўлинади. Шарқий славян гуруҳига рус, украин ва белорус тиллари, ғарбий славян гуруҳига чех, словак, поляк, кашуб ва лужиц тиллари, шунингдек, полаб ўлик тили, жанубий славян гуруҳига болгар, серб-хорват, македон ва словен тиллари, шунингдек, қадимги славян ўлик тиллари киради.

4. Болтиқ тиллари тармоғи кам сонли бўлиб, уларга бор-йўғи 2 та: латиш ва литва жонли тиллари киради.

5. Герман тиллари тармоғи 2 гуруҳга – шимолий герман ёки скандинав ҳамда ғарбий герман тилларига бўлиб ўрганилади. Шимолий герман тиллари гуруҳига дания, швед, норвег, исланд и фарёр тиллари,

ғарбий герман тиллари гуруҳига немис, инглиз, голланд, фриз и янги яҳудий (идиш) тиллари киради.

6. Роман тиллари тармоғи куйидаги 12 та жонли тиллардан иборат бўлиб, улар орасида италян, француз, испан, португал, румин, молдаван, провансал, сардин, каталан, ретро-роман тиллари, шунингдек, лотин, оск, умбр каби ўлик тиллар ҳам киради.

II. Хом-сом тиллари оиласига Араб мамлакатлари ва Африкада яшовчи халқларнинг тиллари киради. Ушбу оила ўз ичига 50 га яқин тил тармоқлари ва гуруҳлар киради.

III. Олтой тиллар оиласи туркий, мўғул, тунгус-манжур тиллари тармоқларидан ташкил топиб, уларга Осиё ва Кавказ минтақасида яшовчи айрим халқларнинг тиллари киради. Олтой тилларни тадқиқ қилган тилшуносларнинг аксарияти туркий, мўғул, тунгус-манжур тилларининг олтой тиллари оиласига мансублигини далиллар билан кўрсатиб берганлар. Олтой тилларини фин-угор, самодий тиллари билан қардош деб ҳисобловчилар ҳам бор (М.А. Жострен ва бошқа олимлар). Унинг энг катта тармоғи туркий тиллар оиласи бўлиб, 1970 йилдаги маълумотга кўра ер юзида 65 миллион киши туркий тилларда гаплашади. Ҳозирги туркий тиллар таркибига Болқон ярим оролидаги усмонли турк тили, Марказий Осиё ва Шарқий Туркистондаги ўзбек, қозоқ, қирғиз, қорақолпоқ, туркман ва уйғур тиллари; Кавказ минтақасидаги озарбайжон, қомиқ, қорачай, болқар, туруҳман, нўғай тиллари; Волгабўйи ва Уралдаги татар, бошқирд ва чуваш; Сибирдаги ёкут, тува, хакас, кангмажи ва чулин тиллари; шунингдек, Литва, Украина, Крим, Молдавия, Грузияда кўним топган урум, гагаус, крим ва қарайм халқлари тиллари киради.

Ҳозирги вақтда жаҳонда баъзи қандай тил оиласига ёки гуруҳига кирмайдиган тиллар ҳам бўлиб, уларга япон, рюкю, корейс, айм тили (бу тилда сўзловчилар 18 минга яқин бўлиб, улар Япониянинг шимолидаги Хоккайдо оролида ва Курил оролларида яшайдилар), буржаски тили (бу тил гаплашувчилар сони 30 мингга яқин бўлиб, улар Ҳиндистоннинг шимолида яшайдилар ва ҳеч қандай тил оиласи ёки гуруҳига кирмайди).

Шуни таъкидлаб ўтиш керакки, генеологик тасниф ҳар бир тилнинг келиб чиқишини, тарихий-тараққиётини, тилларнинг бири-бирига бўлган муносабатини, ҳозирги ҳолати каби қатор масалаларни ҳар томонлама ўрганишни талаб қилади. Бу ниҳоятда мураккаб, кенг миқёсли бўлгани учун кўпчилик тил оилалари ҳали тўлиқ ўрганиб чиқилган эмас, шунинг учун бу тилларнинг қайси тиллар билан қариндош эканлигини қайси тил оиласи ва гуруҳига мансублиги ҳам ҳали узил-кесил ҳал қилинган эмас.

Назорат саволлари

1. Тиллар қандай белгилар асосида таснифланади?
2. Тилларни таснифлашнинг қандай асосий турлари мавжуд?
3. Арéal ва функциоанал таснифда нималар эътиборга олинади?
4. Тилларнинг типологик таснифи нима учун морфологик тасниф деб аталади?
5. Қандай тиллар аффиксиз (ўзак) тиллар дейилади?
6. Қандай тиллар агглютинатив тиллар дейилади?
7. Қандай тиллар флектив тиллар дейилади?
8. Қандай тиллар полисинтетик тиллар дейилади?
9. Тиллардаги аналитик ва синтетик тузилиш нималарга асосланади?
10. Генеалогик таснифда тиллар қайси хусусиятлари асосида гуруҳланади?
11. Қиёсий –тарихий метод ва унинг тиллар ўртасидаги муносабатни ўрганишдаги ўрни ҳақида гапириб беринг.
12. Тиллар таснифида оила, тармоқ, гуруҳ, боботил тушунчалари нималарни англатади?
13. Дунёда қанча тил оилалари бор ва улардан энг кенг тарқалганлари қайсилар?
14. Тирик ва ўлик тиллар, табиий ва сунъий тиллар, маҳаллий ва адабий тил, миллатлар аро ва халқаро тиллар тушунчаларини тушунтириб беринг.

Таянч ибора ва тушунчалар (глоссарий)

Типология (грек. typos – шакл, намуна, logos - таълимот) бўлиб, тилларни генетик, морфологик ва структурал тасниф асосида турларга ажратиш.

Структурал типология универсалияси – барча тиллар системаларига хос умумий лингвистик категориядир.

Махсус типологик назария – тиллар системаларини типологик тадқиқ қилиш усуллари ҳамда махсус қоида ва методларини яратиш.

Морфологик типология тилларни қариндошлик муносабатларидан қатъий назар грамматик тузилиш асосида турларга ажратишдир.

Тасниф сўзи арабча синф сўзидан олинган бўлиб, гуруҳлаш, синфларга ажратиш маъносини билдиради. Табиий ёки ижтимоий ҳодисаларнинг энг асосий, энг муҳим белгиларини назарда тутган ҳолда гуруҳларга ажратилиши таснифлаш дейилади.

Арéal тасниф – тилларнинг ҳудудий бўлиниши, яъни дунёнинг лингвистик харитасини ўрганади

Генеологик тасниф – тилларни қариндошчилик муносабатлари асосида гуруҳларга ажратиш.

Бобо тил – қариндош тиллар гуруҳининг ўзак тил шакли.

Метатил (эталон тил) турли тил системасини классификация қилиш учун яратилган умумий система.

Тавсия этилган адабиётлар рўйхати

1. Ирискулов М. Тилшуносликка кириш.- Тошкент, 2008.
2. Ирискулов М..Тилшуносликка кириш. -Тошкент, 1992.
3. Содиков А., Абдуазизов.А., Ирискулов М. Тилшуносликка кириш. -Тошкент, 1981.
4. Реформатский А..А.. Введение в языковедение. -. Москва, 2008.
5. Головин Б. Н. Введение в языкознание. - Москва, 1979.
6. Кодухов В. И. Введение в языкознание. - Москва, 1979.
7. Кодухов. В. И. Общее языкознание. - Москва, 2009.
8. Чурилина. Л. Н. Актуальные проблемы современной лингвистики. - Москва, 2009.
9. Шарафутдинова. Н. С. Теория и история лингвистической науки. - Москва, 2007.
10. Расулов Р. Умумий тилшунослик. – Т.: 2006.

ВИЗУАЛ МАТЕРИАЛЛАР


1-савол. Тилларнинг типологик таснифи

1-илова

Тилларни генетик, морфологик ва структурал тасниф асосида турларга ажратиш тилшуносликда тиллар типологияси деб юритилади

Типологиянинг асосий масаласи – умумий типологик метод орқали тил тизимларини қиёсий ўрганиш


Лингвистик типологиянинг асоси бўлган структурал типология турли тилларнинг структурал белгиларини системага солади ва инвентарлаштиради



Структурал типология универсалияси – барча тиллар системаларига хос умумий лингвистик категориядир.


Махсус типологик назария – тиллар системаларини типологик тадқиқ қилиш усуллари ҳамда махсус қоида ва методларини яратиш.

2-савол. Қиёсий-тарихий метод масалалари




3-савол. Генеологик типология асосида тилларнинг гуруҳланиши

5-илова



4-савол. Морфологик типологиянинг асосий вазифаси

6-илова



Ареал тасниф – тилларнинг ҳудудий бўлиниши, яъни дунёнинг лингвистик харитасини ўрганади

Функционал тасниф – тил билан унинг эгалари ўртасидаги муносабатга, тилнинг эгаллаган мавқеси ва бажараётган вазифасига асосланишини ўрганади

8-МАЪРУЗА. ТИЛШУНОСЛИК ТАРИХИ. ҚАДИМГИ ҲИНД, АРАБ, ГРЕК ВА ЎРТА ОСИЁ ТИЛШУНОСЛИГИ. ЕВРОПАДА ТИЛШУНОСЛИКНИНГ РИВОЖЛАНИШИ

РЕЖА:

1. Тилшунослик фанининг келиб чиқиш тарихи.
2. Қадимги ҳинд, грек ва араб тилшунослиги
3. Ўрта Осиёда тилшуносликка оид асарларнинг яратилиши.
4. Ўрта асрларда Европада тилшуносликнинг ривожланиши.

Мақсад: Талабаларда тилшунослик фанининг юзага келиш тарихи, антик давр ва ўрта асрлар тилшунослиги ҳақида тасаввур ҳосил қилиш, қадимги ҳинд, грек, латин тилшунослиги, ўрта асрларда Ўрта Осиё ва Европа тилшунослигининг ривожланиши билан таништириш.

ТИЛШУНОСЛИК ФАНИНИНГ КЕЛИБ ЧИҚИШ ТАРИХИ

Лингвистик таълимнинг вужудга келиши ва ривожланиш жараёни жуда секин ва узок давом этиб, қарийб уч минг йиллик тарихни ўз ичига олади, аммо у фақат XIX-XX асрларда фан сифатида шаклланди. Тилнинг яратилишида ҳам ўтмишда яшаган ва ижод этган жуда кўп мутафаккирларнинг иштироки бор. Уларнинг фаолияти туфайли тилшунослик барча фанлар сингари талайгина илмий меросга эга бўлган. Бунинг камида икки аҳамияти бор: биринчидан, ўша фаннинг ҳозирги, ҳолати унинг ўтмишдаги ривожланиш босқичлари билан боғлаб ўрганилганидагина у ёки бу назариянинг, қонун-қониданинг нима учун ҳудди ҳозиргидай шаклланганлигини тушуниш мумкин.

Иккинчидан, фан тарихини билиш турли олимлар томонидан илгари сурилган назария ва фикрларни тўғри баҳолаб, йўл қўйилган ҳатоларни такрорламаслик учун ёрдам беради.

Ўтмишда ижод этган файласуф ва тилшуносларнинг айрим фикрлари ёки илмий йўналишлари ҳозирги замон ғояларига мос келмаслиги, баъзан эса зид бўлиши мумкин. Аммо бу ҳол шундай меросни тарихий далил сифатида унутиб юборишга асос бўла олмайди. Фақат буларни танқидий нуқтаи назардан ўрганиш керак. Бунда ҳар бир асар ва унинг муаллифининг ўткинчи, реакцион жиҳатларига қараб эмас, балки унинг фанга, жамият тараққиётига қўшган ҳиссаларига қараб, унинг ижодидаги илғор хусусиятларига қараб, унинг фаолиятига оқилона баҳо бериш керак.

Тилшунослик фани ҳам бошқа фанлар сингари узок, баъзан зиддиятли йўлни босиб ўтган ижтимоий фандир ва бу йўлни илмий асосда ёритиб

бериш учун тилшунослик фанини асосий уч даврга бўлиш мумкин: қадимги асрлардаги, ўрта асрлардаги ва янги асрлардаги тилшунослик каби тарихий-хронологик даврларга бўлиш лозим. Аммо бундай даврлаштириш тилшуносликнинг тарихий босқичларини тасвирлашда ягона йўл ҳисобланмайди. Чунки илмий йўналишлар, оқимлар, мактаблар фан тарихида улар ривожланган жўғрофий минтақалар номи билан, масалан: Ҳинд тилшунослиги, Москва, Ленинград, Қозон, Ироқ, Бағдод лингвистик мактаблари ва бошқалар ёки уларнинг туб моҳиятини ифодалайдиган қиёсий-тарихий, тилшунослик, натурализм, психологизм ва бошқалар, ёки элат ва миллат номи билан юритиладиган ҳодиса, масалан: славянистика, полонистика, русистика, туркология, араб тилшунослиги, ҳинд тилишунослиги ва бошқалар. Қайси тил қандай номланмасин, уларнинг вақт жиҳатдан олдинроқ шаклланганлари кейингилари учун замин яратган ва улар бошланғич манба бўлиб қолаверган.

Тил ҳақидаги фан тилшунослик ёки лингвистика деб юритилиб, Ўрта Осиёда XI-XV асрларда, Европада эса XIX асрнинг бошларидан бошқа фанлар қаторида мустақил фан сифатида тан олинган. Аммо одамлар ичидаги саводли кишиларнинг, ўз замонларидаги олимларнинг тилга нисбатан қизиқишлари анча илгари бошланган. Қадимги даврларда тилга оид масалалар одатда бошқа муаммолар, масалан, фалсафа, мантиқ, тасаввуф, мусиқа, ҳатто табиий фанлар билан қўшилиб кетган эди. Бу фанлар тилшунослик фанининг мустақил шаклланишига замин яратган эди. Бу шаклланиш даври ҳозирги кунгача бир қанча тарихий йўлларни босиб ўтган, масалан, эрамиздан тахминан уч минг йил олдин Ироқ, Туркия, Сурия ва Эрон мамлакатларининг қадимги номи Месопотамия шумер халқларининг мамлақати бўлган, икки минг йил илгари мисрликларда тилшунослик вужудга келган ва ниҳоят, эрамизнинг биринчи минг йиллигининг бошида турон қабилаларининг марказлашганликлари туфайли турон қавмининг тили вужудга келди ва уларнинг ёзма тиллари шаклланди.

Бу тилларда жуда мураккаб идеографик, кейин бўғин ва ҳарф ёзуви пайдо бўлган. Шу пайтдан бошлаб эса ёзув ишларини олиб борадиган котиблар мактабларда болаларга (барча ёшдагиларга ҳам) ёзув ўргатган. Шунини таъкидлаш лозимки, ёзув таълимини ўргатишни грамматик билимларсиз амалга ошириш мумкин эмас эди. Демак, шумерлар, мисрликлар ўз тилларини чуқур билган эканлар. Олимларнинг фикрича, эрамиздан олдинги VII асрларда Месопотамияда сопол тахтачаларга ёзилган мих ёзувлари кутубхонаси топилган. Қизиғи шундаки, бу ёзувларнинг орасида алифболар, луғатлар каби ўқув қуроллари ҳам топилган. Ўша пайтлардан бошланган хунрезликлар, босқинчилик, турли-туман уришлар ва сиёсий-маънавий инқирозлар қабила ва халқларнинг

иктисодий ҳамда маданий ривожига катта тўсиқ бўлиб қолаверди. Маълум бир даврда билимларнинг, шу жумладан, тилшуносликнинг авлоддан авлодга, поғонадан поғонага ўтиш жараёни ниҳоятда сусайган. Қадимги Мессопотамия, Мисрда шаклланган тилшуносликнинг кўпчилик қонун-қоидалари бу уруш ва вайронагарчиликлар туфайли кейинги авлодга етиб келмаган. Босқинчилик, урушлар туфайли вайронагарчиликларни сезиларли даражада ўз бошидан кечирмаган Греция, Ҳиндистон, бу тоифага Қадимги Ўрта Осиё каби мамлакатларда яратилган тилшуносликнинг кўпчилик анъаналари бизгача етиб келган.

Эрамиздан олдинги VI асрларда Хитойда замонасининг машхур файласуфи Конфуций (554-449й) ёзган солномаларда қадимги хитой ёзма ёдгорликларнинг грамматик таҳлили берилган. Бу асарлар “Баҳор ва куз” деб аталиб, унда эрамиздан олдинги 722-481 йиллар орасидаги даврлар акс эттирилган. Қадимги хитойликлар эрамиздан 10 аср илгари луғат тузганлар, эрамизнинг бошларида эса улар синонимлар луғати ҳам тузганлар. Кўрсатилган далиллар одамларнинг тилшунослик фани билан жуда қадимдан шуғулланишига қарамасдан, улар тилшунослик фанининг предметини яратиш учун асосий замин бўла олмаганлигини кўрсатади.

Тилшунослик фанининг энг қадимги манбалари икки минтақада, ўзига хос икки хил маданият ўчоғида вужудга келган. Булар қадимги Ҳиндистон, Қадимги Греция, қадимги Римлардир. Шунинг учун тилшунослик тарихининг қадимги даври нафақат қадимги ҳинд, қадимги грек, қадимги лотин, балки қадимги Мессопотамия ва қадимги Миср филологиясини ҳам қамраб олади.

Лингвистиканинг илм сифатидаги тараққиётини спираль шаклида тасаввур қилиш одат тусидаги бир ходисадир. Жамиятнинг тараққий элиши туфайли тилшуносликда янгидан-янги ўзгариш ва ютуқлар ҳамда, ўз навбатида, ечими мураккаб бўлган вазифа ва муаммолар вужудга кела бошлади. Вужудга келган янги талқин ва таҳлиллар тилшуносликнинг предметини аниқлаш бўйича ҳосил бўлган натижалар асосида тил ўрганишнинг янги методлари вужудга кела бошлади.

Агар қадимги классик фан тилни бир ягона шакл сифатида тасаввур қилиб, унинг фалсафий ва мантиқий фикрлаш таҳлилинини тушунтирадиган бўлса, қиёсий-тарихий тилшунослик тилнинг генетик яқинлиги нуқтаи назардан келиб чиқишини тушунтириб, таҳлил қилиб беради. Мантиқий мактаблар борлиқни тафаккурдаги умумбашарий деб тасаввур қилса, хусусий тилшуносликда тилнинг миллий шаклланганлигини, психологик мактаблар тилдаги тафаккур, тушуниш муаммоларига ҳамда тўпланган айрим далилларнинг семантик таҳлилига мурожаат қилганлар. Бу эса ўз

навбатида, тарихий ва мантикий, нутқ ва тафаккур, ижтимоий ва шахсий муаммоларни олимлар олдига кўндаланг қилиб қўймоқдир.

“Ёш грамматикачилар” мактабининг вакиллари тилнинг икки хил фаолиятини, яъни бири тилнинг индивидуал психологик фаолияти бўлиб, у тилда бўладиган ҳодисаларнинг аналогиясига асосланишидан иборат. Аналогия эса ассоциация орқали юз берадиган психик ҳодисалардан келиб чиқади. Иккинчиси эса тил фаолиятидаги физиологик ҳодисалар – бу эса тилдаги фонетик ўзгаришларда ўз аксини топади. Улар асосан тилнинг фонетик хусусиятларига эътибор бериб, тилнинг морфологик хусусиятларига кам эътибор қаратишади, тилнинг синтактик хусусиятларига эса деярли қўл урмаганлар.

Неограмматикачилар, яъни грамматикадаги янги йўналишлар, тилнинг ижтимоий ҳолатини, айниқса унинг ҳозирги ҳолатини таҳлил қилиш тарафдорлари бўлишган. Шунини таъкидлаб ўтиш лозимки, илм-фаннинг тараққиёти атроф-муҳит (объект) тараққиёти билан ёнма ён, елкама-елка, баъзида ундан ўтиб кетиши бу тилшунослик фанининг доимий тараққиётдалигидан далолат беради. У бир жойда тўхтаб қолмайдиган, ривожланиб бораётган, доим олдинга ҳаракат қилиб, ўсиб бораётган жараён дир.

ҚАДИМГИ ҲИНД ТИЛШУНОСЛИГИ. ПАНИНИ ГРАММАТИКАСИ

Қадимги Ҳиндистон жаҳон тилшунослигининг маркази, бешиги деб тан олинган, чунки тилга бўлган қизиқиш ва тилга оид ҳодисалар билан илк бор Ҳиндистонда қизиқишган, яъни ҳинд олимлари, файласуфлари тил муаммолари билан шуғулланганлар. Қадимги Ҳиндистонда адабиёт ёдгорликлари – ведалар бўлиб, улар милоддан олдинги VI асрдан олдинроқ пайдо бўлган. Ведалар тўғрисида яратилган асарлар индуизм динининг асосий муқаддас китоблари бўлиб, бугунги кунгача сақланиб келинган ва улар ўз моҳиятларини ҳанузгача йўқотмаган. Энг қадимги ведалардан бири – бу “Ригведа” бўлиб, ведаларнинг мадҳияси ҳисобланади. Ўзининг ҳажми билан бу улуғ китоб Гомернинг “Илиада” ва “Одиссея” китобларининг қўшиб олинган ҳажмига тўғри келади. “Ригведа” юқори савияда битилган ва турли шеърый услубда ёзилган (1028 сатрли) лирик асар дир.

“Ригведа” тили ведалар тили деб аталиб, пухта ишланган қадимги ҳинд тили **санскрит** тилида ёзилган асар дир (бу тил қадимда ва ҳозирги кунда ҳам миллиондан ортиқ ҳиндларнинг диний, адабий ва мулоқот тили ҳисобланади). Бу тил канонлаштирилган брахманларнинг адабий – ёзув тили дир ҳамда жонли оғзаки халқ тили – **прокрит** оддий, табиий тил бўлиб,

олимлар, ёзувчи, шоирлар, диний арбоблар ва барча саводлилар тилидир. Санскрит тилини канонлаштириш мақсадида грамматика фани яратилиб, у илмда эмпирик (амалий) ва прагматик (тасвирий) маъно шаклларида қўлланилади.

Баъзи манбаларнинг далилларга қараганда ҳамда тадқиқотчиларнинг фикрича, қадимги Ҳиндистонда тил билан шуғулланиш дастлаб соф амалий аҳамиятга эга бўлган: давр ўтиши билан қадимги ёзма ёдгорликларнинг турли ўзгаришларга учраган сўз ва қўшимчаларни қайта тиклаш, изоҳлаш лозим бўлган. Ҳинд олимлари эрамиздан олдинги XV асрда (баъзи манбаларга қараганда эрамиздан олдинги 45-25 асрларда) ёзилган ведаларни⁷ (10 қисмдан иборат диний мадҳиялар – гимнлар, диний қўшиқлар ва афсоналар тўплами) ҳамда эрамиздан олдинги биринчи минг йилликда ёзилган санскрит⁸ ёдномаларини ўрганиб таҳлил қилганлар.

Ҳинд олимлари ведалардаги маъносини тушуниб бўлмайдиган атамаларнинг изоҳли луғатини тузишган, матнларни фонетик ва морфологик нуқтаи-назардан таҳлил қилганлар. Бу асар тарихий ёдгорликларнинг унутилган, истеъмолдан чиқаётган, шунингдек, жонли тил (прокрит)⁹ таъсирида ўзгариб кетган ўринларни қайтадан тиклаш имконини берган. Улар қадимги адабий тил бўлган веда ва санскритда ёзилган матнлардаги сўз ва атамаларнинг ўхшаш шаклларига эътибор бериб, ҳар бир сўзнинг синонимик шаклларини бир-бирига қиёслаб, уларни ўхшаш ва ноўхшаш қисмларга ажратганлар. Натижада, бир томондан, сўз шакллари учун умумий бўлган ўзак ва негиз, иккинчи томондан, сўздаги ўзгариб турадиган қисм – сўз ясовчи ва ўзгартирувчи аффикслар аниқланган. Шу тариқа сўз ёки сўз шакллари амалда бирламчи элементларга (ҳозирги атама билан морфемаларга) ажратилган. Шунинг учун қадимги ҳинд олимлари грамматикани **вьякарана** (ажратиш, таҳлил) деб атаганлар.

Товушлар таснифи физиологик асосда шаклланганлиги аниқ изоҳланган бўлиб, нутқнинг асосий аъзоси товуш артикуляцияси ва

⁷ *Ведалар* (санскрит тилида *veda* “билим” (қаранг русча “ведать” билим) қадимги ҳиндларнинг диний-фалсафий таълимоти ведизм қонун-қоидаларини ифодалаган. Ведизм инсоннинг жони барча жондорларнинг ибтидоси ҳисобланган “жаҳон руҳи” (“брама” ёки “брахма” – *brahma*) билан бирлашади, унга қайтиб боради деб ҳисоблайди. У кейинчалик, яъни эрамиздан аввалги X-IX асрларда браманизм (ёки “брахманизм”) деб аталган.

⁸ *Санскрит* атамаси *санскрита* “ишланган”, “мукамал”, “сунъий” сўзини англатиб, кенг маънода веда тилини, эпик асарлар эпик санскрит ва классик санскритни ўз ичига олган.

⁹ Прокрит – “оддий”, “табиий” деган маънони билдиради.

артикулятор (**karana**) ёрдамида вужудга келади. Уларда унли товушлар мустақил фонетик элемент ҳисобланади, чунки улар бўғиннинг асосини (негизини) ташкил қиладилар.

Ҳинд тилшунослиги фан сифатида ўзининг энг тараққий этган даври деб милоддан олдинги IV асрда ижод қилган улуғ олим Панини даврини ҳисоблайди. Унинг “Аштадхъян” грамматик қоидалар мужассамланган саккиз қисмдан иборат асари 3996 шеърий қоидадан иборат бўлиб, хотирада яхши сақлаб қолиш учун қулай тартибда баён қилинган. Сўзларни туркумларга ажратиш масаласида олимлар орасида ягона фикр мавжуд эмас. Баъзилари тўртта сўз туркумини ажратишса, баъзилар уни учта деб ҳисоблашади. Аммо кўпчилик олимлар, масалан: Панини 4та сўз туркумини ажратишни маъқул топган. Булар: от (патан), феъл (akhyata), олд қўшимча (upadarda) ва юклама (pipata).

Панини (қадимги ҳиндларнинг машҳур тилшуноси) ва унинг издошлари санскрит тилидаги қўшма сўзларни кенг қўламда тасвишлаб, классификация (тасниф) қилишган, ҳозирги классификациялар ҳам ўша замондаги классификацияга ўхшайди.

Қадимги ҳинд грамматикачилари сўз гапдан ташқарида, алоҳида маъно билдирувчи белги эмас, гап тилнинг асосий бирлигидир, деган фикрни олға сурганлар. Бу даврдаги ҳинд олимлари фонетикани жуда чуқур ўрганганлар ва шу туфайли, улар яратган фонетик қонун-қоидалар анъанавий равишда авлоддан-авлодга ўта бошлаган ва ҳозирги замон тилшунослиги ҳам бу анъаналарга таянган ҳолда ривожланиб бормоқда. Ҳиндлар бўғин тузилиши тўғриси ҳам кўп фойдали фикрлар юритганлар. Улар унли товушларни мустақил қўллана оладиган, аммо ундошларни мустақил қўллана олмайдиган элементлар дейишган. Ҳиндлар мусиқий урғуга катта эътибор қаратганлар. Ҳинд олимлари фонема тушунчасини таҳлил қилганлар, аммо XIX асрга келиб Европа тилшунослигида фонема тўғрисида тўлиқ тушунча ва таълимот И.А.Бодуэн де Куртене ва Н.В. Крушевскийларнинг асарлари туфайли аниқ фан сифатида тан олинган.

Шундай қилиб, қадимги ҳинд тилшунослари жаҳон тилшунослигига катта ҳисса қўшган ва ўз таъсирини кўрсатган. Уларнинг таълимотлари қадимги Эрон тилшунослиги (Мессопотамия) орқали қадимги Грек тилшунослиги, Сурия орқали Араб тилшунослигига таъсир қилди.

Ҳинд тилшунослиги Европага фақат XVIII асрда етиб келган. Аммо Ҳинд тилшунослиги Ўрта Осиёга анча илгари маълум бўлган, масалан: санскритни яхши билган машҳур олим Абу Райҳон Беруний (X-XI асрлар) ўзининг Ҳиндистонга бағишлаган асарида ҳиндларнинг нозик табиатли ва

дидли файласуф, тилшунос, шоир эканликларини қайд қилган. Маҳмуд Қошғарий, Аҳмад Яссавий, Алишер Навоий ва Мирзо Бобурлар филологик фаолиятларининг шаклланишига ва уларнинг оламшумуллик даражасига чиқишига қадимги ҳинд олимларининг асарлари, айниқса тилшунослиги катта таъсир кўрсатган.

ҚАДИМГИ ЮНОН ВА ЛОТИН ТИЛШУНОСЛИГИ

Қадимги Юнонистон ҳам дунё ва, айниқса, Оврупо тилшунослик фанининг маркази ҳисобланиб, унинг фалсафа ва илмда тилшунослик масалалари фалсафа ва грамматика нуқтаи-назаридан ҳал қилинган. Қадимги Юнонистон кўпгина фанларнинг, шу жумладан, тилшуносликнинг дастлабки бешикларидан биридир. Юнон маданияти, тарихи ва фани бошқа халқларникидан ажралиб қолмай, уларнинг бу даражага етишига қадимги мисрликлар, шумерлар, финикияликлар, қадимги эрон ва туркий халқлари (турон халқлари)нинг таъсири сезиларли бўлган. Буни аввало ёзув масаласида кўриш мумкин.

Масалан: қадимги Миср ёзуви финикияликлар орқали грекларга ўтган ва греклар бу ёзувни ўз тилларига мослаштириб олганлар. Қадимги грек олимлари умумий тилшуносликнинг шаклланиши ва тараққиётига катта ҳисса қўшганлар. Қадимги Юнон олимлари қадимги Ҳинд олимлари сингари матнларни таҳлил қилишда, уларга изоҳ беришда улардан фонетика ва грамматика фанларини яхши ўрганиш талаб қилинган. Шу сабабли қадимги грек тилшунослиги тараққиётини ўрганиш шартли равишда икки даврга бўлинган (яъни шартли икки нуқтаи-назардан ёндашилган): 1. Фалсафий ёндашиш. 2. Грамматик (ёки филологик) ёндашув.

Антик даврда қадимги грекларда мавжуд бўлган барча билим тармоқларини ўз ичига олган фалсафа ягона ва яхлит фан бўлган. Александр Македонскийнинг ҳарбий юришлари ва ғалабалари туфайли Шарқий Ўрта Ер денгизи, Ўрта Шарқ, Қора денгиз оролининг атрофлари ҳамда ҳозирги Европа минтақаларида грек маданияти ва илми кириб келган. Айниқса, бу жараён филологиянинг тараққиёти. Кичик Осиёнинг Пергам ва Мисрдаги Искандария шаҳарларида ривожлана бошлаган. Оламшумул Александрия кутубхонасида 700 минг жилдга яқин китоб бўлган. Уларнинг кўпчилигини грек адабиёти ва фани бўйича китоблар, қолганлари Шарқ адабиётидан таржима қилинган асарлар бўлган. Мазкур масканда улуғ шоир, ёзувчилар, матнчилар, ҳамда грамматикачи ижод қилишган.

Уларнинг олдига қўйилган дастлабки вазифа, яъни илмий-амалий мақсад қадимги грек матнларини, айниқса, Хомер асарларини ўрганиш эди.

Эллинизм даврида филологлар қўлёзмаларни тўплаш ва ўрганиш билан шуғулланиб, мавжуд адабиётлар матнини талқин қилиш (бу экзегезой деб аталган) бу, таҳлил ёки тасниф деган атамаларни вужудга келтирган.

Бу яхлит фалсафий фан илмий билим куртаклари (негизи) билан санъат ва мифологиянинг (мифология - афсоналарни ўрганадиган фан) ажралмас алоқаси тўғрисидаги фан эрамиздан олдинги VI асрда пайдо бўлган. Шунинг учун барча дунёқарашларнинг кейинги даврлардаги турлари антик фалсафа негизида куртак ёзган. Эрамиздан аввалги VI-V асрларда антик дунё файласуфлари тилга фалсафанинг ажралмас бир қисми сифатида қараб, тил ҳодисаларининг моҳиятига фалсафий нуқтаи-назардан қараганлар. Файласуфларнинг фикрини банд қилган табиий ва жамиятдаги боғланиши, мослик “гармония” (яъни монандлик, мослик, уйғунлик) ҳақидаги таълимот сўз билан предмет ўртасидаги муносабатни қандай изоҳлаш лозимлигини белгилар эди. Сўзларнинг тўғрилиги, уларнинг моҳияти тўғрисида фикрлар машҳур файласуфларнинг орасида бўлган мунозара ва мушоирларда ўз аксини топарди. Бунда баъзи бир файласуфлар предметлар ва уларни англатувчи сўзлар орасидаги боғланиш табиат томонидан берилган табиий ҳодиса деб билганлар, яъни уларнинг фикрича, барча мавжудотларнинг табиат томонидан берилган ўзига муносиб тўғри номлари бор. Бу мунозара, яъни сўзларнинг (отларнинг) “тўғрилиги” ҳақидаги мунозаралар Платоннинг (эр.ав. 427-347) “Кратил” номли асарида батафсил берилган. Бу асарда Гермоген ва Кратил орасидаги баҳслашув берилади. Кратилнинг фикрича, грек ва бошқа барча тилларда ҳар ном (от) предметнинг ўзига, табиатига мосдир.

Бу масала бўйича Гермоген замондоши мутафаккир файласуф Сократни (эр.ав. 469-399) баҳсга тортади ва унинг бу масала бўйича фикрини билмоқчи бўлади. Аммо Сократ Кратилни ёқлаб айтадики, ҳеч ким ўз ихтиёри билан сўзни ўзгартира олмайди ва отни одам деб ёки аксинча номлай олмайди. “Қурол бирор ишни ишлашга мувофиқ бўлгани сингари – дейди Сократ, - сўзлар ҳам ўзлари англатган нарсаларга мувофиқ бўлишлари керак, демак, улар энг бошданок маълум тўғрилиқка эга: ҳар ким янги сўзларни ярата олмайди: сўз яратишни ва нарсаларнинг табиатини биладиган кишигина буни англай олади”. Демак, от, ном Оллоҳ томонидан берилгани рост экан.

Стоицизм “пешайвон” сўзидан олинган бўлиб, унинг асосчиси Китионли Зенон (336-264) бўлган. Стоиклар ўз асарларида тил кишиларнинг руҳида табиат талабига кўра пайдо бўлган ҳамда сўз

предметнинг табиий хусусиятини ифода қилади, деб фикр юритишган. Улар сўзловчи гапирганида сўз орқали у (сўзловчи) предметнинг табиати ҳақида қандай таассуротда бўлса, эшитувчида ҳам худди шу хусусиятлар ҳақида таассурот туғилади, деб ўйлаганлар.

Стоиклар тилнинг пайдо бўлишини товушга тақлид қилиб сўзлаш (ономатопея) назариясини олдинга сурганлар. Уларнинг фикрича, сўзнинг товуш таркиби билан сўз англатган предмет орасида қандайдир ички ўхшашлик, мослик бўлганидан, товуш таркибида предметдан ҳосил бўлган тасаввур ҳам акс этади. Масалан: ширин, ёқимли, хушбўй нарсаларнинг номлари юмшоқ эшитиладиган товушлардан тузилган бўлади. Аксинча, аччиқ, ёқимсиз, бадбўй нарсаларнинг номлари дағал товушлардан ташкил топган бўлади.

Шу таълимот асосида стоиклар сўзларнинг этимологияси билан шуғуллана бошлаганлар. Бу эса ҳақиқий илмий этимологияга мос эмас эди. Стоикларнинг фикрича, сўз ўзаги тушунчаси хиндлар тушунган маънода ёки ҳозирги маънода бўлмаган, чунки сўз ўзаги деб предметнинг табиатини, моҳиятини ифодалайдиган ҳарф (ёки товуш)лар тушуниланган. Қадимги грек стоиклар назарияси тилшуносликка таъсир қилди ва XIX асргача давом этди. Немис олими Г. Лейбниц (1646-1716) немис тили далиллари асосида кейинчалик стоикларнинг товушга тақлид қилиш назариясини ёқлаб чиқди.

Кейинчалик стоиклар назариясига қарши чиққан Эпикур (341-270) ва унинг тарафдори Демокрит фикрини қайта тиклаб, сўзлар ва предметлар орасида боғланиш табиий бўлиши мумкин эмас, чунки нарсалар моҳияти билан уларнинг отлари орасида қарама-қаршилиқлар жуда кўп, яъни предмет билан унинг номи ўртасидаги алоқа тасодифий бўлиб, тилни ўзаро келишув асосида дастлаб ижод қилган кишилар яратган. Ана шундай тасодифий ҳодиса бўлмаганда, барча халқлар бир-бирларининг тилларига тушунган бўлар эдилар.

Қадимги мутафаккир олимлар тилшуносликнинг фалсафий томонлари билан бир қаторда филологик фаолият билан ҳам шуғулланганлар, бу эса қадимги бадий асарларни изоҳлаш, шарҳлаш эҳтиёжи билан боғлиқдир, чунки, масалан: Гомернинг (эр.ав. IX аср) “Илиада” ва “Одиссея” номли машҳур дostonлари эрамиздан аввалги III-II аср греклари учун унчалик тушунарли бўлмай қолди. Чунки, биринчидан, Гомер ўз асарларини НОН шеvasида ёзган бўлса, эрамиздан аввалги VI-V асрларда дostonлар ва муқаддас асарлар умумгрек (койне) АТТИК шеvasига асосланган эди. Шу сабабли, асрлар ўтган сари классик (мумтоз) адабиётининг айрим жойлари кейинги авлодларнинг тушунишига қийин бўлиб қолди.

Эсхил (524-457), Софокл (496-406), Аристофан (450-380) каби муаллифларнинг асарларига грамматик, лексикологик изоҳлар берилиши, луғатлар тузилиши туфайли уларнинг асарларини ўқиш ва ўрганиш осон бўлди.

ЎРТА АСРЛАРДА АРАБ ТИЛШУНОСЛИГИ

Араб тилшунослиги VII – XII асрларда жуда тез ривожлана бошлади. Араблар антик дунёда яратилган маданий ва илмий бойликларини сақлаб қолишга ҳаракат қилдилар. География (Жуғрофия), тарих, математика, астрономия, диншунослик, мантик, фалсафа, медицина, руҳшунослик ва бошқа фанлар соҳасида ўзларининг илмий асарларини яратиб, жаҳон маданиятининг (цивилизациясининг) тараққиётига катта ҳисса қўшдилар. Араблар бошқа фанлар қатори тилшунослик билан ҳам шуғулланганлар.

Шу мазмунда ва шаклда ёзилган иккинчи ёдгорлик “Аттуҳфату закияту филлуғатит турк”. Бу асарнинг муаллифи, чоп қилинган жойи ва вақти номаълум, аммо баъзи бир маълумотларга қараганда, бу асар Абу Ҳайёмнинг “Китоб ал идрок”идан кейин ёзилган. Демак, “Аттуҳфа” XVI асрга оиддир. Бу асарни С.М. Муталлибов ўзбек тилига таржима қилган ва Тошкентда нашр қилинган. Олимнинг фикрича, бу асар Мисрда ёзилган бўлиб, 1922 йилдагина Европага маълум бўлган. 1992 йилда венгриялик олим Т.Х.Кун асарни қайта ишлаган ва 1945 йилда турк тилшуноси Бесим Аталой томонидан турк тилига таржима қилинган. Қўлёзманинг асл нусхаси Истамбулдаги Боязит мачитининг Валиддин Афанди кутубхонасида сақланмоқда.

Бу борада Аҳмад Яссавий, Маҳмуд Қошғарий ва XI-XII асрда ижод қилган бошқа олимларнинг асарларидан фойдаланишлари мумкин эди). Шунинг эътиборга олиш керакки, асарда турк тили грамматикаси турк тилини ўрганувчи арабларга мўлжалланган бўлиб, турк тили грамматикаси араб тили грамматикаси шу тарзда (чегараланган даражада) қиёсланган. Асарнинг грамматика қисми (айниқса, морфология) пухта ишланган. Унда учта сўз туркуми кўрсатилган, яъни от, феъл, хуруф (ёрдамчи сўзлар ва аффикслар)га бўлиниб, от ва феълларга кўпроқ эътибор берилган. Келишиклар тўғрисида батафсил изоҳ берилиб, тушум келишиги, жўналиш келишиги, ўрин-пайт келишиги, чиқиш келишиги ва биргалик келишига каби отларнинг бешта келишигига изоҳ берилган ҳамда қаратқич келишиклар қаторида эмас, балки алоҳида изофа ҳодисаси сифатида тушунтирилган, аммо бош келишиги ҳақида ҳеч нарса дейилмаган.

“Аттуҳфа”да феъллар тўғрисида фикр юритилиб, майл, нисбат, бўлишли-бўлишсизлик, ўтимлилик ҳодисалари, шунингдек, сифатдош (-

мак, -моқ) билан ясалган масдар шаклларига алоҳида ўрин берилган. Бундан ташқари равишдош, ундовлар ва боғламалар ҳам асарда ўз ўрнини топган.

Синтаксисга доир маълумотлар антик дунёдаги ва ўрта аср Европасидаги сингари мантиқ қоидаларига асосланган. Гап, эга (“мубтадо”) ва кесим (“ҳабар”)га ажратилган.

ЎРТА ОСИЁ ТИЛШУНОСЛИГИ

Милоддан олдинги 3000 йилларга бориб тақаладиган туркий тиллари, мустамлака (грек, араб, форс) тилларни ҳисобга олмаганда дунёда энг кўп тарқалган тиллардан биридир. Бу оилага мансуб тиллар Хитойдан тортиб ғарбий Европагача, шимолдан Сибир, Олтой ва Россиянинг марказигача, жанубда Осиё, Африканинг юқори қисмигача бўлган жуда катта ҳудудда қўлланилган ҳамда ҳозиргача қўлланилмоқда.

Турон қавмига мансуб қадимги тилларни чуқурроқ ва аниқроқ талқин қилиш учун қадимги туркий қавмлар, халқлар тўғрисида тўлиқроқ далилларга эга бўлиш учун Ҳасан Ато бин Мулло Муҳаммад Абушийнинг “Турк Қавмлари тарихи” асарини атрофлича ўрганиш мақсадга мувофиқдир.

X-XII асрларда Ўрта Осиёда маданиятлар жуда ривожланди, шу сабабли жаҳоннинг бу даврдаги математиклари, астрономлари, файласуфлари, тарихшунослари, шифокорларигина эмас, балки машҳур филологлар ҳам Ўрта Осиёдан чиққан. Бу пайтда Европада урушлар, босқинчиликлар, хунрезликлар илм-фан, маданият тараққиётини орқага суриб юборган эди.

Юқорида қайд қилганимиздек, Ўрта Осиёлик олимлар тилшунослик билан бирга бошқа фанлар билан ҳам шуғулланган, бошқача қилиб айтганда, Ўрта Осиё ва Хуросон олимлари физика, химия, астраномия, биология, математика, ҳуқуқ фанлари бўйича оламшумул асарлар яратиш билан бир қаторда тилшунослик масалалари билан ҳам шуғулланганлар, булар: ал Беруний, ал-Форобий, ар Розий, Абу Мансур Бухорий, Ибн Сино, ал Хоразмий, ал Фарғоний, ал Мотуридий ва бошқалар. Бу алломаларни жаҳон илмий ҳамжиҳатлигининг энциклопедик олимлари деб бежиз айтишмаган, масалан: Абу Наср Форобий араб тилида биринчи марта “Фанларнинг таснифи” номли ҳақиқий энциклопедик асар яратган, шу обрўга сазовор “Ўтмиш авлодлар ёдгорлиги” номли асарни ал Беруний яратган. Абу али Ибн Сино ўзининг тилшунослик ва бошқа соҳаларга бағишланган фундаментал (зўр, пухта) дунёвий энциклопедик асарлар яратган, чунончи: 1) Китоби ал милҳ финнаҳа (“Ўткирлик синтаксисда

эканлик” китоби), 2) Рисола филмуסיкий хайр мофилишифа (“Муסיқа ҳақидаги рисола, шифодагидан бошқа”), 3) Китоб лисонул араб (“Араб тили” китоби), 4) Асбоб Худут алхуриф (“Товушларнинг чегараланиш саблари”). Бу асар 1932 йилда Қоҳирада нашр қилинган. Ибн сино товушни тўлқинсимон ҳаракат ҳосил қилади, Артикуляция ўриндан ҳавони сиқиб чиқаради, дейди. Унинг фикрича, нутқ товушларининг бир қисми ўз вазифасига кўра содда бўлиб, бу товуш ҳосил қилувчи ҳаво оқими нутқ органларида тўсикқа учрайди. Қолганлари эса мураккаб бўлиб, улар қисман қаршиликдан ҳосил бўлади. Унинг фикрича “Қаршилик қилувчи орган баъзан кичикроқ, баъзан каттароқ..., артикуляция ўрни баъзан кенгроқ, баъзан сиқикроқ, баъзан юмалоқ, баъзан ёриқ, аммо улар тор шаклда: қаршилик баъзан кучлироқ, баъзан кучсиз, баъзан қаршиликни енгиш учун бўлган босим шиддатлироқ, баъзан юмшоқроқдир”. Ибн Синонинг кўпчилик асарлари бизгача етиб келмаган, ёзишларича, у 150 га яқин асар ёзган. У терминология билан ҳам шуғулланиб, бир қатор луғатлар ёзган. Ибн Сино биология, медицина, ботаника терминологиясини яратишга катта ҳисса қўшган. Шунини айтиш керакки, шарқ анъаналарига асосан асарларни араб тилида ёзган.

“Девон” асарининг фақат бир нусхаси 1914 йилда Туркияда топилган. Бу китоб котиб Муҳаммад бин Абу Бакир Дамашқий томонидан 1265-66 йилларда М.Қошғарийнинг ўз кўли билан ёзган нусхасидан кўчирилган. Шу нусха асосида 1905-17 йилларда Туркияда “Девон”нинг уч жилди нашр қилинган. 1928 йилда Венгриялик олим К.Броккельман таржимасида немис тилида, 1929 йилда Туркияда Басим Аталай таржимасида турк тилида ва 1960-1963 йилларда эса Тошкентда ўзбек тилшуноси Солиҳ Муталибовнинг таржимасида ўзбек тилида нашр қилинди.

“Девон”нинг ёзилган вақти жуда ҳам аниқ эмас: А.Н.Кононов уни 1072-1078 йилларда таҳрир қилинган деса, Ф.Абдуллаев эса “Девон” 1071-1073 йилларда ёзилган дейди. Бу асар икки қисмга – муқаддима ва луғат қисмларига бўлинади.

Географик муҳит жиҳатдан Қошғарий тилларни иккига бўлган: 1. шаҳар аҳолиси тили, 2. Саҳройилар тили. Масалан: хитойликлар, мочинликлар, чинликлар, баласоғунликлар, чимкентликлар, тирозликлар тили-шаҳар тили, жумул, қой, абақу, татар, басмил қабилаларининг тили саҳройилар тили бўлиб, улар туркчани яхши билганлар.

Фонетист сифатида Маҳмуд Қошғарий ҳар бир товушни алоҳида ўрганиб, уни физиологик ва акустик томондан тасвирлаган. Араб тили таркибидаги ҳарфларнинг туркий тиллардаги мавжуд товушларни ифодалаш учун биринчи марта янги белгилар киритди. Шундай қилиб, араб

ёзувидаги 18 та ҳарфдан ташқари, мавжуд ҳарфларнинг еттитасига қўшимча белги қўйиб, 25 та товушни ҳарфий ифодага эга қилди. “Девон”да товушларнинг алмашиши, тушиши, ассимиляцияси (топти, етти, сочи, экти), метатеза ҳодисалари ҳам изоҳланган.

Бошқа тиллардан сўз олиш борасида Маҳмуд Қошғарийнинг тутган ўрни бизнинг давримизга яқиндир. Чунки у турмушда ишлатиладиган асбоб-ускуналар, кийимлар, овқатлар, дори номлари сифатида кирган чет сўзларни зарур ва фойдали деб ҳисоблаган, аммо она тилида мавжуд сўзлар ўрнида чет сўзлардан фойдаланишни зарар деб билган. Масалан, ўғузларнинг Қумғон сўзи ўрнида форсча офтова сўзини ишлатишни у танқид қилган. (Ҳозирги кунда баъзи шеваларда офтова (обтоба), масалан, елашган шеваларда ишлатилса, қолганларида, масалан, Фарғона водийсида, қумғон шакли ишлатилади).

М.Қошғарийнинг “Девону луғатит турк” асари тарихий диалектология (шевашунослик) учун қимматлидир ва бу асардаги материаллар ўзбек халқ тилининг шаклланишини ёритишда моҳияти салмоқлидир.

А.Н.Кононовнинг фикрича, М.Қошғарий Ўрта Осиёда ягона филолог бўлмаган, чунки филологик мактаблар ва уларда фаолият юритаётган олимлар Қашқардан тортиб Етти дарё (Семиречье) оралиғида ҳам мавжуд бўлган.

Маҳмуд Қошғарийдан кейин катта бадий ва илмий асарлар яратган буюк мутафаккир, шеърият оламининг султони Алишер Навоий ўз ижодида филология, айниқса, лингвистика масалаларига катта эътибор берган. унинг машҳур лингвистик асари бўлган “Муҳокаматул луғатайн” (Икки тил ҳақидаги муҳокама) асарида турк тилининг, янги ўзбек адабий тилининг форс ва бошқа тиллардан тубдан бир эмаслигини ёритиб беради. У сўз ва унинг маъноси, тил билан тафаккур ўртасидаги муносабат, тилларнинг келиб чиқиши, она ўзбек адабий тилидаги сўзларнинг маъно бойлиги, омонимия, сўз бойлиги ва синонимия, сўз яшаш масалалари ва бошқа филологик муаммолар ҳақида фикр юритади.

Навоий қадимги греклар “логос” сўзини турлича қўллаганлари каби сўз билан унинг маъносини кўпинча бирга олган ва уларни ажратмаган. У сўз атамасини “сўз” маъносида ҳам, “маъно”, “тушунча” маъносида ҳам ишлатган. Тилнинг чиқиб келиши тўғрисида ўрта аср схоластикаси (тажрибага асосланмаган, қурук, пуч маъно) таъсирида бўлган.

Навоий қадимги ўзбек адабий тилининг морфологиясини атрофлича таҳлил қилди. Масалан, у феълнинг ўзлик, орттирма ва биргалик нисбатларини, равишдош шаклини, кўмакчи феъл ёрдамида тузилган

мураккаб феълларни, сифатнинг орттирма даражасини ва кучайтирма шакллари, айрим сўз ясовчи аффиксларнинг (масалан, -чи, -вул, -ғул, -л) маъноларини мисоллар билан изоҳлаб берди.

Навоий эски ўзбек адабий тилининг формаларига (шакллари) катта эътибор қаратган, айниқса, унлиларга у 9 та унлини ажратади. Ундошларга келганда, арабча сўзларни араблар қандай ёзган бўлсалар, шундай ёзиш принципи (тамойили) асосида иш тутган. Ҳамда баъзи бир араб ундошларини ўзбек тилининг ундошлар системасига (таркибига) киритган.

Алишер Навоийдан сўнг унинг бой адабий ва илмий меросини изоҳлаш унинг асарларида қўлланган сўзларни, сўз шакллари форс ва бошқа туркий тилларга таржима қилиш каби филологик ишлар бажарилган. Навоий яратган ва мерос қилиб қолдирган ўзбек адабий тили қонун-қоидаларига асосланиб, ундан кейинги тилшунос олимлар кўп асарлар яратганлар, айниқса, лексикография, яъни луғатчилик соҳасида, масалан:

1. Муаллифи ва номи номаълум бўлган “Чиғатой-турк” луғати 1500 йилда ёзилган. Олимлар бу луғатдаги биринчи сўзни унга ном сифатида қўллаб “Абушқа” деб атаганлар (“абушқа” – қария, чол дегани).

Абушқа биринчи марта 1862 йида қисқартирилган ҳолда венгер олими Герман Вамбери томонидан нашр қилинди, тўлалигича эса 1868 йилда В.В.Вельяминов-Зернов томонидан Петербургда нашр қилинди.

2. Толий Имоний Ҳиротий ўзининг “Бадойиул луғат” (“Сўзларнинг нодирлиги”) номли луғатини тузган. Бу луғат минг сўздан иборат бўлиб, Султон Ҳусайннинг (1438-1506) топшириғи билан “Чиғатой-форс” луғати шаклида ишланган. У Навоий асарларига форс тили ёрдамида изоҳ беришга қаратилган эди.

3. Фазлуллахон (тахм. XVII асрда яшаган) тузган “Луғати туркий” луғат ҳам “Чиғатой - форс” шаклида бўлиб, 1825 йилда Калькуттада нашр қилинган.

4. 1862 йилда Фатҳ Алихон Қаторийнинг “Китоби луғати атрокия” деб аталган луғат тузилган бўлиб, унда 8 минг сўз ва глоссарийлар (сўз шакллари) ўзбек тилидан форс тилига таржима қилинган.

5. Шайх Сулаймон Бухорийнинг “Луғат чиғатойи ва турки усмони” луғати 188 йилда Стамбулда нашр қилинган. У икки қисмдан иборат бўлиб, биринчи қисми 6 мингга яқин эски ўзбек сўзлигини ўз ичига олади. Бу асарни яратишдан олдин муаллиф 92 ўзбек қабиласини тилини, туркий тилда ижод қиладиган юзга яқин шоирнинг асарларини ўрганиб чиққан. Луғатда сўзлар араб алфавити тартибида жойлаштирилган бўлиб, унда сўзларнинг маъноларини изоҳлаш учун кўпинча Лутфий, Навоий, Бобур, Мунис, Огаҳий каби шоирларнинг асарларидан мисоллар келтирилади. Муаллиф сўзларнинг маъноларини санаб бергандай, уларнинг маъноларини ҳам кетма кет кўрсатиб берган.

6. XVIII асрда “Санглоҳ” номли диққатга сазовор асар пайдо бўлиб, эрон шоҳи Нодир шоҳнинг котиби Астрободлик Мирзо Меҳдихон томонидан ёзилган. Унда Навоий, Лутфий, Бобур каби машҳур ёзувчилар асарларидаги тушуниш қийин бўлган сўзлар форс тилига таржима қилинган. Эски анъаналарга амал қилиб, Меҳдихон сифат ва сонларни ажратмаган, аммо уларнинг таркибидаги қўшимчалар ҳақида маълумот берган. Олмошлардан кишилик ва кўрсатиш олмошлари ажратиб кўрсатилган. Кишилик олмошлари “мустақил олмошлар”, кўрсатиш олмошлари “ишора исмлари” деб номланган. Кишилик олмошлари тўртта: ман, сан, биз, сиз; кўрсатиш олмошлари еттита: бу, ул, шул, ўшал, мун, анлар, алар.

Феълга алоҳида боб ажратилган бўлиб, унинг ўтган замон (мозий) ва ҳозирги-келаси замон (музоре) шакллари, шарт ва буйруқ майллари, нисбат категориялари, сифатдош, равишдош, ҳаракат номи (масдар) шакллари тўғрисида маълумот берилди.

ЎРТА АСРЛАРДА ЕВРОПА ТИЛШУНОСЛИГИ

Ўрта асрларда умумий тилшунослик, бошқа фанлар сингари, Европада айтарли ва сезиларли даражада ривожланмай, турғунлик муҳитида бўлган. Шунга қарамасдан ўрта асрларда Европада дастлабки лингвистик мактаб вужудга келади ҳамда тилшуносликнинг янги методлари (услуглари) пайдо бўла бошлади. Латин тили Европада узоқ вақтгача халқаро мулоқот тили бўлиб фаолият кўрсатган, ҳамда олимларнинг асосий ёзув адабий тили бўлган. Латин тили бу пайтда мантиқий тафаккур мактаб тили ҳисобланган. Бу тил Доната ва Присиани тили бўлиб, шу пайтда грамматика ёзув маданияти, яъни моҳирона тўғри мулоқот қилиш (гапириш) ва ёзиш санъати бўлган.

V асрдан XV асргача бўлган даврда баъзи бир реакцион кучлар таъсирида ҳар қандай фикрлар, айниқса, илмий фикр ўз ривожланишида турғун ҳолатда бўлиб, баъзи жойларда умуман тўхтаб қолган эди. Илмий фикрлайдиган олимлар қувғин қилинди, тазийқга учради. Христиан динини инкор қилган олимлар қатл қилинди. Бундай аҳвол тилшуносликка ҳам ўз таъсирини кўрсатди, яъни бу олимлар Европа тилшунослигига деярли ҳисса қўша олмади ва шу сабабдан тилшунослик, бошқа фанлар сингари, турғунлик даврини ўз бошидан кечира бошлади. Аммо бу зиддиятлар, инкирозларга қарамасдан, тилшунослик маълум даражада фаолият кўрсата бошлади. Христиан динининг тарқалиши ва ёзув билан боғланганлиги бир қатор тилларда ёзувнинг пайдо бўлишига сабаб бўлади. Евангелия – христиан динининг (диний) китоби бўлган “Инжил”, “Таврот”нинг бир қисми бўлган “Забур” (псалтирь) номи айрим тилларга таржима қилиш туфайли уларнинг ёзувлари пайдо бўлади, масалан, III-IV асрларда гот ёзуви, V асрда арман ёзуви (арман ёзувининг ибтидоий шакли Урарту

мамлакатларида шаклланган), VII-IX асрларда ирланд ёзуви, қадимги инглиз, қадимги юқори немис тилларида ёзув (III-IX асрлар) пайдо бўлган. IX асрда эса славян алфавити яратилган. Бу даврларда миллий тилларнинг грамматикаси тўлиқ ўрганилмаган эди. Аммо Ўрта Осиёда ва Арабистонда грамматика ва умуман, тил қонун-қоидалари атрофлича ўрганилган эди. Ўрта аср Европасининг феодал зодагонлари учун хизмат қиладиган латин тилигина бирдан-бир ўрганилган тил эди. Бу тил ягона грамматика тили эди. Латин тили христиан динининг асосий тили ҳисобланиб, бу тилда давлат ҳужжатлари тузилар эди, бу тилда илмий-бадий асарлар ёзилар эди, ҳамда, юқорида қайд қилинганидек, бу тил католик черковининг тили эди. (диний ибодатлар амалга оширилар эди). Латин тили грамматикаси, юқорида қайд қилинганидек, “тўғри гапириш ва ёзиш санъати” ҳисобланган, ҳамда амалий мақсадларда фойдаланилган, аммо Ўрта асрларда латин тили мулоқот тили бўлмаган, яъни бу тилда ҳеч ким гаплашмаган. Шунинг учун Ўрта асрларда бу тилнинг талаффузи амас, балки бу тилнинг ёзилиши ва ҳарфлари ўргатилар эди, чунки у ўлик тилга айланган эди. Латин тили ҳозирги даврда ҳам Доната ва Присиани грамматикасининг услуби бўйича ўргатилади.

Ўрта асрларда европада тил назариясига доир фикрлар мунозара қилинмаган, чунки тилнинг назарий муаммолари христиан ва яҳудийларнинг диний китоби бўлган “Библия”, яъни “Таврот” томонидан “ҳал қилинган” эди. Фақат IV асрда фаолият кўрсатган Григорский худо инсонга гапириш қобилятини берган, нарсаларнинг номини эса инсоннинг ўзи қўйган деган фикрни билдирган. Аслида бу фикр тилнинг пайдо бўлиши ҳақидаги “Таврот”даги афсонанинг иккинчи вариантга тўғри келади. Шунга ўхшаган фикрлар XI-XII аср олимларининг асарларида ҳам қайд қилинган. Айниқса, Аҳмад Яссавий, Юсуф Ҳос Ҳожиб, Алишер Навоий асарларида ҳам учрайди.

Ўрта асрларда, яъни VIII-X асрларда, Ғарбий Европада ҳукмрон бўлган фалсафа мактаби Схоластика (грекча “schola” мактаб), яъни “мактаб фалсафаси” пайдо бўлган. Платон ва Аристотель асарларининг негизида ташкил қилинган схоластика “Таврот ва “Инжил”нинг “илмий” асосини ташкил қилар эди. Схоластика фалсафадаги Теологиянинг (илоҳиётнинг) хизматида бўлган. Кейинчалик Аристотел томонидан формал (расмий) грамматиканинг таъсири остида баъзи бир янги тушунчалар киритилган, масалан, XVI асрда мослашув ва бошқарув бир-биридан ажратилди, сифат эса мустақил сўз туркумига киритилди, гапнинг эга ва кесимлари мантик қоидаларига асосан ҳукмнинг субъекти ва предметнинг мустақил ифода бўлаги сифатида изоҳланган.

Номлар тўғрисидаги антик тилшуносларнинг мунозаралари ўрта асрларда давом эттирилиб, улар (номлар) фалсафий реализм ва номинализм таълимотлари номини олди.

XV асрдан XVII асрнинг бошларигача бўлган давр Ғарбий Европада уйғониш (ренессанс) даври деб аталади. Бу даврда феодализм ўзининг энг юқори тараққиёт даражасига чиққан бўлиб, капитализм эндигина ривожлана бошлаган эди. Бу даврга келиб арман, форс, ўзбек, хунгар, япон, корейс, испан, нидерланд, француз, инглиз, рус, украин, португал, немис, поляк, чех, аутен, мексика тиллари вужудга келади.

Классик филологияси шаклланишига диний китобларнинг матнлари устида олиб борилган тадқиқот ишлари катта аҳамиятга эга бўлди. Шу пайтлардан бошлаб тилларнинг амалий грамматикалари тузила бошланди. Бундан ташқари, тилларнинг луғат таркиби ва грамматикаларига бағишланган китоблар юзага кела бошлади. Масалан, Уоллиснинг “Инглиз тили грамматикаси (1653)”, Эдуард Рудольфнинг “Российская грамматика”си (1696) нашр қилинди.

XV-XVI асрларда Европаликлар Шимолий Америка, Ҳиндистондаги қатор тиллар, масалан: индонезия, хитой, араб, форс, турк, манчжур тиллари ҳақида аниқ маълумотларга эга бўлдилар. Олинган маълумотлар асосида фан оламига маълум бўлган барча тиллар классификация қилиниб, уларнинг картотекалари тузилди. Шу тарихда француз гуманисти Г.Кастеллеуснинг “Тилларнинг қариндошлиги ҳақида (1593)” номли трактати ёзилган, ўша пайтларда Юстус Скалигер (1540-1609) Европа тилларининг классификацияси (таснифи) билан шуғулланиб, Европа тилларини 11 та асосий тилга ажратган ва улардан тўрттасини “Тил оналари” (матери-языки) деб атади.

Агар антик даврдаги файласуфлар ўз таълимотларини исботлаш учун, яъни дунё ҳодиса ва воқеаларини тушунтириш учун тилга ва тилшуносликка эътибор берган бўлсалар, Уйғониш ва Ўрта асрлардаги тилшунослар, айниқса, Европа олимлари, тилни барча элементлари билан бир бутун ҳолда тушунишнинг умумий тамойилларини топиш учун фалсафага мурожаат қилганлар.

Лотин тили грамматикаси умумий грамматика деб тан олиниб, у (грамматика) Европадаги жонли тилларнинг грамматикасига тадбиқ қилиниб, бу тилни ўрганиш мантиқий тафаккур қоидаларини билиш деб тушунилган. Грамматик ҳодисаларнинг барчаси мантиқий нуқтаи-назардан баҳоланиб, грамматика ягона, яъни мантиқий грамматика бўлиши керак, деган таълимот яратилган. Сўзга эса тушунчанинг симболи деб қаралган.

Мана шу тамойил асосида тузилган грамматиканинг энг кўзга кўрингани Франциянинг Пор-Роял монастрида 1660 йилда “Клод Лансло ва А.Принцианиларнинг грамматика”си француз тилида ёзилди. Бу грамматика “Ақл асосларига қурилган ва аниқ ҳамда табиий усулда баён қилинган гапириш санъатини асослаб берадиган умумий грамматика”, деб аталган. Бу универсал грамматика бўлиб, унинг асоси рационализм ҳисобланган. Рационализм ақл-идроқга ишонишга, оқилоналикни исботлаш ва уни инсон фаолияти турли соҳаларининг асосий таянчи ҳисобланади.

1675 йилда А.Арно ва П.Николларнинг “Мантиқ ёки фикрлаш маданияти” деган асари яратилган. Бу асар Пор-Роял грамматикаси ва мантиқи сифатида обрў қозониб, грамматик назариянинг тараққиётига катта таъсир қилган. Пор-Роял грамматикаси қадимги грек, қадимги яҳудий, латин ҳамда француз тилларининг материаллари асосида тузилган бўлиб, бу асар мантиқий типологик, ёки қиёсий грамматика бўлмай, балки мантиқий-типологик грамматикадир.

Пор-Роял грамматикаси икки қисмдан иборат бўлиб, фонетика ва грамматикадан иборатдир. Биринчи қисмнинг 6 та бобида товуш ва ҳарф, урғу ва бўғин бўлимдаридан иборатдир. Биринчи қисмининг охириги боби ҳар қандай типдаги тилларнинг ўқитиш методига (услугига) бағишланган.

Китобнинг иккинчи қисми 24 та бобдан иборат бўлиб, шулардан 23та боби морфологиянинг савол ва муаммоларига ҳамда синтаксис ёки сўзларнинг конструкция (тузилиши) шаклида бирлашиши ҳамда уларнинг (сўзларнинг) типологик тузилиши (конструкция)дир. Асарда таъкидланишича, сўзлар предмет (нарсалар) тўғрисидаги фикр ҳамда мазкур фикрларнинг мазмуни тўғрисидаги тушунчадир. Сўзлар белгининг (знак) ички томонини англатса, товушлар (ҳарфлар) эса сўзнинг ташқи белгисини билдирадиган ҳодисадир. Сўзлар икки турга (типга) бўлинади: Биринчи типга кирган сўзлар – от, артикль, олмош, сифатдош, предлоглар, равиш, иккинчи типдаги сўзлар, булар – феъл, боғловчи, ундовлардир.

Синтактик назария иккиламчи хусусиятга эга бўлиб, “Грамматика” китобида сўз бирикмаларининг конструкциялари синтаксис бўйича саволлар келишиклар, боғловчилар, предметлар (олд кўшимчалари), ундовлар ҳамда мантиққа, яъни фикрлаш, идроклаш каби универсал тафаккур категориялари билан боғланганлигини исботлашдир.

XVII аср тилшунослари рационалистларнинг “ақл инсон фаолиятида етакчи роль ўйнайди”, деган фикрини олиб, уни тилга тадбиқ қилганлар, яъни ақлга алоқадор бўлган қонуниятларни тилга нисбатан қўллаганлар. Шунинг учун Пор-Роялда “нутқ санъатининг табиий асослари”ни барча

тиллар учун умум бўлган тамойилларни аниқлаш мақсадида тадқиқотни француз тилини тавсифлашдан бошлаган бўлсалар ҳам грек, лотин, ҳатто қадимги яҳудий тили далилларига ҳам мурожаат қилганлар.

“Рационал” ва “универсал” грамматикаларнинг бир неча вариантлари XVII-XVIII асрлар давомида яратилган бўлиб, улар фалсафий грамматика деб ҳам юритилган. Фалсафий ёки рационал грамматика ҳам антик даврда ва ундан кейинги даврларда яратилган филологик грамматика сингари илмий грамматикагача бўлган грамматика деб ҳисобланади.

Таянч ибора ва тушунчалар (гlossарий)

1. Лингвистика.
2. Тилшуносликнинг қадимги ўчоқлари.
3. Илк лингвистик қарашлар.
4. “Сайдана” – доривор моддаларнинг номларига оид асар.
5. “Асбоби худут ал хуруф” – нутқ товушлари ҳақидаги асар.
6. “Девону луғотит турк” – туркий тилларга тегишли тўққиз мингга яқин сўзнинг лисоний хусусиятлари ҳақида маълумот берувчи асар.
7. “Ал-муфассал” – араб тили, асосан, грамматикасига оид асар.
8. “Муҳокамат ул-луғатайн” – ўзбек ва форс тилларининг қиёсий тадқиқига бағишланган асар.
9. “Санглох” – XVIII асрда, асосан, Навоий асарларидаги тушунилиши қийин бўлган сўзлар изоҳига бағишланган машҳур луғат.

Мавзу бўйича йўналтирувчи саволлар

1. Тилшуносликнинг илк пайдо бўлган жойларини биласизми?
2. Қадимги тилшунос олимлардан кимларни биласиз?
3. Ўрта Осиё тилшунослари лингвистика ривожига қандай хисса қўшганлар?


Тавсия этилган адабиётлар рўйхати

1. Расулов Р.. Умумий тилшунослик. Тошкент, 2010.
2. А.Нурмонов, Б.Йўлдошев. Тилшунослик ва табиий фанлар. Тошкент, 2001.
3. А.Нурмонов, Ш.Искандарова. Умумий тилшунослик. Андижон, 2007.
4. М. Ирискулов. Тилшуносликка кириш. Тошкент, 2008.
5. М. Ирискулов. Тилшуносликка кириш. Тошкент, 1992.
6. А. Содиқов, А.Абдуазизов, Ирискулов М. Тилшуносликка кириш. Т., 1981.
7. А. А. Реформатский. Введение в языковедение. Москва, 2008.
8. С.Усмонов. Умумий тилшунослик. Тошкент, 1972.
9. Н.С.Шарофутдинова. Теория и история лингвистической науки. М., 2007.
10. З.Д. Попова, И.А.Стернин. Общее языкознание. М., 2007.

ВИЗУАЛ МАТЕРИАЛЛАР

1-савол. Қадимги тилшунослик


1-илова



Тилшунослик фанининг энг муҳим манбалари, асосан, икки хил Ҳудудда ва икки хил маданият ўчоғида юзага келди. Булар қадимги Ҳиндистон, қадимги Греция ва Римдир. Шунинг учун тилшуносликнинг қадимги даври қадимги Ҳинд, қадимги грек (қисман, латин) филологиясини қамраб олади

2-илова

Қадимги Ҳиндистонда тил билан шуғулланиш дастлаб соф амалий аҳамиятга эга бўлган: давр ўтиши билан қадимги ёзма ёдгорликларнинг турли ўзгаришларга учраган элементларини (сўз ва қўшимчаларини) қайта тиклаш, изоҳлаш лозим бўлган. Бунинг учун Ҳинд олимлари эрамиздан 15 аср илгари (баъзи тадқиқотчиларнинг фикрича, 45-25 аср илгари) ёзилган Ведаларни (ўн китобдан иборат бўлган диний мадҳиялар – гимнлар, диний қўшиқлар ва афсоналар тўпламини), эрамиздан илгариги биринчи минг йилларда ёзилган санскрит ёдномаларини ўрганганлар ва таҳлил қилганлар. Улар Ведалардаги маъноси тушунарли бўлмаган сўзларга изоҳ берадиган луғатлар тузганлар, матнларни диққат билан фонетик ва морфологик жиҳатдан таҳлил қилганлар



2-савол. Қадимги грек тилшунослиги

Қадимги Греция кўпгина фанларнинг, шу жумладан, тилшуносликнинг ҳам, дастлабки бешигидир. Бироқ грек фани ва маданияти бошқа халқларнинг маданиятидан ажралиб қолган ҳодиса бўлмай, унга қадимги мисрликлар, шумерлар ва финикияликларнинг таъсири ҳам бўлган.

Қадимги грек олимлари тилшуносликка жуда катта ҳисса қўшган эдилар. Тилшунослик Грецияда қадимги грек фалсафасининг таркибий қисми сифатида ва энг қадимги классик адабиётни ўрганиш билан боғлиқ равишда филологик (текстологик) ишларнинг узвий қисми





3-савол. Қадимги араб тилшунослиги


7-илова

Араб тилшунослигининг оригиналлиги масаласида


турли хил фикрлар бор:

Биринчи фикр шундан иборатки, араб тили грамматикаси грек фалсафаси таъсир қилмаган ҳолда яратилган (И.Вейсс). Грек тили билан араб тили бир-бирдан бутунлай фарқ қилгани учун грек грамматикасига оид тушунчалар араб грамматикасига қабул қилинган эмас (Карл Броккельман).

Иккинчи фикрга қараганда, араб грамматикасидаги асосий тушунчалар грек фанидан, мантиқшунослигидан олинган. Баъзи тадқиқотчилар араб филологларининг асосий грамматик тушунчалари суриялик олимлар орқали Аристотель мантиғидан олинган, деб ҳисоблайдилар.



5-савол: Ўрта Осиёда тилшунослик



**9-МАЪРУЗА: Тилнинг ривожланиш қонуниятлари.
Тилшунослик фанининг бошқа фанлар билан алоқаси.
Тилшуносликда замонавий йўналишлар.**

Режа:

1. Тилнинг тарихий тараққиёти: soddalandashuv, qayta bo`linish va murakkablashuv hodisalari.
2. Тил ривожланишининг ички қонуниятлари: синхрония ва диахрония, умумий ва хусусий қонуниятлар.
3. Тил ривожланишининг ташқи омиллари: дифференциация ва интеграция, билингвизм hodisalari.
4. Тилшунослик фанининг бошқа фанлар билан алоқаси: ёндош фанлар.
5. Тилшуносликда замонавий йўналишларнинг юзага келиши.

Мақсад: Тилнинг тарихий тараққиёти ва ривожланишининг умумий қонуниятлари, ташқи омиллари ҳақида тасаввур уйғотиш; тилшунослик фанининг бошқа фанлар билан алоқаси ҳамда тилшуносликдаги замонавий йўналишлар ҳақидаги билимларини кенгайтириш.

Tilning tarixiy taraqqiyoti. Tevarak-atrofimizdagi narsa va hodisalarga bir nazar tashlab ko`raylik. Bular eng mayda zarrachalar va g`oyat katta yulduz sistemalari, bir hujayrali eng oddiy organizmlar-u yuksak darajadagi tuzilishga ega bo`lgan yirik mavjudotlardan iborat. Narsalar, hodisalar katta-kichikligi, shakli, rangi, zichligi, tuzilishining murakkablik darajasi, tarkibiy va boshqa juda ko`p xossalari, xilma-xilligi hamda utrli-tumanligi bilan bir-biridan farq qilishi bilan birga ular doimo o`zgarib turadi. Ma`lumki, dunyoda o`zgarmaydigan narsaning o`zi yo`q. Barcha narsa vaqt o`tishi bilan ma`lum darajada o`zgaradi, yangilanadi, bir turdan ikkinchi turga o`tadi... O`zgarish tabiat-hodisalarigagina emas, tabiiyki, ijtimoiy hodisalarga, shu jumladan, til hodisalariga ham xosdir. Tarixiy taraqqiyot va o`zgaruvchanlik tilning hamma sathlariga xosdir. Kishilik jamiyati paydo bo`lgandan buyon til uzoq davrlar o`tishi bilan o`zgarib, boyib borgan. Ayni vaqtda til taraqqiyoti kishilarning turli-tuman tajribalarining takomillashishiga, bu tajriba-yu bilimlarning avloddan avlodga o`tishiga ham imkon bergan. Til taraqqiyoti natijasida fan, texnika, madaniyat taraqqiy qilgan, ya`ni kishilik jamiyati rivojlangan.

Tilning tarixiy taraqqiyoti va o'zgaruvchanligi jamiyat hayoti bilan bevosita bog'liq bo'lib, ijtimoiy hayotda ro'y bergan o'zgarishlar tilda aks etadi. Bu o'zgarishlar hammadan ko'proq tilning lug'at boyligida o'z ifodasini topadi. Yangi narsa-buyum, tushunchalarning paydo bo'lishi yoki, aksincha, narsa-buyum va tushunchalarning keng iste'moldan chiqib ketishi hammadan avval tilning lug'at boyligida o'zgarish bo'lishiga olib keladi.

Tilning lug'at sostavida yangi so'zlar, iboralar paydo bo'lishi, ayrim so'zlarning semantikasida o'zgarishlar yuz berishi, ba'zi so'zlarning eskirib qolishi barcha tillarga xos bo'lgan umumiy qonuniyatlardandir. Chunonchi, o'tgan asrning boshlari va o'rtalarida rus tilida paydo bo'lgan *большевизм, меншивизм, пролетариат, съезд, колхоз, совхоз марксизм, ленинизм, коммунизм* kabi ko'plab so'zlar hozirda eskirib iste'moldan chiqqan. Tilda sodir bo'layotgan o'zgarishlar so'zning tuzilishiga ham o'z ta'sirini o'tkazadi, oqibatda u ham asta-sekin o'zgarib boradi. So'z strukturasi o'zgarishi turli tillarda turli yo'l bilan yuz beradi. Tilshunoslikda buning asosiy uch usuli qayd etiladi: **soddalashuv, qayta bo'linish va murakkablashuv.**

So'zlarni qo'shish yo'li bilan yasalgan qo'shma so'zlarning tub so'zlarga yoki o'zakka, ko'p morfemali so'zning bir morfemali so'zga o'tish hodisalari **s o d d a l a s h u v** deyiladi. Odatda, soddalashuv hodisasi so'z o'z «ichki tuzilish shakli»ni o'zgartirganda, ya'ni morfemalar orasidagi chegara yo'qolganda ro'y beradi. Ilmiy adabiyotlarda soddalashuv hodisaning sodir bo'lishiga asosan ikkita sabab borligi ko'rsatiladi: u yoki bu morfemaning ma'nosi kuchsizlanishi, asta-sekin yo'q bo'lib ketishi natijasida uning iste'moldan chiqib ketishi; o'zakdosh so'zlar o'rtasidagi aloqaning uzilishi.

Birinchi usulga o'zbek tilidagi *qishloq, qovurg'a, yuksak, qachon, bo'rsiq* so'zlari, rus tilidagi *нужный, хижина, кольцо* so'zlari misol bo'la oladi. *Qishloq* so'zi aslida *qish+la* (fe'l yasovchi affiks) + *q* (ot yasovchi affiks) morfemalaridan; *qovurg'a* so'zi *qop+ur* (daraja ko'rsatuvchi affiks) + *g'a* (ot yasovchi affiks) morfemalaridan; *yuksak* so'zi *yuk+sa* (fe'l yasovchi affiks) + *k* (sifat yasovchi affiks); *qachon* so'zi *qay, chog' va -in* morfemalaridan hamda *bo'rsiq* so'zi *esa bo'r+si+q* morfemalaridan tashkil topgan. Hozirgi tilshunoslikda bu so'zlar sodda tub so'zlar sifatida baholanadi.

Нужный, хижина, кольцо so'zlarini hozirgi rus tili grammatikasi nuqtai nazaridan yuqoridagi so'zlar kabi izohlash mumkin. Bir vaqtlar rus tilida *нужа, хижа, коло* so'zlari bo'lgan, ana shu so'zlarga so'z yasovchi (-н, -ин, -у) va shakl hosil qiluvchi (-ый, -а, -о) affikslar qo'shilishi natijasida bu so'zlar hosil bo'lgan.

Hozirgi o'zbek tilidagi *qishloq* va *qishki* so'zlari ikkinchi usulga misol bo'la oladi. Etimologik jihatdan har ikkala so'zning ham o'zagi *qish* so'zi bo'lgan. Hozirgi til nuqtai nazaridan ularda hech qanday semantik umumiylik yo'q. Rus tilidagi *жур (yog')*, *жизнь (hayot)*, *живой (tirik)* so'zlari qadimda

o`zakdosh so`zlar hisoblangan. Aslida *жир* so`zi жи+р (so`z yasovchi affiks)dan tuzilgan bo`lib, «hayotda orttirilgan» ma`nosini bergan. Tilning tarixiy taraqqiyotida bu so`zlarning morfemalari orasidagi chegara yo`qolgan, ya`ni soddalashuv hodisasi ro`y bergan. Soddalashuv jarayoni ba`zan bir tildan ikkinchi tilga so`z o`zlashtirganda ham sodir bo`lishi mumkin. Chunonchi, ingliz tilidan o`zlashgan *футбол, вoleyбол* so`zlari, nemis tilidan o`zlashgan *курорт* so`zi o`zbek tilida tub so`zlar hisoblanadi. Aslida esa o`z holatida bular qo`shma so`zlardir, ya`ni **foot** – oyoq, **ball** – to`p, **volley** – qo`l, **ball** – to`p; **kur** – dam, **ort** – joy kabi. O`zbek tiliga fors tilidan o`zlashgan *navro`z* tub so`zi aslida *nav-yangi, ro`z-kun* ikki o`zakdan, *astoydil* tub so`zi «*az tagi dil*» uch o`zakdan tashkil topgan. Rus tiliga o`zbek tilidan o`zlashgan *карандаш, утюг* so`zlari hozirda shu tilda tub so`zlar hisoblansa-da, etimologik jihatdan o`zbek tilida bular «*qora tosh*», «*o`t yoq*» shaklidagi qo`shma so`zlar bo`lgan.

So`zdagi morfemalar chegarasining o`zgarishi natijasida yangi affiksial morfemalar paydo bo`lishi ham mumkin. Bunday jarayon so`zning material strukturasi **q a y t a b o`l i n i s h** hodisasi deb yuritiladi. O`zbek tilidagi *bo`lajak, ular, gulduros* so`zlarida, rus tilidagi *готовность* so`zida qayta bo`linish hodisasini kuzatish mumkin. Hozirgi kunda bu so`zlar *bo`l+ajak* (sifatdosh shakli affiksi), *u+lar* (ko`plik shakli affiksi), *guldur+os* (sifat yasovchi affiks); *готов+ность* (so`z yasovchi affiks) shaklida morfemalarga ajratiladi. Ilmiy adabiyotlarda keltirilishicha, bu so`zlarda quyidagicha qayta bo`linish ro`y bergan: *bo`lajak < bo`l-a-jak < bo`l-ajak*

ular < ul-ar < u-lar

gulduros < guldur-a-s < guldur-os

готовность < готов-н-ость < готов-ность.

Ba`zi hollarda faqat afiksial morfemalar emas, so`zlar ham qayta bo`linadi. Masalan, rus tilidagi *s* va *k* predloglari uchta tovushdan tashkil topgan: *сън, кън*. Ma`lumki, predloglar yordamchi so`zlardir. Nutqda urg`u olmaydigan predloglar, odatda, olmoshlarga qo`shilib talaffuz etiladi. Vaqt o`tishi bilan bu predloglar quyidagi ko`rinishga ega bo`lgan: *сън им < съним < съ ним < с ним;*

кън им < къним < къ ним < к ним.

Avval tub deb hisoblangan so`zlarning yasama yoki murakkab so`zlar qatoriga o`tishi **m u r a k k a b l a s h u v** deyiladi. Bu hodisani boshqa tildan o`zlashgan so`zlarda kuzatishimiz mumkin. Murakkablashuv hodisasi tilda soddalashuv va qayta bo`linish hodisalariga nisbatan kamroq uchraydi. Chunonchi, rus tilidagi *гравюра* (toshga, metallga yoki yog`ochga o`yib ishlangan va bosmaxonada bosilgan rasm) so`zi fransuz tilidan olingan bo`lib, rus tilida *гравёр, гравировать* so`zlari paydo bo`lgandan keyingina uch morfemaga (*грав-юр-а*) ajratiladigan bo`ldi.

Tilning tarixiy taraqqiyoti va rivojlanishini tilning istalgan sathida mavjud bo`lib, bunda, avvalo, diaxroniya va sinxroniya hodisalarini aniq farqlanishi

lozim. Til taraqqiyotining ma'lum davrida soʻzlar qanday hosil boʻlganligini, uning dastlabki holati, soʻz yasalishi strukturasi boʻlgan oʻzgarishlarni oʻrganuvchi soha **diaxroniya** yoki tarixiy soʻz yasalishi deyiladi. Til taraqqiyotining hozirgi bosqichida soʻz yasash tizimini **sinxroniya** yoki hozirgi soʻz yasalishi oʻrganadi.

Diaxroniya va sinxroniya oʻzaro bir-biriga mos kelishi ham, mos kelmasligi ham mumkin. Chunonchi, oʻzbek tilidagi *xazinachi*, *suvchi* (Izoh: **-chi** affiksi bilan ot yasalishi turkiy tillarda qadimdan mavjud va u qadimgi yodgorliklar tilida ham aks etgan. Qarang: Mahmud Qoshgʻariy. DLT. II tom, T., 1961. 54-bet), *vafosiz*, *sensiz* (Qarang: A.Navoiy. Muhokamatul lugʻatayn. TA., III tom. T., 1948.) soʻzlarida sinxronik soʻz yasalishi strukturasi diaxronik soʻz yasalishi strukturasi mos keladi. Ammo oʻzbek tilidagi *yumsha*, *yurak*, *yuksak* soʻzlarining tuzilishi diaxronik aspektda *yum+sha*, *yur+ak*, *yuk+sa+k* shakliga ega boʻlsa-da, sinxronik aspektda bir oʻzak sifatida qaraladi. Chunki sinxronik aspektda ularning *yum*, *yur*, *yuk* soʻzlari maʼnosi bilan bogʻlanishi sezilmaydi.

Diaxronik va sinxronik soʻz yasalishi oʻzaro dialektik bogʻliqdir. Til taraqqiyotining har bir bosqichida mavjud qoliplar asosida yangi soʻzlar yasalishida yasaluvchi soʻzning boshlangʻich soʻz yasalishi strukturasi emas, oʻsha davrdagi sinxronik soʻz yasalish strukturasi muhimdir. Chunonchi, hozirda rus tilida eng sermahsul hisoblanadigan *-ник* suffiksi tarixan qayta boʻlinishga uchragan boʻlib, diaxronik aspekt uning asl shakli *-ук* boʻlganligini koʻrsatadi. Demak, *цветник*, *охотник* soʻzlarining sinxronik soʻz yasalish strukturasi diaxronik soʻz yasalish strukturasi mos kelmaydi. Biroq **-ник** suffiksi hozirda yangi soʻzlar yasashga xizmat qilmoqda: *градусник*, *плотник* kabi.

Odatda, har qanday yasalma ikki aʼzoli boʻladi: asos va formant. Birinchi yasalma bilan semantik bogʻlanishda boʻlgan qism, ikkinchisi esa farqlovchi qismdir. Masalan, *sinfdosh* soʻzining semantikasi bilan bogʻliq boʻlgan qism *sinf* va bu soʻzni farqlovchi qism *-dosh* shaklidir. Yasaluvchi soʻz bilan yasalgan soʻzning maʼnolarida bogʻlanish boʻlishi sinxronik soʻz yasalishining asosini tashkil etadi.

Tilning asta-sekin rivojlanishi va takomillashuvi maʼlum qonuniyatlar asosida yuz beradi. Til qonuniyatlari tabiat qonuniyatlaridan tubdan farqlanadi. Koʻp qirrali ijtimoiy hodisa boʻlgan tildagi barcha elementlar bir-biri bilan uzviy ravishda bogʻlanadi. Shu sababli tildagi qonuniyatlar ham oʻzaro uzviy bogʻliqdir. Til qonuniyatlari tilning ichki jihatini belgilaydi va xarakter-xususiyatiga koʻra umumiy hamda xususiy qonuniyatlarga boʻlinadi.

Barcha tillarga xos boʻlgan universal holdagi tartib va qoidalarni belgilab beruvchi qonuniyatlar **umumiy qonuniyatlar** hisoblanadi. Masalan, turkiy tillardagi singarmonizm (unlilarning uygʻunlashuvi yoki unlilar garmoniyasi) qonuniyati. Ayrim tillargagina xos boʻlgan hodisalarni izohlovchi qonuniyatlar **xususiy qonuniyatlardir**.

Til qonuniyatlarining yuzaga kelishiga tildagi ichki faktorlar ham, tashqi faktorlar ham ta'sir ko'rsatadi. Chunonchi, olimlarning fikricha, o'zbek shevalarida singlarizm hodisasining yo'qolishiga eron tillari sabab bo'lgan yoki rus tilining barakali ta'siri natijasida hozirgi o'zbek tilidan [f], [j] fonemalari mustahkam o'rin oldi va urg'u ham ko'chma tabiatga ega bo'ldi.

Til taraqqiyotidagi tashqi omillar jamiyat va til, nutqiy situatsiya, tilning boshqa tillar bilan o'zaro aloqasi va ta'siri, tir taraqqiyotida differentsiya va integratsiya hodisalari, tilning ekstralingvistik faktorlarini o'z ichiga oladi. Paralingvistika, psixolingvistika, areal lingvistika, sotsiolingvistika, ekstralingvistika singari sohalar mana shu tashqi omillarni tadqiq qiladi.

Lisoniy rivojlanishning tashqi omillari tilning **hududiy (areal), davriy, ijtimoiy va tarixiy sharoitlariga** ko'ra yuz beradi. Bunda nutq jarayoni aloqa va kontakt masalalari va vaziyatlari (situatsiya) hisobga olinadi. Tillarning o'zaro ta'siri va bilingvizm hodisasi, nutqiy iqtisod va tushunarlik qonuniyatlari o'rganiladi. Tashqi omillarning asosini- tilning ijtimoiy ahamiyati va funksiyalari, tillarning tarixiy taraqqiyotini tashkil qiladi.

Til hamisha jamiyat bilan aloqadorlikda ekan, so'zlovchilarning **ekstralingvistik omillar ta'sirida** bo'lishlari ham shu munosabatdan kelib chiqadi. Inson jamiyatda tug'ilib voyaga yetadi, kamol topadi. Demak, insoniy til ham jamiyat bilan birgalikda rivojlanishdadir. Til ijtimoiy hodisa sifatida tabiiy hodisalardan ajralib turadi. Masalan, kishilarning tabiiy biologik xususiyatlari (ovqat eyishi, nafas olishi va h.) tabiat qonunlariga muvofiq, jamiyatga bog'liq bo'lmagan holda rivojlanib boradi. Ammo tilda so'zlashish va fikrlashish uchun kishilik jamiyati (sotsial muhit) bo'lishi shart. Til nasldan-naslga, avloddan-avlodga o'tadigan irsiy hodisa emas, aksincha, til jamiyat taraqqiyotining mahsulidir. Agarda yosh go'dak kimsasiz orolga yoki hayvonlar orasiga tashlab qo'yilsa, u insoniy tildan bexabar bo'lib o'sadi (olimlar bunday tajriba o'tkazishgan yoki eslang: Maugli) yoki agar xitoy bolasi o'zbeklar orasida ulg'aya, tarbiyalansa, u faqat o'zbekcha so'zlab, ajdodi tilini bilmasligi mumkin. Lekin xitoy bolasining biologik belgilari (yuz ko'rinishi) irsiy holda o'zgarmaydi.

Til taraqqiyoti tilning yashash tarzi, mavjud bo'lishlik shartidir. Tilda hech bir narsa yo hodisa birdaniga, o'z-o'zidan sodir bo'lmaydi, lisoniy hodisa va jarayonlar til rivojlanishining ma'lum bir qonuniyatlari asosida asta-sekin, evolyutsion ravishda yuz beradi. Til taraqqiyoti uning tashqi va ichki omillariga bog'liq. Bu omillar til taraqqiyoti sistemasini, zanjirini hosil qiladi. Sistemadan har bir komponent, zanjirdagi har bir xalqa esa boshqalari bilan chambarchas, zich bog'langan bo'ladi. Tilning rivojlanishida ham har bir lisoniy omil (ichki omillar, tashqi ekstralingvistik omillar, sotsial omillar) muhim ahamiyatga ega. Mana shu obyektiv qonuniyat, munosabat tufayli tillarning rivojlanishi, o'zgarishi, taraqqiyoti sodir bo'laveradi.

Til va jamiyatning uzluksiz ta'sirini tildagi argo, jargon, tabu va evfemizmlar yoki semantik o'zgarishlar misolida kuzatish mumkin.

Tilimizda muayyan bir guruh kishilarni ishlatuvchi- "ko'kidan", "soqqa", "mullajiring", "malak", "shef", "oqidan", "kabutar" kabi so'z va tushunchalar tilga, jamiyatga oid hodisalardir. Shuningdek, tabu va evfemizmlarning paydo bo'lishi ham, ijtimoiy tafakkur, aniqrog'i irim va e'tiqodlar bilan bog'liq. Masalan, *ilon* - "arg'amchi", *pes* - "oqarmoq" kabi qo'llashlar bu yomon hodisalarning oldini olish, irim bilan bog'liq bo'lsa, *tug'moq*- "yengil bo'lmoq", "ko'zi yorimoq", "o'g'il yo qiz ko'rmoq"; *erga bermoq* - "turmushga chiqramoq" (*uzatmoq*), "baxti ochilmoq" singari qo'llashlar etika (madaniyat)ga daxldordir.

Differensiya va integratsiya jarayonlari til taraqqiyotining o'ziga xos ijtimoiy qonuniyatlari hisoblanadi. **Differensiyatsiya** – tillarning bo'linishi, farqlanishi bo'lib, til doirasidagi sheva va lahjalarning yoyilishi, tarqalishidir. Differensiya natijasida tillar qardosh tillarga yoki dialektlarga bo'linib ketadi. **Integratsiya** esa, aksincha, sheva va dialektlarning qisqarib, adabiy tilga yaqinlashuvi, uyg'unlashuvi hodisasidir. Demak, bular bir-biriga zid tushunchalar bo'lib, differensiya tillar va dialektlar sonini ko'paytirsa, integratsiya ularni qisqartiradi. Har ikkala holat ham tilning **tarixiy** va **davriy** omillariga tegishli bo'lib, lisoniy traqqiyotning o'ziga xos ijtimoiy tarixini ifodalaydi. Bu hodisalar ilm- fanda ijtimoiy mehnat nazariyasi asosida rivojlantirilgandir. Chunonchi, kishilarning dastlabki ibtidoiy to'dalari bora-bora urug'ga, so'ngra qabilaga aylangan. Bu qabilaning o'z tili (dialekti) bo'lgan. Qabila ma'lum bir ijtimoiy-siyosiy., hududiy sabablarga ko'ra bo'linib ketgach, qarindosh - urug'lar paydo bo'ladi. Endi bu qarindosh - urug'lar bir til doirasida, lekin turli sheva va dialektlarda so'zlashuvchi xalqqa aylanadi. "Yangi – yangi dialekt va tillarning paydo bo'lishida ikki faktor hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ldi: **vaqt va masofa**. Vaqt o'tgan sayin masofaning kengaya borishi yangi dialekt va tillar paydo bo'lishiga olib keladi" (Qarang: Содиқов А. ва б. Тилшуносликка кириш. Т., 1981. 212-б.).

Integratsiya jarayonini shunday tasavvur qilish mumkin: bir til doirasida mavjud bo'lgan ta'siri tufayli yo'qolib boradi; masalan, televizor va radio, ommaviy matbuot va axborot sur'atining jadallashishi, adabiy til mavqeining oshishi, barcha uslublarda, adabiy tildan foydalanish integratsiya jarayonini yanada oshiradi, uning ta'sir doirasini kengaytiradi. Chunki, har bir millat adabiy tilning mustahkamlanishi, boyishi uchun qayg'uradi va shu borada sa'y – harakat olib boradi. Xuddi shuningdek, o'zbek adabiy tilining yuksalishi va mustahkamlanishi uchun astoydil intilishimiz zarur.

Til hamisha rivojlanishdagi hodisa sifatida boshqa tillarga o'zaro ta'sir qiladi yoki tashqi ta'sirga uchraydi. Ilm-fan va texnika taraqqiyoti, savdo-sotiq, madaniy va maishiy aloqalar, hattoki, urush va bosqinlar ham tilga o'z ta'sirini

o'tkazadi. Tillar tarixiga nazar tashalydigan bo'lsak, tashqi ta'sir natijalarini ko'ra olamiz. Masalan, hozirgi o'zbek adabiy tilidagi aksariyat so'zlar arabcha va ruscha-internatsionaldir. Arablar bosqini va arab tili ta'siri, hukmronligi oqibatida tilimizga ko'plab arabcha so'zlar kirib keldi: *kitob, madrasa, ma'lum, mashhur, maktab, domla, maktub, iymon*. Arabcha leksika tilning kattagina qismini egallab olgan. Shuningdek, qardosh xalqlar bilan munosabat, savdo-sotiq va boshqalar fors-tojik, uyg'ur, xitoy tillaridan so'z o'zlashtirishga asos bo'ldi: *xona, barg, xazon, devor, zimiston, dil xhat, kulba, shahar, siyoh; manti, lag'mon, xonim* va hokazolar. Chor Rossiyasining O'rta Osiyoni zabt etishi hamda ruslashtirish oqibatida o'zbek tili leksikasida, umuman butun til tizimida kuchli ta'sir sodir bo'ldi. *Bolshevik, partiya, sovet, kommunizm, sotsializm* singari ko'rinishlar o'sha davr neologizmlari edi. *Stol, stul, papka, sumka, doska, klass, lampochka, ostanovka, dirijyor, muzikant, televizor* va hokazo so'zlar ommalashdi. Rus tili orqali inglizcha-baynalmilal so'zlar kirib keldi: *telefon, aktyor, artist, radio, kollektiv, ideya, obyekt* va boshqalar.

Bunday lisoniy ta'sir xususiyatlarini barcha tillarda kuzatish mumkin; masalan, hozirgi ingliz tili lug'at boyligidagi so'zlarning taxminan 30 foizigina sof inglizcha so'zlar, qolganlari qardosh xalqlardan, roman, fransuz yoki italyan, sharq tillaridan o'zlashgan so'zlardir. Tillarning bir-biriga o'zaro ta'siri tillarning **chatishuvi** va **bilingsizm** hodisalariga sabab bo'ladi. (Agar so'z o'zlashtirilish tilning ichki (grammatik) strukturasi ta'sir ko'rsatmasa, bu tillarning hamkorligi (языковые контакты) deyiladi, agarda bir til boshqa tilga tazyiq o'tkazib, uning ichki strukturasi o'rnashsa, bu tillarning **chatishuvi** deyiladi. Lekin bu tushunchalar ham nisbiydir. Masalan, arab xalifaligi davrida turkiyzabon va eroniy xalqlar uning tazyiqi ostida edilar. Arab tili nafaqat davlat tili, balki madaniy va diniy (ilohiy kitob "Qur'on" arab tilida bo'lganligi, hamda uni o'rganish, o'qish majburiy qilib qo'yilganligi bois mustamlaka xalqlardan arab tilining nafaqat leksikasini, balki grammatikasi va fonetik, ifodali (qiroat) o'qish malakalarini egallashlarini ham talb qilar edi) ta'sir vositasiga aylantirilgan edi. Biroq, arab tili turkiy tilga jips singganligi bilan, uning grammatik qurilishi (flektiv) turkiy tilga ko'chmagan.

Fransiyaning XI asrda Britaniya orolini bosib olishi va fransuz tili bilan anglosakson tillari orasidagi kurash natijasi chatishuvga misoldir. Fransuz tili Angliya hududida g'olib, ingliz tili esa mag'lub bo'ldi, lekin fransuz tili o'z vatanida yashar, rivojlanar ham edi. Xullas, til kurashlaridan keyin, g'oliblar o'z tillarini unutib, anglosakson tilini qabul qiladilar. Ingliz tili ham fransuz tilidagi so'zlarning ma'lum bir qismini saqlab qolib, tilning (kelgindi tilni) o'zini siqib chiqaradi. Demak, bu yerda superstrat hodisasi, ya'ni kelgindilar tilining mahalliy tilga ta'siri sodir bo'lishi, lekin uni siqib chiqarolmasligi yuz bergan.

Bilingsizm ikki tillilik demakdir. Turkiy xalqlar uchun ikki tillilik ularning butun tarixiy taraqqiyoti davomida va barcha hududlarda tarqalishi doimiydir.

Ancha intensiv ifodalangan ikki tillilikning qadimiy davrdagi ko‘rinishlari turkiy-mo‘g‘ul, turkiy - fin-uyur va turkiy – fors, turkiy- arab bo‘lib, ularning o‘zaro ta‘sirini ko‘rsatuvchi xususiyatlar hozirgi davrgacha saqlanib qolgan. Bu ta‘sir bir tomondan, Sibir va Volga bo‘yi turkiy tillarida, boshqa tomondan O‘rta Osiyo va Kavkaz turkiy tillarida hozirgacha ko‘rinadi. Sovet ittifoqi davrida turkiy-rus bilingvizmi bu davr tilining asosini tashkil etdi. Bilingvizm shevalararo ham bo‘lishi mumkin: masalan, Buxoro shevasida tojik-o‘zbek ikki tilligi mavjud.

Tillarning o‘zaro ta‘siri tufayli tilning fonetik, leksik va grammatik tizimida ma‘lum o‘zgarishlar sodir bo‘lishi mumkin. Rus tili ta‘sirida o‘zbek tili tizimida sezilarli o‘zgarishlar ro‘y berdi: ruscha- internatsional so‘zlar kirib keldi, kalkalash va terminologiya rivojlandi, dublet so‘zlar va variantlar paydo bo‘ldi, har xil tarkibli so‘z va iboralar paydo bo‘ldi: *sovxoz, qishloq xo‘jaligi*. Bu jarayonlar o‘zbek tili leksik strukturasi o‘zgartirdi.

Fonetik strukturada esa, ru tili va boshqa tillardan (fors - tojik, tatar, boshqird, arab) o‘zlashgan fonemalar ham uchraydi: masalan, lab, tish fonemalar – [v], [f], affrikatlar - [ɥ], [ɣ], sirg‘aluvchilar – [x], [sh], ba‘zi tillarda – [o], [e] (tatar, boshqird) unlilari.

Sintaksis sohasida birmuncha jiddiy oqibatlar kuzatildi. Jumladan, rus va hind-evropa tillari uchun xos bo‘lgan gap strukturasi zo‘rma-zo‘rakilik bilan o‘zbek tiliga tiqishtirildi, chunonchi, bosh bo‘laklar, bir sostavli va ikki sostavli gaplar kabi. Birgina – *Mevalar terildi* gapining shaxssiz gap sifatida talqin qilinishi (mantiqiy subyektga tayanilib) o‘zbek tili sintaksisida g‘ayrimilliy, noto‘g‘ri oqibatlar yuzaga kelganligini ko‘rsatadi.

Ma‘lumki, til g‘oyatda murakkab va serqirra hodisadir. Til insonning bevosita kuzatishi va mustaqil ilmiy izlanishlari uchungina mavjud emas. Aslida til insonning nutq faoliyati bilan chambarchas bog‘lanib, so‘zlashish, eshitish, yozish va o‘qish kabi murakkab protsesslarni o‘z ichiga oladi. Bu jarayonlar faqat tilshunoslikda emas, balki boshqa fanlarda ham o‘rganiladi. Shunga ko‘ra, inson tili mustaqil obyekt sifatida bir necha fanlarning predmetini tashkil etadi.

Tilshunoslik til bo‘yicha tadqiqotlar olib borganda, boshqa fan materiallariga ham suyanadi. Ayni paytda boshqa fanlar ham til materiallaridan foydalanadi. Umuman, tilshunoslik boshqa fanlar bilan uzviy aloqadordir.

Tilshunoslik fanining boshqa fanlar bilan aloqasi. Tilni tilshunoslik bilan bir qatorda falsafa, psixologiya, sotsiologiya, mantiq kabi fanlar ham o‘rganadi. Tilni o‘rganishda ishtirok etadigan har bir fanning tilga nisbatan o‘z munosabati bor. «Tilshunoslikka kirish» kursini chuqur egallashni istagan talaba, albatta, shu fanga yondosh bo‘lgan sohalardan ham yaxshigina xabardor bo‘lmog‘i lozim. Jumladan, **falsafa** tilshunoslikning metodologiyasini belgilab berar ekan, falsafani o‘rganmagan kishi tilshunoslik uchun xarakterli bo‘lgan analiz tamoyillari va metodlarini tushuna olmaydi. Dialektika qonuniyatlarini

bilmagan «til o`rganuvchi» til va nutq faoliyatiga sistema sifatida yondasha olmasligi aniq. Yohud til-fikr ifodalash quroli, fikr esa mantiq fanining o`rganish obyekti ekanligini hisobga oladigan bo`lsak, logik kategoriyalarni bilish naqadar muhim ekanligini izohlashga hojat yo`q. Bu **sotsiolingvistika** fanining yuzaga kelishiga asos bo`ldi.

Tilshunoslikning **psixologiya** (inson ruhiy jarayonlarining qonuniyatlarini o`rganadigan fan) bilan bog`liqligini lingvistikaning nisbatan yangi sohasi **psixolingvistika** o`rganadi. Tilshunoslik **tarix**, **pedagogika** fanlari bilan ham uzviy aloqadordir. So`zlarning tarixini, tilning lug`at boyligini o`rganishda tarix tilshunoslikka katta yordam beradi. Sababki, til urug` va qabila, elat hamda millat tarixi bilan chambarchas bog`liq. Shunga ko`ra kishilik jamiyatining tarixi tilda o`z aksini topadi.

Tilshunoslik va tarixning bog`lanishi ikki tomonlama bo`lib, tarix materiallari til taraqqiyotini o`rganish uchun, til faktlari tarix uchun muhimdir. Ushbu fan **arxeologiya**, **etnografiya**, **shuningdek**, **adabiyotshunoslik** bilan ham zich bog`langandir. Zero, tilshunoslik bilan adabiyotshunoslik **filologiyani** tashkil etadi.

Тилни тилшуносликдан ташқари фалсафа, мантиқ каби бошқа фанлар ҳам ўрганadi. Маълумки, тафаккурга дахлдор масалалар мантиқ илмининг мавзусидир. Шу туфайли мантиқчилар тафаккур қонуниятлари билан бирга, фикрнинг тилда акс этишини ўрганмасликлари мумкин эмас. Ундан ташқари, тил ва тафаккур бир-бири билан узвий боғланган, бири – иккинчисисиз яшай олмайдиган ҳодисадир, тафаккур тилда яшайди, ҳар қандай нутқ асосида эса тафаккур ётади. Мантиқ тилни ана шу йўналишда ўрганadi.

Тилшуносликда замонавий йўналишлар. Тилшунослик тилнинг пайдо бўлиши ва ривожланиши, тил ва тафаккур, тил ва жамият ўртасидаги муносабатлар, тилнинг жамиятдаги ўрни, ички тузилиши – тилнинг таснифи, уни таҳлил қилиш усуллари ва шу каби масалаларни ўрганadиган фандир. Тилнинг пайдо бўлиши ва ривожланиши жамият тараққиёти билан боғлиқлиги туфайли тил социологлар томонидан ҳам ўрганилади. Жамият тарихий тараққиёти жараёнида содир бўлган воқеа ва ҳодисалар тилда акс этмай қолмайди.

Социоллингвистика ёки ижтимоий лингвистика тилшуносликнинг янги босқичи бўлиб, “тил ва жамият” мавзусининг ташкилий қисмидир. Олимлар тилнинг кишилиқ жамиятида тутган ўрни нақадар муҳим эканини кўрсатиб, тил кишиларнинг энг муҳим алоқа воситасидир деб таърифлайдилар. Тил якка-ю ягона алоқа воситаси эмас. Алоқа бошқа воситалар орқали ҳам ўрнатилиши мумкин. Масалан: Морзе алфавити, имо-ишоралар, Африкада узoқ масофага ахборот бериш учун қўлланиладиган ноғора товушлари, Канар оролларида ишлатиладиган «Хуштак-тили»

шулар жумласидандир. Лекин бу воситалар тилга нисбатан ёрдамчи, иккинчи даражалидир. Тил ва бошқа алоқа воситалари орасида ўхшашлик ва фарқлар мавжуд. Бу воситаларни бир-бири билан бирлаштирадиган хусусиятлар қуйидагилар:

- фикр ва ҳиссиётларни ифода қилади;
- ижтимоий, чунки жамият томонидан яратилиб, унга хизмат қилади;
- моддий (товуш тўлқинлари, график чизмалар ва бошқа воситалар орқали амалга оширилади);
- объектив борлиқни акс эттиради.

Улар ўртасида қуйидаги фарқлар бор:

- тил фикр ва ҳиссиётларни ифода қилувчи восита. Инсон уни барча фаолиятида қўллайди. Бошқа алоқа воситаларининг ишлатилиш қўлами чекланган, масалан, кўча ҳаракати белгилари асосан ҳайдовчиларга хизмат қилади, бошқа ерда ишлатилмайди;

- тил куруқ ахборотнинг ўзинигина бир шахсдан иккинчи шахсга етказмасдан, балки гапирувчининг бу ахборотга муносабатини, унинг хоҳиш-истаги ва баҳоси, руҳий ҳолатини акс эттиради;

- тилдан бошқа барча сигнал системалари сунъийдир. Улар одамлар томонидан яратилади ва шароитга кўра ўзгартирилиши мумкин. Сунъий воситаларнинг яратилишида одамларнинг ҳаммаси эмас, балки мазкур соҳани яхши билувчи кичик бир гуруҳ иштирок этади. Тил эса одамларнинг истак-хоҳишларига боғлиқ бўлмайди, уни жамият аъзолари ўз ихтиёрлари билан ўзгартира олмайди.

Тил асрлар давомида жамиятга хизмат қилади, уларнинг эҳтиёжларини тўла-тўқис бажаради, гарчанд тил ўзгарувчан ҳодиса бўлса-да, у фақат ўзининг ички объектив қонунлари асосида ривожланади. Шу билан бирга шуни ҳам қайд қилиш керакки, жамият бўлмаса, тил бўлмайди; жамият тилни кундалик ҳаётида қўлламаса, у (тил) ривожланмайди. Демак, тил ва жамият доимо бир-бирини тақозо этади. Бошқа сигнал тизимлари тилга нисбатан иккиламчи, унга қўшимча восита сифатида намоён бўлади, тилни тўлдиради.

Шундай қилиб, тил ўзига хос семиологик система (яъни ишоралар системаси) бўлиб, жамиятда асосий ва энг муҳим фикр алмашиш қуроли, жамият тафаккурининг ривожланишини таъминловчи, авлоддан авлодга маданий-тарихий мерос ва анъаналарни етказувчи восита хизматини ўтайди.

Социолингвистика фанлараро вужудга келган янги, мустақил йўналиш бўлиб, тилшунослик ва бир қатор фанлар: социология, ижтимоий психология, этнография каби ўзаро боғланган фанлар туташи негизида вужудга келгандир. Ижтимоий тилшунослик бўйича бир қатор асарлар илмий тадқиқотлар яратилган. Социолингвистика муаммолари бугунги

куннинг долзарб масалаларидан бири бўлиб, тилшунослар ва социологларнинг халқаро анжуманларида, конференцияларида, симпозиумларида кенг муҳокама қилинмоқда. Бу йўналишга бўлган қизиқиш барчанинг диққатини ўзига тортмоқда. Бир томондан тил қурилиши ва тил сиёсати ўзига эътиборни жалб қилса, иккинчи томондан – тизимли лингвистиканинг ички қонун-қоидалари, ижтимоий ҳодисалар билан боғлиқлик жараёни тилшуносларнинг эътиборини ўзига тортмоқда.

Бу соҳа нафақат тилшуносларни, балки социологлар, файласуфлар, психологлар, этнографлар ва шунга яқин мутахассисларда қизиқишни вужудга келтирмоқда. XIX аср охиридаёқ тилшуносликни психологик ва состиологик руҳда қайд қилган Бодуэн де Куртенэ “Тилда рухий ва ижтимоий далиллар ҳаракатда бўлиши сабабли тилшунослик учун ёрдамчи фан сифатида дастлабки ўринда психологияни ва ундан кейин инсонларнинг жамиятдаги мулоқот мунособатлари ҳақидаги фан – социологияни танлаймиз”, деган эди.¹⁰

Когнитив тилшунослик. Тил тизими ва инсоний фаолиятни ҳар томонлама тадқиқ қилиш, уларга хос ҳодисаларнинг белги-хусусиятларини батафсил ёритиш учун тилшуносликнинг турли соҳаларини бириктирадиган, уларнинг барчаси учун бир хилда таянч нуқтаси хизматини ўтайдиган умумлашган таҳлил тизимини топиш масалалари олимлар олдидаги долзарб муаммо бўлиб, XIX асрнинг охиридан бугунги кунгача ўзининг аниқ ечимини топганича йўқ. Бу таҳлил тизими тўғрисида олим Бодуэн де Куртенэ кўп бор таъкидлаган эди.¹¹

Когнитив таҳлил – лингвистик таҳлилнинг бир тури, унинг маълум бир кўринишида намоён бўлишидир. Тилшуносликнинг психология, социология, маданиятшунослик, лингвокультурология каби соҳалар билан ҳамкорлиги когнитив фаолият асосида воқеаланувчи ҳодисадир. Когнитив лингвистика ҳам инсоннинг билиш фаолияти билан шуғулланадиган фанлар таркибига киради. Когнитив тилшунослик атамасининг мазмуни лотинча *cogniscere* - билишга оид” сўзи билан боғлиқ (Қиёсланг; *cognire* – билмоқ, англамоқ, тушунмоқ; *sonition* – билим). Дунёни, воқеликни билиш, уларни идрок этиш оддий ҳодиса эмас. Шу сабабли билиш фаолияти ҳақида гап кетганда, вақтинчалик *cognitation* (лотинча), яъни ақл тафаккур ҳодисасини тасаввур қилиш билан чегараланмасдан, балки *cognition* - тафаккур фаолияти шахсни ҳамда бу фаолият билан боғлиқ бўлган барча турдаги номинал (ижтимоий, маданий, инсоний) ҳодисаларни ҳам инобатга олиши керак бўлади.

¹⁰ И.А Бодуэн де Куртенэ. Языкознание /В кн. «Избранные труды по языкознанию»./.- М.: Из-во АН ССР, 1963.

¹¹ И.А Бодуэн де Куртенэ. Ўша манба. - М.: Из-во АН ССР, 1963. – Б. 217.

Билим инсоннинг онгли фаолияти замида шаклланади. Айнан инсоний билим лингвокогнитив таҳлил сифатида танланиши бежиз эмас. Билим – инсон хотирасида сақланган тизимлаштирилган маълумотлар тўпламидир. Тил ва тафаккур муносабатлари масаласининг фалсафа, тилшунослик ва психология фанлари доирасида батафсил муҳокома қилиниши когнитив тилшунослик тараққиёти учун мустаҳкам замин яратди. Когнитив тилшунослик мажмуавий тадқиқот йўналиши бўлиб, у тилшунослик ва психологиядан ташқари сунъий интеллект назарияси психоллингвистика, нейролингвистика каби фанларга оид илмий ёндашувларни ҳам умумлаштиради.

Когнитив тилшунослик лисоний қобилиятнинг таркиб топишини тушунтирадиган фан ҳисобланади. Концепт ҳам тафаккур бирлиги ва унинг асосида тушунча образ ва инсоний маъно умумлашмаси ётади. Концептнинг шаклланиши индивидуал образ туғилишидан бошланиб, инсоний бирликнинг пайдо бўлиши билан тугайди. Концепт + ментал тузилма бўлиб, у турли таркибдаги ва кўринишдаги билимлар кванти ёки умумлашмасидир. Концептлар инсон онгида шаклландиган турли категорияларнинг асосини ташкил қилади ҳамда улар учун таянч нуқта бўлиб хизмат қилади. Концептнинг гуруҳланишида уларнинг инсоний ифодаланиш услубларига таянилади. Концептда ҳам тафаккур бирлиги ва унинг асосида тушунча образ ва инсоний маъно умумлашмаси ётади. Концептнинг шаклланиши индивидуал образ туғилишидан бошланиб, инсоний бирликнинг пайдо бўлиши билан тугайди.

Тилшуносликда когнитология фанининг шаклланишида асос ёки пойдевор бўлиб хизмат қилган уч соҳа: 1) инсонларга хос топшириқларни бажариш қобилиятига эга бўлган компьютер дастурларининг яратилиши; 2) когнитив психологияси доирасида билиш фаолиятининг руҳиятига оид томонларнинг чуқур ўрганилиши; 3) генератив грамматика назариясининг тараққий этиши ва ушбу назария билан боғлиқ лингвистик йўналишлар пайдо бўлди.¹²

Когнитив тилшунослик соҳаси 1956 йилнинг 11 сентябрида Массачусет технология институтида ўтказилган симпозиумда ташкил топган, унда учта масала кўриб чиқилган. Биринчи маъруза Шарль Миллер томонидан қилиниб, унда инсоннинг эслаб қолиш қобилияти бўйича 7+2 сеҳрли сон қабул қилинган (яъни инсоннинг эслаб қолиш қобилиятининг меъёридир), иккинчи маъруза тилнинг уч модели тилшунос Ноим Хомский томонидан тақдим этилди. Учинчи маъруза сунъий интеллектга боғланган бўлиб, унинг соҳиби психолог Ален Ньюэм ва иқтисодчи Хейберг Хаймонлар эдилар.

¹² Миллер Ж. Магическое число семь плюс и минус два. О некоторых пределах нашей способности перерабатывать информацию // Инженерная психология. М.Прогресс. 1964.

Худди шу маърузаларда когнитив тадқиқот мустақил фан сифатида когнитив тилшунослик ақлий тасаввур қоидаларига таянган ҳолда, табиий тил тизимини “қайта ишлаш” назарияси асосида вужудга келган. Демак, билиш фаолияти ахборот маълумотини қабул қилиш, тақдим этиш ва яратиш ижроси инсоният заҳираларидан озуқа олади, бевосита ёки билвосита инсон билан алоқада бўлади ва инсоннинг билиш қобилияти билан ҳамоҳангдир.

XX асрнинг бошларида олмон файласуфи (кейинчалик АҚШ да яшаб ижод қилган) Эрнест Кассирер инсоннинг билиш фаолиятига предметларнинг ички ёки ташқи моҳиятини акс эттирувчи ҳодиса сифатида қаралиш лозимлигини уқтирди. Олимларнинг “тил-белгилар тизимидир” деган таълимоти бугунги кунда ўзининг янги таянчини талаб қилмоқда. Масалан, тилшунос Ю.Н. Карауловнинг фикрича семантика ва гносеология (маъно ва уни билиш) ўртасида билвосита алоқа, яъни улар ўртасида оралик босқич бор. Бу босқичда образ, гештальт (немисча Gesthalt шакл, образ, структура маъноларини англатади), фрейм, пропозиция, формула каби намунавий бирликлар юзага келади, энг асосийси – айнан шу босқичда “оралиқ тил” фаолият кўрсатади. Оралиқ тил Ю.Н. Карауловнинг фикрича, интеллектуал фаолият ва унинг инсоний воқеаланиш жараёнида юзага келади ва товушли, ташқи нутқ ва мия (онг)нинг ўзига хос тили оралиқидан ўрин олади. Оралиқ тилнинг вазифасини Ю.Н. Караулов унинг биологик, физик – кимёвий табиатида эга бўлган мия тили (яъни нейронлар муносабатлари тили) ва инсоннинг ҳақиқий тили – табиий тили ўртасидаги воситачиликда кўради. Соф маънода тафаккур тили сифатида эътироф этилаётган ушбу ҳодисанинг воситачилик вазифаси унинг тафаккурда ҳосил бўлган билимининг инсоний мазмунига айланувчи воситаси ролида хизмат қилишида кўринади. Бундан ташқари, оралик тили, образлар воситасида мия ўнг яримшарлари ёки ёрқин лисоний ифода кучига эга бўлган чап ярим шарлари фаолиятларини “ўзаро боғловчи қатлам вазифасини ўтайди. “Унинг фикрича, тафаккур фаолиятига нисбатан белгили воситалари тушунчасини қўллаш нотўғридир”. Белги фақатгина оралик тилдан ташқи, табиий тилга ўтгандан кейин ва фақатгина ижтимоий “либосга” киргандан сўнггина ўзининг шаклий зарбини олади, белгига айланади”¹³ Бу масаланинг ечимини топиш когнитив тилшуносликнинг тараққиёти учун ҳам муҳимдир.

Математик лингвистика. Ҳар қандай фан математика билан чамбарчас боғлиқ бўлгандагина юксак мақсадларга эриша олади. Тилшунослик ҳам ундан мустасно эмас. Шунинг учун ҳам XX асрнинг ўрталарига келиб, тилшуносликда бир қатор лингвистик тушунчаларни аниқлаштиришга бўлган эҳтиёжни

¹³ Ш.Сафаров. Ўша асар. 28-29 бетлар.

қондириш мақсадида математик лингвистика номи билан юритилувчи алоҳида йўналиш майдонга келди. Муайян математик аппаратлардан фойдаланадиган лингвистик тадқиқот усули математик лингвистика деб юритилади

Назорат саволлари

1. Тилнинг тарихий тараққиётида қандай ҳодисалар юз беради?
2. Тил ривожланишининг ички қонуниятлари нималардан иборат?
3. Тил ривожланишининг ташқи омилларига нималар киради?
4. Тилларнинг бошқа фанлар билан алоқаси тўғрисида нимани биласиз?
5. Билингвизм ва полилингвизм ҳақида гапириб беринг.
6. Тилшуносликка ёндош ва алоқадор соҳалар қайсилар?
7. Социолингвистика фани нимани ўрганади ва қайси фанлар билан алоқадор?
8. Когнитология қайси масалалар ўрганилади?
9. Когнитология қайси фанлар билан ўзаро боғлиқ?
10. Когнитив лингвистиканинг асосчилари кимлар?

Таянч ва асосий тушунчалар

Differensiya – tillarning bo‘linishi, farqlanishi bo‘lib, til doirasidagi sheva va lahjalarning yoyilishi, tarqalishi.

Integratsiya - sheva va dialektlarning qisqarib, adabiy tilga yaqinlashuvi, uyg‘unlashuvi hodisasi.

Soddalashuv - so‘zlarni qo‘shish yo‘li bilan yasalgan qo‘shma so‘zlarning tub so‘zlarga yoki o‘zakka, ko‘p morfemali so‘zning bir morfemali so‘zga o‘tish hodisalari.

Qayta bo‘linish - so‘zdagi morfemalar chegarasining o‘zgarishi natijasida yangi affixal morfemalar paydo bo‘lishi.

Murakkablashuv - avval tub deb hisoblangan so‘zlarning yasama yoki murakkab so‘zlar qatoriga o‘tishi

Diaxroniya nil taraqqiyotining ma‘lum tarixiy davrida so‘zlar qanday hosil bo‘lganligini, uning dastlabki holati, so‘z yasalishi strukturasi bo‘lgan o‘zgarishlarni o‘rganuvchi sohadir.

Sinxroniya til taraqqiyotining hozirgi bosqichida so‘z yasash tizimini o‘rganuvchi sohadir.

Социолингвистика – ижтимоий лингвистика, тилшунослик ва бир қатор фанлар: социология, ижтимоий психология, этнография каби ўзаро фанлар негизда вужудга келган янги, мустақил йўналиш.

Билингвизм – икки тиллилик, **полилингвизм** – кўп тиллилик ҳодисаси.

Когнитология – (лотинча *cognire* – билмоқ, англамоқ, тушунмоқ; *sonition* – билим) билиш, билиш тўғрисидаги фан/

Концепт ментал тузилма бўлиб, у турли таркибдаги ва кўринишдаги билимлар кванти ёки умумлашмасидир.

Когнитив тилшунослик тил тизими ва инсоний фаолиятни ҳар томонлама тадқиқ қилиш, уларга хос ҳодисаларнинг белги-хусусиятларини батафсил ёритиш учун тилшуносликнинг турли соҳаларини бириктирадиган, уларнинг барчаси учун бир хилда таянч нуқтаси хизматини ўтайдиган умумлашган таҳлил тизими.


Математик лингвистика – муайян математик аппаратлардан фойдаланадиган лингвистик тадқиқот усули.

Тавсия этиладиган адабиётлар

1. Аврорин В.А. Проблемы изучения функциональной стороны языка (к вопросу о предмете состиолингвистики). – Санкт-Петербург, «Наука», 1975.
2. Швейстер А.Д. Современная состиолингвистика. Теория, методы, проблемы. - М., 1976.
3. Дешериев Ю.Д. Состиальная лингвистика. К основе общей теории. - М., «Наука», 1977.
4. Исаев М.И. Социолингвистические проблемы языков народов СССР. - М., Высшая школа. 1982.
5. Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. - Жиззах, 2006.
6. Демьянков В.О. Когнитивная лингвистика как разновидность интерпретирующего подхода. В.Я. №4. –М.,1994.
7. Расулов Р. Умумий тилшунослик. – Т.: 2006.

ВИЗУАЛ МАТЕРИАЛЛАР

1-савол. Тилшуносликнинг бошқа фанлар билан боғлиқлиги



2-савол. Социолингвистика ва лингвопрагматика



3-илова

Социолингвистика фақат тилшунослик ва жамиятшунослик фанлари орасидаги муносабатларни эмас, балки фалсафани, ижтимоий психология ва этнографияга оид масалаларни ҳам қамраб олади


Прагматика – инсон ўз мақсадларига табиий тил (нутқ фаолияти) орқали эришиши (тил бирликларининг фойдалилик даражаси)ни ўрганеди.

3-савол. Психоллингвистик муаммолар

Психологик тилшунослик фанининг предметини 2 қисмга бўлиш мақсадга мувофиқдир:

- хозиргача кўрилган тилга оид масалаларни психология нуқтаи назардан қайта кўриб чиқиш;
- соф психологик тилшунослик масалалари

4-илова




4-савол. Концепт тушунчаси

5-илова

Концепт – ментал тузилма бўлиб, у турли таркибдаги ва кўринишдаги билимлар кванти ёки умумлашмасидир (Кубрякова ва бошқалар. 1996, 90). Концептлар инсон онгида шаклланадиган турли категорияларнинг асосини ташкил қилади, улар учун таянч нуқта бўлиб хизмат қилади. Одатда, концептнинг умумий хусусиятлари сифатида унинг ички тузилиш жиҳатидан аниқ кўринишга эга эмаслиги қайд қилинади, бироқ бу қайд унчалик ҳақиқатга яқин эмас.

Лисоний фаолият когнитив таҳлил назариясининг таянч тушунчалари бўлган ахборотни жамлаш ва қайта ишлаш, билим захираси, когнитив қолип, концептуал тизим кабилар эканлиги айтиб ўтилди. Ушбу тушунчалар ўзаро муносабатда, зеро, улардан бири амалга ошиши учун иккинчиси шаклланган бўлиши керак. Дарҳақиқат, билимни жамлаш ва сақлаш учун ўзлаштирилган билим когнитив қолипга биноан ихчамлаштирилиши зарур. Когнитив қолиплар (концепт, образ) бўйича билимни ихчамлаштириш учун шу концептуал тизим бирликлари (фрейм, скрипт, сценарий, гештальт кабилар) тусини олмоши даркор.



Когнитив тилшуносликнинг мазмуни

“билишга оид” сўзи билан боғлиқ

Когнитив тилшуносликнинг асосий вазифаси ва мақсади тил системасининг инсонларнинг ўраб турган муҳитни, инсоният тарихи ва маданиятини, урф-одатларини ўрганишда, англаб олишдаги иштирокини аниқлаш, инсон онгидаги мавжуд тажрибага суяниб, тўпланган билимни маълум тартибга тушириш, уни бошқаларга узатишда воситачилик қилаётган тилнинг ролини тадқиқ этишдир.

6-савол. Математик лингвистика

Ҳар қандай фан математика билан чамбарчас боғлиқ бўлгандагина юксак мақсадларга эриша олади. Тилшунослик ҳам ундан мустасно эмас. Шунинг учун ҳам XX асрнинг ўрталарига келиб, тилшуносликда бир қатор лингвистик тушунчаларни аниқлаштиришга бўлган эҳтиёжни қондириш мақсадида математик лингвистика номи билан юритилувчи алоҳида йўналиш майдонга келди.

Муайян математик аппаратлардан фойдаланадиган лингвистик тадқиқот усули математик лингвистика деб юритилади.

Адабиётлар рўйхати

1. Головин Б.Н. Введение в языкознание. М, 1977.
2. Ирискулов М. Тилшуносликка кириш. Т., 2008.
3. Каримов Ш.К. Тилшуносликка кириш.. Т, 1997.
4. Кодухов В.И. Введение в языкознание. М, 1979.
5. Маслов Ю.С. Введение в языкознание. М, 1975.
6. Абдуазизов А.А. Тилшуносликка кириш II қисм. Лексикология ва семасиология. Грамматика. Т. – 1999.
7. Сусов И.П. Введение в теоретическое языкознание. Тверь, 1999.
8. Хрестоматия по курсу "Введение в языкознание". М., 1997.
9. Языкознание. Большой энциклопедический словарь. М., 1998.
10. Расулов Р. Умумий тилшунослик. Т. – 2006.
11. Мирзаев М., Усманов С., Расулов И. Ўзбек тили Т. – 1967.
12. Сусов И.П. Введение в теоретическое языкознание. Тверь, 1999.
13. Реформатский. Введение в языкознание. – 2005.
14. Маслов Ю.С. Введение в языкознание. М. – 1975.
15. Широков О.С. Введение в языкознание. М. – 1985.
16. Каримов Ш.К. Тилшуносликка кириш курсидан практикум. Тошкент – 1997
17. Звегинцев В.А. История языкознания XIX - XX веков в очерках и извлечениях. М. – 1964.
18. Қўчқоров И., Қўчқорова Р. Тилшуносликка кириш. Т. – 1976
19. Баранов А.Н. Введение в прикладную лингвистику. М. – 2001.
20. Гумбольдт В. Избранные труды по языкознанию. М. – 2000.
21. Зиндер Л.Р. Введение в языкознание: Сб. задач. М. – 1998.
22. Хрестоматия по курсу "Введение в языкознание". М. – 1997.
23. Языкознание. Большой энциклопедический словарь. М. – 1998.
24. Кибрик А.Е. Очерки по общим и прикладным вопросам языкознания. М. – 1992.
25. Мечковская Н.Б. Умумий тилшунослик, тилларнинг тузилмавий ва ижтимоий типологияси. Т. – 2006.
26. Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. Жиззах. «Сангзор» - 2006.

Интернет:

1. www.susov.ru
2. www.ziyo.net
3. www.google.uz
4. www.tdpu.uz
5. www.pedagog.uz
6. www.edu.uz